ISSN 2181-2160
JIFactor: 8.2



RESPUBLIKA ILMIY-USLUBIY JURNALI

# TA'LIM FIDOYILARI

JIFACTOR: 8.2

2025

- PHILOLOGICAL SCIENCES
- PEDAGOGICAL SCIENCES
- SOCIAL SCIENCES AND HUMANITES
- EXACT SCIENCES
- NATURAL SCIENCES
- ECONOMICS
- ART AND CULTURE
- MEDICAL SCIENCES

OPEN ACCESS

doi




ISSN:2181-2160

+998 97 277 78 01
WWW.REANDPUB.UZ
INFO@REANDPUB.UZ

R.A.P

CYBERLENINKA BASE OpenAIRE Google Scholar

ISSN 2181-2160
JIFactor: 8.2



# «TA'LIM FIDOYILARI»

# ILMIY-USLUBIY JURNALI

## BARCHA SOHALAR BO'YICHA

5-SON, 1-JILD MAY 2025 - YIL 1-QISM

WWW.MAQOLA.REANDPUB.UZ

ISSN 2181-2160
JIFactor: 8.2
TA'LIM FIDOYILARI

EDITOR IN CHIEF
ABDURAHMONOV ABDUSHOKIR ABDUKARIMOVICH
PREPARING FOR PUBLISHING
HAKIMOVA AZIZA XAYDARALIYEVNA

BOSH MUHARRIR
ABDURAHMONOV ABDUSHOKIR ABDUKARIMOVICH
NASHRGA TAYYORLOVCHI
HAKIMOVA AZIZA XAYDARALIYEVNA

TA'LIM FIDOYILARI
ILMIY-USLUBIY JURNALI

## TAHRIR KENGASH A'ZOLARI

**Azimov Jumanazar Turg'unovich**
O'zbekiston Respublikasi Qurolli kuchlari Akademiyasi dosenti. Fizika-matematika fanlari falsafa doktori. PhD.

**Dr. Israilov Mamarakhim**
Doctor of Philosophy (Ph.d) Technics., Associate professor of the Department of "Natural Sciences" of the Academy of Armed Forces of the Republic of Uzbekistan

**Maksudova Firuza Xurshidovna**
Toshkent farmatsevtika institutining «Dori vositalarining sanoat texnologiyasi» kafedrasi mudiri

**Kojikbaeva Ziyada Adilbaevna**
Qoraqalpoq davlat universiteti Jurnalistika kafedrasi dotsenti

**Allaberganova Gulchehra Masharipovna**
**Navoiy davlat konchilik va texnologiyalar universitetining "Umumiy fizika" kafedrasi dotsenti**

**Shamshiyeva Hulkar**
Toshkent shahri Olmazor tumani Abdulla Qodiriy nomidagi ijod maktabi matematika o'qituvchisi

**Soliyev Hayitboy Mirzadavlatovich**
Namangan muxandislik-qurilish instituti Transport fakulteti Transport logistikasi kafedrasi, texnika fanlari bo'yicha falsafa doktori PhD, dotsenti

**Ustaboyev Abdullo Raximjonovich**
Namangan muxandislik-qurilish instituti Transport fakulteti Transport logistikasi kafedrasi, texnika fanlari bo'yicha falsafa doktori PhD, katta o'qituvchi

**Matyakubova Yulduzxon Amanbayevna**
Urganch davlat Universiteti Tabiiy fanlar fakulteti Biologiya kafedrasi, qishloq ho'jaligi fanlari nomzodi, dotsent

**Mirzabdullaeva Gulnora Muxammadjon qizi**
**Namangan muhandislik-qurilish instituti menejment kafedrasi assistenti**

**Berdikulov Sirojjon Nasipkulovich**
Academy of the Ministry of internal affairs of the Republic of Uzbekistan Social-Humanitarian professor of the Department of Sciences, Doctor of philosophy, professor

**Shukhrat Batirovich Djabbarov**
Ph.D. (Tech.), Department of "Wagons and wagon facilities", Tashkent State Transport University

**Shokirova Havasxon Nurmamatovna**
Farg'ona xalq ta'limi boshqarmasi Ta'lim markazi direktori

**Baratova Maxbuba Mubinjanovna**
O'zbekiston davlat jahon tillari universiteti dotsenti, falsafa fanlari nomzodi, dotsent

**Dauletmuratova Zamira Usnatdinovna**
Qoraqalpoq davlat universitetining Qoraqalpoq tilshunosligi kafedrasining assistent-o'qito'vchisi

**Nasirova Nilufarxon Kabildjanovna Dotsent,**
Kimyo fanlari falsafa doktori( PhD), Toshkent davlat agrar universiteti Qishloq xo'jaligi biotexnologiyasi, standartlashtirish va sertifikatlash kafedrasi

**Xakimniyazov Jolmurza Xojabekovich**
Qoraqalpoq Davlat Universiteti Tarix fakulteti Tarix fanlari nomzodi docent

**Qodirov Ziyoidin Mamadalievich**
Andijon davlat universiteti o'zbek tilshunosligi kafedrasi katta o'qituvchisi

**Alimjon Tojiev Mo'ydinovich**
Andijon davlat universiteti o'zbek tilshunosligi kafedrasi dotsenti

**Tojiboeva Gulxumor Raxmonjonovna**
Andijon davlat universiteti umumiy psixologiya kafedrasi katta o'qituvchi

**Yunusova Gulshod Nazixovna**
Namangan davlat universitetining «Amaliy matematika va axborotlartexnologiyalari» kafedrasi katta o'qituvchisi

**Ergashev Bobirjon Boxodirovich**
Pedagogik innovatsiyalar, kasb-hunar talimi boshqaruv hamda pedagog kadrlarini qayta tayyorlash va ularning malakasini oshirish instituti Malaka oshirish va qayta tayyorlash fakulteti dekani

**Abdugapparov Farkhod Sultonakhmadovich**
PhD, Senior Lecturer, Department of Chemistry, Andijan State University, Republic of Uzbekistan.

**Nabieva Saidaxon Abduvaxabovna**
Toshkent davlat texnika universiteti Sanoat iqtisodieti va menejmenti kafedrasi dotsenti (PhD)

**ZAKIROVA RUXSONA YUNUSOVNA**
Toshkent farmatsevtika institutining Dori vositalarining sanoat texnologiyasi kafedrasi v/b dotsenti

**Raxmatullaeva Gulnora Kutbitdinovna**
TTa nevrologiya va tibbiy psixologiya kafedrasi dotsenti

**Achilova Sanobar Sabirovna**
Urganch davlat universiteti kimyoviy texnologiyalar fakulьteti Ozik ovkat kafedrasi dotsenti

**Turakulov Ibroxim Ravshanovich**
O'zbekiston-Finlandiya pedagogika instituti Aniq-tabiiy va jismoniy madaniyat fakulteti Sport turlarini o'qitish metodikasi kafedrasi v.v.b.dotsenti

**Usmonalieva Risolat Umaralievna**
Surxondaryo viloyati pedagoglarni yangi metodikalarga o'rgatish milliy markazi" Ijtimoiy- iqtisodiy fanlar metodikasi" kafedrasi katta o'qituvchisi

**Sobirov Abdulxay Shukirovich**
Alisher Navoiy nomidagi Toshkent davlat universiteti ma'naviyat va ma'rifat bo'yicha prorektori

**Jo'rayev Hamza Hamraqulovich**
Uzbekiston-Finlyandiya pedagogika instituti, San'atshunoslik fakulteti, Tasviriy san'at va muxandislik grafikasi kafedrasi dotsenti

**Erkaboy Yu. Derdibaev**
Toshkent davlat agrar universiteti, Dexkonchilik va melioratsiya kafedrasi professori

**Saidova Markhabo Xabibullo kizi**
DOCTOR OF PHILOSOPHY (PH.D) in ECONOMICAL SCIENCES

**Ijtimoiy fanlarni o'qitishda zamonaviy metodlardan foydalanishning afzalliklari**

**Dilmurod Usmonov**

Surxondaryo viloyati Termiz tumanidagi

30-maktabning oliy toifali tarix fani o'qituvchisi

**Annotasiya.** Ushbu maqola ijtimoiy fanlarni o'qitishda zamonaviy metodlardan foydalanishning afzalliklari haqida bo'lib,zamonaviy yondoshuvlar ta'lim jarayonini yanada boyitishi va yosh avlodni zamon talablari darajasida tayyorlashda yordam berishi xususida so'z boradi.

**Kalit so'zlar:** faol o'qitish metodi,raqamli texnologiya,interfaol dars,muammoli ta'lim,loyihaviy ta'lim.

XXI asr-texnika asri. Ta'lim sifatini oshirishda zamonaviy yondashuvlar asosidagi darslar muhim bo'lib, bu o'qituvchidan doimiy ravishda o'z ustida ishlashini, mahoratini oshirib borishini talab etadi. Ijtimoiy-iqtisodiy fanlar ta'limi esa zamonaviy jamiyatda muhim rol o'ynaydi. Ular faqat fan sifatida emas, balki o'zaro bog'liq ijtimoiy jarayonlar va moliyaviy tizimlar bilan ham chambarchas bog'liqdir. Zamonaviy metodikalar, o'quv jarayonida faoliyatni rag'batlantirish va o'quvchilarni yanada samarali o'qitishda yordam beradi.

Faol o'qitish metodlari o'quvchilarni o'z-o'zi o'qitishga undaydi. Misol uchun, ilmiy munozaralar va guruh ishlari o'quvchilarning fikrlarini ifoda etish va bir-biridan o'rganish imkonini beradi.

Raqamli texnologiyalar va internet yordamida masofaviy ta'limning imkoniyatlari oshdi. Bu metodlar dunyoning turli burchaklaridagi o'quvchilarni birlashtirishga xizmat qiladi, shuningdek, zamonaviy bilimlarni o'zlashtirishda keng imkoniyatlar yaratadi.

Interfaol darslar o'quvchilar bilan ko'proq aloqada bo'lishni ta'minlaydi. O'yinlar, simulyatsiyalar va rol o'ynash metodlari yordamida ta'lim jarayoni qiziqarli va samarali o'tadi.

Bilamizki,ijtimoiy fanlar jamiyatning tarix, madaniyat, huquq, iqtisodiyot va siyosat kabi sohalarini o‘rgatadi. Zamonaviy davrda ta’lim jarayonida yuqori samaradorlikka erishish uchun an’anaviy usullardan tashqari zamonaviy pedagogik metodlarga ham murojaat qilish zarurati tug‘iladi. Ushbu maqolada ijtimoiy fanlarni o‘qitishda zamonaviy metodlardan foydalanishning afzalliklari batafsil tahlil qilinadi va misollar bilan asoslanadi.

Demak,zamonaviy pedagogik metodlar – bu ta’lim jarayonini interaktiv, ko‘p o‘lchamli va o’quvchi markazida tashkil etuvchi yangi yondoshuvlar majmuasidir. Ular amaliy ko‘nikmalarni shakllantirish, tahliliy fikrlash qobiliyatini rivojlantirish va ijodiy yondashuvni rag‘batlantirishga mo‘ljallangan.

Ijtimoiy fanlarni o‘qitishda zamonaviy metodlarning asosiy turlari sifatida:

1. Muammoli ta’lim metodi

Bu metod o‘quvchilarni mavzuga oid muammolarni mustaqil tahlil qilishga undaydi. Masalan, "O‘zbekiston mustaqillik davrida iqtisodiy islohotlar" mavzusidagi darsda o’quvchilar iqtisodiy muammolar va ularni hal qilish yo‘llarini birgalikda aniqlashadi.

2. Loyihaviy ta’lim

O’quvchilar jamoaviy yoki  individual loyihalar yaratar ekan, mavzuni chuqur tushunishga erishadilar. Misol uchun, "Ijtimoiy tarmoqlarning yoshlar hayotidagi roli" mavzusi bo‘yicha loyiha tayyorlash o’quvchilarni zamonaviy hayot real holatlarini tahlil qilishga o‘rgatadi.

3. Interaktiv dars usullari

Munozaralar, rolli o‘yinlar, testlar va onlayn viktorinalar talabaning faol ishtirokini ta’minlaydi. Misol uchun, "Fuqarolik jamiyati" mavzusida rolli o‘yin orqali o’quvchilar jamiyatdagi turli ro‘l va vazifalarni o‘zlari boshdan kechiradilar.

4. Texnologiyalar yordamida o‘qitish

Multimedia vositalari, virtual ekskursiyalar va elektron resurslar ta’lim jarayonini boyitadi. Masalan, tarix darslarida XIX asr voqealarini 3D grafikalar va video materiallar orqali ko‘rsatish tufayli o’quvchilar mavzuni yaxshiroq tushunadilar.

Demak, zamonaviy metodlardan foydalanishning afzalliklari shundaki, 1. O’quvchilar faolligining oshishi.An’anaviy darslarda o‘quvchilar ko‘proq passiv tinglovchilar bo‘lib qolsa, zamonaviy metodlar ularni faol ishtirokga jalb qiladi. Masalan, munozara yoki loyihaviy ishlar natijasida o’quvchilar o‘z fikrlarini erkin ifoda eta oladilar, bu esa o‘qish jarayonini qiziqarli qiladi. 2. Tanqidiy va tahliliy fikrlash rivojlanadi. Muammoga asoslangan o‘qitish o’quvchilarni vaziyatlarni chuqur o‘rganish, turli taraflarni ko‘rib chiqish hamda mantiqiy xulosalar chiqarishga o‘rgatadi. Masalan, "Ijtimoiy tengsizlikning sabablari va oqibatlari" mavzusida o’quvchilar turli nazariyalar asosida muhokama olib boradilar. 3. Amaliy ko‘nikmalar shakllanadi.Loyihaviy faoliyat va interaktiv metodlar yordamida o’quvchilar nazariy bilimlarni amaliyotga qo‘llashni o‘rganadilar. Masalan, ijtimoiy tadqiqot o‘tkazish orqali ular ma’lumot yig‘ish, tahlil qilish va natijalarni taqdim etish ko‘nikmalariga ega bo‘ladilar. 4. Individual yondashuv imkoniyati.Zamonaviy metodlar ta’lim jarayonini har bir talabaga moslashtirishga imkon beradi. Elektron o‘quv materiallari va masofaviy ta’lim platformalari orqali har bir o‘quvchi o‘z sur’atida o‘qishi mumkin. 5. Innovatsion fikrlash va ijodkorlikni rag‘batlantirish.Yangi metodlar ijodiy faoliyatni qo‘llab-quvvatlaydi. O’quvchilar mustaqil yoki guruh bo‘lib yangi qarorlar qabul qilishni, o‘z fikrlarini yaratishni o‘rganadilar.

Misollarda zamonaviy metodlarning qo‘llanilishiga to’xtaladigan bo’lsak:

1: Tarix fanida virtual ekskursiyalar

Maskanlarni ko‘rish orqali tarixiy voqealarga yaqinlashish uchun virtual ekskursiyalar tashkil qilinadi. Masalan, Samarqand shahrining tarixiy yodgorliklariga virtual safar, o’quvchilar uchun o‘quv jarayonini qiziqroq qiladi va tushunishni osonlashtiradi.

2: Iqtisodiyot fanida loyiha asosida o‘qitish

O'quvchilar mahalliy biznes-reja tayyorlash orqali iqtisodiy bilimlarini amaliy qo'llashadi. Bu nafaqat nazariyani mustahkamlaydi, balki kelajakdagi amaliy faoliyatga tayyorlaydi.

3: Siyosatshunoslikda munozaralar

"Demokratiya va avtoritarizm tamoyillari" mavzusida o'quvchilar munozara tashkil qilib, turli siyosiy tizimlar afzallik va kamchiliklarini o'rganadilar. Bu ularning tanqidiy fikrlashini rivojlantiradi.

Bu borada mumkin bo'lgan qiyinchiliklar va ularni bartaraf etish yo'llari sifatida quyidagilarni ko'rsatib o'tishimiz mumkin:

Qiyinchiliklar:

- O'qituvchilarning yangi metodlarga tayyor emasligi.

- Texnologik jihozlarning yetishmasligi.

- O'quvchilar orasida texnologiyalardan foydalanish bo'yicha bilimlarning farqli darajada bo'lishi.

Yechimlar:

- Pedagoglarni muntazam malaka oshirish kurslariga jalb etish.

- Maktablarda va universitetlarda texnologik infratuzilmani rivojlantirish.

- O'quvchilar uchun texnologiyalarni o'rganish bo'yicha qo'shimcha treninglar tashkil etish.

Xulosa shuki,zamonaviy pedagogik metodlardan foydalanish ijtimoiy fanlarni o'qitishni samarali va qiziqarli qiladi. Ular o'quvchilarning faolligini oshirib, tanqidiy fikrlash, ijodkorlik va amaliy ko'nikmalarini rivojlantirishga yordam beradi. Shu bois, o'qituvchilar ushbu metodlarni keng joriy etishi va amalda mahorat bilan qo'llashi zarur.

Adabiyotlar ro'yxati

1. Mirzaev, A.  Pedagogik yangiliklar va ularning ta'limdagi o'rni. Toshkent.2021

2. Islomova, M.  Zamonaviy ta'lim texnologiyalari. Samarqand.2020

3. Olimova, G.  Ijtimoiy fanlarni interaktiv usullar bilan o'qitish. Toshkent.2019

4. Rasulov, B.  Loyihaviy ta'lim metodologiyasi. Toshkent.2022

5. Ermatov, S.  Ta'limda innovatsiyalar: imkoniyatlar va muammolar. O'zbekiston ta'lim jurnali.2023

«RESEARCH AND PUBLICATIONS»
ILMIY NASHRLAR MARKAZI

«RESEARCH AND PUBLICATIONS»
ILMIY NASHRLAR MARKAZI

«RESEARCH AND PUBLICATIONS»
ILMIY NASHRLAR MARKAZI

«RESEARCH AND PUBLICATIONS»
ILMIY NASHRLAR MARKAZI

ISSN 2181-2160
JIFactor: 8.2
TA'LIM FIDOYILARI

# MAKTABGACHA YOSHDAGI BOLALARDA AHLOQIY SIFATLATLARNI SHAKLLANTIRISHNING PEDAGOGIK SHARTLARI

Ashurova Aziza Erkinovna

O'zbekiston, Termiz shahridagi Prezident maktabi xodimi

aziza_ashurova_1989@mail.ru

+998936344774

**Annotatsiya:** maqolada maktabgacha tarbiya yoshidagi bolalarda ahloqiy sifatlar shakllanishining pedagogik xususiyatlari muammosini ilmiy nazariy metodik, ijtimoiy-siyosiy manbalar asosida o'rganish, amaliyotdagi mavjud holatni tahlil qilish. Maktabgacha tarbiya yoshidagi bolalarda ahloqiy sifat tushunchasining bolalardagi pedagogik va ijtimoiy ahloqiy xususiyatlariga o'zaro aloqadorlikni aniqlash va asoslash haqida bayon etilgan.

**Kalit so'zlar:** ahloqiy tarbiya, ahloqiy sifat, ahloqiy tasavvur va bilimlar, madaniy xulq-atvor va ijobiy munosabatlarni shakllantirish, ahloqiy xis-tuyg'ular va munosabatlarni rag'batlantirish, xulq-atvor normalari va qoidalari.

Insonning barkamolligi uning ma'navy dunyosi qandayligi bilan belgilanadi. Yaxshi tarbiya kishining qimmatbaxo boylgidir. O'zbek xalqining ma'naviyati xaqiqatgo'y va adolatli bo'lish, jaxolat va qabixlik yo'lini to'sish, insoniylik, mehr-shafqat, ma'rifat, do'stlik, mardlik, birodarlik, mexmondo'stlik, poklik, xushxulqlik, insof, vatanparvarlik kabi insoniy fazilatlarni singdirishga chaqiradi.

O'zbek xalqining urf-odatlari, turmush tarzi, ta'lim-tarbiya, madaniyat an'analari moziyning uzoq-uzoq asrlariga borib taqaladi. Hozirgi va kelajak avlodimiz kishilari o'zbek milliy ma'naviyatini yaxshi bilishlari va unga rioya qilishlari lozim. Shundagina jamiyat to'q, farovon, kishilar osoyishta va madaniy xayot kechiradilar. Bu xamisha xamma avlod tomonidan e'tirof etilgan.

Axloqiy tarbiya-shaxsni xar tomonlama rivojlantirishning muhim tarkibiy qismidir. U bolalarga ahloqiy tasavvur va bilimlarni singdirish, ularda shaxsning ahloqiy his-tuygu va sifatlarini, ijobiy munosabatlar va xulq madaniyatini tarbiyalashga qaratilgan jarayondir.

Axloq kishilarning xulq-atvor normalari va qoidalarini, ularning o'z-o'ziga, boshqa kishilarga, mehnatga, jamiyatga munosabati kabi ahloqiy tushunchalarni o'z ichiga oluvchi ijtimoiy ongning aloxida bir shaklidir.
Ahloq sinfiy xususiyatga ega, chunki ahloq xis-tuygu, tushuncha va printsiplar ma'lum ijtimoiy formatsiyaga xos bo'lib, ijtimoiy tuzum o'zgarishi bilan u ham o'zgaradi. Bizning jamiyatimizdagi ahloq, eng yaxshi umuminsoniy xulq normalarini o'z ichiga olgan bo'lishi kerak.

Maktabgacha ta'lim tizimini yanada takomillashtirish, bolalarning sifatli maktabgacha

ta'limdan teng foydalanishini ta'minlash, maktabgacha ta'lim xizmatlarining nodavlat sektorini rivojlantirish maqsadida, O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.M.Mirziyoyevning 2018-yil 30-sentyabrdagi "Maktabgacha ta'lim tizimini boshqarishni takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi PQ–3955-son qaroriga muvofiq:

- O'zbekiston Respublikasi maktabgacha ta'lim tizimini 2030-yilgacha rivojlantirish konsepsiyasiga muvofiq holda maktabgacha ta'lim sohasidagi normativ huquqiy bazani yanada takomillashtirish;
- maktabgacha yoshdagi bolalarning har tomonlama intellektual, ahloqiy, estetik va jismoniy rivojlanishi uchun shart-sharoitlar yaratish;
- bolalarning sifatli maktabgacha ta'lim bilan qamrovini oshirish, undan teng foydalanish imkoniyatlarini ta'minlash, mazkur sohada davlat-xususiy sherikligini rivojlantirish;
- maktabgacha ta'lim tizimiga innovatsiyalarni, ilg'or pedagogik va axborotkommunikatsiya texnologiyalarini joriy etish;
- maktabgacha ta'limni boshqarish tizimini takomillashtirish, maktabgacha ta'lim muassasalari faoliyatini moliyalashtirish shaffofligi va samaradorligini ta'minlash;
- maktabgacha ta'lim tizimiga maktabgacha ta'lim tizimi xodimlarini tayyorlash, qayta tayyorlash, malakasini oshirish, tanlab olish va rivojlantirishga mutlaqo yangi yondashuvlarni joriy etish;
- maktabgacha ta'lim muassasalarida bolalarning sog'lom va balanslashtirilgan ovqatlanishini, sifatli tibbiy parvarishini ta'minlash, maqsadida bugungi kunda ta'lim tizimining eng yuqori bo'g'ini bo'lgan maktabgacha ta'lim tizimida yosh avlodni tarbiyalash masalasi ko'ndalang turadi. Ularning tarbiyasidagi aynan ahloqiy xatti-harakatlarini psixologik jihatdan shakllantirish bugunning dolzarb masalasiga aylanib bormoqda.

Demak ahloq haqida gap ketganda biz aynan bolaning 3 yoshdan 7 yoshgacha bo'lgan maktabgacha yoshi bolalik davrining katta bir qismini tashkil etadi. Asosan mana shu davrdan boshlab bolaning mustaqil faoliyatlari rivojlanadi hamda shaxsiy individual xususiyatlari (shaxsiy fazilatlari) tarkib topa boshlaydi.

Bolada ahloqiy tarbiya jarayonida ahloqiy xususiyatlar kamolga etadi. Ahloqiy xususiyatlarning rivojlanishi jarayonida eng avvalo ular o'zlarining boshqalar bilan bo'ladigan munosabatlarini ongli tushuna boshlaydilar, tengdoshlari va kattalar bilan bo`ladigan munosabatlarida ahloq saboqlari rivojlana boradi.

Maktabgacha yoshdagi bolalarni ahloqiy jixatdan tarbiyalash vazifasi va mazmuni bolaning ma'naviy dunyosini, uning ongini, ahloqiy xislarini, shaxsiy sifatlari va xulqini tarbiyalash va rivojlantirishni taqozo etadi. Ahloqiy tarbiyaning vazifalari asosan quyidagilardir:

- Bolalarda ahloqiy xis-tuyg'ular, tasavvurlar va hatti-harakatlarni tarbiyalash.
- Xulq madaniyati va ijobiy munosabatlarni tarbiyalash.
- Shaxsda ahloqiy xis-tuyg'ularni tarbiyalash.
- Xulqdagi salbiy xislarni barxam toptirish.

Bu umumiy vazifalar yosh guruhlari bo'yicha konkretlashtiriladi va o'quv tarbiyaviy jarayonining mazmunida o'z aksini topadi. Ahloqiy tarbiyaning vazifasi va mazmuni bog'chadagi ahloqiy tarbiya berishning asosiy printsiplari va pedagogik shart-sharoitlariga rioya qilish asosida bajariladi. Maktabgacha tarbiya yoshidagi bolalar ahloqiy tarbisining vazifasi hamda mazmuniga muvofiq uning printsiplari ishlab chiqilgan. Ular quyidagilardan iboratdir:

1. g'oyaviy va tarbiyaviy ishning ma'lum maqsadga qaratilganligi;
2. ta'lim-tarbiya ishiga bola shaxsini hurmat qilgan xola yondoshish;
3. axloqiy tarbiya ishini xayot va zamon bilan bog'lab olib borish;
4. bolalarning faolligi;
5. jamoada tarbiyalash;
6. tarbiyaviy ishning sistemaliligi va izchilligi;
7. ta'sirchanligi;
8. oila, bog'cha hamda kattalar tarbiyaviy ta'sirining birligi;
9. boladagi ijobiy sifatlarga suyanish;
10. bola shaxsini har tomonlama rivojlantirishni ko'zda tutish.

Maktabgacha tarbiya yoshidagi bolalarga ahloqiy tarbiya berishda har xil metod va usullarni qo'llash muhim ahamiyatga ega.
Ahoqiy tarbiya metodlari-bolalarning ahloqiy tasavvur va bilimlarini egallab olishiga, ularda ma'daniy xulq va ijobiy munosabatlarni, shaxsning ahloqiy xis-tuyg`ulari va sifatlarini tarbiyalashga qaratilgan faoliyat hisoblanadi. Ahloqiy tarbiya metodlari quyidagi guruhlarga bo`linadi:

I-guruh axloqiy ongni, ya'ni axloqiy tasavvur va bilimlarni, ularni bajarish xoxishini shakllantirishga qaratilgan metodlar.

II-guruh madaniy xulq-atvor va ijobiy munosabatlarni shakllantirishga qaratilgan metodlar.

III-guruh axloqiy xis-tuyg'ular va munosabatlarni rag`batlantirishga qaratilgan yordamchi metodlardir.

Hamma guruh metodlari axloqiy xis-tuyg'ular va shaxsiy sifatlarni tarbiyalashni ta'minlaydi.

Bu guruh metodlariga qo'yitladigan asosiy talablar: bolalarni yaxshilik va yomonlik to'g'risidagi tasavvurlarini e'tiborga olish, axloqiy xulq-atvor normalarini muhokama qilish uchun maxsus yaratilgan vaziyatda bolalarning o'zlarini faol qatnashtirish; har bir bolaning xis-tuyg`usiga extiyotkorlik bilan munosabatda bo'lish.

Bolani noo'rin tanqid qilish, uning ustidan kulish, unga nisbatan e'tiborsizlik qilish qat'iyan man etiladi. Hamma metodlarda ma'lum izchillik bilan kompleks ravishda foydalaniladi. Bu metodlarning asosiy vaziflari quyidagilarni o'z ichiga oladi:

- bolalarda ijobiy, axloqiy xislarni qo'zg'ata olish, asar qaxramonlariga hamdardlik bildirish, yutug'idan quvonib, muvaffaqiyatsizligi birgalashib achinish;
- bolalarga tushunarsiz bo'lgan ayrim axloq qoidalarning mazmunini ochib berish;
- axloqiy mavzulardagi hikoyalardan mashg'ulotlarda, sayrlarda, bolalarning o'z xayoti bilan bog'liq bo'lgan joylarda ham foydalanish.

Shunday qilib, bolalarning ahloqiy tasavvur va tushunchalarni egallab olib, uni kundalik odatga aylantirishlari uchun bolalarning kattalar rahbarligidagi qizg'in faoliyati tashkil etilishi lozim. Tarbiyachi bola shaxsida ahloqiy xis-tuyg'ularni tarbiyalash uchun hamma vosita va metodlarni qo'llaydi, chunki u shunday qilingandagina yaxshi xulq namunalarini o'rgatishi mumkin.

Mana shu ning uchun bu yoshdagi bolalarning xulq-atvorlari, ahloqiy sifatlari, xatti-harakatlari, qiziqish va ehtiyojlari ilk yoshdagi bolalarnikidan keskin farq qiladi. Bu esa, o'z navbatida, ilk yoshdagi bolalar bilan maktabgacha yoshdagi bolalar ta'lim tarbiyasiga ham turlicha munosabatda bo'lishni taqozo qiladi. Maktabgacha yoshdagi davrda muhit bilan bo'lgan munosabatlarida anchagina o'zgarishlarni yuzaga keltiradi. Bir tomondan, bola kattalarning doimiy yordamlaridan ancha ozod bo'lib, ulardan bir qadar uzoqlashadi, ikkinchi tomondan, kattalar bilan bo'lgan munosabatlari murakkab, ko'p tomonlama xarakter kasb eta boshlaydi. Maktabgacha yoshidagi bolalarning rivojlanishida ularda paydo bo'ladigan xilma-xil ehtiyoj va qiziqishlar juda katta ahamiyatga ega. Chunki, ehtiyoj va qiziqishlar bolalarni u yoki bu harakatga undovchi, ularni ishga soluvchi stimul (omil) hisoblanadi. Bog'cha yoshidagi bolalarda ijtimoiy intellektual va ahloqiy ehtiyojlar yaqqol ko'rina boshlaydi. Agar bog'chagacha tarbiya yoshidagi bola uzoq vaqt davomida yolg'iz o'zi biron o'yinchoq bilan mashg'ul bo'lib o'tira olsa, bog'cha yoshidagi (xususan o'rta va katta guruh bolalari) bola bunday yolg'iz o'ynashga toqat qila olmaydi. Ularda o'zlariga yaqin bo'lgan katta odamlar va tengdoshlari bilan munosabatda bo'lish ehtiyoji tug'iladi. Ular tor oila doirasidagi munosabatlar bilan o'z ehtiyojlarini qondira olmay, kengroq doiradagi munosabatlarga intila boshlaydilar. Natijada bu yoshdagi bolalarning ijtimoiy munosabat va faoliyat doiralari tobora kengayib boradi.

Qadim-qadimdan o'zbek, sharq klassiklari ijodida ahloq-odob masalasi markaziy o'rinni egallab kelgan. Kaykovusning «Qobusnoma»sidan tortib, Al-Xorazmiy, Abu Nasr Farobiy, Abu Rayxon Beruniy, Abu Ali ibn Sinolarning nazmiy va nasriy asarlarida, Yusuf Xos Hojibning «Qutadg'u bilik» («Baxt keltiruvchi bilim»), Axmad Yugnakiyning «Hibatul haqoyiq« («Haqiqat sovg'alari»), Imom Ismoil al-Buxoriyning «Al-Adab Al-Mufrad» («Adab durdonalari») kabi jahonga mashhur asarlarida, Alisher Navoiyning o'lmas she'riyatida, Munis Xorazmiyning «Zavodi ta'lim»ida, Kamoliddin Husayn Voiz Koshifiyning «Ahloqi Muxsimiy», «Ravzati shaxodat» («Shaxodat bog'i») kabi asarlarida ahloq, odob masalalari yoritilgan. Koshifiyning asarlaridagi ta'lim-tarbiya, ahloq masalalari ko'pchilik uchun andoza, namuna, odob normasi sifatnda qisqa, asosli, lo'nda qilib yozilgan.

Koshifiyning fikricha, inson fazilati uning egallagan ta'lim-tarbiyasiga bog`liq. Shundagina u odobli xisoblanishi mumkin. «Odob-bu qalbni yomon so`zlardan va nojo'ya xulqdan saqlay olish, o'zini va o'zgalarni ham xurmat qila bilishdadir», deydi olim. Uning fikriga yaqin fikrni A. Navoiy ijodida xam ko`ramiz. «Odobli inson barcha odamlarning yaxshisidir va barcha odamlar uchun yoqimlirog'idir»,- deydi buyuk shoir. By bilan u kishilarning insoniylik belgisi uning odobli, ahloqli ekanligi bilan o'lchanadi, deb ta'kidlaydi va barcha insonlarni yaxshi xulqli bo'lishga chaqiradi.

Abu Nasr Farobiy inson o`zining yaxshi xulqi bilan baxt-saodatga erishishi mumkin, deydi.

Zamonamizning yirik ma'rifatparvarlaridan bo'lmish Abdulla Avloniy inson barkamolligi uning aqlida, jismoniy sog`lomligida xamda odobli xushxulqida, deb biladi.

Abdulla Avloniy til va so'z odobi haqidagi umuminsoniy fikrlarni shunday ta'riflaydi: «... so'z insonning daraja va kamolini, ilm va fazlini ulchab kursatadigan tarozidir. Akl soxiblari kishining dilidagi fikr va niyatini, ilm va kuvvati, qadr va qimmatini so'zlagan so'zidan bilurlar».

Ahloqiy ongda emotsional tomon intelektual tomon bilan (tajriba va aql) chambarchas bog'lanib ketadi. Xissiy tajriba bo'lmasa, aql bo'm – bo'sh va o'z navbatida aql ishtirok etmagan xissiy tajriba ko'rdir, deb ta'kidlagan edi buyuk nemis faylasufi I.Kant.

Ahloqiy ongning uziga xos va ayni paytda eng muxim elementi shaxsning ahloqiy sifatlaridir. Ular ijobiy va salibiy ahloqiy sifatlarga bo'linadi.

Ijobiy ahloq sifatlari:
- kamtarlik;
- mehnatsevarlik;
- xushmuomalalik;
- rahimdillik;
- oliyjanoblik;
- rostguylik.

Salbiy ahloq sifatlari:
- xoinlik;
- yolg'onchilik;
- xasadgo'ylik;
- irodasizlik;
- munofiqlik kabilarga bo'linadi.

Ijobiy ahloqiy sifatlar shaxsning buyuk boyligi xisoblansa, salbiy sifatlar esa uning nuqsonlari xisoblanadi. Xamma davrlarda xam ahloqiy sifatlar muayyan mafkuraning umumiy yo'nalishi bilan belgilangan.

Xulosa qilib aytish mumkinki, ahloq ijtimoiy taraqqiyot maxsuli bo'lganligi uchun unga doim uzgarib boradigan ijtimoiy borliq ta'sir ko'rsatib turadi. U o'zida jamiyatga xos bo'lgan barcha o'zgarish va ziddiyatlarni aks ettiradi. Shuning uchun har qanday yangi ahloq jamiyat xayotida muhim rol o'ynagan xalq ommasi faoliyati natijasida qaror topadi. Shuning uchun bugungi kunda maktabgacha ta'lim tizimida ma'nan mukammal va intellektual rivojlangan shaxsni tarbiyalash bugungi kunning dolzarb muammolaridan biridir.

**Foydalanilgan adabiyotlar**

1.I.A.Karimov «Barkamol avlod orzusi» - Toshkent 1999 y.
2.O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi - Toshkent 1992 y.

3. O'zbekiston Respublikasi maktabgacha tarbiya. Toshkent 1992 y.
4. Maktabgacha tarbiya muassasasi to'g'risidagi nizom. - Toshkent 1995 y.
5. «Bolalar bog'chasining katta tarbiyachisi» - Toshkent 1991 y.
6. V.G.Nichaeva. Maktabgacha yoshdagi bolalarni mehnatda tarbiyalash - Toshkent. O'qituvchi -1995 y.
7. O'.Otavalieva. Bola tarbiyasida bog'cha va oila hamkorligi. O'qituvchi 1994 y.
8. V.G.Negacheva, T.A.Markova. Bolalar bog`chasida ahloqiy tarbiya. O'qituvchi - 1990
9. V.G. Lomkova., P.G.Samorunova. Maktabgacha tarbiya pedagogikasi. O'qituvchi -1991-1992 yy.
10. P.Yusupova. Maktabgacha tarbiya pedagogikasi. O'qituvchi -1993 y.
11.lex.uz/news/Prezident-2030-yilgacha maktabgacha ta'lim tizimini rivojlantirish bo'yicha 3326-sonli qo'shma qarori.
12. V.G.Negacheva, T.A.Markova. Bolalar bog'chasida ahloqiy tarbiya.
O'qituvchi – 1990

13. Gumanitarno-pedagogicheskiy institut kafedra «Pedagogika i metodiki prepodavaniya» 44.04.02 Psixologo-pedagogicheskoe obrazovanie «Nachalnoe obrazovanie» magisterskaya dissertatsiya A.A. Vidrenkova Tolyatti 2016 god, 156-list.

# RUS TILIDAGI SINTAKSIS VA MORFOLOGIYA ASOSLARI

**Muxammedov Mavlon Mardon o'g'li**

*Buxoro viloyati Jondor tumani 8 – maktab*

**Annotatsiya:** Ushbu maqolada rus tilidagi sintaksis va morfologiya asoslari tahlil qilinadi. Tilshunoslikning ushbu ikki muhim boʻlimi rus tili strukturasi va funksional imkoniyatlarini chuqur oʻrganishda katta ahamiyatga ega. Maqolada morfologik birliklar, ularning oʻzaro bogʻliqligi, hamda jumla tuzilishining nazariy asoslari yoritilgan.

**Kalit soʻzlar:** sintaksis, morfologiya, rus tili, soʻz turkumlari, jumla tuzilishi, tilshunoslik, grammatik birlik

**Kirish:** Tilshunoslik fanining asosiy yoʻnalishlaridan biri boʻlgan grammatik tizimni oʻrganishda morfologiya va sintaksis alohida ahamiyat kasb etadi. Ayniqsa, rus tili kabi morfologik jihatdan boy va sintaktik jihatdan murakkab tuzilishga ega boʻlgan tilni oʻrganishda bu ikki boʻlimning chuqur tahlili zarur sanaladi. Morfologiya soʻzlarning shakllanishi, grammatik formalar va ularning turli kategoriyalar boʻyicha oʻzgarishini oʻrganadi. Sintaksis esa ushbu birliklarning gap ichida qanday tartibda joylashishini, ularning oʻzaro grammatik va semantik munosabatlarini tadqiq etadi.

Rus tili, strukturaviy xususiyatlari bilan boshqa slavyan tillaridan ajralib turadi va zamonaviy lingvistik tadqiqotlarda uning grammatik tizimi alohida oʻrganilmoqda. Rus tilida soʻzlar oʻz grammatik shakllarini turli morfologik oʻzgarishlar orqali namoyon etadi. Bunday shakllar esa gap tuzishda aniq funksional yuklama oladi. Shu jihatdan morfologik kategoriyalar — son, jins, kelishik, zamon, nisbat, mayl — sintaktik birliklarni toʻgʻri qurishda asosiy rol oʻynaydi. Bugungi kunda rus tilini chet til sifatida oʻrganuvchilar soni ortib bormoqda. Bu esa rus tilining nafaqat kommunikativ, balki ilmiy va oʻquviy jihatdan ham chuqur oʻrganilishini taqozo etadi. Morfologiya va sintaksis boʻyicha bilimlar bu

jarayonning asosi hisoblanadi. Ayniqsa, grammatik tahlil qilish, gaplarni to'g'ri qurish va ifodaviylikni ta'minlashda bu ikki sohaning bilimlari muhim ahamiyatga ega.

Ushbu maqolada rus tilining morfologik va sintaktik tuzilmalari o'zaro bog'liqlikda ko'rib chiqiladi. Maqsad – rus tili grammatikasining ikki asosiy bo'limi o'rtasidagi mantiqiy va amaliy aloqalarni aniqlash, ularning tilda ifoda qilish imkoniyatlarini ko'rsatish hamda o'quvchilar va til o'rganuvchilar uchun nazariy asoslarni mustahkamlashdir.

**Adabiyotlar tahlili**

Rus tilshunosligi sohasida sintaksis va morfologiya bo'yicha fundamental tadqiqotlar olib borgan olimlar orasida A.A. Shaxmatov, V.V. Vinogradov, L.V. Shcherba kabi yetakchi tilshunoslar alohida o'rin egallaydi. A.A. Shaxmatov o'zining "Sintaksis russkogo yazyka" asarida rus tilidagi gap tuzilmasining tarixiy shakllanishi, so'zlarning gapdagi o'rni va ularning bog'lanish usullari haqida chuqur ilmiy asoslangan qarashlarni ilgari surgan [1].

V.V. Vinogradov esa morfologik birliklarning semantik yukini va ularning stilistik imkoniyatlarini aniqlashda muhim iz qoldirgan. Uning "Russkiy yazyk. Grammaticheskoe uchenie o slove" asari rus tilining grammatik shakllarini zamonaviy lingvistika yondashuvi asosida tasniflaydi [2]. Bu asarda so'z turkumlarining chegaralari, ularning o'zgarish imkoniyatlari va kontekstdagi vazifasi atroflicha yoritilgan. L.V. Shcherba esa fonetika, morfologiya va sintaksisning o'zaro bog'liqligini amaliy nuqtai nazardan tahlil qilgan. Uning ishlari til tizimi va nutq faoliyati o'rtasidagi farqni ochib beradi hamda sintaktik birliklarning muloqotdagi ahamiyatiga urg'u beradi [3].

Zamonaviy tadqiqotchilardan T.G. Dobrovolskaya va N.Yu. Shvedovalarning izlanishlari rus tilining nazariy grammatikasi va zamonaviy amaliy grammatikasi asoslarini yanada chuqurlashtirgan. Jumladan, "Russkaya grammatika" nomli ikki jildli ilmiy nashrda rus tilining morfologik va sintaktik strukturalari tizimli ravishda tahlil etilgan bo'lib, u o'quvchilarga nazariy bilim bilan bir qatorda amaliy tahlil ko'nikmalarini ham beradi [4]. Adabiyotlarda ko'rib chiqilgan yondashuvlar shuni ko'rsatadiki, morfologik shakllar va ularning sintaktik funksiyasi o'rtasidagi bog'liqlik rus tilining grammatika tizimida

markaziy o‘rinni egallaydi. Ular nafaqat nazariy bilim manbai, balki til o‘rgatish metodikasi uchun ham asos bo‘lib xizmat qiladi.

**Tahlil va Natijalar**

Rus tili o‘zining murakkab va qat’iy grammatik tuzilishi bilan boshqa slavyan tillaridan ajralib turadi. Bu grammatik strukturaning asosini morfologiya va sintaksis tashkil etadi. Har ikki bo‘lim o‘zaro uzviy bog‘liq bo‘lib, til tizimining shakl va mazmun darajalarini ifoda etadi. Morfologiya – so‘zlarning grammatik shakllanishi, kategoriyalarga bo‘linishi, ularning lug‘aviy va grammatik ma’nolari bilan bog‘liq bo‘lsa, sintaksis bu so‘z shakllarining gapdagi o‘zaro munosabatini, tartibini, va gap bo‘laklari o‘rtasidagi grammatik bog‘lanishni o‘rganadi.

Tahlillar shuni ko‘rsatadiki, rus tilida morfologik o‘zgaruvchanlik (fe’llar zamon, shaxs, nisbat bo‘yicha; otlar jins, son, kelishik bo‘yicha) sintaktik qurilmalarni tuzishda asosiy vositadir. Masalan, ot va fe’l o‘rtasidagi moslik – shaxs va son birligida namoyon bo‘ladi. Ega va kesim o‘rtasidagi bu grammatik uyg‘unlik rus tilida aniq qoidalar asosida shakllangan bo‘lib, tilda aniqlik va tushunarlilikni ta'minlaydi. Rus tilida kelishiklarning ko‘pligi (oltita asosiy kelishik: именительный, родительный, дательный, винительный, творительный, предложный) so‘zlar o‘rtasidagi munosabatni ifodalashda sintaktik belgilarning morfologik vositalar orqali amalga oshishini ko‘rsatadi. Jumladan, to‘ldiruvchi vazifasidagi so‘zlar ko‘pincha roditelniy yoki vinitelniy kelishikda bo‘ladi, bu esa ular gapdagi funksiyasini belgilab beradi. Shu tarzda, morfologik shakllar gap bo‘laklarini farqlashda sintaktik vosita sifatida xizmat qiladi. Bundan tashqari, rus tilida so‘z tartibi nisbatan erkin bo‘lsa-da, gapning kommunikativ funktsiyasiga ko‘ra o‘zgaradi. So‘zlarning joylashuvi ularning sintaktik vazifasini o‘zgartirmaydi, chunki morfologik shakllar (ya’ni otning kelishigi yoki fe’lning shaxsi) bu vazifani aniqlab beradi. Bu holat rus tilini fleksiv tillar qatoriga kiritadi, ya’ni grammatik ma’no ko‘proq so‘z shakli orqali ifodalanadi, nafaqat tartib orqali. Sintaksis sohasida gapning asosiy qismlari – ega va kesim –ning o‘zaro mosligi asosiy grammatik talab hisoblanadi. Bu moslik rus tilida shaxs-son, fe’lning zamoni va nisbatiga qarab ifodalanadi. Shuningdek, aniqlovchi, to‘ldiruvchi, hol kabi ikkinchi

darajali bo'laklarning gapdagi joylashuvi ham morfologik ko'rsatkichlar yordamida aniqlanadi. Bu bo'laklar odatda o'ziga xos bog'lovchilar, kelishiklar yoki yordamchi so'zlar bilan ifodalanadi.

Rus tilidagi murakkab gaplarning tuzilishi ham morfologik asosga tayangan. Qo'shma gaplarda fe'llar va bog'lovchi birliklar orqali bo'g'inlar orasida bog'liqlik yaratiladi. Jumladan, ergash gaplar (pridatochnoye predlozhenie) turli ko'makchilar yoki bog'lovchilar orqali bosh gapga bog'lanadi va bu ergash gaplarning o'rnini, ma'nosini aniqlab beradi. Bunday sintaktik konstruktsiyalar morfologik jihatdan turli shakllarda ifodalangan bo'lib, o'quvchiga ma'naviy va grammatik to'liq kontekst beradi. Shuni ham alohida ta'kidlash kerakki, rus tilida leksik birliklarning morfologik o'zgarishlari sintaktik vositalarning boyligi bilan uyg'unlashgan. Har bir morfologik forma sintaktik funktsiyani bajaradi, bu esa tilning mantiqiyligini ta'minlaydi. Masalan, sifatlarning jins, son va kelishikda o'zgarishi ularni aniqlayotgan ot bilan grammatik uyg'unlikni talab qiladi. Bu uyg'unlik bo'shliqlarga yo'l qo'ymaydi va gapning grammatik yaxlitligini ta'minlaydi.

Natijaviy tahlillar shuni ko'rsatadiki, rus tilida morfologik shakllanish sintaktik tuzilmalarning asosidir. Bu degani, har qanday grammatik birlik – fe'l, ot, olmosh yoki sifat – o'zining shakli orqali gapdagi joyi va vazifasini ifodalaydi. Demak, rus tilining sintaksisi va morfologiyasi o'zaro bog'langan, bir-birini to'ldiruvchi, ham nazariy, ham amaliy jihatdan mustahkam poydevorga ega bo'lgan bo'limlardir. Ularning chuqur o'rganilishi tilni to'g'ri, aniq va mazmunli qo'llash imkonini yaratadi.

**Xulosa**

Rus tilining grammatik tuzilmasi chuqur va murakkab tizimga ega bo'lib, uning asosi morfologiya va sintaksis sohalariga borib taqaladi. Ushbu ikki bo'lim tilda fikrni to'g'ri, aniq va mantiqan ifodalashda bir-birini to'ldiruvchi vositalar sifatida xizmat qiladi. Maqolada olib borilgan tahlillar asosida shuni aytish mumkinki, morfologik shakllarning boyligi – otlarning jins, son, kelishik bo'yicha; fe'llarning zamon, mayl, nisbat va shaxsga ko'ra o'zgarishi – rus tilidagi gap tuzilmalarining moslashuvchan va ifodali bo'lishiga xizmat qiladi. Sintaktik tuzilmalar esa ushbu shakllarning nutqdagi tartibini, ularning bir-

biri bilan bog‘lanish qoidalarini belgilaydi. Rus tilida morfologik ko‘rsatkichlar sintaktik rollarni aniqlashda markaziy rol o‘ynaydi, ya’ni gapdagi so‘zlarning joylashuvi ko‘pincha ularning grammatik shakliga bog‘liq emas. Bu tilning fleksiv (egiluvchan) tuzilishga ega ekanligini ko‘rsatadi. Aynan shu xususiyat rus tilining morfologik va sintaktik jihatdan o‘ziga xosligini namoyon etadi. Tadqiqotlar shuni ko‘rsatadiki, rus tili sintaksisi va morfologiyasi birgalikda tilning mantiqiy, aniq va tizimli ishlashini ta'minlaydi. Ularning o‘zaro aloqasi har bir so‘zning grammatik vazifasini belgilashda, gapning strukturaviy tuzilmasini shakllantirishda va fikr ifodasining aniqligini ta'minlashda muhim ahamiyatga ega. Tilni o‘rganish jarayonida bu ikki sohani ajratmasdan, birgalikda o‘rganish — til egallash samaradorligini oshiradi.

**Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:**

1. Шахматов А.А. Синтаксис русского языка. — Москва: Наука, 2001.
2. Виноградов В.В. Русский язык. Грамматическое учение о слове. — Москва: Высшая школа, 1972.
3. Щерба Л.В. Языковая система и речевая деятельность. — Санкт-Петербург: Лань, 1993.
4. Русская грамматика. В 2 т. / Под ред. Н.Ю. Шведовой. — Москва: Наука, 1980.
5. Добровольская Т.Г. Введение в синтаксис современного русского языка. — Москва: Флинта, 2015.

ISSN 2181-2160
JIFactor: 8.2
TA'LIM FIDOYILARI

# MOLIYAVIY SAVODXONLIKNI OSHIRISH ORQALI IQTISODIY BARQARORLIKKA ERISHISH

**Sariyeva Shoira Sadullayevna**
**Urganch agrotexnologiyalar texnikumi yetakchi o'qituvchisi**

**Annotatsiya**

Ushbu maqolada moliyaviy savodxonlik tushunchasi, uning iqtisodiy barqarorlikka ta'siri, aholi orasida moliyaviy bilim darajasini oshirishning dolzarbligi, shuningdek, uni rivojlantirish yo'llari yoritilgan.

**Kalit so'zlar:** moliyaviy savodxonlik, iqtisodiy barqarorlik, shaxsiy moliya, byudjet rejalashtirish, investitsiya, jamg'arma.

**Annotation**

This article discusses the concept of financial literacy, its impact on economic stability, the relevance of improving financial knowledge among the population, and the ways to develop financial competencies.

**Keywords**

Financial literacy, economic stability, personal finance, budgeting, investment, savings.

## KIRISH

Bugungi globallashuv davrida har bir fuqaroning moliyaviy savodxonligi nafaqat shaxsiy farovonlik, balki jamiyat va davlat iqtisodiyotining barqarorligiga ham bevosita ta'sir qiladi. Moliyaviy resurslarni to'g'ri boshqarish, byudjetni rejalashtirish, jamg'arma va investitsiya qilish bo'yicha bilimlar iqtisodiy xavfsizlikning muhim tarkibiy qismidir.

O'zbekiston misolida, moliyaviy savodxonlikning past darajasi ko'plab iqtisodiy va ijtimoiy muammolarni keltirib chiqarmoqda. Masalan, aholining moliyaviy bilimsizligi ortiqcha qarzlanish, pensiya jamg'armalarining yetarli emasligi va moliyaviy firibgarlikka uchrash ehtimolini oshiradi. Bu muammo qishloq hududlarida ayniqsa sezilarli bo'lib, u yerda ta'lim resurslari cheklangan. Moliyaviy savodxonlik darajasi yuqori bo'lgan jamiyatlar iqtisodiy islohotlarni muvaffaqiyatli amalga oshirish, kichik biznesni rivojlantirish va ijtimoiy harakatchanlikni oshirishda muvaffaqiyatga erishadi. Shuningdek,

u milliy miqyosda iqtisodiy barqarorlikni mustahkamlash, aholining moliyaviy xavfsizligini oshirish va ijtimoiy adolatni ta'minlashda muhim rol o'ynaydi. Moliyaviy savodxonlikni oshirish uchun maqsadli ta'lim dasturlarini joriy qilish, xalqaro tajribani mahalliy sharoitlarga moslashtirish va raqamli texnologiyalarni jalb etish muhimdir. Bu nafaqat shaxsiy moliyaviy barqarorlikni, balki ijtimoiy farovonlikni oshirishga ham xizmat qiladi.

Moliyaviy savodxonlik tushunchasi va uning ahamiyati

Moliyaviy savodxonlik — bu shaxsning moliyaviy axborotni tushunish, tahlil qilish va unga asoslanib oqilona moliyaviy qarorlar qabul qilish qobiliyatidir. Moliyaviy savodxonlik quyidagi sohalarni qamrab oladi:

• Daromad va xarajatlarni rejalashtirish
• Qarzdorlik va kredit madaniyati
• Investitsiya qilish asoslari
• Sug'urta va moliyaviy xavfsizlik
• Soliq tizimi haqida umumiy tushunchalar

Iqtisodiy barqarorlik va uning moliyaviy savodxonlik bilan bog'liqligi

Moliyaviy savodli fuqaro:

• Ortiqcha iste'moldan tiyiladi
• Daromad va xarajatlarini nazorat qiladi
• Favqulodda holatlar uchun jamg'arma yaratadi
• Sarmoyaviy qarorlarni o'ylab amalga oshiradi

Bu holatlar mikroiqtisodiy darajadagi barqarorlikni ta'minlaydi. Shu bilan birga, keng ko'lamda bunday fuqarolarning ko'pligi makroiqtisodiy barqarorlikni shakllantiradi: inflyatsiyaning kamayishi, kredit risklarining pasayishi, ichki investitsiyalarning ko'payishi va boshqalar.

Moliyaviy savodxonlikni oshirish yo'llari

1. Ta'lim orqali: maktab va oliy ta'lim dasturlariga moliyaviy savodxonlik asoslarini kiritish.

2. Aholi bilan targ'ibot ishlari: OAV, ijtimoiy tarmoqlar orqali interaktiv kontentlar, videodarslar.

3. Davlat dasturlari: moliyaviy savodxonlikni oshirishga qaratilgan milliy strategiyalar.

4. Moliyaviy institutlarning ishtiroki: banklar va MFIlar tomonidan o'quv kurslari, seminarlar.

5. Raqamli platformalar: mobil ilovalar, testlar, byudjet rejalashtiruvchilar orqali bilimlarni mustahkamlash.

**XULOSA**

Moliyaviy savodxonlik darajasining oshishi aholining moliyaviy mustaqilligi va xavfsizligini ta'minlaydi. Bu esa o'z navbatida milliy iqtisodiyot barqarorligini mustahkamlovchi muhim omil hisoblanadi. Shu sababli, har bir fuqaro uchun moliyaviy bilimlarni rivojlantirish hayotiy zaruratga aylanmoqda.

**FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR**


1. O'zbekiston Respublikasi Markaziy banki. "Aholining moliyaviy savodxonligini oshirish konsepsiyasi", Toshkent, 2021.
2. Lusardi, A., & Mitchell, O. S. (2014). The Economic Importance of Financial Literacy: Theory and Evidence. *Journal of Economic Literature*, 52(1), 5–44.
3. OECD (2020). *OECD/INFE 2020 International Survey of Adult Financial Literacy*.
4. World Bank. (2022). *Financial Literacy and Inclusion: Global Evidence and Policy Recommendations*.
5. Махкамова, Н. (2020). *Moliyaviy savodxonlik asoslari*. Toshkent: Iqtisodiyot nashriyoti.
6. Goyal, K. A., & Kumar, S. (2021). Impact of Financial Literacy on Financial Decision Making: A Review. *International Journal of Business and Management*, 16(3).
7. Statista Research Department (2023). Financial literacy levels worldwide – statistics and data.

# INVETSIGATING FACTORS THAT INFLUENCE STUDENT MOTIVATION AND ENGAGEMENT IN THE LEARNING PROCESS

*Isakova Elvina Dilaverovna*

***Acting Director of the Presidential School in Termez***

**Abstract.** This article explores the multifaceted factors that affect student motivation and engagement in contemporary learning environments. Drawing on theories of intrinsic and extrinsic motivation, it examines how psychological, pedagogical, and environmental elements contribute to learners' active participation and sustained interest in academic tasks. The study highlights the significance of teacher-student relationships, classroom climate, autonomy support, relevance of content, and feedback mechanisms in fostering motivation. It further discusses strategies to enhance engagement, particularly in the context of digital and hybrid learning systems. The findings underscore the importance of a learner-centered approach and provide insights for educators, policymakers, and curriculum designers.

**Keywords:** Student motivation, engagement, intrinsic motivation, extrinsic factors, learning environment, pedagogy, classroom climate, digital education.

## INTRODUCTION

Motivation and engagement are fundamental determinants of academic success and personal development in educational settings. While motivation refers to the internal drive or external incentive that prompts students to learn, engagement reflects the behavioral, emotional, and cognitive investment students make in learning activities. Despite the central role of motivation in learning outcomes, maintaining it consistently throughout the academic journey remains a challenge for educators across all levels. As education shifts toward more student-centered, technology-enhanced, and collaborative models, understanding the factors that influence motivation and engagement becomes increasingly critical.

Over the last few decades, numerous studies have attempted to classify and quantify the elements affecting student motivation, ranging from psychological traits to instructional practices. However, the dynamic interaction between individual learner differences and

institutional factors necessitates a holistic and context-sensitive analysis [1]. This article aims to examine key motivators and barriers to engagement, drawing from established motivation theories such as Self-Determination Theory (Deci & Ryan) and Expectancy-Value Theory (Eccles & Wigfield), as well as recent findings from educational psychology and classroom research.

**MATERIALS AND METHODS**

Student motivation is often categorized as either intrinsic—driven by curiosity, interest, and personal satisfaction—or extrinsic, based on external rewards such as grades, praise, or future benefits. Research indicates that intrinsic motivation leads to deeper learning, critical thinking, and long-term academic achievement. However, extrinsic motivators can play a valuable role when used constructively, particularly for tasks that students initially find less engaging. Balancing both types of motivation is essential for maintaining consistent learner involvement [2].

**RESULTS AND DISCUSSION**

Teachers play a pivotal role in shaping motivational climates. Supportive teacher-student relationships that emphasize respect, empathy, and encouragement have been shown to boost students' sense of belonging and purpose. Furthermore, the physical and emotional climate of the classroom—whether students feel safe, challenged, and valued—greatly influences their willingness to engage. Classrooms that promote collaboration, minimize fear of failure, and celebrate effort rather than just outcomes foster higher engagement levels.

According to Self-Determination Theory, motivation is enhanced when learners experience autonomy (control over their learning), competence (a sense of mastery), and relatedness (connection with others) [3]. Educators can cultivate autonomy by offering meaningful choices in assignments, integrating student voice into decision-making, and reducing rigid control over learning. Enhancing competence through scaffolded challenges and timely, constructive feedback helps students build self-efficacy. Facilitating group work and peer interaction supports the need for relatedness, particularly in adolescence.

One of the primary reasons students disengage is the perception that what they are learning lacks relevance to their lives or goals. Contextualizing content, integrating real-

world applications, and linking lessons to students' interests and aspirations can significantly increase motivation. Project-based learning, inquiry-based approaches, and interdisciplinary instruction help bridge the gap between curriculum and meaningful experience.

Feedback is a crucial component in guiding motivation. Studies show that feedback focusing on the learning process (rather than solely on correctness) fosters a growth mindset and encourages persistence. Formative assessment strategies, such as peer review, reflective journals, and progress tracking, allow students to monitor their growth and feel more in control of their learning trajectory. On the other hand, excessive reliance on summative tests and grades may lead to anxiety, competitiveness, and surface-level learning.

With the rise of digital and hybrid learning environments, new opportunities and challenges for motivation have emerged. While technology can enhance interactivity, accessibility, and personalized learning, it may also contribute to distraction and disengagement if not used intentionally. Incorporating gamified learning, interactive simulations, and adaptive learning platforms can support engagement, but these tools must be aligned with pedagogical goals and student readiness [4].

**CONCLUSION**

Enhancing student motivation and engagement is a complex, ongoing process that requires an intentional blend of pedagogical strategies, relational sensitivity, and structural support. By understanding the diverse factors that influence motivation—from internal psychological needs to external classroom dynamics—educators can design learning environments that not only inform but inspire. Effective motivation is not about imposing pressure or incentives, but about creating conditions in which students see value, feel capable, and experience belonging. In the evolving landscape of education, fostering such motivation is both a responsibility and an opportunity.

**REFERENCES**

1. Deci, E. L., & Ryan, R. M. (2000). Self-determination theory and the facilitation of intrinsic motivation, social development, and well-being. American Psychologist, 55(1), 68–78.

2. Eccles, J. S., & Wigfield, A. (2002). Motivational beliefs, values, and goals. Annual Review of Psychology, 53(1), 109–132.
3. Skinner, E., & Belmont, M. (1993). Motivation in the classroom: Reciprocal effects of teacher behavior and student engagement. Journal of Educational Psychology, 85(4), 571–581.
4. Hattie, J., & Timperley, H. (2007). The power of feedback. Review of Educational Research, 77(1), 81–112.

# YOSHLAR MA'NAVIYATINI YUKSALTIRISHDA ILM-MA'RIFATNING O'RNI

**Rashidova Mashhura Karimovna -"Renessana ta'lim" universiteti**

**Buranova Nigora A'zamkulovna – "Renessana ta'lim" universiteti**

**Annotatsiya:** *Ushbu maqolada mamlakatimizda ertangi kunimiz egalarining har jihatdan sog'lom kamol topishi, zamonaviy bilimlarni egallashi, o'z iqtidor va qobiliyatini ro'yobga chiqarishi davlat siyosatining ustuvor yo'nalishlaridan biri ekanligiga etibor karatiladi.*

**Kalit so'zlar:** *Ilm-ma'rifat, e'tiqod, ma'naviyat, ma'naviy-madaniy, tinchliksevar, axloqiy tafakkur, milliy qadriyatlar, urf-odatlari.*

Yurtimizda kechayotgan ijtimoiy-iqtisodiy, siyosiy jabhalardagi bugungi islohotlarning borishi ta'lim tizimini ham tubdan isloh qilishni taqozo etmoqda. Chunki, har bir jabhaning taraqqiyoti o'sha soha mutaxassislarining bilimi, idroki, tafakkuri va malakasi, dunyodagi shu yo'nalishning rivojlanish tendensiyalarini qanchalik o'zlashtirganligi bilan belgilanadi.

O'zbekiston xalqining ko'p asrlik boy tarixiga nazar tashlar ekanmiz, unda azaldan ilm-ma'rifatga alohida e'tibor qaratilib kelganligini guvohi bo'lamiz. O'sha davrlarda jamiyatda ilm-fan, san'at va madaniyatning yuksalishi, buyuk siymolarning o'z ijodida erishgan yutuqlari jahon tamaddunining rivojiga qo'shgan hissasi barchamizni birdek faxru-g'ururimizga sabab bo'lib kelmoqda.

Bizning millatimiz jahon sivilizatsiyasiga buyuk Xorazmiylar, Farg'oniylar, Samarqandiylar, Buxoriylar, Termiziylar, Farobiylardek ulug'larni yetishtirishda fidoiylik qilgan diyordir. Hozirda esa bu boy merosni asrab-avaylabgina qolmasdan, balki uni yanada boyitib kelgusi avlodlarga meros qoldirish kabi ulkan vazifa turibdi. Bu esa **yoshlarda** to'g'ri ta'lim va tarbiyani shakllantirib, ularni Vatanga, elu yurtga xizmat qiladigan insonlar qilib tarbiyalash muhimligini ko'rsatmoqda. Zero, Islom Karimov "Butun umrini iymon va e'tiqod, vatanparvarlik va insonparvarlik, poklik va diyonat yo'lida fido etgan zotlarning mo'tabar xoklari makon topgan bu zaminning muqaddasligini anglab, agar shunday

insonparvar bo‘lmasa, ular dahosining nafasi sezilib turmasa, bu zamin oddiy tuproq bo‘lib qolaverishini," ta‘kidlaganlar. Bugungi kunda O‘zbekiston Prezidenti Sh.Mirziyoev birinchi prezidentimizning so‘zlarini hayotga to‘g‘ri tatbiq etishda yanada jonkuyarlik qilayotganlarini quyidagi so‘zlardan ham ko‘rishimiz mumkin. “O‘zbekiston va uning bag‘rikeng xalqi tinchliksevar siyosat yuritish, milliy va umuminsoniy qadriyatlarga hurmat bilan qarash tamoyillarini amalga oshirish pozitsiyasida doimo mustahkam turib kelmoqda. Lekin, zarur bo‘lsa, biz mamlakatimiz suvereniteti va mustaqilligiga, xalqimizning tinch va osuda hayotiga tahdid soladigan har qanday urinishlarga qarshi keskin zarba berishga qodirmiz. Shuning uchun men, xalqimizga murojaat qilib, shuni aytmoqchimanki, bu masalada hech kimda hech qanday ikkilanish va shubha bo‘lmasligi lozim. Bunga bizning kuchimiz ham, qudratimiz ham yetarli”.

Prezidentimizning ilm-ma‘rifatni rivojlantirishga qaratilgan ko‘plab chiqishlarida nafaqat yoshlar, balki butun jamiyatimiz a‘zolarining bilim saviyasini oshirish uchun avvalo ilm-ma‘rifat, yuksak ma‘naviyat kerak bo‘lib, ilm yo‘q joyda qoloqlik, jaholat va albatta, to‘g‘ri yo‘ldan adashish bo‘ladi deb donishmandlarcha aytgan so‘zlari muqaddas kitobimiz Qur‘onning ilk oyatida ham “O‘qing”, “O‘qing” deb ilmu ma‘rifatga alohida urg‘u berilganligi va “Ilm”so‘zining takror va takror kelganligi hamda Imom Buxoriy bobomizni “Ilmdan boshqa najot yo‘q va bo‘lmagay!” kabi so‘zlari bu da‘vatning naqadar muhimligini anglatadi.

Ma’naviyat — shaxsning ichki olami, axloqiy qadriyatlari va jamiyatga munosabatini belgilovchi asosiy mezonlardan biri sanaladi. Yoshlar ma’naviyatini shakllantirishda ilm-ma’rifat muhim omil bo‘lib, u orqali jamiyatning madaniy, ma’rifiy va ma’naviy mezonlari mustahkamlanadi. Ilm-ma’rifat faqat bilim emas, balki tarbiya, jamiyatda munosib o‘rin egallashga qaratilgan axloqiy asos hamdir.

Ilm-fan, ma‘naviyat-ma‘rifatga tikilgan sarmoya buyuk kelajak uchun kiritilgan investitsiyadir. Ilm-ma‘rifat rivojlanmagan davlat hech qachon to‘laqonli davlat bo‘la olmasligi bizga uzoq tarix hamda bugungi asrimizdagi yuksak taraqqiy etgan ilg‘or mamlakatlar tajribasidan juda yaxshi ayon. Darhaqiqat, ilm-ma‘rifat ikki dunyo saodatidir. Ilm ma‘rifatsiz kishi berilgan ne‘matlar qiymatini anglab yetmaydi. Ilm-ma‘rifat inson uchun najot. Shu bois, yurtimiz qadim-qadimdan ilm-ma‘rifat markazi, sivilizatsiyalar

chorrahasi bo'lib kelgan. Ushbu tabarruk zamindan dunyoga ilmu irfon ziyosini taratgan buyuk allomalar, olimu mutafakkirlar yetishib chiqqan. Ular ilm-fanning ko'plab jabhalariga asos solib, jahon tamaddunining shonli mayog'i bo'lib kelganlar. Ta'kidlash joizki, xususan, O'zbekiston hududi ham Sharq Renessansining yirik markazlaridan biri sifatida dunyoga ma'lum va mashhurdir.

Ilm-ma'rifat inson fikrlashini, dunyoqarashini, axloqiy pozitsiyasini shakllantiradi. Xususan, yosh avlodda tanqidiy fikrlash, zamonaviy ilm-fan yutuqlarini o'zlashtirish, va eng muhimi, milliy va umuminsoniy qadriyatlarga hurmat tuyg'usini tarbiyalaydi. Darhaqiqat, jamiyat ma'naviyati falsafasi – mamlakat taraqqiyotining muhim sharti va kafolatidir. Shu narsa haqiqatki, hech bir mamlakat o'z ma'naviy qadriyatlariga, imkoniyatlariga tayanmay, odamlar ongi, tafakkurida ma'naviy va axloqiy an'analarni rivojlantirmay yuksak taraqqiyot darajasiga ko'tarila olmaydi. Yoshlarni to'g'ri tarbiyalashda imon-e'tiqod va ona Vatanga bo'lgan sadoqatni ular ong-shuuriga singdirish muhim ahamiyatga ega. Jamiyatning axloqiy mezonlari qadriyatlari o'tmish ma'naviy-madaniy merosi bilan bog'liq. Xalqning axloqiy tafakkuri, milliy qadriyatlari va urf-odatlari, madaniy merosi pirovard natijada turmushining falsafiy tafakkuri millat uchun, uning obro'si va istiqboli uchun xizmat qilsagina boshqalarda ehtirom va havas tuyg'ularini uyg'otadi, ana shundagina millat o'z o'tmishini, o'zligini, qadriyatlarini, urf-odatlarini unutmaydi. Shu boisdan ham ma'naviy-madaniy qadriyatlar shaxsning olg'a harakatida muhim omil bo'lib, uning faoliyatida boshqaruvchi va bog'lovchi vazifalarini bajaradi.

Buyuk ajdodlarimiz qoldirgan boy madaniy va ma'naviy merosni, mardlik va jasorat tuyg'ulariga asoslangan falsafiy tafakkurimizni allaqanday "ommaviy madaniyat"ga almashtirmaslikka barchamiz birdek mas'ulmiz.

Zamonaviy bilim va ko'nikmalarga ega, mamlakatning munosib kelajagi uchun javobgarlikni o'z zimmasiga ola biladigan barkamol, maqsadga intiluvchan va serg'ayrat yoshlarni tarbiyalash mamlakatni barqaror va ildam rivojlantirishning eng muhim shartidir. Bu boradagi ishlar samaradorligini oshirishga qaratilgan muhim hujjatlardan yana biri, O'zbekiston Prezidenti tomonidan 2018-yil 27-iyunda imzolangan "Yoshlar – kelajagimiz" Davlat dasturi to'g'risida»gi Farmonning qabul qilinishi bo'ldi. Farmon bilan "Yoshlar –

kelajagimiz" jamg'armasi tashkil etildi va ushbu jamg'arma yoshlarning biznes tashabbuslari, startaplari, g'oyalari va loyihalarini amalga oshirish uchun tijorat banklari orqali yillik 7 foiz stavka bilan imtiyozli kredit va mol-mulkni lizingga berishi belgilab qo'yildi. Ushbu hujjatga e'tibor qaratilsa, yoshlar tadbirkorligi va tashabbuskorligini kompleks rivojlantirish vazifalari aniq va tizimli belgilanganini ko'rish mumkin.

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.M.Mirziyoyev ta'kidlaganidek, "Ilm-ma'rifat va raqamli texnologiyalar davrida yashayapmiz. Bunday sharoitda yoshlarimizning ilm olishi, komil inson bo'lib voyaga yetishi – eng ustuvor vazifamizdir".

Aslida ham bilimli inson ilmning qadrini, olimning qadrini yaxshi biladi. Agar davlat rahbarining keyingi yillarda ma'rifat, ta'lim va ilm-fanni rivojlantirish yo'lida imzolagan qonun, Farmon va qarorlari, ilgari surayotgan ezgu tashabbuslarining mohitini to'la taxlil qilsak, O'zbekistonda yangi Ma'rifat Renessansiga mustahkam tamal toshi qo'yilayotganini anglaymiz. Ayniqsa, ilm ahliga qaratilayotgan e'tibor va rag'batning bosqichma-bosqich oshirib borilayotgani poydevorning yanada pishiq bo'lishiga ishoradir.

Prezidentimizning oqilona siyosati ana shu istakning ro'yobga chiqishiga to'liq asoslarni yaratmoqda. Buni birgina misolda, oliy ta'lim qamrovining bosqichma-bosqich oshirib borilayotganida ham ko'rish mumkin. Jumladan, keyingi uch yilda oliy - ta'lim muassasalari soni 65 tadan 117 taga yetdi, qabul o'rinlari 66 mingtadan 181 mingtaga oshdi. Demak, har yili yuz mingdan ziyod yoshlar eng yorug' orzusi — o'qish istagiga erishishiga zamin yaratilmoqda.

Aytish joizki aynan shunday yuqorida keltirib o'tgan ulug' maqsadlarga erishish uchun O'zbekiston Respublikasini 2019-2021-yillarda innovatsion rivojlantirish strategiyasining bosh maqsadlaridan biri inson kapitalini rivojlantirish bo'lsa, boshqasi 2030-yilgacha Global innovatsion indeks reytingi bo'yicha jahonning 50 ta ilg'or mamlakati tarkibiga kirish etib belgilangani barchaning yodida, albatta.

Prezidentimizning mamlakatimiz kelajagini ta'lim va ilmu fanda ko'rayotgani, uchinchi Renessans g'oyasi milliy g'oya darajasiga ko'tarilgani, zamonaviy dunyoga yuzlanish hamda dunyo bilan tenglashmoq istagida ana shu Vatan va millat tuyg'usining yana bir jilvalanishini ko'rish mumkin.

So'ngi yillarda davlatimiz rahbarining bevosita tashabbusi bilan ilm-fan, ta'lim va ishlab chiqarishni o'zaro bog'laydigan mustahkam mexanizm bosqichma-bosqich ishlab chiqilib, joriy etilmoqda. Mamlakatimiz rivojlanishida ilm-fanning rolini kuchaytirishga qaratilgan islohotlarning amaliy natijasi sifatida qator ilmiy, ta'lim va innovatsion tashkilotlar (tuzilmalar) tashkil etildi. 32 ta ilmiy-innovatsion tuzilmalar (6 ta texnoparklar, 8 ta ilmiy markazlar va 18 ta ilmiy- tadqiqot institutlari) hamda yangi 29 ta oliy ta'lim muassaslari va ularning filiallari shular jumlasidandir.

Raqamli axborot oqimida yoshlarning ongiga salbiy ta'sir etuvchi omillar ko'paymoqda. Shu bois, internetda ham ma'rifatni ilgari surish, milliy va umuminsoniy qadriyatlarni targ'ib qilish muhim vazifalardan biridir.

Bugun O'zbekistonda yoshlarning ezgu maqsadlarini hayotga tatbiq etishlari, ularning ijodiy, intellektual va tadbirkorlik salohiyatini ro'yobga chiqarish, innovatsion g'oyalar, loyihalar va texnologiyalarni ishlab chiqarishga joriy qilish, iqtidorli talabalar, yosh olimlar va tadbirkorlarning innovatsion faoliyatini rag'batlantirish, ilm-fan, ta'lim va ishlab chiqarish integratsiyasini kuchaytirish uchun zarur shart-sharoitlar yaratilmoqda.

Ta'lim jarayonida yoshlarga taqdim etilayotgan bunday imkoniyatlar ertamiz egalari bo'lgan yosh avlodning o'z salohiyatini to'la namoyon etishi, o'zi tanlagan kasb bo'yicha o'qishi, ishlashi, hayotda o'z o'rnini topib olishi va jamiyat ravnaqiga munosib hissa qo'shadigan mutaxassislar bo'lib yetishishi uchun mustahkam poydevor yaratadi.

Zero, faqat tinchlik hukm surgan, adolat tamoyillariga og'ishmay amal qilingan jamiyatdagina barcha qadriyatlar taraqqiy etadi. Bu holatlar milliy-ma'naviy qadriyatlarimizni yanada kengroq o'rganish imkoniyatlarini ochish bilan birgalikda o'sib kelayotgan yosh avlodni yurtimizning haqqoniy tarixi bilan qiziqishlarini yanada oshiradi. Respublikamizda olib borilayotgan islohotlar orqali biz o'z oldimizga uzoq va davomli milliy manfaatlarimizni amalga oshirish masalasini qo'yar ekanmiz, shakllanib kelayotgan yangi avlod hayotida tarixiy-madaniy merosga munosabatni yaxlit falsafiy tafakkur darajasida samarali rivojlantirish vazifasiga yanada jiddiy ahamiyat qaratishimiz lozim.

Ilm-ma'rifat — yoshlar ma'naviy dunyosiga nur sochuvchi asosiy manbadir. U orqali insoniylik, vatanparvarlik, ma'suliyat hissi va umuminsoniy qadriyatlar shakllanadi.

Shunday ekan, ta'lim muassasalarida ilm va ma'naviyatni uyg'un holda targ'ib qilish, zamonaviy texnologiyalar orqali ma'rifiy muhitni kengaytirish – davlat va jamiyat oldida turgan dolzarb vazifadir

Ta'kidlash lozimki yosh avlodni yuksak axloq va intizomli qilib tarbiyalash, ularning sifatli ta'lim olishi va vatanparvarlik ruhida voyaga yetishi mamlakat iqtisodiy va siyosiy taraqqiyotining kaliti hisoblanadi. Bu esa ijtimoiy barqarorlik va muvaffaqiyat asosidir.

**Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati**

1.Mirziyoev Sh.M. Erkin va farovon, demokratik O'zbekiston davlatini birgalikda barpo etamiz. –T.:O'zbekiston. 2016-y., 9-bet

2. Mirziyoyev Sh.M. "Yangi O'zbekiston – yangi taraqqiyot bosqichida". – Toshkent, 2022.

3.Karimov I.A. Biz kelajagimizni o'z qo'limiz bilan quramiz. - T.: O'zbekiston. 1997y., 184- bet.

4.https://xs.uz/uzkr/post/uchinchi-renessans-pojdevori-insonparvarlik-va-ilm-marifat-asosiga-tiklanmoqda

5. Yoshlar – kelajagimiz» Davlat dasturi to'g'risida» O'zbekiston Respublikasi Prezidentining Farmoni. https://lex.uz/docs/3826820

6. Kuramshina B.A. "Ma'naviy tarbiya va yosh shaxs shakllanishi". // Pedagogika jurnali, №4, 2021.

7. Bahodirov M. "Kitob – ma'naviy olam oinasi". – Toshkent, 2019.

8. Toshpo'latov A. "Internet va ma'rifat makoni". // Jamiyat va boshqaruv jurnali, №3, 2020.

**Motivating students to learn less commonly taught languages**

**Boliqulova Muxlisa Nomoz qizi**
Samarkand State Institute of Foreign Languages
Faculty of English Philology and Translation Studies
3rd stage student
muxlisaboliqulova2104@gmail.com
+998 93 730 29 22

**Abstract:** Less commonly taught languages (LCTLs) are becoming increasingly important in today's globalized world. Despite their significance, motivating students to learn these languages remains a challenge. This article aims to explore the key motivational factors and effective teaching strategies that encourage students to learn LCTLs. A literature review was conducted to gather data from recent studies and national research. The findings highlight that cultural interest, career prospects, and personal enrichment are strong motivators. Strategies such as immersion programs, gamified learning, peer collaboration, and the inclusion of national cultural components are effective in boosting students' interest [6].

**Key words:** less commonly taught languages (LCTLs), student motivation, cultural interest, career opportunities, personal enrichment, immersion programs, gamification, peer learning, language education strategies, Uzbek language teaching

**Introduction**

In an era of globalization, linguistic diversity is a valuable asset. However, while languages like English, Spanish, and French are widely taught, less commonly taught languages (LCTLs) such as Korean, Arabic, Swahili, and Uzbek often receive limited attention. Encouraging students to study LCTLs is crucial for fostering cross-cultural understanding, national security, and economic competitiveness. In the context of Uzbekistan, significant efforts have been made to promote the Uzbek language internationally [4]. Despite these benefits, many educators find it challenging to motivate learners. Several factors contribute to this issue, including limited learning resources, perceived difficulty of the language, and low visibility in global media. Addressing these challenges requires innovative educational strategies that tap into students' intrinsic and extrinsic motivations. This paper investigates the main factors that influence student motivation and suggests effective strategies to promote LCTL education, drawing on both global and Uzbek academic perspectives [5].

**Materials and Methods**

This study utilized a comprehensive literature review methodology, focusing on a diverse range of academic sources, including peer-reviewed research articles, national and international surveys, and qualitative case studies. The selection criteria for sources emphasized relevance to the core themes of language learning motivation and innovative educational strategies specifically targeting less commonly taught languages (LCTLs) [7]. Special emphasis was placed on incorporating recent contributions from Uzbek scholars to ensure that regional perspectives and localized pedagogical practices were adequately

represented . During the review process, thematic analysis was employed to extract recurring patterns, key motivational factors, and successful teaching methodologies across different studies. Additionally, a comparative framework was applied to critically analyze the similarities and differences in motivational strategies across various national contexts. This approach allowed for a deeper understanding of how cultural, institutional, and socioeconomic factors influence students' motivation to learn LCTLs. The findings thus offer a more holistic view of global trends while highlighting unique insights from the Uzbek educational landscape [6].

**Results**

The analysis revealed three major motivators for students learning LCTLs:

*Cultural Interest:* Students often choose to study a language out of fascination with its associated culture, traditions, and arts. Studies from Uzbekistan show that incorporating folklore, music, and national holidays into language classes boosts student engagement.

*Career Opportunities:* Certain LCTLs open doors to unique job prospects in diplomacy, international business, and translation services [3].

*Personal Enrichment:* Some learners pursue LCTLs for personal growth, travel, or heritage reasons. Programs supporting heritage language learners, especially among diaspora communities, have shown positive outcomes [2].

*Effective strategies for motivating students included:*- *Immersion Programs:* Short-term study abroad experiences or local immersion events greatly enhanced engagement.

- *Gamification:* Incorporating games and interactive digital tools made learning more enjoyable.

- *Peer Learning:* Group projects, debates, and peer tutoring fostered a collaborative environment that sustained student interest.

- *Cultural Integration:* Curriculum designs that included national literature, art, and traditions significantly motivated learners.

**Discussion**

These findings align with previous studies that emphasize the importance of intrinsic and extrinsic motivation in language learning. Compared to commonly taught languages, LCTLs often require more innovative teaching methods to attract students. Immersion programs offer authentic contexts that increase motivation, while gamification appeals to students' love for technology and fun. Peer learning builds community, which is particularly vital in smaller LCTL classrooms [8].

Uzbek researchers have emphasized the importance of fostering a strong emotional connection to the language. According to Karimova, when students see the practical benefits and cultural richness of a language, their willingness to invest effort rises significantly. Rakhmonov and Tursunova found that project-based activities, such as preparing cultural exhibitions and creating multimedia presentations about the target language's country, greatly enhanced both motivation and language proficiency. Nevertheless, some limitations persist. These include a shortage of qualified teachers, limited learning materials, and insufficient government support for less popular languages. In Uzbekistan, recent reforms

have aimed to overcome these obstacles by funding teacher training programs and developing new digital resources.

Future research should focus on developing sustainable immersion opportunities, better integrating technology, and designing curricula that highlight the practical and cultural advantages of LCTLs. Collaboration between international and Uzbek institutions can also provide more robust frameworks for supporting LCTL education.

**Conclusion**

Motivating students to learn less commonly taught languages (LCTLs) is essential in our interconnected world. Cultural appreciation, career goals, and personal enrichment are key drivers. Educators should adopt strategies like immersion, gamification, collaborative learning, and cultural integration to inspire students [1]. By addressing motivational challenges, institutions can foster greater interest and proficiency in a wider range of world languages. Efforts at the national and institutional levels, as evidenced by Uzbek initiatives, show that thoughtful, culturally sensitive program designs can make a significant impact.

Further work must continue to expand access, quality, and visibility for LCTL programs worldwide. This includes investing in teacher training, developing high-quality and culturally relevant materials, and increasing public awareness about the benefits of multilingualism. Additionally, integrating LCTLs into mainstream curricula and leveraging technology to connect learners across borders can help sustain momentum. As global challenges increasingly require intercultural dialogue and cooperation, promoting the study of LCTLs becomes not just an educational priority, but a societal necessity. With sustained support and innovation, the future of LCTL education holds great promise for enriching global understanding and communication.

**References**

**1.** Brown, H. D. (2015). *Principles of Language Learning and Teaching*. Pearson Education. https://www.researchgate.net/publication/247252022_Principles_of_Language_Learning_And_Teaching

**2.** Deci, E. L., & Ryan, R. M. (2017). *Self-Determination Theory: Basic Psychological Needs in Motivation, Development, and Wellness*. Guilford Press.

**3.** Johnson, D. W., Johnson, R. T., & Holubec, E. J. (2019). *Cooperation in the Classroom*. Interaction Book Company. https://search.worldcat.org/title/Cooperation-in-the-classroom/oclc/934414938

**4.** Karimova, D. (2022). *Innovative Approaches to Teaching Uzbek as a Foreign Language*. Tashkent: Uzbekistan State World Languages University Press.

**5.** National Council of Less Commonly Taught Languages. (2020). *Strategies for Promoting LCTLs*. www.ncolctl.org

**6.** Rakhmonov, F., & Tursunova, M. (2023). *Cultural Integration and Motivation in Language Learning: A Case Study from Uzbekistan*. Journal of Language and Education Research, 8(2), 112-125. https://inlibrary.uz/index.php/scientific-research-covid-19/article/view/8644

7. Ushioda, E. (2020). *Language Learning Motivation: An Ethical Agenda for Research.* Oxford University Press. https://pmc.ncbi.nlm.nih.gov/articles/PMC8033155/

8. Wang, S., & Liu, Y. (2021). *Gamification and Student Motivation: A Case Study in Language Learning.* Language Learning & Technology, 25(1), 45-60.

«RESEARCH AND PUBLICATIONS»
ILMIY NASHRLAR MARKAZI

ISSN 2181-2160
JIFactor: 8.2
TA'LIM FIDOYILARI

# Alisher Navoiy hikmatlarida insoniylik va odob masalalari

Samarqand davlat chet tillar instituti
Payariq xorijiy tillar fakulteti
Xorijiy til va adabiyoti ta'lim yo`nalishi
3-bosqich 2201-guruh talabasi
**Abduxakimova Umidaxon Xomitjon qizi**
abduhakimovaumidaxon@gmail.com
**+998 99 468 20 24**

**Annotatsiya.** *Mazkur risolaning maqsadi – Alisher Navoiyning hikmatlarida insoniylik va odob – ahloq tamoyillarining qanday talqin qilinganligini o`rganish, shuningdek, ushbu hikmatlarning bugungi jamiyat va inson hayotidagi ahamiyatli jihatlarini tahlil qilishdan iborat.Ish davomida Alisher Navoiy hikmatlaridagi inson ma`naviyati uchun muhim masalalar tilga olinib, ularning hayotdagi o`rni , darajasi haqida so`z olib boriladi. Risolani o`quvchi odob – ahloq inson umrining bezagi , odob – ahloqsiz inson odamiylik sifatlarini yo`qotgan bir yaratiq xolos ekanligini tushunib yetadi.*

**Kalit so'zlar**: *Ma'naviy kamolot, Navoiy falsafasi, tasavvufiy qarashlar, tarbiya, odob.*

**Annotation**. *The aim of this paper is to explore how the principles of humanity and morality are reflected in the wise sayings of Alisher Navoiy. It also seeks to analyze the relevance of these insights to contemporary society and individual life. The study focuses on the ethical dimensions of Navoi's aphorisms, exemaning their significance in the spiritual development of a person. Throughout the research, Navoi's views on human dignity, the importance of moral behavior, and their role in their life, while the absence of ethical values deprives a person of their humanity, leaving them a mere creature without inner worth.*

**Keywords**: *spiritual development, Navoi's philosophy, Sufi views, upbringing, morality.*

Har bir san'at turining o'z ish quroli borligini hamma biladi, adabiyot esa so'z san'atidir; adabiyotda yagona qurol so'z bo'lib,so'zning sehri bilan inson qalbi zabt etiladi.Albatta so'zning sehr jilosi bilan qalblarni ta]sirlantirmoq , ko'ngillarni rom etmoq har qaysi davrda ham oson kechmagan.Bunday ishlar uchun yozuvchi juda bilimli , zukko , dunyoqarashi keng,mushohadasi o'tkir bo'lmog`i darkor.Ana o`shandagina yozuvchining yozgan misralari,aytmoqchi bo'lgan fikr – tuyg`ulari kitobxonning yuragidan joy oladi, undagi mazmun mohiyat o'quvchiningning tomirida junbush urib oqadi.Buning uchun yozuvchida salohiyat yetarli bo'lishi kerak.Alisher navoiy ana shunday zukko va teran aql sohibi edi.Alisher Navoiy asarlarigagina xos bo'lgan o'zgacha shukuh,fikrning teranligi , hayotiy – ahloqiy masalalar o'quvchini chuqur o'ylanishga majbur qiladi.Alisher Navoiy – o'zbek va butun Sharq adabiyotining yirik namoyondalaridan biri bo'lib,uning ijodi insoniylik, odob – ahloq, adolat va ma`naviy yetuklik kabi yuksak fazilatlarni targ`ib etishga yo'naltirilgan.Shoirning hikmatli so`zlari pand – nasihatlari va pandnoma xususidagi

asarlari faqatgina adabiy meros emas, balki insoniyat uchun muhim ma`naviy yo’riqnoma hamdir.Uning hikmatlari shaxsiy va ijtimoiy ahloq va odob tamoyillarini yoritib,jamiyat hayotida insoniylik, halollik, adolat va hozirgi hayotimizda juda kerakli bo’lgan odamiylik belgisi – mehr-muruvvatni mustahkamlashga xizmat qiladi

Alisher Navoiy hikmatli so`zlari insoniy fazilatlar, ahloq-odob qoidalari hayotiy tajribalar va donishmandlik kabi haqida chuqur mazmunli fikrlarni o`z ichiga oladi.

“Boshni fido ayla oto boshig`a

Jismni qil ano qoshig`a

Tun – kuningga aylagali nur fosh,

Birisin oy angla,birisin quyosh’’

Bu bayt ota – onaga hurmat va sadoqat haqida so`zlab,shoir insonga ota – onani tengsiz muqaddas zot ekanligini,hattoki ular uchu jon fido qilsa – da arzirli ekanligini , ular cheksiz ehtiromga loyiq insonlar hisoblanishini uqtirib o`tgan.Inson ota – onasi oldida doimo har qanday vaziyatda kamtar va hurmatli bo`lishi kerak.Ular uchun beminnat xizmat qilishi , duosini olishi inson uchun juda muhim.Kimki ota – onasini duosini olsa hech kam bo`lmaydi , ularning duosi, roziligi ulkan ne`matdir.ota – ona duosini olgan farzandning hayoti baxt va barakaga to`ladi.Navoiy bu baytida o`quvchiga shunday fikrlarni bermoqchi bo`lgan.

“Aql ila olam yuzini shod qil,

Hulq bila olam yuzini obod qil’’

Bu baytda insonnig ikki asosiy fazilatlariga - aql va hulq[ahloq]ga urg`u berilgan bo`lib,ular jamiyat va inson hayotining go`zal bo`lishida muhim o`rin tutishi ta`kidlanadi.Inson o`zining aqlu – zakovati bilan dunyoni yaxshilashi,odamlarga foyda keltirishi kerak . Aql yordamida ilm olish,muammolarga yechim topish mumkin,kashfiyot va ixtirolar qilishi va bu orqali insoniyat mushkulini oson qilishi,odamlarga adolat bilan muomala qilishi mumkin.Aql bilan ish tutgan kishi nafaqat o`zining , balki boshqalarning ham hayotini quvonchli va mazmunli qila oladi.Yaxshi hulq – odob esa aqlning hamrohidir , kimki aql va odobni o`zida mujassam qilsa.uni yaxshi odam deb hisoblash mumkin.Agar insonlar o`zaro hurmat, mehr – oqibat,muruvvat bilan yashasa, dunyo yanada go`zal ko`rinadi.Inson shunchaki aqlli bo`lishi kifoya emas,balki ahloqiy doirada ham yuksak bo`lishi kerak.Demak, aql olamni yoritsa, go`zal ahloq uni obod etadi,har bir inson aqli va odobi bilan atrof – muhitini yaxshilashga intilishi kerak.

Vatan tarkin bir nafas aylama,

Yana ranji g`urbat havas aylama.

Bu baytda Alisher Navoiy insonni vatanni sevishga,yurtga sodiq bo`lishga undaydi.Inson hechqachon vatanini butunlay tark etmasligi, undan yuz o`girmasligi kerak.Vatan insonning jon tomiri , ildizi,uning kimligini va mavjudligining asosidir.

Zero, haqiqiy farzand eli uchun yurti uchun kuyib – yonib yashaydi,vatan ravnaqida yurakdan shod bo`ladi, kerak bo`lsa vatan uchun jonni berishgada tayyor bo`lishi kerak.Alisher Navoiy ijodida hikmatli so`zlar juda ko`plab uchraydi,ulardan bir qanchasini misol keltirishimiz mumkin

Bilmaganin so`rab o`rgangan olim,

Orlanib so`ramagan o`ziga zolim.

Kishi ilm olishdan charchamasligi lozim,Har qaysi yoshda o`zi bilmagan narsalarini olimlardan so`rab o`rganishi kerak,garchi ilm beruvchi kishi o`zidan kichik bo`lsa ham.

Oz-oz o`rganib dono bo`lur,

Qatra-qatra yig`ilib daryo bo`lur.

Kishi oz demasdan o`rganib davom etsa,bir kun albatta,o`rganganlari uni katta ilm sohibi qilib namoyon qiladi,muhimi ilm olishda to`xtamaslik zarur.

Kimki yolg`on so`zni birovga to`nkagay,

O`zi qaro yuzin yog`ga bulg`agay.

Yolg`onchilik – eng yomon odat.Yolg`onchilik insonni el ichida beobro` , sharmandai-sharmisor qiladi.Kim bu odatga odatlansa nobakor bo`ladi.

Ilm o`qib amal qilmag`on,

Kariz qazib tuxum solmag`onga o`xshar

Kishi ilm olsayu,shu o`rgangan ilmiga amal qilmasa,joy tayyorlab,tuxum qo`ymagan qushga o`xshatilyapti,zero tuxum qo`ymasa qiynalib joy tayyorlagani besamardir.Xulosaki,har kim olgan ilmiga avvalo o`zi amal qilmog`i lozim, shundagina bu ilmdan naf olsa bo`ladi.

Kimki bir ko`ngli buzuqni xotirin shod aylagay,

Oncha borkim, Ka`ba vayron aylagay.

Kimki bir yomon niyatli kishiga hamroh bo`lib,uning buzuq niyatini amalga oshirishda unga ko`maklashib yursa,muqaddas Ka`bani buzgandek bo`ladi,aksincha yomon niyatni amalga oshishiga yo`l qo`ymaslik kerak,buzuq niyatlini yaxshi ishlarga undashi nojo`ya ish qilishdan qaytarmog`i lozim.

Alisher Navoiy hikmatlaridan shuni anglash mumkinki, ta`lim – tarbiya inson vujudining xushmanzara bog`idir,odamiylik olamining javohirotlarga boy tog`idir.Uni qancha go`zal gullarga to`ldirish insonning zehnu-zakovatiga bog`liqdir.Inson vujudida bu

fasohat bog`i qancha gullab yashnar ekan, uning aql-zakovati yuksaklashib boraveradi, u bog`dan olam ahli bahramand bo`laveradi. Bu bog`da dilozorlik, yolg`onchilik, badgumonlik, behayolik, ilmsizlik va shu kabi yomonlik urug`larini o`sishiga yo`l qo`ymaslik kerak. Kimniki bog`i gullab – yashnabdi, u murodiga yetibdi. Inson to oxirgi nafasigacha yaxshilikka bel bog`lab o`tishi kerak, zero zarra miqdorda yaxshilik mukofotsiz, zarra miqdorda yomonlik jazosiz qoldirilmas.

**FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:**

1. Alisher Navoiy. *Mahbub ul-qulub*. – Toshkent: G'afur G'ulom nomidagi Adabiyot va san'at nashriyoti, 1991.
2. Abdurauf Fitrat. *Navoiy hayoti va asarlari*. – Toshkent: Fan nashriyoti, 1990
3. Sirojiddinov, Sh. *Alisher Navoiy: Hayoti, ijodi va falsafiy qarashlari*. – Toshkent: Akademnashr, 2011.
4. https://navoiy.uz
5. https://ziyonet.uz

# TO'RA SULAYMON SHE'RLARIDA BOLA OBRAZI TALQINI

**Tursunqulova Muhayyo Olim qizi**

**Qarshi davlat universiteti 1-kurs talabasi**

**Annotatsiya.** Ushbu maqolada O'zbekiston xalq shoiri To'ra Sulaymonning she'rlarida bola obrazi va u orqali ifodalangan ma'nolar keng ko'lamda yoritilgan. Adibning o'z ijodida inson qalbining nozik jihatlarini, ayniqsa, bolalik davrining beg'uborligi va samimiyatini katta mahorat bilan tasvirlaganini, she'riyatida bola obrazi faqat yosh avlod vakili sifatida emas, balki inson hayotining eng sof va pokiza davri, ezgulik va kelajakka bo'lgan ishonch ramzi sifatida gavdalanganini ham ko'rishimiz mumkin.Bundan tashqari, shoir kelajakka bolalarcha beg'uborlik bilan nazar tashlar ekan, uning she'rlaridagi insoniy tuyg'ularning chinakam sofligini ham ko'zdan qochirmasligimiz darkor.

Kalit so'zlar: tuyg'u, beg'uborlik, bolalik, tarbiya, qishloq

**Annotation.** This article provides a comprehensive analysis of the imagine of a child in the poems people's poet of Uzbekistan, Tora Sulaymon, and the meanings expressed through him. We can also see that the writer skillfully depicted the subtle aspects of the human heart in his poetry, the image of a child is not only a representative of the younger generation, but also a symbol of the purest and most pure period of human life, goodness and faith in the future. Moreover, as the poet looks to the future with childlike innocence, we should not lose sight of the true purity of human feelings in his poems.

**Key words:** emotion, innocence, childhood, education, village.

**Аннотация.** В данной статье подробно анализируются образ ребенка и выраженные через него смыслье в стихотворениях народной позтессы Узбекистана Торы Сулейман. Мы также видим, что в своем творчестве писатель описывает тонкие стороны человеческого сердца, особенно невинность дестсва, и что образ ребенка в его поэзии является не только представителем молодого поколения, но и самого чистого и чистого периода человеческой жизни, символом добра и веры в будущее. Более того, поскольку поэт смотрит в будушее с детской невинностью, мы не должны упускать из виду истинную чистоту человеческих чувств в его стихах.

**Ключевые слова:** чувство, невиновность, дестсво, образование, деревя.

To'ra Sulaymon – XX asr o'zbek she'riyatining yirik namoyandalaridan biri bo'lib, uning ijodida insoniy qadriyatlar, milliy ruh va samimiylik alohida o'rin tutadi. Shoir ijodining muhim yo'nalishlaridan biri bolalar olami, ularning his-tuyg'ulari, orzu-umidlari

va hayotga bo‘lgan qarashlari bilan bog‘liq obrazlar tasviridir. Uning she’rlarida bola tasviri ko‘pincha tabiat, ona, vatan, hayot va mehr-muhabbat kabi tushunchalar bilan uzviy bog‘langan holda namoyon bo‘ladi. Shoir bolalarning ichki dunyosini, ularning orzulari va tashvishlarini yurakdan his etib tasvirlaydi. Shu bois, To‘ra Sulaymon ijodida qo‘llangan bola obrazi nafaqat estetik, balki tarbiyaviy ahamiyatga ham ega bo‘lib, yosh avlodni ezgulikka, vatanparvarlikka va mehnatsevarlikka undashga xizmat qiladi.

To‘ra Sulaymon har doim bolalik mavzusida jo‘shib kuylagan. U o‘zi yashagan davrdan oldingi davrga qaytib uzoq o‘tmishdagi o‘zbekning rivoyatlari, mehr-muhabbati, urf-odatlarini, bolalar ongiga singdiradi. Bundan tashqari, To‘ra Sulaymon barcha voqea-hodisani o‘z holicha yoritgan. Uning she’riyati bo‘rttirish, mazmunan sayoz jumlalardan xoli. Bu to‘g‘rida ustoz adabiyotshunos Qozoqboy Yo‘ldoshev “Sensiz yolg‘iz, g‘arib bo‘ldim” kitobining “Ikkinchi umr manzillari” maqolasida shunday yozadi: “Badiiy asar ijodkor shaxsiyatining mevasi ekani sababli ijodkor qancha o‘ziga xos bo‘lsa, uning yozganlari ham shuncha betakror bo‘ladi. To‘ra Sulaymon tamomila o‘ziga xos shaxs edi va bu qaytarilmas shaxsiyat uning bitganlarida yaqqol ko‘zga tashlanadi. Uning o‘yi, tuyg‘ulari, hayratu hayajonlari hamda ularning ifodasi xalqona. Shoirning qayg‘usi, quvonchi, hatto yumorida ham xalqchillik yaqqol ko‘rinib turadi” (1,5)

Bu kabi iste’dod o‘z-o‘zidan paydo bo‘lib qolmaydi. Uning ma’lum bir asoslari bor. Adabiyotshunos olim Qozoqboy Yo‘ldoshev shoirning iste’dodini o‘zi tug‘ilib o‘sgan ovloq tog‘ qishlog‘i va murg‘ak yoshligi sovetlar tuzumining avji qatag‘on davriga to‘g‘ri kelganligi sababli deb ta’kidlaydi. Shu o‘rinda mashhur adiblardan biri Ernest Hemingueyning hazilomuz o‘xshatishini ham keltirishimiz mumkin: “Yozuvchi bo‘lish uchun iste’dod bilan baxtsiz bolalik kifoya qiladi”. Yuqoridagi fikrlardan ham ko‘rishimiz mumkinki, To‘ra Sulaymonning bolaligi armon bilan o‘tgan, balki shu sababli ham, adib she’riyatida bolalar obrazi umrning eng sof davri deb ta’riflanadi. Shoir bola dunyosini tasvirlash orqali o‘qirmanga quvonch, yaxshi kayfiyat ulasha oladi.

Keltirilgan fikrlar dalili sifatida shoirning ayrim she’rlariga e’tibor beramiz. Xususan, “Biz – jahon bolalari” she’ri fikrlarimizga mutanosib:

Quvonamiz ellarning
Qalbi tutashib tursa,

Bir-biriga muhabbat,
Mehri ham oshib tursa.
Osmonida oy, quyosh
Yulduz yarashib tursa,
Biz – jahon bolalari!

Bu she'rda bola obrazi orqali sovet davridagi ushalmas orzu bo'lgan tinchlik, millatlar o'rtasidagi farovon hayotga bo'lgan orzu-umidlar o'z aksini topgan. Garchi To'ra Sulaymonning sovet tuzumiga qarshi she'rlarining barchasi nashrdan chiqmagan bo'lsa-da, biz mustaqillik davrida chop etilgan asarlari orqali uning she'riyati o'zbek adabiyotining eng yuqori cho'qqisi ekanligiga guvoh bo'lamiz.

Har bir ijodkorning o'zining so'zi, ohangi bor. Lekin ilhom kelganda shoir ham yangi-yangi narsalarni yozaveradi. Buyuk shoirimiz Usmon Nosir ta'biricha aytganda, "Ilhomning vaqti yo'q selday keladi". Nazarimda, shoir ham faqat ilhom kelganda shoir. Qolgan vaqtlarda esa boshqa insonlar kabi insondir. Axir ilhomni majburlab bo'lmaydi-ku?

To'ra Sulaymon yana bir she'rida shunday yozadi:

Aylanayin bolam-ov,
Toqqa bitgan lolam-ov.
Bo'ta ko'zim, sochlari
Qunduzdan ham qoram-ov,
Birpas bo'ying ko'rmasam,
Menda bo'lmas orom-ov. (3,13)

Ushbu misralar beixtiyor ota-onaning farzandiga bo'lgan mehr-muhabbatini yanada ko'proq his qilish mumkin. Zero, farzand uchun bu dunyodagi yagona va birinchi do'st uning ota-onasidir.

To'ra Sulaymon she'rlarini biz, avvalo, mustaqillikdan keyin chinakam his qildik. Ungacha chop etilgan asarlarida ertangi kunga ishonch, porloq kelajak tasvirlarini ko'rishimiz mumkin, ammo shoirning yuragi hadiksirash, qo'rquv kabi hissiyotlardan holi emas edi. O'zbek adabiyotshunoslari orasida bu hissiyot faqatgina To'ra Sulaymonga emas, balki ko'pgina yozuvchi va shoirlarga xosdir. Shunisi quvonarliki, shoir va yozuvchilarimiz

bulardan qo'rqmasdan ijod qilishdi. Bu fikrlarimiz yorqin isboti sifatida To'ra Sulaymonning quyidagi she'rini ko'rishimiz mumkin:

Umrimiz boqiyligini izlaringda ko'raman,
Bog'lar bezavolligini yuzlaringda ko'raman.
Yulduzlar so'nmasligin yuzlaringda ko'raman,
Bola, bolajonimsan,
Tenggi yo'q gulshanimsan. (2,3)

Ushbu misralarni o'qir ekanmiz, shoir yurt erkinligini oldindan ko'rganiga guvoh bo'lamiz. Boshqa ma'noda, bu she'rni ijodkor kelajak avlodga vasiyat qilib yozganga o'xshaydi.

Shoir ko'plab she'rlarida bolani xalq va vatanning ertangi kuni sifatida namoyon qiladi. Ular mehrga, e'tiborga, tarbiyaga muhtoj bo'lgan avlod, lekin ayni paytda yurt taqdirini belgilovchi kuch hamdir. Shoirning misralarida ota-onaning farzandga bo'lgan mehrini, umidvorligi va orzularini ifodalagan. Farzand oilaning go'zalligi, ota-onaning qalb quvonchi sifatida tasvirlanadi.

Shu bilan birgalikda, ijodkor bolalar orqali millatning qadriyatlari, tili, dini va madaniyati yashab qolishini tasvirga oladi. Bola – bu o'zlikni asrovchi, madaniyat merosxo'ridir.

Sening ko'zing bilan ko'pni ko'rolsam,
Sening so'zing bilan dilga kirolsam,
Bosgan izing bo'lib gulga o'rolsam,
Sening o'zing bo'lib, qayta yaralsam,
Havasim keladi senga, bolajon.

Yuqoridagi misralar shoirning "Bolajon" (o'g'li Hasanga bag'ishlangan) she'ridan olingan bo'lib, ijodkor bola bilan qo'shilib ketgan holatini tasvirlaydi.

Har bir farzand ota-onasining erkasi, dilbandi. To'ra Sulaymon ham she'rlari orqali bolalarni erkalaydi. Biz bu qarashlarni shoir she'rlaridan birining nomlanishida ham ko'ramiz. Muallif uni "Sohibi davronimsan" deb sarlavhalaydi:

Bolajon, bag'rimizning butunligi sen bilan,
Davru davronimizning durkunligi sen bilan,

Qizg'aldoq faslining ham yaqinligi sen bilan,
Bola, bolajonimsan,
Beg'ubor osmonimsan. (2,3)

Shoir millatimizning bir butunligi, uning quvonchi, buguni, ertasi barcha-barchasining sababi aziz bolajonlarimiz, ya'ni farzandlar ekanligini ta'kidlaydi.

To'ra Sulaymon ijodi o'zbek adabiyotida inson qalbini, ruhiy olamini, milliy qadriyatlarini chuqur va ta'sirli ifodalashi bilan ajralib turadi. Uning she'riyatida bola obrazi alohida o'rin egallaydi. Shoir uchun bola – bu oddiy bir obraz emas, balki hayotning davomchisi, xalqning kelajagi, orzu-umidlari timsolidir. To'ra Sulaymon bolani yurtning ertangi kuni, umidi sifatida tasvirlaydi va bu orqali har bir insonda mas'uliyat tuyg'usini uyg'otishga intiladi.

Bola obrazida samimiyat, poklik, beg'uborlik, mehr kabi insoniy fazilatlar mujassam. Shoirning ijodida bu obraz ota-ona mehriga chanqoqlik, ilmga intilish, vatanga muhabbat va tilga sadoqat kabi tushunchalar bilan uyg'unlashadi.

Xulosa qilib aytganda, To'ra Sulaymon ijodida bola obrazi katta badiiy va g'oyaviy yuklama kasb etadi. Bu obraz orqali shoir insoniyatga ezgulik, mehr, kelajak haqida qayg'urishni, jamiyat oldidagi mas'uliyatni his etishni eslatadi. Uning bolaga bag'ishlangan she'rlari nafaqat badiiy go'zalligi, balki chuqur tarbiyaviy ma'nosi bilan qadrlidir. Shu sababli To'ra Sulaymon she'riyatida bola obrazi har doim yorqin samimiy va chuqur mazmunli holda namoyon bo'ladi.

**Foydalanilgan adabiyotlar:**

1. To'ra Sulaymon. Sensiz yolg'iz, g'arib bo'ldim. - Toshkent:, Movarounnahr nashriyoti. 2013, 399 b.

2. To'ra Sulaymon. Qorako'zginam. - Toshkent:, Yosh gvardiya nashriyoti. 1981. 64 b.

3. To'ra Sulaymon. Iltijo. - Toshkent:, , Adabiyot va san'at nashriyoti. 1976. 40b.

**Abdurahmonova Uldona Abdujapbarovna,**
**Alisher Navoiy nomidagi**
**Toshkent davlat o'zbek tili va adabiyoti**
**universiteti katta o'qituvchisi,**
**filologiya fanlari bo'yicha falsafa fanlari doktori (PhD)**
**uldona.umidjon@gmail.com**
**+998946867982**

# ESHQOBIL SHUKUR SHE'RIYATIDA YULDUZLAR HAYRATI

**Annotatsiya:** Ushbu maqolada Eshqobil Shukur she'riyatidagi osmon chiroqlari, fazo ziynati bo'lmish, hayratlar olamiga doxil yulduz lirik obrazi Yaratganning mo'jizasi, aql egalari uchun alomatlardan biri sifatida asosan iymon yog'dusi, ilohiy nur; mayoq, farzand, ideal, tole', baxt-iqbol, orzu-umidlar, mahbuba;  ko'z yosh, iztirob timsollari sharq-islom ma'rifati asosida shoirning "Mehrinisoga aytgan allamiz", "Muvozanat" kabi she'rlari misolida rang-barang ma'nolarni anglatishi tadqiq qilingan.

**Kalit so'zlar:** yulduz hayrati, iymon yog'dusi, ilohiy nur; mayoq, farzand, ideal, tole', baxt-iqbol, orzu-umidlar, mahbuba;  ko'z yosh, iztirob timsollari, sharq-islom ma'rifati.

Hayrat fenomenining lug'aviy ma'nolaridan biri "*yulduzlarning osmonda suzib yurishi*"dir. Iste'dodli shoir Eshqobil Shukur she'rlarida osmon chiroqlari, fazo ziynati bo'lmish, hayratlar olamiga doxil yulduz lirik obrazi, timsoli ham Yaratganning mo'jizasi, aql egalari uchun alomatlardan biri sifatida asosan quyidagi ma'nolarni ifoda etadi:

**a) iymon yog'dusi, ilohiy nur...** "Naqshband" dostoni[1]da Boboyi Samosiy va Hazrat Mir Kulol karvoni bilan kelayotgan ilohiy nur, iymon to'lqini-aurasini tasvirlar ekan, "*zikrdan mastona qushlar*"ni "*uchayotgan dumli yulduzlar*"ga o'xshatadi (*"Uchayotgan dumli yulduzlar kabi, // Uchardi zikrdan mastona qushlar..."*). Bu o'rinda qushlarni o'z ma'nosida ham, zokir ruh ma'nosida ham tushunish mumkin. "Dumli yulduzlar", ya'ni

Eshqobil Shukur. Hamal ayvoni. – T.: Sharq, 2002. – B. 229–246.

kometalar Quyoshga yaqinlashgach, uning ta'sirida "dum" chiqargani singari zokir ruhning botiniy parvoziga ham Yaratganga iymon, ibodat va zikr bilangina erishish mumkin. Yoki dostonda Boboyi Samosiy va Hazrat Mir Kulolning bo'lajak shogirdlari Xoja Bahouddin Naqshband qishlog'i – Qasri Hinduvon tuprog'iga qadam bosishi tasvirida pirlar vositasida Yaratganning ulug' inoyati, nazari bilan bu zaminga iymon yog'dusi, ilohiy nur baxsh etilgani "*Falak xurjunidan to'kdi yulduzlar, // Manzildan viqor-la tushib keldi oy... // Poyiga to'shaldi ko'ngillar, ko'zlar*" tarzida ifoda etiladi. Shunga yaqin metaforani yana shu dostonda Bahouddin Naqshbandning uvays piri Xoja Abdulxoliq G'ijduvoniy bilan tushdagi ruhiy-g'aybiy muloqot tasvirida ham uchratamiz:

"*Hazrat tush ko'rarlar: g'uj-g'uj yulduzlar,*
*Tillo patlarini to'kar boshidan...*
*Oyning qayig'ida xotirjam suzgan*
*Hoja G'ijduvoniy chiqar qoshidan*".

Agar pirlar bilan muloqotlardagi bu ikki metaforani shartli ravishda "duo" tarzida qabul qilsak, uning "ijobat" bo'lganiga Hazrat Xoja Bahouddin Naqshbandning nafsni idora qilish, qalbni tarbiyalash, Alloh xazinasi bo'lgan vujudni pok saqlash uchun yetti yil uzlatda "xalqdan butunlay umid uzib", shovqin-surondan uzilib, ruh erkinligiga – ilohiy nurga erishish uchun o'zini o'zi tarbiya qilgani haqidagi hikoyatda duch kelamiz:

"*Kezar... yulduzlarga to'lar kulohi,*
*Kurtak otib borar kuygan ud-aso.*
*Hazrat sahro kezar, hurriyat izlab,*
*Sahro kezganiday hazrati Muso*".

Doston so'ngida esa shoir Bahouddin Naqshband merosidan olgani bilimini, ijod zavqini tasvirlar ekan, ko'ngilni tuproqqa mengzab, bu dil zaminiga yulduzlar ekildi, ya'ni qalbga ilohiy bir yog'du singdi, der ekan, dostonning to'rt o'rnidagi "*Falak xurjunidan to'kdi yulduzlar*", "*Hazrat tush ko'rarlar: g'uj-g'uj yulduzlar, Tillo patlarini to'kar boshidan...*", "*Kezar... yulduzlarga to'lar kulohi*", "*Dilim tuprog'iga yulduzlar ekdi*" satrlaridagi yulduzlar hayrati bir-birini yuzaga keltirgani, o'zaro binarlikda namoyon bo'lganini anglash qiyin emas. Shoir nazdida, yulduzlar bilan to'la osmon shudringzor dalaga o'xshaydi, unda "*yolg'iz bir muhabbat – mazlum e'tiqod*" borki, **ilohiy nur**ga – asl

muhabbatga erishish uchun “yulduzlar nurini ichish”, ya’ni e’tiqodni mustahkamlash lozim (“*Parishon kechalarda shudringlar kechib, // Siz, men va muhabbat yashay boshlasak, // Yulduzlarning zarhal nurlarin ichib*”[2]):

“*Sajdaga bosh qo‘yib bukilgan chog‘da,*
*Yulduzlar yurtida paydo bo‘lsak biz.*
*Osmon qabatlarida sayr etsak sarxush*
*Va osmon sayr etsa bizning ko‘zlarda*[3]”.

Yulduzlar shu’lasining rangi qizilligi bois shoir bu timsolni may obraziga ko‘chiradiki, bu ham mumtoz adabiyotimizga xos ilohiy ishq yolqinini tamsil etadi:

“*Men endi bir darveshman,*
*Sen xayrdan kech, gulim.*
*Xaltamda bir yulduz bo‘lsa,*
*Ming qadahda ich, gulim*[4]”;

**b) mayoq, farzand, ideal, tole’, baxt-iqbol, orzu-umidlar, mahbuba.** Yulduzlarning yana bir azaliy vazifasi – mayoq, yo‘l ko‘rsatish (Oltin Qoziq (qutb), Surayyo, Yetti og‘ayni, Hulkar va hkz). Eshqobil Shukur ham qator she’rlarida yulduz obraziga poetik mayoq vazifasini bajarishni yuklarkan, yuldazlar hayrati, avvalo, ko‘ngilni uyg‘otishi, tozalashi, yangilashi, yuksaltirishi lozim, deb hisoblaydi: “*Yurakni uyg‘otib yuboring... Tinglayin yulduzlar qo‘ng‘irog‘ini...*”[5]. Xalqimiz hamisha tole’ni yulduzga mengzab, tilak tilanguvchining baxt-iqboli ham yulduzdek porloq bo‘lishini niyat qiladi. Yoki “Mehrinisoga aytgan allamiz” she’ri[6]dagi “ena qiz” evfoniyasida ham “*Allasin yulduz aytsin”,* deyiladi”. “Muvozanat” she’ri[7]da esa yosh juftlikning ilk boshpanohi – tor xona osmonga mengzalar ekan, ular boshiga yog‘ilayotgan baxt-saodat yog‘dusi gullardek sochilayotgan yulduzlarga (“*yulduzlarni gulday sochmoqda shamol*”) mengzalarkan, kelin-kuyov orzulari, o‘y-xayollari yorug‘ niyatlarga to‘laligini ifodalashda ham shu lirik obrazga murojaat qilinadi: “*yulduzlar suvidan to‘yingan xayol*”.

---

2 Eshqobil Shukur. Hamal ayvoni. – T.: Sharq, 2002. – B. 312.
3 O‘sha manba. – B. 242.
4 Eshqobil Shukur. Yashil qushlar. – T.: Yozuvchi, 1995. – B. 108.
5 Eshqobil Shukur. Sochlari sumbul-sumbul. – T.: Adabiyot va san’at, 1988. – B. 51.
6 O‘sha manba. – B. 13.
7 Eshqobil Shukur. Sochlari sumbul-sumbul. – T.: Adabiyot va san’at, 1988. – B. 50.

**v) ko'z yosh, iztirob...** Yulduzlar olisdan qaraganda, chindan ham ko'z yoshlarga, qizil shu'lalar sochayotganga o'xshaydi. Shuning uchun ham Eshqobil Shukur she'rlarida lirik qahramon **ko'z yoshlari** ham ("*Supurmokda ko'ksimdan yellar // Sinib qolgan yulduzchalarni*"[8] yoki "*Kipriklari bilan yulduzlar tashib, // Ko'zda suv ichirgan xotiralar*[9]" yoxud "*Yulduzsiz kechalarga // Kiprikda yulduz berdim*[10]" yo "*Tomog'imga qultum-qultum // Muz tiqildi — so'z tiqildi, // Yulduzchalar "qult-qult" etib, // Qaynab yotgan ko'z tiqildi*[11]" yoki "Bo'g'zimni yulduzlar kuydirar, Umrim og'rir, o'limim og'rir"[12]), tanadan **oqayotgan qon** ham ("*Ko'ziga olamning husni bitilgan, // Ko'ksidan suyulgan yulduzlar oqar*[13]" yoki "*Tomiringdan oqkan chechaklaringdan // Ruhning osmoniga uchdi yulduzlar*[14]" yo "*Oyni tishlab oldim men, // Labda yulduzlar qoni*[15]"), **iztiroblar, dard-alamlar** ham ("*O'lik yulduzlarga to'ldi botining, // Manglaying tirtiqmi, yuraging tirtiq?*[16]" yoki "*Qo'lida muzlagan o'lik yulduzlar, // Tupukka o'xshardi ko'zidagi yosh*[17]") ham yulduzga mengzaladi. Bu obrazlarning aksariyati ruhiy iztirob, tushkunlik, qalb og'rig'ining turli rakurslardagi ko'rinishlari bo'lib, ularda ko'ngil o'z manzilini, o'z maqomini, o'z o'rnini, bir so'z bilan aytsak, o'zini izlayotgani ifoda etiladi.

Yana bir she'r[18]da "*yalpizlar*", "*yulduzlar*", "*ko'z yoshlar*", "*sulb (mustahkam) toshlar*" obrazlari o'zaro parallel keladiki, bunda "*yalpizlarning bearmon o'rilishi*", "*yulduzlarning benarvon urilishi*", "*kuyuk yoshlardan g'iybat bozorlari*" bezalishi, "*baxtsiz toshlardan, sho'rlik toshlardan*" haykallar yasalishi – iztirob timsollari, "ruhiy zarbalar" tasvirlari bo'lib, ular vositasida olam va odamni idrok etish yo'lidagi ahvoli ruhiya manzarasi chizib beriladi:

*"Ikkimiz yulduzlar ichida edik...*
*Benarvon urdilar ularni,*
*Siniqlari kirdi ko'zlarimizga".*

---

8 O'sha manba. – B. 42.
9 Eshqobil Shukur. Tungi gullar. – T.: Yosh gvardiya, 1989. – B. 41.
10 Eshqobil Shukur. Hamal ayvoni. – T.: Sharq, 2002. – B. 282.
11 Eshqobil Shukur. Tungi gullar. – T.: Yosh gvardiya, 1989. – B. 18.
12 O'sha manba. – B. 39.
13 Eshqobil Shukur. Yashil qushlar. – T.: Yozuvchi, 1995. – B. 122.
14 Eshqobil Shukur. Sochlari sumbul-sumbul. – T.: Adabiyot va san'at, 1988. – B. 36.
15 O'sha manba. – B. 29.
16 Eshqobil Shukur. Hamal ayvoni. – T.: Sharq, 2002. – B. 247.
17 Eshqobil Shukur. Sochlari sumbul-sumbul. – T.: Adabiyot va san'at, 1988. – B. 29.
18 O'sha manba. – B. 52.

"*Yulduz siniqlari*" va ularning "*ko'zga kirish*"i – bu poetik idrok, tasavvur hodisasi bo'lib, yuksak tuyg'ulari poymol qilingan oshiq ko'z yoshlarini ifoda etadi. Bundagi zohiriy yutqiziq aslida botiniy topildiq, mag'lubiyat esa muzaffariyatdir.

**Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:**


1. Eshqobil Shukur. Hamal ayvoni. – T.: Sharq, 2002.
2. Eshqobil Shukur. Sochlari sumbul-sumbul. – T.: Adabiyot va san'at, 1988.
3. Eshqobil Shukur. Tungi gullar. – T.: Yosh gvardiya, 1989.
4. Eshqobil Shukur. Yashil qushlar. – T.: Yozuvchi, 1995.


«RESEARCH AND PUBLICATIONS»
ILMIY NASHRLAR MARKAZI

# ESHQOBIL SHUKUR IJODIDA ORZU BILIMI

**Abdurahmonova Uldona Abdujapbarovna,**
**Alisher Navoiy nomidagi Toshkent davlat o'zbek tili va adabiyoti universiteti katta o'qituvchisi**
uldana.abdurahmonova@mail.ru

**Annotatsiya** Ushbu maqolada Eshqobil Shukur she'riyatidagi orzu bilimi shoirning "Sahrodagi sado", "Umid kechasi", "Najot", "Ozodlik", "Orzu" she'ri asosida insonni inson, bandani banda qiladigan eng muhim ma'rifiy asoslardan biri sifatidagi talqini o'rganilgan.

**Kalit so'zlar:** so'z, metafora, timsol, o'zak ramz, orzu, erkin shaxs, ozod Vatan, erkin fuqaro, ozod inson, milliy poetik tafakkur.

Iste'dodli shoir Eshqobil Shukur she'riyatidagi orzu bilimi hayrat konsepsiyasida insonni inson maqomida ko'rish niyatini ifodalaydi. "Ko'z yumib ko'rganlarim..." turkumida [6; 17–24] bu bilim taajjubi "*ko'hna mozoriston...*" (insoniyat tarixiga beshik va qabr bo'lgan zamin) makonidagi "Oy yorug'ida" (ko'ngil batnida) "*gulning yaprog'idan ko'ylak tikayotgan, ignani kuylatgan bir qiz*" obrazida namoyon bo'ladi. Bunda "*gulning yaprog'idan ko'ylak"* – ezgu orzular, nekbin niyatlar; "*ignani kuylatgan qiz*" esa o'z nafsini yenggan inson, qalbni egallagan yangilanish timsollaridir. Shoir nazarida bu ko'ngil libosi ruh qanotlaridek harir – hatto jonni, ko'zni almashsa, arziydi; biroq bu dil ko'ylaklari kafanlik uchun emas, tiriklik (inson bo'lib yashamoq, shu yo'lda kurashmoq) uchunki, uning tiynatida orzu-yu tuyg'u, xayol-u qayg'u birdek mujassam [6; 20].

Insonni insondek ko'rmak orzusi – Eshqobil Shukur ijodiy shaxsiyatining, hayrat konsepsiyasining markaziy muammosi, o'zak g'oyasi hisoblanadi. Ijodkor bir she'rida [4; 85] yozganidek, "*Insonday... Insonday yashamoq uchun baqo bo'lmoqliging shart emas. // Bir bora Vatan deb yig'lamoq uchun Daho bo'lmoqliging shart emas*".

"Ozodlik" she'rida [5; 301–305] insonlik maqomi, avvalo, **erkin shaxs** ("*Sevgimday sevarman seni, Ozodlik...// Sayoq sak emasman, ko'chkin quyunmas, // Uyasiz ilonmas, uya*

*izlagan. // Bir parcha non menga aziz tuyulmas, // Bir parcha yuragim erk deb bo'zlagan*"), **erkin fuqaro** ("*Dilimda chamanlar bo'lganida xor, // Yelkamdan potirlab o'sdi qabrlar.//Cho'lponning qoshida chayqalganda dor, //Joynamoz ustida jon berdi pirlar.//Bag'rimni cho'qilab zulmat g'ajiri,// Qonagan dilimni qorganda loyga...//So'nggi kitobini yozdi Qodiriy//Turma tuynugiga osilgan oyga*"), **ozod Vatan** ("*Hayron qo'llarimni ochdim falakka, //Oyog'im ostida so'ngsiz paxtazor.//Tashlandiq orolday g'arib yurakda//O'lik kemalarday ming-minglab mozor.//Yoshligim oy kabi balqqan pallada,//Sirlar tabassumday gullagan palla...//Kuyovlik kunlarim qoldi dalada,//Chimildig'im – dala, kelinim — dala*"), **ozod inson** ("*Yurak saharida ko'rinish berding,//Quyosh arzandasi, ko'ngil hulkari.//Keksaygan otamday men sari yurding,//Non reza bolamday kelding men sari.//Insonlik istarman hayot bog'ida,//Insonlik, Vatanlik, Xalqlik, Obodlik.//Yuragimning rangin chimildig'ida //Mangu ko'rsam deyman seni, Ozodlik.//Sevgimday sevimlim, sirim, Ozodlik*") obrazlarida namoyon bo'ladi. Bu, ozodlik, nainki o'z fikri, nuqtayi nazari va pozitsiyasiga ega mustaqil Vatan farzandi, balki o'z nafsini yenggan erkin inson ("*Ko'nglim daryosida tilla baliqcha,// Tila tilagingni, meni ozod qo'y" ("*Tilla baliqcha*")* [5; 301–305], ("*Bilmasman, og'angmi ulug' Muhammad, // Quyosh parchalari qaytmishdir yana. // Yuraging – erk qushi, ruhing – haqiqat, // Sen-da, o'ttiz hurni ulg'aytgan ona. // Iloh manglayingdan o'pgan hoynahoy...*" ("Mangu yurt") [5; 304] maqomini ham anglatadi.

"Orzu" she'rida [6; 84] esa "insonni insondek ko'rmak orzusi"ga uch ta'rif beriladi: a) *"daholar ko'ngliga cho'g' tashlagan sir"; b) "osmon maktublarin mangu mavzusi"; v) "azal zulmatlarin kesib o'tgan nur".*

Bunda: "daholar" – payg'ambarlar, aziz avliyolar, ulug' shayxlar, ma'rifatparvar allomalar; "cho'g'" – ilm-hikmat, ezgulik yo'lidagi jami harakat; "*osmon maktublari"* – payg'ambarlarga nozil qilingan vahiylarning yozma ifodasi bo'lgan muqaddas kitoblar; "*azal zulmatlarin kesib o'tgan nur*" – bani odam yaratilmasdan avval "al-miysoq"da yozilgan, odamzot umr bo'yi izlab yashaydigan hidoyat, poklik, tafakkur va ma'rifat yog'dusi timsollaridir.

Shoir "Yassaviyni buyuk chillaga solgan", "Navoiy qalbining oliy tuyg'usi" bo'lgan, "Buxoriy boshida oyday yuksalgan" "insonni insondek ko'rmak orzusi" bilimi ildizlarini sharq-islom ma'rifatidan topadi:

"*Ming yillar beri-yu, ming yillar nari,*
*Yulduzlar ostida, zamin ustida*
*O'tdi qancha jahon payg'ambarlari*
*Shu niyat dastida, shu o'y qasdida.*
*Qancha tarixlarni qum bosganida,*
*Sellarda qolganda ellar qayg'usi,*
*Nishlayverdi pirlar qabristonida –*
*Insonni insonday ko'rmak orzusi*".

Xulosa qilib aytganda, Eshqobil Shukur ijodidagi orzu bilimi ildizlari sharq-islom ma'rifatiga asoslangan o'zbek adabiyotidagi asl ijod, asl san'at – Yaratgan qudrati mohiyatini yagona retseptiv sathga birlashtiradi.

**FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI:**

1. Navqiron davra. Eshqobil Shukur. Yurakni o'rganish. – T.: G'afur G'ulom, 1984.
2. Eshqobil Shukur. Sochlari sumbul-sumbul. – T.: Adabiyot va san'at, 1988.
3. Eshqobil Shukur. Tungi gullar. – T.: Yosh gvardiya, 1989.
4. Eshqobil Shukur. Yashil qushlar. – T.: Yozuvchi, 1995.
5. Eshqobil Shukur. Hamal ayvoni. – T.: Sharq, 2002.
6. Eshqobil Shukur. Ko'z yumib ko'rganlarim. – T.:.Akademnashr, 2013.
7. Eshqobil Shukur. Akam kelyapti. / Yoshlik, 2018. 7-son.

УЎТ: 632.7: 635: 634.32: 632

# ҒОВАКЛОВЧИ ЗАРАРКУНАНДАЛАРГА ҚАРШИ КУРАШДА АВЗАЛ ИНСЕКТИЦИДЛАР

Хусенова Нодира Нутфиллаевна – изланувчи
Хўжаев Шомил Турсунович – қ.х.ф.д., профессор
Ўсимликлар карантини ва ҳимояси ИТИ,
Нурмухамедова Дилафруза Шамилевна – изланувчи
Тошкент Аграр университети (ТошДАУ),

**Аннотация.** Мақолада республикамизга келгинди (адвентив) бўлган ўсимлик баргларини ғоваклаб зарарловчи қуйидаги ҳашаротлар: помидорни ғоваклoвчи пашшаси; помидор, картошка ва цитрус ўсимликларни шикастловчи куялар ҳамда тут парвонаси ҳақида био-морфологик хусусиятлари изоҳланган. Буларга қарши кимёвий воситалар ёрдамида ҳимоя қилишда янги трансламинар ва ичдан таъсир этадиган инсектицидларнинг самарадорлиги кўрсатилган. Қуйидаги инсектицидлар: Вертимек, 1,8% эм.к. – 0,4-0,5 л/га, Эмамекс, 5% с.э.г. – 0,35 кг/га, Караген, 20% эм.к. – 0,2 л/га, Аваунт, 15% сус.к. – 0,4 л/га, Багира, 20% эм.к. – 0,3 л/га амалий ишлатиш учун тавсия қилинган.

**Калит сўзлар:** Ғоваклoвчи ҳашаротлар, адвентив турлар, ривожланиш, зарар, ўсимликларни ҳимоя қилиш, инсектицидлар, самарадорлик.

**Аннотация.** В статье изложена морфо-биологическая характеристика нескольких адвентивных (инвазивных) видов минаобразующих грызущих насекомых, а именно: томатной минирующей мухи, томатной, картофельной и цитрусовой молей, а также тутовой огнёвки. Показана высокая эффективность нескольких инсектицидов с механизмами трансламинарного и системного действий. Ими являются: Вертимек, 1,8% к.э. – 0,4-0,5 л/га, Эмамекс, 5% в.д.г. – 0,35 кг/га, Караген, 20% к.э. – 0,2 л/га, аваунт, 15% сус.к. – 0,4 л/га, Багира, 20% к.э. – 0,3 л/га. Все они рекомендованы для применения в производстве.

**Ключевые слова:** Минообразующие насекомые, адвентивные виды, развитие, вредоносность, защита растений, инсектициды, эффективность.

**Annotation.** This article presents the morpho-biological characteristics of several adventive (invasive) species of leaf-mining insects, including the tomato leaf miner fly, the tomato, potato, and citrus leaf miners, as well as the mulberry pyralid moth. The study highlights the high efficacy of several insecticides with translaminar and systemic modes of action. The recommended insecticides for practical application include: Vertimec, 1.8% EC – 0.4-0.5 L/ha; Emamex, 5% WG – 0.35 kg/ha; Karagen, 20% EC – 0.2 L/ha; Avaunt, 15% SC – 0.4 L/ha; and Bagira, 20% EC – 0.3 L/ha.

**Keywords:** Leaf-mining insects, adventive species, development, harmfulness, plant protection, insecticides, efficacy.

Кемирувчи зараркунандалар орасида шундайлари ҳам борки, уларнинг куртлари жуда майда бўлиши туфайли, ўсимлик баргларининг ўрта қисмидаги тўқиманигина егани учун зарарланган қисмнинг пўсти қолади ва буни бошқа сўз билан ғовак ҳосил қилувчилар деса бўлади. Бунақа усулда озиқланадиган ҳашаротлар нисбатан яқин даврлардан бошлаб минтақаларимизда пайдо бўлиб, кўпгина қишлоқ хўжалик экинларимизга (кўпроқ: сабзовот, полиз, дуккакли, кўкат ва ҳатто ғўза баргларига ҳам) шикаст етказиб келмоқда.

Ҳозирда курти ғовак шаклида шикастлайдиган қуйидаги ҳашаротлар республикамиз ҳудудларида кўпроқ учрайди. Булар қаторига энг аввал 1990-йиллардан кейин кириб келган ғоваклoвчи пашшаларнинг (*Agromyzidae, Diptera*)

*Liriomyza* авлоди намуналарини эслатиб ўтиш лозим. Буларнинг бир қатор турлари мавжуд бўлиб, уларнинг орасида *Liriomyza sativae* Blanch. тури кўпроқ аниқланмоқда (1-расм).



1 | 2 | 3 | 4

**1-расм.** ***Liriomyza sativae*** **пашшасининг ўсимлик баргларини ғоваклаши:**
1 – мош ўсимлигида, 2 – помидорда, 3 – бодрингда, 4 – оқ пахта ғўза навларида.

Бу ҳашарот помидор ўсимлигига кўпроқ мослашгани учун уни адабиётларда **помидорни ғоваклочви пашша** деб атайдилар. Бу жуда майда (3 ммгача) пашшалар қаторига кириб, етук зоти қорамтир – жигарранг, қанотлари тиниқ. Ўз ватанида, у тинимсиз йил давомида ривожланаверади. Ўзбекистон иқлими кескин континентал бўлгани учун, қиш давомида очиқ шароитда унинг кўп қисми қирилиб кетади. Бир қисми эса, ўсимлик қолдиқларида, ҳазон орасида, тупроқнинг юза қисмида пупарий (сохта пилла) билан ҳимояланган ғумбак шаклида қишлаб қолади. Асосан эса, пашшалар иссиқхона ёки хонадонлардаги ўсимликларни зарарлаб, хаётини давом этади. Бир мавсумда умуман 10 тадан ортиқ авлод бериб ривожланади, шундан 5-7 таси очиқ шароитда рўй беради. *L.sativae* тури ҳаммахўр (полифаг) бўлиб ҳисоблансада, кўпроқ помидор ва полиз ўсимликларини хуш кўради. Чет эл муаллифларининг кўрсатишича (Shiano S.F., 2004) бундай пашшалар 40 дан ортиқ маданий ўсимикларда учрайди. Бизларнинг ўтказган кузатувларимиздан маълум бўлдики, бу пашшалар 20 дан ортиқ маданий ва кўплаб бошқа йўлдош бегона ўтларни шикастлаши мумкин. Айрим ўсимликларда кураш чоралари ўтказилмаса 50% гача ҳосил камайиб, қолган мевалари сифатсиз бўлиб етилади (Ахметова, 1990; Ганиев, 1993; Palumbo, 1995; Хусенова, Хўжаев, 2024).

Ўсимлик баргларини ғоваклаб шикаст етказадиган бошқа гуруҳ ҳашаротларга кўпроқ капалаклардан ўйимқанотли (*Gelichiidae* оиласи) куялар киради. Булар қаторига нисбатан яқин ўтмишда ҳудудларимизга кириб келган адвентив (келгинди) турлардан картошка ва помидор куялари, ҳамда цитрус куясини зикр этиб ўтишимиз мумкин. Яна иқтисодий аҳамиятга эга тут парвонаси ҳам 1990-йиллардан кейин ўсимликларни ҳимоя қилиш ва айниқса пиллачиликда қаттиқ шов-шувларга сабабчи бўлди. Бу ҳашаротлар тўғрисида қисқача ахборот бериб ўтамиз.

**Помидор куяси** (*Tuta absoluta* M.) ва **картошка куялари** (*Phthorimaea operculella* Zeller) тахминан бир хил тарихга эга бўлиб, ватанлари экваторга яқин Жанубий Америка давлатлари бўлгани учун, қишлашга мўлжалланмаган. Ўз ватанида улар ёзин-қишин бетўхтов ривожланаверади. Марказий Осиё

мамлакатларида эса, қишдаги совуқ таъсирида очиқда қолган зотларининг асосий қисми қирилиб кетади, аммо кузатувлар шуни кўсатдики, қишнинг ярмларида кузатилган иссиқ кунларда ташқарига илинган феромон тутқичларга (ФТ) кам бўлсада, ҳар иккала турнинг ҳам капалаклари илиниши мумкин. Бу демакки, ҳар иккала ҳашаротга экологик мослашиш қобилияти (пластичность) хос бўлиб, популяциясининг бир қисми ноқулай шароитларда ҳам яшаб қолиш қобилиятини йўқотмайди. Бир йилда жами 10-13 та авлод бериб, зарарлайдиган ўсимликларига катта зарар етказиши мумкин (2-расм). Ҳар иккаласини ҳам куртлари ўсимлик баргларини ғоваклаб шикастлагани учун, уларга қарши кураш тахминан бир тарзда усул ва воситаларни қамрайди.



1 2 3 4

**2-расм. Ғоваклочи капалакларнинг куртлари зарарлаган ўсимликлар:**
1 – картошка куяси, 2 – помидор куяси, 3 – цитрус куяси лимон баргларида,
4 – тут парвонаси шикастлаган барг.

Кейинги ҳашарот бу **цитрус ғоваклочи куяси** (*Phyllocnistis citrella* Staintor). Бу ҳашарот ҳам адвентив тур бўлиб, унинг пайдо бўлиши 1980- йиллардан кейин, даставвал  Хоразм вилоят иссиқхоналарида намоён бўлган. Ҳашарот тезда тарқалиб, ҳозирда республикамизнинг барча ҳудудларида учрайди. Бу ҳам ўйимқанотли куяларга хос тур бўлиб, унинг куртлари новда учидаги баргларни шикастлаб, уларни буришиб ҳамда ғовак шикастлар билан ифодаланади (2-расмга қаранг). Бу ҳашарот иссиқхоналарда лимон буталарини шикастлаб, тинмай ривожланаверади ва бир йилда 8-10 авлод беради. Бунга қарши ҳам ичдан таъсир этадиган инсектицидлар юқори самара бериши мумкин.

Ва ниҳоят, 1990-йилдан кейин республикамизга қўшни Тожикистон тарафдан кириб келган, курти баргларни яримғоваклаб, катта ёшларга ўтганида эса баргни буклаб, орасида ҳаёт кечирадиган тут парвонасини таърифлаймиз.

Адабиётлардан маълум бўлишича **тут парвонаси** (*Diaphania pyloalis* W.) ва унга яқин бир нечта бошқа парвона турлари қатор Шарқий Осиё мамлакатларида: Хитой, Ҳиндистон ва ҳатто Японияда ҳам кенг тарқалган бўлиб, тут дарахтларининг жиддий зараркунандаси бўлиб ҳисобланади (Шпигель, Покровский, 1932; Iwashita, Fukui, 1981; Ando, Ohsawa, 1993).

Тадқиқотларимиз натижаларига кўра, Ўзбекистон шароитида тут парвонаси 1 йилда 6-7 авлод бериб ривожланади, унинг куртлари қишда турли пана жойларни

ахтариб топиб (ҳазон ости, пўстлоқ ости, каллаклар ва б.) вояга етган қурт шаклида юмшоқ пилла ўраб, ичида қишлаб қолади. Етилмаган қуртларнинг барчаси қирилиб кетади. Баҳорда зараркунанда ғумбаклашиб, капалаклари учиб чиқади. Бу апрель ойининг ўрталарига тўғри келиб, тут дарахтлари барг ёзабошлаши билан боғлиқдир. Шундай қилиб, тут парвонасининг биринчи авлоди тут дарахтларининг новдалари пилла қуртини боқиш учун кесиб олишгача давом этади ва унга қарши бу пайтда курашилмайди. Кейинги авлодлари ривожланишини аста секин кучайтираве-ради ва энг кўп сони август-сентябр ойларида кузатилади (Хўжаев ва б., 2011). Бу пайтда тут дарахтлари энг кўп шикастланиб, энг кўп зарар кўриши мумкин (2-расмга қаранг). Далилларимизга асосан, тут парвонаси билан кучли зарарланган тут дарахтларининг новдалари 40,5% гача қисқаради, барглар сони 35,2% га камаяди, 1 та зарарланган баргнинг оғирлиги эса 19,2% га камаяди. Шундай қилиб, тут парвонаси билан зарарланган дарахтлар эстетик кўриниши ёмонлашишидан ташқари, пилла қуртини боқиш учун мўлжалланган тут барглари 25-40% га камаяди.

Юқорида таърифлаб ўтилган барча зараркунандаларга қарши курашиш тизимида уларнинг ривожланишини олдини олиш мақсадида: ташкилий-хўжалик, карантин, агротехник ва биологик усулларни ишлатишдан ташқари, ўткир таъсир этадиган кимёвий инсектицидлардан фойдаланиш асосий ўринларни эгаллайди. Бу йўналишда ўсимликларни ҳимоя қилиш ИТИ нинг агротоксикология лабораториясида изланувчи шогирдлар билан биргаликда анча илмий изланишлар, тажрибалар ўтказилиб, ижобий натижаларга эга бўлдик. Қуйида биз бундай тадқиқотлар юзасидан хулосавий якун қиламиз.

Барча ўсимлик баргларини ғовакловчи ҳашаротларнинг қуртлари барг ичида яширин озиқланиб ҳаёт кечиргани учун, табиийки, уларга қарши курашиш учун ихтисослашган механизмга эга инсектицид-ларвицидлар талаб қилинади. Бундай дорилар ҳозир бор ва уларга хос хусусият – бу таъсир этиш механизмининг ўзгачалигидадир. Яъни бу инсектицидлар трансламинар таъсир этиш қобилиятига эга. Бу дегани, ўсимлик баргига пуркалган дори, унга сингиб, тўқима ичида “заҳарли уя” ясайдилар. Барг ичида юрган қурт уни истеъмол қилиб нобуд бўлади.

Биз, 2020-2023 йиллар мобайнида бундай хусусиятларга эга қуйидаги дориларни: Вертимек, 1,8% эм.к. – 0,4-0,5 л/га, Эмамекс, 5% с.э.г. – 0,35 кг/га, Караген, 20% сус.к. – 0,2 л/га, Аваунт, 15% сус.к. – 0,4 л/га, ҳамда ичдан таъсир этадиган (системали) Багира, 20% эм.к. – 0,3 л/га инсектицидларни дала синовларидан ўтказиб, хулоса қилдикки, айни шу дорилар бошқалардан фарқ қилган ҳолда, ғовакловчи ҳашаротларга қарши энг юқори самара кўрсатиб, ҳимоя қилиш талабларига тўлиқ жавоб беради. Шунинг учун бу инсектицидлар ғовакловчи ҳамда очиқ яшовчи кемирувчи зараркунандаларга қарши амалий ишлатиш учун тавсия қилинди.

## АДАБИЁТЛАР:

1. Ахметова Ж.О. Паслёновая муха и её энтомофаги в защищённом грунте Московской области //В кн.: Биологический метод борьбы с вредителями овощных культур. – Москва, 1989. – С. 31-34.

2. Ганиев И.Г. и др. Паслёновый минёр и его паразиты в теплицах Татарстана //Ж. Защита и карантин растений. – 1993. - №7. – С. 12-14.

3. Мирзаева М. Тут парвонаси ва унга қарши самарали кураш //И.-амалий анжуман маърузалари тезислари (Фарғона, 2010). – Фарғона: “Киргули Полиграфчи”, 2010. – Б. 118-120.

4. Хўжаев Ш.Т., Бабабханова М., Мирзаева М. Тут парвонаси: ривожланиши, зарари, башорат қилиш усуллари ва унга қарши уйғунлашган ҳимоя қилиш тизими.– Тошкент, 2011. – 24 б.

5. Хусенова Н.Н., Хўжаев Ш.Т. Ўсимликларда ғовакловчи пашшаларнинг (*Agromyzidae, Diptera*) ўрганилганлиги ва муҳим вакиллари //New innovation in national education JSSN: 3030-3303 /Ўзбекистон Республикаси ўсимликлар карантини ва ҳимояси ИТИ. – 10-махсус сон, октябр 2024 йил, I қисм. – Б.369-374.

6. Шерматов М. Тут парвонасининг (*Glyphodes pyloalis* W.) Фарғона водийсида тарқалиши, биологияси ва экологик хусусиятлари. – Автореф. б.д. номзоди унвони олиш учун. – 07.00.08. – Зоология. – Тошкент: ЎзПИТИ, 2010. – 23 б.

7. Шпигель М.Л., Покровский Г.А. Тутоводство в Японии. – М.-Л.: Изд. с/х литературы, 1932. – 275 с.

8. Ando T., Ohsawa H. Sex pheromone with a conjugated triene system: synthesis and chemical characterization // Journal of chemical Ecology. – 1993. – V. 19. - #1. – P. 119-132.

9. Iwashita V., Fucui T. Studies on the mermithid, Hexamermis microamphides Steiner, parasitic in silkworm larva (Bulletin of the College of Agriculture, Utsanomiya University. – 1981. – V. 3. - #3. – P. 83-116.

10. Palimbo J.C. Developmental rate of *L.sativae* on lettuce as a function of temperature //Southwestern Entomologist. – 1995. – 20. – P.461-465.

11. Shiano S.F. Morphological diagnosis of six *Liriomyza* (*Diptera: Agromyridae*) of quarantine importance in Taiwan.Appl.Entomol. and Zool. Vol.39,1: –2004. – P.27-39.

# OLIY TA'LIMDA TALABALARDA XUQUQIY KOMPETENTLIGINI REVOJLANTIRISH

# РАЗВИТИЕ ПРАВОВОЙ КОМПЕТЕНТНОСТИ СТУДЕНТОВ

# DEVELOPING LEGAL COMPETENCES IN STUDENTS IN HIGHER EDUCATION

**ZOKIROV GULMUROD MAXMARAYIMOVICH**

Iqtisodiyot va Pedagogika Universiteti magistri

**ESHMONOV OTABEK USANOVICH,**

Iqtisodiyot va Pedagogika Universiteti dotsenti

ANNOTATSIYA

Ushbu maqolada oliy ta'limda o'qitishning xuquqiy kompetentligini revojlantirish muammosining dolzarbligi va tahlil qilinib, o'qituvchilarda o'qitishda ta'lim metodlarning tasnifi, nazariy va amaliy asoslarining mazmuni hamda mohiyati yoritilgan. Shuningdek, maqolada tajriba ishlarining dastlabki nazorat natijalari hamda ta'lim metodlarining mavjud holatlari haqida ma'lumotlar keltirilgan.

**Tayanch so'z va tushunchalar:** Ключевые слова и понятия: компетентность, классификация методов, метод обучения, образовательный процесс, образовательная система, образовательная технология..

АННОТАЦИЯ

В данной статье освещены актуальность и анализ проблемы развития правовой компетентности преподавателя в высшей школе, содержание и сущность классификации образовательных методов в подготовке учителей, теоретические и практические основы. Также в статье представлена информация о результатах предварительного контроля экспериментальной работы и современном состоянии методов обучения.

**Ключевые слова и понятия:** образовательный метод, классификация методов, метод обучения, образовательный процесс, образовательная система, образовательная технология.

## ABSTRACT

This article analyzes and discusses the relevance of the problem of developing legal competence in higher education, and highlights the classification, theoretical

and practical foundations and essence of teaching methods in teacher training. The article also presents the results of preliminary control of experimental work and information on the current state of teaching methods.

**Key words and concepts:** competence, classification of methods, teaching method, educational process, educational system, educational technology.

## KIRISH

Mamlakatimizda jahon talablari darajasida ta'lim-tarbiya olishi va kasb-hunar egallash, fuqarolarimizning bunyodkorlik salohiyatini ro'yobga chiqarish uchun zarur shart-sharoitlar hamda imkoniyatlar mavjud. Yangi sharoitlardan kelib chiqib O'zbekiston Respublikasi qonunlariga, ta'lim bosqichlarining uzluksizligi va izchilligini ta'minlash, ta'limning zamonaviy metodologiyasini yaratish, davlat ta'lim standartlarini kompetensiyaviy yondashuv bo'yicha takomillashtirish va amaliyotga joriy etishni taqozo etib kelmoqda. Bu haqida Prezident Sh.M.Mirziyoyev quyidagicha ta'kidlaydi: "Barchamiz yaxshi tushunamiz, ta'lim-tarbiya har qaysi davlat va jamiyatning nafaqat bugungi, balki ertangi kunini ham hal qiladigan eng muhim ustuvor masaladir. Shuning uchun mamlakatimizda bu masalaga jiddiy e'tibor qaratilmoqda"[1].

Tadqiqotning maqsadi. Oliy talimda talabalarda xuquqiy kompetentligini revojlantirish muvofiqlashtirishning ilmiy-nazariy asoslarini tahlil qilish va tavsiyalar ishlab chiqish.

**Tadqiqot metodi:** Adabiyotlarni tahlil qilish, kuzatish, suhbat, bahs-munozara, savol-javob, so'rovnoma, anketa, pedagogik tajriba, matematik-statistik metodlardan foydalanish rejalashtirildi.

TADQIQOT MAVZUSI BO'YICHA ADABIYOTLAR TAHLILI

Ma'lumki, Oliy talimda talabalarda xuquqiy kompetentligini revojlantirish bo'yicha dunyo olimlari tomonidan ko'plab ilmiy izlanishlar olib borilgan. Yosh pedagoglar tomonidan bu jarayon davom ettirilmoqda. Bildirilgan fikr-mulohazalardan ko'rinib turibdiki, **Oliy talimda talabalarda xuquqiy kompetentligini revojlantirish** zamonaviy usullaridan samarali foydalanish muhim ahamiyatga ega. Yuqoridagilarga tayangan holda, tadqiqot ishimiz maqsadini reja asosida belgilab oldik.

**Maqolaning ilmiy mohiyati. Oliy talimda talabalarda xuquqiy kompetentligini revojlantirish** tushunchasi anchagina murakkabdir. Shu bois pedagogikada uning tobora aniq talqini xususida munozara haligacha davom etmoqda. Biroq bu tushunchaga beriladigan didaktlarning turli ta'riflariga qaramay, ularning nuqtai nazarlarini yaqinlashtiradigan qandaydir umumiylikni ham ta'kidlash mumkin. Ko'pchilik mualliflar **Oliy talimda talabalarda xuquqiy kompetentligini**

**revojlantirish** o'quvchilarning o'quv bilish faoliyatini tashkil etish usuli, deb hisoblashga moyildir.

[1] O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning 2018-yil 28-sentabrdagi 1-Oktabr ''Ustoz va murabbiylar'' kuni bayrami tabrigidan.

**Oliy talimda talabalarda xuquqiy kompetentligini revojlantirish** deyilganda, o'rganilayotgan materialni egallashga qaratilgan turli didaktik vazifalarni hal etish bo'yicha o'qituvchining o'rgatuvchi ishi va o'quvchilarning o'quv-bilish faoliyatini tashkil etish usullari yig'indisi tushuniladi.

Didaktikada, shuningdek, **Oliy talimda talabalarda xuquqiy kompetentligini revojlantirish** atamasi ham keng qo'llanadi. Ta'lim usuli - ta'lim metodining tarkibiy qismi yoki alohida tomoni. Metodlar bilan usullar munosabati o'zaro bir-biriga bog'langan. Usul va metod butun va qism asining bir qismi hal qilinadi.

Ta'lim usuli - o'qitish metodining tarkibiy qismi yoki alohida tomoni. Usul va metod butun va qism sifatida bir-biriga bog'lanadi. Usullar yordamida faqat o'quv vazifasining bir qismi hal qilinadi[2].

Mamlakatimizning ertangi kuni dunyoqarashi zamonaviy, salohiyati yuqori o'qituvchi-murabbiylarga ko'p jihatdan bog'liqligini hammamiz birdek tushunib turibmiz. Ta'lim jarayonining muvaffaqiyati uning shakligagina emas, balki qo'llanilayotgan metodlar va usullar samaradorligi ham ahamiyatlidir.

**Oliy talimda talabalarda xuquqiy kompetentligini revojlantirish** muhim rol o'ynaydi. Ta'lim metodlari o'qitish va o'qishning o'z oldiga qo'ygan maqsadlariga erishish yo'llari hamda o'quv materialini nazariy va amaliy tomondan yo'naltirish yo'llarini bildiradi va ko'maklashadi. Ta'lim metodlari ta'lim jarayonida o'qituvchi va o'quvchi faoliyatining qanday bo'lishi, o'qitish jarayonini qanday tashkil etish hamda olib borish lozimligini va shu jarayonda o'quvchilar qanday ish harakatlarni bajarishlari shartligini ko'rsatib beradi.

Pedagogik ensiklopediyada izohlanishicha, ta'lim metodi o'qituvchi o'quvchining ta'lim mazmunini o'zlashtirishga qaratilgan o'zaro aloqador, ma'lum ketma-ketlikdagi faoliyati tizimidir.

**Oliy talimda talabalarda xuquqiy kompetentligini revojlantirish** Pedagogika fanida ta'lim metodlarini va usullarini tasnif etish masalalari ham alohida muammo sifatida o'rganilgan. Turli yillarda faoliyat ko'rsatgan turli tadqiqotchilar tomonidan ta'lim metodlari turlicha tasnif etilgan. Ya'ni, pedagogikada o'qitish metodlarini tasnif etishga oid turli-tuman qarashlar mavjud bo'lib, ba'zi olimlar o'qitish metodlarini tasnif etishda bilim manbalarini hisobga olgan bo'lsa, ayrimlari esa o'qituvchi faoliyatini, uchinchi guruh olimlar esa o'quvchilar faoliyatini e'tiborga olgan. O'qitish usullariga bunday qarashlarning ko'p va rang-barang bo'lishi tabiiy,

chunki o'qitish metodlari mazmunan boy hodisa bo'lib, ular ma'lumot mazmuni bilan ham, O'qituvchi hamda o'quvchi faoliyati bilan, bilim va malakalar bilan, qolaversa, ijodiy qobiliyatlarni, munosabatlarni rivojlantirish ishlari bilan bog'lik bo'lgan tushuncha sanaladi. Shu bois ta'lim metodlarini tasnif etish bo'yicha yagona yondashish mavjud emas.

Didaktikada **Oliy talimda talabalarda xuquqiy kompetentligini revojlantirish** bilimlar manbai, didaktik maqsadlar, bilish faoliyatining saviyasi bo'yicha farqlash mavjud. Ta'lim metodlarini bilish manbalari bo'yicha tasniflash sodda jarayon bo'lib, ular maktab amaliyotida keng tarqalgan. Masalan, taniqli pedagog olimlardan S.I. Perovskiy, Ye.Ya.Golant va boshqalar o'qitish usullarini tasnif etishda ta'lim manbalarini hisobga olishgan. O'qituvchi nutqi, ko'rgazma qurol, darslik hamda qo'shimcha adabiyotlarni ta'lim manbai sifatida ekanligini O.Roziqov va boshqalar tomonidan tuzilgan "Umumiy didaktika" o'quv adabiyotida alohida ta'kidlangan. Didaktikada ta'lim jarayonining turli bosqichlarida bajariladigan ishlar mazmunidan kelib chiqib, o'qitish usullarini tasnif etish g'oyasi ham mavjud. Masalan, Yu.K.Babanskiy tahriri ostida chiqarishgan o'quv qo'llanmasida berilishicha M.A.Danilov, B.P.Yesipovlar o'qitish usullarini quyidagicha tasnif etgan:

-bilimlarni o'rganishga oid usullar;

-ko'nikma va malakalarni shakllantirish usullari;

-bilim va malakalarni tadbiq etish usullari;

-ijodiy ishlash usullari;

-bilim va malakalarni mustahkamlash;

-tekshirish usullari.

Pedagogikada o'qitish metodlarini tasniflashga yagona yondoshish hozirda mavjud emas. Didaktikada ta'lim metodlarini quydagicha farqlashlar keng tarqalgan: bilimlar manbai bo'yicha S.O.Lordkipanidze, YE.YA.Golant, didaktik maqsadlar bo'yicha B.P.Yesip, bilish faoliyatining saviyasi bo'yicha I.YA. Lerner, M.N.Skatkin, M.I.Maxmutov.

Metodlarning binar sxemalari va ularni uch o'lchovli farqlash ham mavjud. Ana shu tasniflashlarning har qaysisida afzalliklar hamda kamchiliklar mavjuddir. Ular adabiyotlarda ham keraklicha tahlil qilingan. O'qitish metodlarini bilish manbalari bo'yicha tasniflash ancha sodda bo'lib, ular maktab amaliyotida keng qo'llaniladi. Bu belgi yuzasidan metodlar quyidagi uch guruhga ajratiladi:

1. Og'zaki metodlar (bilimlarni so'z orqali ifodalash, suhbat, darslik, ma'lumotnoma va ilmiy adabiyotlar bilan ishlash).
2. Ko'rsatmali metodlar (rasmlar, namoyishlar, kuzatishlar).

3. Amaliy metodlar (mashqlar, laboratoriyadagi amaliy ishlar).

Bular ma'lum darajada shartlidir, chunki bu metodlarning hammasi o'zaro bir- biri bilan bog'liq hisoblanib, ularni doim ham aniq chegaralash mumkin emas. Har bir ta'lim metodining o'z vazifalari mavjud.

S. G. Shapovalenko metodlarning to'rt jihatini ko'rib chiqadi: mantiqiy- mazmuniy, protsessual va tashkiliy boshqarilishi.

Metodlarni tasniflash muammosiga turlicha qarashlar ular haqidagi bilimlar tabaqalanishi va birlashishining tabiiy jarayonini aks ettiradi (Svetlovskaya , Suvorova, Lvov, Mavlonova va boshqalar)[4].

N.S.Sayidahmedov orqali ishlab chiqilgan ta'lim metodlari tasnifi asosida didaktik jarayon nazariyasi yotadi [5] . Ma'lumki, didaktik jarayon har qanday pedagogik texnologiyaning asosi sifatida o'zida quyidagi uchta komponentni birlashtiradi:

1) o'quv faoliyati;
2) motivatsion bosqich;
3) boshqaruv.

Demak, didaktik jarayon tuzilmasiga mos ravishda ta'lim metodlarini quyidagi uch guruhga ajratish mumkin:

I. O'quv-bilish faoliyatini tashkil etish va amalga oshirish metodlari.
II. O'qish va mehnatga rag'batlantiruvchi hamda motivlashtirish metodlari.
III. O'quv-bilish faoliyatini boshqarish metodlari.

Shuningdek, V.F.Palamarchuk va V.I.Palamarchuklar ta'lim metodlarining uch o'lchovli modelini taklif qilishgan. Unda bilimlar manbai, o'quvchilarning bilish faolligi va mustaqillik darajasi hamda o'quv-bilishning mantiqiy yo'li yaxlit tarzda qo'llanadi.

S.G.Shopavalenko ham ta'lim metodlarini tasnif etishda to'rt belgi asosida asoslovchi quyidagi tetroeddik yondashuvni taklif etadi:

1) mantiqiy-mazmunli;
2) manbali;
3) mazmunli;
4) tashkiliy boshqaruvchi.

I.P.Podlasiy ham keng tarqalgan ta'lim metodlari tasnifini o'rganar ekan, shu fikrlarni aytib o'tadi: «Boshqa bir qator ta'lim metodlari tasnifi ham mavjud.

Nemis didakti L.Klinberg ta'lim jarayonida metodlarni hamkorlik shakllari bilan uyg'unlashtirishga alohida e'tibor beradi»[6] va quyidagi metodlarni ko'rsatadi (1-jadval):

**1-jadval**

**Ta'lim metodlari tasnifi**

| Monologik metodlar | Hamkorlik shakllari | Diologik metodlar |
|---|---|---|
| Ma'ruza | Individual | Suhbatlar |
| Hikoya | Guruhli | Intervyu |
| Namoyish | Frontal | - |
| - | Jamoaviy | - |

Klassik didaktika asoschilaridan bo'lmish A.Disterveg ham ta'lim metodlarini tasnif eta turib, rivojlantiruvchi usullarni alohida sinfga to'plab, taraqqiy ettiruvchi Metodlar mustaqillikni tarbiyalaydi, Rivojlantiruvchi savol-javob metodini Suqrot asoslagan edi. Shu sababli, rivojlantiruvchi suhbat sokratcha metod deb yuritiladi[7].

Bu metodni hozirgi kunda Amerika universitetlarida keng qo'llanilib kelinmoqda. Bunda o'qituvchi darsda xohlagan talabadan vazifalarni so'raydi. Shuning uchun talaba darsga doimo tayyor holda borishi kerak bo'ladi. Talaba nafaqat qo'yiladigan baho uchun balki, o'zi uchun ham o'qib kelishi lozim.

TADQIQOT NATIJALARI

O'qitishda ta'limiy metodlarni muvofiqlashtirish yuzasidan tajriba - sinov ishlari Qashqadaryo viloyati Nishon tumanidagidagi 14-15 maktablari va Qaeshi tumanidagi tumanidagi 38-46 maktablari o'qituvchilaridan quyidagi tajriba-sinov ishlari 3 bosqichda olib borildi:

1. Tayyorgarlik bosqichi.
2. Tajriba- sinov ishlarini bevosita tashkil etish bosqichi.
3. Yakunlovchi bosqich.

Tajriba sinov ishlarini tashkil etishda asosiy e'tibor quyidagilarga qaratildi: 1. Pedagogik kuzatuvni tashkil etish

2. Muammoning nazariy va amaliy jihatdan o'qituvchilar bilish holatini aniqlash maqsadida suhbatlar tashkil etish.
3. Anketa va test so'rovnomalarini o'tkazish.
4. O'qituvchilar ishtirokida o'tkazilgan anketa va test, so'rovnomalar natijasida tadqiqot faoliyatini yanada boyitish.
5. O'qitishda ta'limiy metodlarni muvofiqlashtirishning metod va vositalarini aniqlash.

Tadqiqot muammosi ustida izlanish va o'qituvchilarning ta'lim metodlarini bilish va unga amalda rioya qilishlarini aniqlash bevosita va bilvosita pedagogik kuzatish, suhbat hamda pedagogik testlarni tashkil etish kabi metodlardan foydalanildi.

Tajriba-sinov ishlarining yakuniy bosqichida quyidagi vazifalar hal etildi.

1. Amaliy faoliyat jarayonida o'qituvchilarda ta'lim metodlarini bilish

darajasini ifodalovchi ma’lumotlarni umumlashtirish.

2. Umumlashtirgan materiallarni matematik-statistik metod orqali qayta tahliletish.

1. Matematik-statistik tahlil natijasiga ko’ra umumiy xulosalar chiqarish. O‘qitishda ta’limiy metodlarni muvofiqlashtirish muammosining muvaffaqiyatli tadqiq etilishi mavjud adabiyotlarni nazariy tahlil etilishi, ta’lim muassasalari amaliyotining o‘rganilishi hamda o‘qituvchilar faoliyatining mavjud holatiga baho berilishiga ham bog‘liq. Binobarin, ushbu urinish muammoning hal etilgan va etilmagan jihatlarini aniqlashga yordam beradi. Shu sababli asoslovchi tajriba davrida nazariy tahlil, hujjatlarni o‘rganish, pedagogik kuzatish, anketa, test, suhbat, intervyu metodlari yordamida umum o‘rta ta’lim maktablari o‘qituvchilarining ta’lim metodlarini bilish va ulardan foydalanishning mavjud darajasini baholashga alohida e’tibor qaratildi. Mavjud adabiyotlarni o‘rganish shundan dalolat beradiki, ta’lim jarayonida qator talim metodlariga amal qilish ko‘zda tutiladi.

Mavjud manbalarni nazariy jihatdan o‘rganish, yangi turdagi ta’lim muassasalari faoliyatini bevosita tahlil qilish, ijtimoiy-gumanitar fanlar, shuningdek, ma’naviy-ma’rifiy ishlar bo’yicha mas’ul shaxslar bilan tashkil etilgan.

Muloqotlar natijasi mustaqillik yillarida O’zbekistonda umumta’lim maktablarining o‘qituvchilarida didaktik qonun va ta’lim metodlariga oid yaxlit manba mavjud emasligini ko’rsatdi. Garchi, o’qituvchilar fanlarni o‘qitish, shuningdek, o‘quvchilarga ta‘lim muassasasining faoliyati yo‘nalishiga muvofiq kasbiy bilimlarni berishga yo‘naltirilgan ayrim ixtisoslik fanlari doirasida ta’lim metodlariga amal qilsalarda, ularning ta’lim metodlari to’g’risidagi nazariy bilimlari tizimli emas. Buning asosiy sababi bo‘lg‘usi o‘qituvchilar va yosh o‘qituvchilarning ta’lim metodlarining mohiyati va ahamiyatini yaxshi bilmasligidadir. Shuningdek, ta’lim va tarbiya jarayonlari o‘rtasidagi muvofiqlikning mavjud emasligi ham bunga sabab bo‘lmoqda. Surxondaryo viloyati Qumqo‘rg‘on tumanidagi 6- umumta’lim maktabida tajriba ishlarini olib borish jarayonida o‘qituvchilarning bir qismi ta’lim metodlarining mohiyatini chuqur bilmasligining guvohi bo‘ldik. Ular bilan tezkor savol-javoblar tashkil etdik (..-ilova). Bunda 50 nafar o‘qituvchi ishtirok etdi. Uning 25 nafari nazorat guruhida va 25 nafari tajriba guruhida ishtirok etdi.

O‘qituvchilar e’tiboriga anketa so‘rovlaridan tashqari og‘zaki savollar ham havola etildi. Bundan ko‘zlangan maqsad ularning ta’lim metodlari to‘g‘risidagi shaxsiy qarashlarini o‘rganishdan iborat edi.

Asoslovchi tajriba – sinov jarayonida anketa so‘rovlari, maxsus test so‘rovlari, bevosita va bilvosita pedagogik kuzatish, o‘qituvchilarning didaktik metodlarini bilish va unga amal qilish darajasini tahlil qilish asosida quyidagi jadvallar shakllantirildi .

**Oliy ta'lim o'qituvchilarida ta'lim metodlarini bilishning mavjud darajasi**

| Tajriba bosqichlari | Tajriba guruhi O'qituvchilar soni – 20 nafar | | | Nazorat guruhi O'qituvchilar soni – 22 nafar | | |
|---|---|---|---|---|---|---|
| | Past | O'rta | Yuqori | Past | O'rta | Yuqori |
| Tajriba boshida | 10 | 9 | 1 | 10 | 9 | 3 |

**Oliy ta'lim o'qituvchilarida ta'lim metodlarinibilishning rivojlanish darajasi**

| Tajriba bosqichlari | Tajriba guruhi O'qituvchilar soni – 30 nafar | | | Nazorat guruhi O'qituvchilar soni – 32 nafar | | |
|---|---|---|---|---|---|---|
| | Past | O'rta | Yuqori | Past | O'rta | Yuqori |
| Tajriba oxirida | 1 | 15 | 4 | 8 | 11 | 3 |

Jadval ko'rsatkichlaridan anglanadiki, tajriba-sinov ishlariga jalb etilgan o'qituvchilar ta'lim metodlari mazmuni, nazariy va amaliy mohiyatlarini talablar darajasida yoritib yoki o'z xatti-harakatlarida aks ettirib bera olmadilar. Bu esa o'z- o'zidan tajriba-sinov ishlarining navbatdagi bosqichlarida ularga bu borada ham puxta nazariy bilimlarni berish maqsadga muvofiq ekanligini tasdiqladi.

XULOSA VA AMALIY TAKLIFLAR

Pedagogika fanida o'qituvchilarning amaliy tajribasini o'rganish va umumlashtirish asosida ta'lim metodlarini tanlashga o'quv-tarbiya jarayoni kechayotgan shart-sharoitlar va aniq holatlarga bog'liq muayyan yondashuvlar vujudga keladi. Ta'lim metodlarini tanlashda quyidagi holatlar inobatga olinishi lozim:

zamonaviy didaktikaning yetakchi g'oyalari, ta'lim, tarbiya va rivojlantirishning umumiy maqsadlari;

- o'rganilayotgan fan mazmuni va metodlari, mavzularining o'ziga xosligi;
- xususiy fanlar metodikasining o'ziga xosligi va umumdidaktik metodlarni saralashga qo'yiluvchi talablarning o'zaro aloqadorligi; - muayyan dars materialining maqsadi, vazifalari va mazmuni;
- u yoki bu mavzuni o'rganishga ajratilgan vaqt;

- o‘quvchilarning yosh xususiyati, bilish imkoniyatlari, darajasi;
- o‘quvchilarning darsga tayyorgarlik darajasi; - o‘quv muassasalari, auditoriyalarning moddiy ta’minlanganlik darajasi, jihozlar, ko‘rsatmali qurollar, texnik vositalarning mavjudligi;
- o‘qituvchining imkoniyatlari, nazariy va amaliy jihatdan kasbiy tayyorgarlik darjasi, pedagogik mahorati, shaxsiy sifatlari;
- o‘quv muassasalarida fanlararo hamkorlikning o‘rnatilganligi. O‘qituvchi bu holatlarni inobatga olib, u yoki bu ketma-ketlikda og‘zaki, ko‘rgazmali yoki amaliy metodlarni, reproduktiv yoki mustaqil ishlarni boshqarish metodlarini nazorat va o‘z-o‘zini nazorat metodlarini tanlash borasida aniq yechimlar qabul qiladi.

Ta’lim metodlari pedagogning imkoniyatlarini kengaytiradi, vaqtini tejaydi. Mashg‘ulot jarayonlarida professor-o‘qituvchiga darsni qulay boshqarish imkonini beradi, unga faollik kasb etish bilan bir qatorda ta’limning mazmun-mohiyatini belgilab beradi. Jumladan:

- Ta’lim motivlari kuchi o‘quvchining bilim olish yo‘lidagi qiyinchiliklarni yengib o‘tishga bo‘lgan intilishilari uning davomiyligi bilan belgilanadi.
- O‘qitish jarayoni pedagog, ta’lim oluvchi va o‘qitish vositalarining o‘zaro ta’siridan iborat.
- O‘qitish jarayoni pedagog, ta’lim oluvchi va o‘qitish vositalarining o‘zoro ta’siridan iborat bo‘lib, hozirgi zamon axborot texnologiyalari imkoiyatlari o‘qitish vositalariga o‘qituvchi va ta’lim oluvchi vazifalarining bir qismini yuklash imkonini beradi.
- Ta’lim metodlari darslarning qulayligini ta’minlaydi. Unda o‘quvchining o‘quv materiallarini o‘zlashtirishi doimiy ketma-ket kuzatishga, nazorat olib borishga, kerak holarda tuzatishlar kiritib borishga imkoniyat yaratiladi.

ADABIYOTLAR(REFERENCES)

1. O’zbekiston Respublikasi Prezidentining "O’zbekiston Respublikasi oliy ta’lim tizimini 2030 yilgacha rivojlantirish kontseptsiyasini tasdiqlash to’g’risida"gi PF-5847-son Farmoni // Qonun hujjatlari ma’lumotlari milliy bazasi, 08.10.2019 y.
2. O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning 2018-yil 28-sentabrdagi 1-Oktabr ‘‘Ustoz va murabbiylar’’ kuni bayrami tabrigidan.
3. B.X.Xodjayev Umumiy pedagogika nazariyasi va amaliyoti. Darslik. - T.: «Sano-standart» nashriyoti, 2017-yil, 92-93betlar.
4. O‘zbekiston Respublikasining "Ta’lim to‘g‘risida"gi Qonuni 2020 yil 20-sentabr
5. Mavlonova R. va boshq., Pedagogika, T: O‘qituvchi 2001y., 469 b.
6. Сайидахмедов Н.С. Методў обучения и коллектив механизированному труду в хлопководстве. – Тошкент, Ўқитувчи, 1991. – с. 112.

7. Подласый И.П. Педагогика. Новый курс. Кн. 1. – Москва, ВЛАДОС, 1999.
8. O. Roziqov, B.Adizov va G.Najmiddinovalarning "Umumiy didaktika" Buxoro, "Durdona" nashriyoti, 2012-yil 78-79 bet
9. DAVR, ZAMON, SHAXS "O'zbekistonda ijtimoiy-iqtisodiy va madaniy hayot: transformatsion va innovatsion jarayonlar" mavzusidagi respublika ilmiy anjumani maqolalar to'plami "O'qitishda ta'limiy metodlarni muvofiqlashtirishning ilmiy-nazariy asoslari" 2021-yil 3-qism 443-448 bet
10. Pedagogika tarixi Q. Hoshimov va boshqalar T: O'qituvchi, 1996. 425-426 betlar.
11. N.S.Atayeva, F.RasuIova, M. Salayeva, S.Hasanov. Umumiy pedagogika. (Pedagogika tarixi). O'quv qo'llanma. I kitob. -T .: «Fan va texnologiya», 2012 y, 242-243 betlar
12. N.S.Atayeva, F.RasuIova, M. Salayeva, S.Hasanov. Umumiy pedagogika. (Pedagogika tarixi). 0'quv qo'llanma. I kitob. -T .: «Fan va texnologiya», 2012 y, 255-bet.
13. Pedagogika ensiklopediya Toshkent 2015, 110-bet

ISSN 2181-2160
JIFactor: 8.2
TA'LIM FIDOYILARI

# YAPON XALQ ERTAKLARIDA YAXSHILIK VA YOMONLIK FAZILATLARI TAHLILI

Erkinova Ruxshona O'tkirovna

Samarqand davlat chet tillar instituti, Sharq tillari fakulteti talabasi

**Annotatsiya:** Mazkur maqolada yapon xalq ertaklaridagi yaxshilik va yomonlik obrazlari, ularning tarbiyaviy ahamiyati va ijtimoiy qadriyatlar bilan bog'liqligi tahlil qilinadi. *Momo Taro*, *Urashima Taro*, *Kachi-kachi Yama* va boshqa mashhur ertaklar asosida yaxshilikning idealizatsiyasi va yomonlikning jazolanishi orqali yapon xalqining axloqiy mezonlari yoritiladi. Bu ertaklarda personajlar orqali bolalarga ijtimoiy xulq-atvor me'yorlari o'rgatiladi.

**Kalit so'zlar:** yapon ertaklari, xalq og'zaki ijodi, axloqiy qadriyatlar, yaxshilik, yomonlik, obrazlar tahlili, tarbiya, estetik dunyoqarash, Momo Taro, Urashima Taro.

**Abstract:** This article examines how Japanese folktales depict good and evil, their educational value, and their relationship to social ideals. The Japanese people's moral standards are emphasized through the idealization of good and the punishment of bad, as based on the well-known stories of Momo Taro, Urashima Taro, Kachi-kachi Yama, and others. Through the characters in these stories, children are taught social norms of behavior.

**Keywords:** Japanese fairy tales, oral folklore, moral values, good, evil, image analysis, education, aesthetic worldview, Momo Taro, Urashima Taro.

**Аннотация:** В данной статье рассматриваются образы добра и зла в японских народных сказках, их воспитательное значение и роль в формировании моральных ценностей общества. На примере известных сказок, таких как «Момо Таро», «Урасима Таро», «Качи-Качи Яма», анализируется, как представлены положительные и отрицательные качества, и какие нравственные уроки преподносятся через персонажей.

**Ключевые слова:** японские сказки, устное народное творчество, моральные ценности, добро, зло, анализ образов, воспитание, эстетическое мировоззрение, Момо Таро, Урасима Таро.

**Kirish**

Xalq og'zaki ijodi – bu har qanday xalqning tarixiy, madaniy va axloqiy qadriyatlarini o'zida mujassamlashtirgan bebaho boylikdir. Ertaklar esa ushbu og'zaki ijodning eng qadimiy va keng tarqalgan janrlaridan biri sifatida nafaqat xalqning tasavvur olamini, balki uning ijtimoiy ongini, axloqiy mezonlarini, dunyoqarashini ifodalaydi. Ayniqsa, yapon xalq ertaklari o'ziga xos poetik tasvirlar, ramziy obrazlar va chuqur falsafiy ma'no bilan ajralib turadi. Bu ertaklarda yaxshilik va yomonlik o'rtasidagi ziddiyat asosiy dramatik kuch sifatida xizmat qiladi.

Yapon xalq ertaklari, ko'p hollarda oddiy insonlarning jasorat, sabr-toqat hamda pok niyati bilan harakat qilish orqali yovuz kuchlarni yengishiga asoslangan. Bu jarayonda yaxshilik fazilatlari ijobiy qahramonlar orqali idealizatsiya qilinadi, yomonlik esa jazoga loyiq xatti-harakatlar orqali fosh qilinadi. Aynan shu dualizm – ezgulik va yovuzlik o'rtasidagi kurash – bolalar va yosh avlod ongiga axloqiy saboq bo'lib singdiriladi.

Mazkur maqolada aynan shu jihatlar – ya'ni yapon ertaklaridagi yaxshilik va yomonlik obrazlari qanday yaratilganligi, ularning tarbiyaviy va estetik funksiyalari nimalardan iboratligi, qanday ijtimoiy qadriyatlarni ifodalashi tahlil qilinadi. Shu orqali yapon xalqining mentaliteti, e'tiqod tizimi va axloqiy olami haqida chuqurroq tasavvur hosil qilish mumkin.

Xalq ertaklari har bir millatning madaniy va axloqiy qadriyatlarini o'zida aks ettiruvchi muhim manbalardan biridir. Yapon xalq ertaklari ham bu borada istisno emas. Ularda ezgulik va yovuzlik o'rtasidagi kurash nafaqat sujetning markaziy nuqtasi bo'lib xizmat qiladi, balki yosh avlodni to'g'ri yo'lga yo'naltirishga qaratilgan tarbiyaviy-didaktik vosita sifatida namoyon bo'ladi. Ushbu maqola yapon ertaklarida yaxshilik va yomonlik

obrazlarini tahlil qilishga va ularning jamiyatdagi tarbiyaviy ahamiyatini yoritishga qaratilgan.

**Metodologiya**

Tahlilda yapon xalq ertaklaridan *Momo Taro, Urashima Taro, Kachi-kachi Yama* kabi asarlar tanlab olindi. Ushbu ertaklar sujeti, personajlar xususiyatlari, voqealarning rivoji va yakunidagi axloqiy xulosalar asosida yaxshilik va yomonlik obrazlari o'rganildi. Kontekstual yondashuv asosida obrazlarning semantik mazmuni va ularning jamiyatdagi axloqiy rollari tahlil qilindi.

**Natijalar**

Tahlil natijalariga ko'ra, yapon ertaklarida yaxshilik fazilatlari quyidagicha ifodalangan: sabr-toqat, kamtarlik, saxovat, tabiat bilan uyg'unlik, kattalarga hurmat. Yomonlik esa ochko'zlik, hiyla, hasad, zolimlik, yolg'on kabi fazilatlarga ega obrazlar orqali namoyon bo'ladi. Masalan, *Momo Taro* ertagida bosh qahramon beg'araz yordamga tayyor bo'lib, yovuzlikka qarshi kurashadi va hikoya nihoyasida qilgan barcha yaxshililari uchun mukofotlanadi. *Kachi-kachi Yama* ertagida esa qaroqchi tanuki (rakun) yolg'on va hiyla ishlatib yomonlik qiladi, oxirida esa jazoga tortiladi.

**Muhokama**

Yapon ertaklarida yaxshilik va yomonlikning keskin ajratilishi, odatda, xalq ertaklarida murakkab psixologik holatlar emas, balki soddalashtirilgan axloqiy tamoyillar orqali tasvirlanadi. Bu esa bolalarda to'g'ri va noto'g'ri xatti-harakatlarni, yaxshi va yomon fazilatlarni farqlashni osonlashtiradi. Yaxshi qahramonlar odatda sinovlardan muvaffaqiyatli o'tib, mukofotlanadi. Bunga yaqqol misol xalq ertaklardagi Momo Taro va Urashima Taro kabi qahramonlardir. Shuningdek, yomon qahramonlar esa jazolanadi. Bu didaktik yondashuv orqali yapon jamiyatining qadimiy axloqiy tamoyillari yosh avlodga singdiriladi. Bundan tashqari, ertaklarda tabiatga hurmat, jamoaviylik va iroda kuchi kabi fazilatlar yuksak qadrlanishini alohida ta'kidlash joiz.

**Xulosa**

Yapon xalq ertaklari nafaqat ko'ngilochar funksiyani, balki chuqur tarbiyaviy vazifani ham bajaradi. Ular orqali jamiyatda e'tirof etilgan axloqiy fazilatlar bolalarga singdirilib boriladi. Ezgulik va yovuzlik obrazlarining ravshan tasviri yordamida ertaklar axloqiy tanlov qilishda ko'maklashadi, yaxshilik bilan yomonlikni ajrata olishga undaydi. Shunday qilib, yapon ertaklari yosh avlod tarbiyasida samarali vosita bo'lib xizmat qiladi.

Yuqorida ta'kidlanganimizdek, yapon xalq ertaklari xalqning ma'naviy-axloqiy merosi sifatida muhim tarbiyaviy-didaktik vazifani bajaradi. Ushbu ertaklar orqali yosh avlodga ezgulik, halollik, sadoqat, kamtarlik, mehnatsevarlik kabi fazilatlar singdiriladi. Ezgulik doimo g'alaba qozonishi, yomonlik esa albatta jazolanishi haqidagi g'oya yapon ertaklarining asosiy g'oyaviy yo'nalishidir. Bu holat ertaklarni nafaqat madaniy meros, balki axloqiy me'yorlarni o'rgatuvchi vosita sifatida ham ahamiyatli qiladi.

Tahlil qilingan ertaklar – *Momo Taro*, *Urashima Taro*, *Kachi-kachi Yama* va boshqalar – yapon xalqining qadimiy axloqiy va estetik qarashlarini aks ettiradi. Bu ertaklarda ijobiy obrazlar orqali ezgulik namunasi ko'rsatilsa, salbiy obrazlar orqali esa inson ongidagi salbiy tuyg'ular va illatlar fosh etiladi. Bu esa ertaklarni axloqiy tanlov qilishda muhim vosita sifatida baholash imkonini beradi.

Shu sababli, yapon xalq ertaklarini o'rganish nafaqat adabiy nuqtai nazardan, balki tarbiyaviy va sotsiokulturologik nuqtai nazardan ham muhim ahamiyat kasb etadi. Ular orqali nafaqat yapon xalqining mentalitetini tushunish, balki umuminsoniy qadriyatlarni anglash mumkin bo'ladi.

**Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati**

1. Kawai, H. (1996). *Buddhism and the Japanese Psyche*. Spring Publications.
2. Seki, K. (1963). *Folktales of Japan*. University of Chicago Press.
3. Dorson, R. M. (1975). *Japanese Folktales*. Pantheon Books.
4. Tyler, R. (1987). *Japanese Tales*. Pantheon Books.
5. Yanagita, K. (1988). *The Legends of Tōno*. Japan Publishing Industry Foundation.
6. Matsutani, M. (1998). *Otogi-zōshi: Japanese Fairy Tales Retold*. Tokyo: Kodansha.

7. Komatsu, K. (2002). *An Introduction to Yokai Culture: Monsters, Ghosts, and Outsiders in Japanese History*. Shinchosha.
8. Yoda, H., & Alt, M. (2013). *Yokai Attack! The Japanese Monster Survival Guide*. Tuttle Publishing.
9. Nishimoto, K., (2011). *Urashima Taro. Japanese Folktales, 20 tales*. Gakkei Kyoiku Shuppan.
10. Nishimoto, K., (2011). *Momo Taro. Japanese Folktales, 20 tales*. Gakkei Kyoiku Shuppan.
11. クルボノヴァ, & グルノザ. [源氏物語] の女子教育―光源氏による明石の姫君の [后がね. *教育―][文化継承学論集] 第*, (10), 13-25.
12. Kurbonova, Gulnoza, & Borankulova, Samal (2022). 平安時代の子女教育・教養論の研究. Oriental renaissance: Innovative, educational, natural and social sciences, 2 ( Special Issue 24), 85-95.
13. Курбонова, Г. (2021). Сравнительный анализ узбекских и японских народных сказок (На примере сказок «Золотой арбуз» и『雀報恩の事』–«О благодарности воробья»). *Иностранная филология: язык, литература, образование*, (3 (80), 62–66. извлечено от https://inlibrary.uz/index.php/foreign_philology/article/view/1784

# СИСТЕМА ОБЕСПЕЧЕНИЯ КАЧЕСТВА ПЕДАГОГИЧЕСКОЙ ПРАКТИКИ

**Камалова Сайёра Рустамовна**

*Ташкентский государственный университет востоковедения*

*Старший преподаватель кафедры педагогики и психологии*

*Электронная почта: sayorark05@gmail.com*

**Аннотация:** Современное образование сталкивается с необходимостью обеспечения высокого уровня качества педагогической практики, что является одним из важнейших аспектов эффективного образовательного процесса. В статье рассматриваются ключевые элементы системы обеспечения качества педагогической практики, методы оценки и контроля, а также роль педагогических кадров и образовательных учреждений в обеспечении качества. Особое внимание уделено механизмам повышения квалификации педагогов, развитию их профессиональных компетенций и внедрению инновационных подходов в образовательный процесс. Анализируются современные подходы к организации педагогической практики и достижения в данной области.

**Ключевые слова:** качественная педагогическая практика, система обеспечения качества, педагогические кадры, профессиональные компетенции

**ВВЕДЕНИЕ:** Педагогическая практика является неотъемлемой частью образовательного процесса и играет ключевую роль в подготовке будущих специалистов, формировании у них профессиональных компетенций и навыков. Одной из важнейших задач образовательных учреждений и системы образования в целом является обеспечение качества педагогической практики, что напрямую влияет на качество образования в стране. В условиях быстрого развития образовательных технологий и изменяющихся социальных и экономических факторов необходимо

создание эффективной системы, направленной на мониторинг, анализ и улучшение качества педагогической деятельности.

Система обеспечения качества педагогической практики включает в себя множество факторов, среди которых можно выделить подготовку педагогов, оценку их работы, поддержку и развитие профессиональных компетенций, а также внедрение инновационных методов обучения. Важно отметить, что качество педагогической практики не ограничивается лишь результатами экзаменов и тестов, но охватывает широкий спектр аспектов, таких как взаимодействие с учащимися, мотивация, педагогический подход, а также способность к профессиональному саморазвитию. Обеспечение качества педагогической практики связано с постоянным совершенствованием образовательного процесса, применением новых подходов и методов, а также с развитием системы контроля и оценки педагогической деятельности. В рамках данного исследования будет рассмотрена структура системы обеспечения качества педагогической практики, методы ее реализации и роль образовательных учреждений и государственных органов в этом процессе.

**ЛИТЕРАТУРНЫЙ ОБЗОР.**

Обеспечение качества педагогической практики является одним из центральных аспектов современного образовательного процесса. На протяжении нескольких десятилетий в педагогической науке разрабатывались различные подходы и методы, направленные на повышение эффективности работы преподавателей и качества образования в целом. В данной части работы рассматриваются ключевые теоретические и методологические концепции, связанные с темой обеспечения качества педагогической практики, а также исследуются работы ведущих ученых в этой области. Одним из первых, кто обратил внимание на важность интеграции теории и практики в подготовку педагогов, был **А.С. Макаренко**. В своих работах он подчеркивал необходимость тесной связи между теоретическим обучением и практическим опытом в процессе подготовки будущих специалистов. Макаренко акцентировал внимание на значении педагогической практики как важнейшего

компонента в формировании профессиональных навыков учителей. В его концепции практическая деятельность является не только средством закрепления знаний, но и способом развития индивидуальных педагогических способностей, таких как терпимость, эмпатия и способность к саморегуляции. Эти идеи стали основой для дальнейших исследований в области качества педагогической практики [1].

Ключевую роль в анализе качества педагогической практики и ее современного состояния сыграл **В.И. Лазарев**. В своей работе «Система педагогической практики и ее роль в подготовке специалистов» он предложил систему оценок и критериев, которые могли бы объективно оценивать эффективность педагогической работы на разных уровнях. Лазарев подчеркивал, что успешная педагогическая практика невозможна без своевременной оценки педагогических навыков и постоянного развития профессиональных компетенций преподавателей. Для этого, по мнению ученого, необходимо создать комплексную систему аттестации педагогов, которая бы включала как количественные, так и качественные параметры их деятельности. Его работы заложили основу для развития системы оценки качества педагогической практики в России и за рубежом [2]. Современные исследования в области педагогической практики также активно используют идеи, предложенные **Т.В. Кудрявцевой** и **М.А. Новиковым**. В их исследованиях рассматривался вопрос использования цифровых технологий в образовательном процессе и их влияние на качество педагогической практики. В частности, они акцентируют внимание на том, как внедрение интерактивных методов обучения, а также использование платформ для дистанционного образования могут повысить не только доступность, но и качество образовательных услуг. В условиях цифровизации образовательного процесса, согласно их выводам, учителя должны не только овладеть новыми технологиями, но и научиться использовать их в контексте реального взаимодействия с учениками. Такой подход позволяет значительно улучшить учебный процесс и повысить вовлеченность студентов в образовательный процесс [3].

Не менее важным аспектом в обеспечении качества педагогической практики является разработка и внедрение системы мониторинга и обратной связи. В этом

контексте работы **А.И. Вербицкого** играют важную роль. Он акцентирует внимание на важности создания системы постоянного мониторинга качества работы педагогов и студентов, основанной на регулярной оценке достижений учащихся, а также на проведении педагогических экспертиз, которые помогают выявить слабые места в образовательном процессе. В своем исследовании он рассматривает аттестацию как ключевой элемент системы качества, направленный на выявление и устранение недостатков в педагогической практике. Вербицкий подчеркивает, что высокая квалификация педагогов и наличие четкой системы контроля качества непосредственно влияют на результаты учебного процесса и успехи студентов [4].

**АНАЛИЗ И РЕЗУЛЬТАТЫ**

Анализ системы обеспечения качества педагогической практики выявляет несколько ключевых аспектов, которые значительно влияют на эффективность образовательного процесса. Одним из важнейших моментов является необходимость интеграции теории и практики при подготовке педагогов. Для того чтобы повысить качество педагогической практики, образовательным учреждениям необходимо акцентировать внимание не только на теоретических знаниях, но и на практическом применении методов преподавания в реальных условиях. Такая интеграция помогает устранить разрыв между тем, что преподается в учебных заведениях, и тем, что требуется в реальной образовательной среде, обеспечивая выпускников, готовых к вызовам современной образовательной практики. Одним из центральных компонентов обеспечения качества педагогической практики является постоянное развитие и оценка профессиональных компетенций педагогов. Учителя должны продемонстрировать не только глубокие знания предмета, но и умение взаимодействовать с учениками, применять инновационные методы обучения, а также создавать инклюзивную образовательную среду. Программы повышения квалификации и регулярные тренинги необходимы для поддержания высокого уровня педагогической деятельности. Эти программы должны быть непрерывными и соответствовать изменяющимся требованиям образовательной системы. Учителя должны быть оснащены современными инструментами и методиками, чтобы

эффективно работать в классе, учитывать различные стили обучения учеников и использовать современные технологии для улучшения образовательного процесса.

Кроме того, критически важным элементом системы обеспечения качества является оценка и мониторинг педагогической деятельности. Разработка четких, объективных и комплексных критериев для оценки качества преподавания необходима для выявления как сильных, так и слабых сторон педагогической работы. Эти критерии должны выходить за пределы традиционных показателей, таких как результаты экзаменов студентов, и учитывать другие факторы, такие как взаимодействие учителя с учащимися, управление классом и способность вдохновлять и мотивировать студентов. Применяя более целостный подход к оценке, образовательные учреждения могут более глубоко понять сильные и слабые стороны своей педагогической деятельности и предоставить целенаправленную поддержку там, где это необходимо. Еще одним важным фактором является все более активное внедрение цифровых технологий в образовательный процесс. Использование цифровых платформ, онлайн-обучения и интерактивных инструментов существенно меняет способы реализации педагогической практики. Эти технологии открывают возможности для более гибких и персонализированных образовательных процессов, позволяя учителям эффективно взаимодействовать с учениками и учитывать их индивидуальные особенности. В то же время это ставит перед образовательными учреждениями новые задачи, связанные с необходимостью обучения педагогов работе с такими технологиями и интеграции их в процесс преподавания.

**ЗАКЛЮЧЕНИЕ.**

Обеспечение качества педагогической практики является неотъемлемой частью успешного функционирования современной образовательной системы. На основе проведенного анализа можно утверждать, что ключевыми факторами, влияющими на эффективность педагогической практики, являются тесная интеграция теоретических знаний и практических навыков, постоянное профессиональное развитие педагогов, а также внедрение современных цифровых технологий в образовательный процесс.

Для повышения качества педагогической практики необходимо развивать системы оценки и мониторинга, которые позволят объективно оценить как успешность работы педагогов, так и уровень усвоения знаний учениками. Важно, чтобы критерии оценки включали не только академические успехи студентов, но и качество взаимодействия между учителем и учениками, способность педагога организовать инклюзивное и мотивирующее образовательное пространство. Кроме того, внедрение инновационных методов обучения, использование цифровых платформ и инструментов для создания персонализированных образовательных траекторий также играют важную роль в обеспечении качества педагогической практики. Учителя должны быть подготовлены к работе с новыми технологиями, что требует соответствующих программ повышения квалификации и модернизации учебных программ.

**СПИСОК ЛИТЕРАТУРЫ:**


1. Макаренко А.С. «Педагогика и жизнь». — М.: Просвещение, 2004.
2. Лазарев В.И. «Система педагогической практики и ее роль в подготовке специалистов». — М.: Издательство РАО, 1999.
3. Кудрявцева Т.В., Новикова М.А. «Инновационные методы в педагогической практике». — СПб.: Академический проект, 2012.
4. Вербицкий А.И. «Образовательные технологии и педагогическая практика». — М.: Академия, 2005.
5. Сухомлинский В.П. «Педагогика». — Киев: Радянська школа, 1979.
6. Борис М.Н. «Государственная поддержка и законодательное регулирование образовательной деятельности». — М.: Вышая школа, 2008.

ISSN 2181-2160
JIFactor: 8.2
TA'LIM FIDOYILARI

# TARIXIY O'LKASHUNOSLIKNING AXAMIYATI

**Soburova Go'zal Qadirberganovna**

*Qoraqalpog'iston Respublikasi, Beruniy tumanidagi 42-umumiy o'rta ta'lim maktabi*

*Tarix fani o'qituvchisi*

**Annotatsiya:** Ushbu maqola tarixiy oʻlkashunoslikning ahamiyatini, uning ilmiy va madaniy rivojlanishdagi oʻrnini koʻrib chiqadi. Tarixiy oʻlkashunoslik nafaqat oʻlkalar tarixi, balki milliy va global miqyosdagi siyosiy, ijtimoiy, iqtisodiy jarayonlarni tahlil qilishda ham muhim ahamiyat kasb etadi. Maqolada tarixiy oʻlkashunoslik sohasidagi ilmiy tadqiqotlar, uning metodologiyasi va amaliyotda qoʻllanilishi haqida fikrlar bildirilgan. Tarixiy oʻlkashunoslik sohasida amalga oshirilgan ishlanmalar, oʻlkalar tarixini aniqlashda va kelajakdagi ilmiy ishlanmalarda qanday ahamiyatga ega ekanligi tahlil qilingan.

**Kalit soʻzlar:** Tarixiy oʻlkashunoslik, tarixiy tadqiqotlar, oʻlkalar tarixi, ilmiy metodologiya, madaniy meros, milliy oʻzlik, siyosiy tarix, ijtimoiy taraqqiyot

**KIRISH:** Tarixiy oʻlkashunoslik insoniyatning oʻtmishini, madaniyatini, siyosiy va ijtimoiy tuzilmalarini oʻrganish, ularning evolyutsiyasini tahlil qilish hamda kelajakdagi rivojlanish istiqbollarini aniqlashda muhim ilmiy soha hisoblanadi. Oʻlkashunoslik, oʻzining xususiyatlariga koʻra, oʻlkalar yoki hududlarning tarixini oʻrganishni, shu bilan birga, oʻsha hududlarda yashagan xalqlarning urf-odatlari, an'analari, madaniyatlari, ijtimoiy va siyosiy tuzilmalari bilan bogʻliq boʻlgan koʻplab jarayonlarni tahlil qilishni oʻz ichiga oladi. Bu soha nafaqat tarixiy voqealarni yoritishda, balki jamiyatning hozirgi holatini tushunishda, shuningdek, milliy va global miqyosdagi siyosiy, ijtimoiy, iqtisodiy jarayonlarni baholashda ham muhim rol oʻynaydi.

Tarixiy oʻlkashunoslik, oʻzining turli metodologik yondashuvlari va ilmiy asarlari bilan jamiyat uchun katta ahamiyatga ega boʻlishi mumkin. Har bir hudud, millat yoki xalq oʻz tarixiy rivojlanish yoʻlini, oʻziga xos madaniy, iqtisodiy va siyosiy xususiyatlarini

shakllantirgan. O'lkashunoslik, birinchi navbatda, hududlarning o'ziga xosligini aniqlash, madaniy merosni saqlash va o'lkalar o'rtasidagi aloqalarni o'rganishda muhim ahamiyatga ega. Masalan, o'lkashunoslik nafaqat o'lkadagi siyosiy va iqtisodiy tarixni o'rganadi, balki u hududning etnografik, madaniy va diniy xususiyatlarini ham yoritadi. O'lkashunoslik ilmiy sohasining rivojlanishi jahon tarixida ko'plab yirik ilmiy va madaniy inqiloblarni yaratgan. Bir tarafdan, tarixiy o'lkashunoslik nafaqat o'lkalarni tarixini aniqlash, balki o'lkalar o'rtasidagi o'zaro aloqalarni va bu aloqalarning jamiyatdagi o'rnini o'rganishga xizmat qiladi. Ikkinchi tomondan, o'lkashunoslik jarayonida milliy o'zlikni saqlash, xalqlarni birlashtirish va ularning tarixiy merosini asrab-avaylashda ham muhim rol o'ynaydi. Ayniqsa, mustamlakachilik va jahon urushlari kabi tarixiy voqealar natijasida butun dunyo miqyosida o'lkalar o'rtasidagi aloqalar va siyosiy holatlarda katta o'zgarishlar yuz berdi. Bu o'zgarishlar, o'z navbatida, o'lkalar tarixi va madaniyatini o'rganishning ahamiyatini yanada oshirdi.

**ADABIYOTLAR TAHLILI**

Tarixiy o'lkashunoslik sohasidagi ilmiy tadqiqotlar, uning metodologiyasi va rivojlanish jarayonlarini o'rganishda bir qator muhim manbalar va adabiyotlar o'zining ahamiyatini saqlab qolmoqda. Ushbu adabiyotlar o'lkashunoslik fanining rivojlanishi, yangi yondashuvlar va metodologiyalarni shakllantirishda katta rol o'ynagan. Adabiyotlar tahlili, tarixiy o'lkashunoslik fanining ilmiy asoslarini aniqlash, uning zamonaviy rivojlanishini baholash hamda yangi ilmiy tendensiyalarni o'rganishda zaruriy vositadir. **Karimov I.A.** o'zining "Vatan sajdagoh kabi muqaddasdir" nomli asarida milliy tarix va o'lkashunoslikni o'rganishga alohida e'tibor qaratadi. Karimov asarida o'zbekistonliklarning tarixiy merosi va yurtga bo'lgan muhabbatini yoritadi. Asarda Vatan tarixini o'rganish, milliy qadriyatlarni saqlash va rivojlantirish, shuningdek, tarixiy merosning muqaddasligi haqida chuqur fikrlar bildirilgan. Tarixiy o'lkashunoslik va milliy tarixning jamiyat uchun ahamiyati tushuntirilgan va ular o'rtasidagi bog'liqlik ko'rsatilgan. Karimovning asari o'lkashunoslikni faqat ilmiy soha sifatida emas, balki millatni uyg'otuvchi va jamiyatni rivojlantiruvchi kuch sifatida ko'rib chiqadi [1].

**Artsixovskiy A.B.** "Arxeologiya asoslari" asarida arxeologiyaning nazariy va amaliy asoslari, uning tarixiy oʻlkashunoslikka ta'siri va arxeologik tadqiqotlar metodologiyasi haqida batafsil ma'lumot beradi. Bu asar oʻlkashunoslikka arxeologik nuqtai nazardan yondashadi va arxeologiyaning tarixni oʻrganishda qanday rol oʻynashini tushuntiradi. Ushbu asar oʻlkashunoslik ilmiy sohasidagi muhim oʻzgarishlarni va yondashuvlarni oʻz ichiga olganligi bilan alohida ahamiyatga ega. Asarda oʻlkashunoslikning madaniy, iqtisodiy va ijtimoiy tizimlarni tahlil qilishdagi oʻrni aniq bayon qilingan [2]. **Nabiev A.** oʻzining "Tarixiy oʻlkashunoslik" nomli asarida oʻlkashunoslikning ilmiy metodologiyasini, tarixiy tadqiqotlarni olib borishda qoʻllaniladigan yondashuvlar va metodlarni tahlil etadi. Nabievning asari tarixiy oʻlkashunoslikning rivojlanish jarayonini, uning ilmiy asoslarini va metodologik yondashuvlarini chuqurroq tushunishga yordam beradi. Ushbu asarda oʻlkashunoslik fanining rivojlanishiga oid tarixiy va madaniy jihatlar yoritilgan, shuningdek, oʻlkashunoslik va tarixning oʻrtasidagi oʻzaro bogʻliqlik koʻrsatilgan. Nabievning asari oʻlkashunoslik sohasidagi ilgʻor ilmiy yondashuvlarni oʻzida mujassam etadi [3].

**Sa'diev A.** "XIX asrda Turkistonda tarix fani" asarida XIX asrda Turkistonning tarixiy rivojlanishi, oʻlkashunoslikning rivojlanishi va tarixiy yondashuvlar tahlil qilingan. Asarda tarixning oʻlkashunoslik bilan bogʻliqligi, oʻlkashunoslikning ilmiy jihatlari va oʻlkalar tarixining oʻrganilishi muhim oʻrin tutadi. Sa'diev oʻzining asarida Turkiston hududidagi oʻlkashunoslik va tarixiy tadqiqotlarning rivojlanishini tahlil etadi va tarixiy oʻlkashunoslik ilmiy an'analarini yaxshilash uchun yangi usullarni taklif qiladi. Ushbu asar tarixiy oʻlkashunoslikning amaliy va ilmiy jihatlarini birlashtiradi [4]. **Gʻulomov Y.A.** "Oʻzbekistonda arxeologiya" asarida Oʻzbekistonda arxeologiya va oʻlkashunoslikning rivojlanishiga bagʻishlangan ilmiy tahlilni taklif etadi. Ushbu asar Oʻzbekistonda oʻlkashunoslikning rivojlanishini oʻrganishda zarur boʻlgan tarixiy va madaniy manbalarni chuqur oʻrganishga asoslangan. Gʻulomov oʻzining asarida Oʻzbekistonda arxeologik tadqiqotlar orqali tarixiy oʻlkashunoslikning rivojlanishini va bu sohada amalga oshirilgan ilmiy ishlanmalarning ahamiyatini yoritadi. Asarda Oʻzbekistonda arxeologiya va tarixiy oʻlkashunoslikning asosiy jarayonlari va metodlari aniq bayon qilingan [5].

**TAHLIL VA NATIJALAR**

O`lkashunoslik uch turga bo`linadi: 1) ilmiy, ya`ni davlat o`lkashunosligi; 2) jamoat o`lkashunosligi; 3) maktab o`lkashunosligi. O`lkashunoslikning har uchala turi o`zaro bir-biriga aloqador bo`lib, biri ikkinchisini to`ldiradi.

Davlat o`lkashunosligi bilan respublika tarixiy va madaniy yodgorliklarni muhofaza qilish hamda ulardan foydalanish qo`mitasi, muzeylar, respublika Fanlar akademiyasi qoshidagi tarix arxeologiya ilmiy-tadqiqot institutlari shug`ullanadi.

Jamoag o`lkashunosligi qishloq, ovul, qo`rg`on, tuman, shahar, viloyat hududidagi tarixiy obidalarni saqlash va asrash ishlariga boshchilik qilish bilan birga joylarda istiqomat qilib turgan xalqlarning kelib chiqishlari (etnogenezi), urf-odatlarini o`rganadi hamda ilg`or mehnatkashlar, Mehnat qahramonlari xotirasini abadiylashtirish uchun haykallar, mangu olovlar, hurmat taxtalari tashkil qiladi. Bundan tashqari jamoat o`lkashunosligiga mustaqil ravishda tanga pullarni o`rganuvchi mutaxassislar — numizmatlar, muhrlarni o`rganuvchilar sfragistlar, tamg`a (gerb)larni o`rganuvchilar — geraldistlar, tosh, metall, sopol va yog`ochdagi yozuvlarni o`rganadigan olimlar-epigrafistlar, eski asbob-uskunalar va qurol-aslaha hamda shu kabi narsalarni to`plovchilar ham uyushadi.

Maktab o`lkashunosligi esa maktablarda tarix inson va jamiyat fani o`qituvchilarining bevosita rahbarligida tashkil qilinadi. Maktab o`lkashunosligining a`zolari V-X (XI) sinflarning eng intizomli va a`lochi o`quvchilaridan tuzilib, ular o`lka materiallarini to`rt guruhga bo`lingan holda to`playdilar. To`plangan arxeologik, etnografik, toponimik va arxiv hujjatlari maktab o`lkashunoslik va tarix muzeylarida namoyish qilinadi.

Maktab o`lkashunosligi ta`lim-tarbiyani turmush, ishlab chiqarish, yangi jamiyat qurish tajribasi bilan uzviy bog`liq holda o`rganadi. O`qitish jarayonida o`lka materiallaridan o`rinli foydalanish o`quvchilarning o`z o`lkasi tarixini bilib olishga, chuqur bilim olishga, mustaqil ijod qilishga bo`lgan qiziqishini orttiradi va kelgusi hayot yo`lini tanlab olishga yordam beradi. Maktab o`lkashunosligi fanlar o`rtasidagi aloqani mustahkamlaydi hamda o`qituvchi zimmasiga katta mas`uliyat yuklaydi. U dastur asosida, o`z a`zolarining bilim darajasi hamda ijodiy qobiliyatlarini hisobga olgan holda (iloji boricha mutaxassislarning maslahatlari va ko`rsatmalari asosida) tadqiqot o`tkazish ishining rejasi va ish hajmi hamda uslubini ishlab chiqadi. O`lkashunoslikning butun muvaffaqiyati

shu ishga raxbarlik qilayotgan o`qituvchining bilimiga va tashkil qila olishiga bog`liq. Agar o`qituvchi o`z o`lkasini yaxshi bilsa, bu haqdagi og`zaki va yozma manbalarni muntazam o`rganish bilan birga o`quvchilarning ota-onalari, keksalar, o`lkashunoslik tashkilotining xodimlari bilan suhbatlar olib borib, pedagogik mahoratini ishga solsa, o`quvchilarning faolligi ortib boradi, o`tilgan materiallarni to`liq o`zlashtirish bilan birga uni hayotga xam tatbiq qila boshlaydi. Natijada o`quvchilarning puxta bilim olish bilan birga o`z o`lkasiga bo`lgan mehr-muhabbati ortadi va tarixiy tasavvuri hamda tarixiy tushunchasi shakllanib boradi.

Maktab o`lkashunosligi ikkiga bo`linib, o`quv jarayonida (o`quv dasturi asosida) va dasturdan tashqari (maktabning tarbiyaviy ishlar rejasiga asoslangan holda) amalga oshiriladi. O`quv jarayonida (sinfda) olib boriladigan o`lkashunoslik ishlari ham ikki maqsadni ko`zlaydi. Biri – o`z o`lkasining o`tmishini arxeologik, etngorafik, toponomik, qo`lyozma asarlar va arxiv xujjatlari asosida o`rganish va o`lkashunoslik materiallarini bir tizimga solish; ikkinchisi — to`plangan o`lkashunoslik materiallaridan tarix hamda inson va jamiyat darslarida foydalanish. Sinfda olib boriladigan o`lkashunoslik ishlariga barcha o`quvchilariing ishtirok etishi majburiydir. Maktabdan tashqari olib boriladigan o`lkashunoslik ishlari, ya`ni sayohatlar, arxeologik ilmiy safarlarda O`zbekiston Fanlar akademiyasi tarix hamda arxeologiya institutining tavsiyasi bilangina shu ishga layoqatli o`quvchilar ixtiyoriy ravishda ishtirok etadilar. Maktab o`lkashunosligi tarix hamda inson va jamiyat fanlaridan olgan bilimlarni oydinlashtiradi, kengaytiradi hamda har xil fanlarning o`zaro aloqasini ta`minlaydi.

Maktab o`lkashunosligi tarixiy obidalarni saqlash va himoya qilish, qadimiy manzilgohlarni topishda ham katta rol' o`ynaydi. U jamoa bo`lib yashash, ishlash va ijod qilishga o`rgatadi. O`quvchilarda sinchkovlik, tirishqoqlik, tevarak-atrofga havas bilan boqish, tadqiqotga qiziqish, Vatanni sevish va uni ardoqlash hislari shakllanib boradi.

Darhaqiqat, maktab o`lkashunosligi o`quvchilarda o`z Vataniga mehr uyg`otish bilan birga, ularni estetik ruhda tarbiyalashga xdm munosib hissa qo`shadi.

Vatanga bo`lgan mehr tuyg`usi o`z o`lkasini o`rganishdan boshlanadi. Maktab o`lkashunosligida ana shunday tuyg`u shakllanadi.

**Tarixiy o`lkashunoslikning rivojlanishi. 1917 yilga qadar o`lkani o`rganish masalasi.**

Rus olimi M. V. Lomonosov o`z o`lkasini mukammal o`rganish maqsadida 1761 yili 30 savoldan iborat javob varaqasi tuzib, aholi o`rtasida tarqatgan edi. Ayni vaqtda bu bilan o`lkashunoslik faniga asos solingandi. O`lkani o`nganish masalasi O`rta Osiyo, shu jumladan O`zbekiston hududida Rossiyadan anchagina keyinroq, ya`mi XIX asrning ikkinchi yarmidan boshlanadi.

Rus olimlari O`rta Osiyoning chorizm tarafidan bosib olishidan ancha ilgari bu o`lkani o`rganish bo`yicha bir qancha ishlar qilgan edilar. Biroq, XIX asrning birinchi yarmidagi o`lkani o`rganish, ya`ni mahalliy tarixchilik ijtimoiy-siyosiy, iqtisodiy va madaniy hayotdagi biqiqliqka mos bo`lib, feodal tuzum manfaatlari uchun xizmat qilar edi. Tarix fanidan feodal sinfining manfaatlari, xonlar va ular sulola-sining taxtga egaligi va «odilligi»ni mafkuraviy jihatdan asoslash uchun foydalanib kelindi. Saroy tarixchilari o`zlarining asosiy e`tiborlarini siyosiy voqeliklarni xonlarning faoliyati va o`z raqiblari ustidan qozongan g`alabalarini ko`klarga ko`tarib maqtash, saroydagi an`analarni tasvirlashga qaratdilar. Chunki zamon o`zi shunaqa edi. Natijada bu davr tarixchiligining mavzui jahon tarixchiligi mavzusidan bir qadar ajralib qoldi. X—XV asrlardagi mahalliy tarixchilar Muhammad Narshaxiy, Tabariy, Rashididdin, Nizomiddin Jomiy, Abulg`ozixon va boshqalarning asarlari o`zining mazmundorligi, faktik materialga boyligi bilan bu davrda yozilgan tarixiy asarlardan sezilarli darajada ajralib turadi. Sharqshunos A. A. Romaskevich Rashididdinning «Jome ut-tavorix» nomli asari ustida so`z yuritar ekan, haqli ravishda bu asar o`zining mazmuni va hajmi jihatidan muhimligini ko`rsatib, biz bu asardan keyin eron tarixchiligida voqealarni bu xilda bayon qilish uchun bo`lgan intilishni ko`rmaymiz, deb yozgan edi. Bu O`rta Osiyo tarixchiligiga ham xos narsa edi. Shunday qilib, XIX asrning birinchi yarmida tarix fani ham, boshqa fanlar singari, hukmron sinfning manfaati uchun xizmat qildi.

X1X asrning 30-yillarida Buxoro saroy tarixchisi Muhammad Yoqub yozgan «Gulshan ul-muluk» nomli asar o`sha davr tarixiy manbalaridan biri hisoblanadi. Bu asar fors-tojik tilida yozilgan bo`lib, unda qadimgi zamonlardan to XIX asrning 30- yillarigacha bo`lgan Buxoro amirligidagi siyosiy voqealar bayoni beriladi. Asarda saroy voqeliklari, xukmron sinflar tarixi, o`zaro urushlar, unda erishilgan g`alabalar, xonlikning keyingi sulolasining

genealogiyasi (nasabnomasi) ifodalanib, jamiyatning rivojlanishida asosiy kuch bo`lgan xalq ommasining ahvoli, uning tilak-orzulari, xalq harakatlari va bu harakatning tub mohiyatini yoritishga bo`lgan intilishni deyarli ko`rmaymiz.

**XULOSA**

Tarixiy o‘lkashunoslik fanining ahamiyati, uning rivojlanishiga oid ilmiy yondashuvlar va metodologiyalarni o‘rganish, nafaqat o‘lkalar tarixini, balki jamiyatning madaniy, siyosiy, iqtisodiy tizimlarini ham chuqur tushunishga yordam beradi. O‘lkashunoslikning ilmiy asoslari va metodologiyasi, jumladan arxeologik, etnografik, tarixiy va madaniy yondashuvlar, bu sohani yanada rivojlantirish va amaliy ahamiyatini oshirishga xizmat qiladi. Tarixiy o‘lkashunoslik, o‘z navbatida, milliy o‘zlikni saqlash, millatlararo aloqalarni chuqurlashtirish va jamiyatni uyg‘otishda muhim rol o‘ynaydi. Karimov, Artsixovskiy, Nabiev, Sa'diev va G‘ulomov kabi olimlarning asarlari o‘lkashunoslik fanining rivojlanishida katta ahamiyatga ega bo‘lgan va ilmiy yo‘nalishlarni shakllantirgan. Ularning ishlari, o‘lkashunoslikning tarixiy, madaniy va ijtimoiy jihatlarini o‘rganishda muhim manba sifatida xizmat qilgan. Shu bilan birga, ularning tadqiqotlari tarixiy o‘lkashunoslikning rivojlanishidagi yangi metodologiyalarning joriy etilishi, ilmiy tahlillar va kelajakdagi istiqbollarni yoritishga yo‘naltirilgan. Adabiyotlar tahlili va ilmiy yondashuvlar asosida shuni ta’kidlash mumkin: tarixiy o‘lkashunoslik faqat tarixiy voqealarni o‘rganish emas, balki o‘lkalar va xalqlar o‘rtasidagi madaniy va siyosiy aloqalarni tahlil qilish, milliy o‘zlikni saqlash va rivojlantirish uchun muhim vosita hisoblanadi. O‘lkashunoslik fanining rivojlanishida zamonaviy ilmiy yondashuvlar va metodologiyalarni qo‘llash zaruriyati yanada kuchaymoqda.

**FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI:**

1. Karimov I.A. Vatan sajdagox kabi muqaddasdir. Toshkent «O`zbekiston 1996 yil.»
2. Artsixovskiy A B.«Arxeololgiya asoslari» Toshkent «O`qituvchi» 1970yil.
3. Nabiev A. «Tarixiy o`lkashunoslik» Toshkent «O`qituvchi» !996 yil.
4. Sa`diev A. «XIX asrda Turkistonda tarix fani» Toshkent 1960 yil
5. G`ulomov YA.G. «O`zbekistonda arxeologiya» Toshkent 1956 yil.
6. Sa'diyev S.A. O’zbekiston xalklari tarixini uqitish T. O’zbekiston.1993.

# Понятие «глаза» в русском языкознании: лексико-семантический, грамматический и прагматический аспекты

Усманова Дильдора Абдуназаровна
Преподаватель кафедры "Узбекский язык и преподавание языков"
Гулстанский государственный педагогический институт
Email: 1993dilichka1988@gmail.com
Тел.: +998996311312

**Аннотация**

В данной статье рассматривается лексема *«глаза»* как лингвистическая единица, обладающая сложной семантической структурой, богатым грамматическим поведением и широкой прагматической функцией в русском языке. Цель исследования — выявить основные значения слова «глаза», его грамматические характеристики, особенности функционирования в разных типах дискурса и устойчивых выражениях. Работа опирается на методы компонентного анализа, корпусного исследования (по материалам НКРЯ) и стилистического анализа контекстов употребления. В результате установлено, что лексема «глаза» активно функционирует как в прямом, так и в переносном значении, демонстрируя метафорическую и фразеологическую продуктивность.

**Введение**

Одним из ключевых понятий в антропоцентрической картине мира является зрение, а следовательно, и его физический носитель — глаза. В русском языке слово *«глаза»* не только обозначает орган чувств, но и выполняет множество функций в различных уровнях языка — от лексического до текстового. Оно активно участвует в формировании фразеологических единиц, метафорических и символических конструкций, эксплицирует эмоциональные и коммуникативные значения.

Проблематика лексемы «глаза» затрагивает сразу несколько областей языкознания: лексикологию, грамматику, фразеологию, когнитивную семантику. Несмотря на частотность и кажущуюся простоту слова, его лингвистическое содержание оказывается сложным и многоуровневым. Исследование направлено на комплексный анализ данной лексемы с привлечением междисциплинарных подходов.

Слово *«глаза»* — частотная лексема русского языка, активно используемая как в прямом, так и в переносном значении. Оно входит в широкий круг фразеологических единиц, метафор и поэтических образов. Несмотря на обыденность, данная лексема представляет интерес как объект лексико-

семантического и грамматического анализа. Цель исследования — определить основные семантические поля и грамматические особенности слова *«глаза»*, а также выявить его функциональные роли в тексте.

**Методология**

Для достижения поставленных целей использовались следующие методы:

1. **Компонентный анализ** — для выявления семной структуры значений слова «глаза» в разных контекстах.
2. **Корпусный анализ** — на основе данных Национального корпуса русского языка (НКРЯ), позволяющий установить частотность, контексты и грамматические формы лексемы.
3. **Фразеологический анализ** — для систематизации устойчивых выражений, где присутствует компонент «глаза».
4. **Контекстуально-прагматический анализ** — для определения функции слова «глаза» в различных типах текста (публицистическом, художественном, разговорном и др.).
5. **Сравнительно-сопоставительный анализ** — включающий параллели с другими языками (английский, французский), с целью выявления универсальных и уникальных черт.

Объектом исследования выступает лексема *«глаза»* во всех падежных формах и грамматических контекстах. Материалом послужили фрагменты текстов из художественной литературы, разговорной речи, средств массовой информации, а также данные словарей и НКРЯ.

**Результаты**

**1. Лексико-семантический аспект**

Слово *«глаза»* демонстрирует широкую полисемию. Выделяются следующие значения:

- **Прямое (анатомическое):** органы зрения (напр. *больные глаза*, *закрыть глаза*).
- **Метафорические:**
    - *взгляд, выражение лица — смотреть в глаза*, *в глазах испуг*;
    - *внимание, восприятие — попасться на глаза*, *вырезаться из глаз*;
    - *мнение, восприятие другого — в его глазах я герой*;
    - *контроль, наблюдение — нужен глаз да глаз*;
    - *приблизительная мера — на глазок*;

- *центр внимания, фокус — бросаться в глаза.*

Часто лексема участвует в образовании фразеологизмов и устойчивых словосочетаний.

**2. Грамматические характеристики**

- **Число:** слово *глаза* употребляется исключительно во **множественном числе** в значении органа зрения. Единственное число — *глаз* — используется реже, часто с артикулированной функцией (например, *левый глаз*, *один глаз*).
- **Склонение:** в соответствии с парадигмой второго склонения:
  - И.п. — глаза
  - Р.п. — глаз
  - Д.п. — глазам
  - В.п. — глаза
  - Т.п. — глазами
  - П.п. — глазах
- **Сочетаемость:** лексема легко входит в словосочетания с прилагательными (*красивые глаза*, *грустные глаза*), глаголами (*показываться на глаза*, *опустить глаза*), наречиями (*в глаза*, *на глаз*).

**3. Фразеология**

Слово *глаза* активно участвует в образовании фразеологических единиц. Примеры:

| **Фразеологизм** | **Значение** |
|---|---|
| *Закрывать глаза (на что-то)* | игнорировать |
| *Не видеть дальше собственного носа (глаз)* | быть ограниченным |
| *Глаза разбегаются* | невозможно сосредоточиться на чём-то одном |
| *Бросаться в глаза* | быть заметным, ярким |
| *Во все глаза смотреть* | наблюдать с большим вниманием |
| *Глаз не оторвать* | быть восхищённым |
| *Глаз да глаз нужен* | требуется пристальное внимание, контроль |

**4. Прагматико-дискурсивные особенности**

- В **художественном дискурсе** лексема часто используется для создания образов, передачи эмоций, описания внешности.

- В **разговорной речи** и **публицистике** — служит маркером экспрессии и оценки.
- В **профессиональной речи** и **научном языке** — редко, в основном в метафорической или иронической функции.

**Обсуждение**

Результаты исследования подтверждают, что лексема *«глаза»* является многослойной в плане лексического содержания и грамматического функционирования. Её частотность и способность входить в многочисленные фразеологические конструкции делают её активной единицей коммуникативного поведения.

Метафорические и метонимические перенесения значений отражают особенности когнитивной картины мира: глаза символизируют не только физическое зрение, но и восприятие, знание, правду и внимание. Грамматическая форма (множественное число) указывает на внутреннюю связанность этой лексемы с целостным восприятием.

Сравнение с другими языками (например, английское *eyes*, французское *yeux*) демонстрирует универсальность представления о глазах как важном когнитивном и культурном концепте. Тем не менее, набор фразеологизмов, культурных символов и грамматических особенностей носит национально-специфический характер.

**Заключение**

Лексема *«глаза»* в русском языке представляет собой сложную семантическую и прагматическую единицу. Её анализ выявил многообразие значений, широкую грамматическую вариативность и функциональную продуктивность в дискурсе. Она служит ярким примером того, как повседневное слово становится отражением культуры, мышления и лингвистической системы.

**Литература**

1. Виноградов В.В. Лексикология и лексикография. — М.: Наука, 1977.
2. Толковый словарь русского языка под ред. Ожегова С.И.
3. Кузнецова Ю.Б. Русская фразеология: Учеб. пособие. — М.: Флинта, 2008.
4. Национальный корпус русского языка: www.ruscorpora.ru
5. Апресян Ю.Д. Избранные труды. Т. 2. Интегральное описание языка и системная лексикография. — М.: Языки славянской культуры, 1995.

# BUXORO TURIZM SOHASINI RIVOJLANTIRISH YO`NALISHLARI

***Xayrulloyev Naimjon Hayot o`g`li***
*Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti*

**Annotatsiya:** Ushbu maqola Buxoro viloyatida turizmni rivojlantirish mumkin bo`lgan sohalar rivojini muhokama etishga bag`ishlangan.

**Kalit so'zlar:** Turizm, Buxoro, sanoat, siyosat, iqtisodiyot.

## KIRISH

Dunyo mamlakatlarida jahon moliyaviy- iqtisodiy inqirozi hukm surayotganiga qaramasdan turistik biznes jahon xo'jaligining eng tez rivojlanayotgan tarmoqlaridan biri hisoblanmoqda. Xalqaro turizm neft qazib chiqarish va avtomobilsozlikdan so'ng uchta eng yirik eksport tarmoqlari qatoriga kiradi. Boshqa manbalarga ko'ra turizm jahon xo'jaligining eng rentabelli sohasi hisoblanadi. Turizm sanoatida butun jahondagi ishchi kuchining 60 % qismi mehnat qiladi. Ma'lumotlarga ko'ra, 2000 yilda butun jahonda turizm orqali olinuvchi daromad 621 milliard dollarni tashkil etgan bo'lsa, 2020 yilga borib bu ko'rsatkich ikki trillion dollarga yetishi bashorat qilinmoqda.

## TADQIQOT METODOLOGIYASI VA YeMPIRIK TAHLIL

Turizm sohasini isloh qilish borasida Respublikamizda bir qator ijobiy ishlar amalga oshirildi. Eng avvalo, uning iqtisodiy va huquqiy asoslari yaratildi. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 1992 yil 27 iyuldagi "O'zbekturizm" milliy kompaniyasini tashkil etish to'g'risida"gi Farmoniga muvofiq "O'zbekturizm" milliy kompaniya tashkil etildi. Turizm sohasida boshqaruvning samarali tizimini ta'minlash maqsadida Vazirlar Mahkamasining 2004 yil 28 iyulda "O'zbekturizm" milliy kompaniyasi faoliyatini yanada takomillashtirish to'g'risidagi 360-sonli qarori qabul qilindi. Mazkur qarorda "O'zbekturizm" milliy kompaniyasining faoliyati va asosiy vazifalari belgilab berildi, kompaniyaning tashkiliy tuzil- masi tasdiqlandi. 2016 yildan boshlab O'zbekistonda

"O'zbekturizm" kompaniyasi tugatilib, Turizmni rivojlantirish davlat qo'mitasi tashkil etildi[1].

Sharq durdonasi deya e'tirof etilgan Buxoroi sharif qadim Buyuk ipak yo'li chorrahasi sifatida o'rta asrlarda fan, madaniyat, savdo-sotiq va sayyohlik markazlaridan biri sifatida dovrug' qozongan. Buxoro viloyati O'zbekistonning janubi- g'arbida joylashgan bo'lib, uning umumiy maydoni 40320 kvadrat kilometr, aholisi 1843,4 ming kishidan ziyod, shundan qariyb 68 foizi qishloq joylarida, 32 foizi shaharlarda yashaydi. Viloyatning ma'muriy markazi Buxoro shahri bo'lib, uning aholisi 300 000 kishidan ziyod[2].

Boqiy Buxoroda turizmni rivojlantirish, uning istiqbollarini shakllantirish, tarixiy obidalarni restavratsiya qilish, ularni muhofazalash, xalqaro sayyohlar va mehmonlarga sifatli servis xizmat ko'rsatish shart- sharoitlarini takomillashtirish orqali mamlakat iqtisodiyotida turizm ulushini oshirishga alohida e'tibor qaratilmoqda.

Buning natijasida respublikada turistik salohiyati yildan yilga oshib bormoqda. Viloyat miqyosida so'nggi besh yilda hududda sayyohlar oqimi 15-20 foizga oshdi. Ularning aksariyatini Ispaniya, Yaponiya, Malayziya, Indoneziya, Buyuk Britaniya singari xorijiy mamlakatlar vakillari tashkil etadi. Buxoroga tashrif buyurgan sayyohlarga yetarli shartsharoitlarni yaratish uchun turistik kompaniyalar soni 35 taga, mehmonxonalar 84 taga yetkazildi. Ayni vaqtda ushbu mehmonxonalarda bir kunda 3 ming nafardan oshiq turistlarni qabul qilish imkoni- yati mavjud.

Buxoro shahrida 1,2 gektar maydonni o'z ichiga oluvchi Buxoro tarixi davlat muzeyi qurilishiga budjet mablag'lari hisobidan 68,3 milliard so'm sarflanishi mo'ljallangan. Ushbu muzey qurilib, ishga tushirilsa, "Ark" qo'rg'onida saqlanayotgan noyob eksponatlar u yerga ko'chiriladi.

Ko'hna va boqiy Buxoroda turizm sohasini yanada rivojlantirish davr talabi bo'lib hisoblanadi. Turistik agentliklar, mehmonxonalar, restoranlar yetarli darajada bo'lsada, turizmni tashkil qilish yo'nalishlari va uning tuzilmalari yetarlicha dara- jada rivojlanmagan. Turizmni ziyorat turizmini (Yetti pir, Naqshbandiy) ziyoratgohlari bo'yicha, tabiiy-ekologik turizm (cho'l zonalariga, to'dako'l, Varaxsha, Paykent)

joylariga, qishloq xo'jalik turizmi (shaharga yaqin qishloq joyini aynan tu- ristlarni eski urf-odatlar, kiyimlar va muhit bilan qabul qiladigan joy), sog'lomlashtirish turizmi (eski hammomlar, massaj, shifobaxsh va e'tiqod kilinadigan suvlar bor joylarida) tashkil qilish zarur[3].

**XULOSA VA MUNOZARA**

Milliy hunarmandchilik mahsulotlarini ishlab chiqish bilan savdo qilishni rivojlantirish, foto, rasmlarni tarelkaga, marmar plitkalarga solish xizmatlarini, joylarda ijodiy jamoalar namoyishlari (dorbozlik, afandi ko'rinishlari), tuya, ot arava, eshak arava xizmatlarini tashkil etishni takomillashtirish zarur.

Buxoro viloyatining chekka tumanlaridan hisoblangan Olot o'zining shifobaxsh tuz va qumli joylari bilan Respublikada nom chiqargan. Shu joylarda viloyat sog'liqni-saqlash boshqarmasi, Turizmni rivojlantirish davlat qo'mitasi rahbarligi asosida turizm biznesi shaklida tibbiy va boshqa servis xizmatlarni ham rivojlantirish mumkin. Olot ko'llarida baliqchilik, o'rdakchilik, g'ozchilik, qimmatbaho mo'ynali hayvonlarni yetishtirish orqali ushbu turizmni rivojlantirishga asos bo'ladi.

**ADABIYOTLAR RO`YXATI**

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2016 yil 2 dekabrdagi "O'zbekiston Respublikasi sayyohlik sohasini rivojlantirishni tezlashtirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi farmoni.
2. Buxoro viloyatining ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishining asosiy ko'rsatkichlari, 2016 yil yanvar-dekabr.
3. Boboev A.Ch. "Tadbirkorlik faoliyati rivojlanishining nazariy jihatlari va ustuvor yo'nalishlari" iqtisod fanlari nomzodi ilmiy darajasini olish uchun yozilgan dissertatsiyasi, Toshkent-2012 yil

ISSN 2181-2160
JIFactor: 8.2
TA'LIM FIDOYILARI

# TA'LIM JARAYONIDA O'QUVCHILARNING MATEMATIK QOBILIYATINI RIVOJLANTIRISH YO'LLARI

N.SH.Ibragimov TerDPI dotsenti

nodir090881@mail.ru
(0009-0000-0507-9078)- ORCID

*Annotatsiya: Ushbu maqolada yuqori sinf o'quvchilarining matematik qobiliyatlarini rivojlantirish imkonini beruvchi taqqoslash qobiliyatini rivojlantiruvchi masalalar tuzish metodikasi ko'rilgan.*

*Tayanch so'zlar: matematik qobiliyat, taqqoslash qobiliyati, tasavvur, idrok, xotira, analiz, sintez.*

Ko'pgina rivojlangan mamlakatlarda bo'lganidek, keyingi yillarda bizning yurtimizda ham o'quvchilarning qobiliyati va ularni rivojlantirish masalalari ayniqsa maktab matematika fanini o'qitish muammolariga qiziqish juda ham o'sganligi kuzatilmoqda. Umuman maktab matematika fanini o'qitish hozirgi zamon fani talablariga muvofiq qayta ko'rib chiqilmoqda. Shuning uchun ham o'quvchilarning qobiliyatlarini shu jumladan, matematik qobiliyatlarini rivojlantirish dolzarb muammolardan biri ekanligi barchaga ma'lum. Bu boradagi izlanishlar shuni ko'rsatmoqdaki taklif qilingan usullar ichida eng samaralisi matematik qobiliyatni aniqlovchi komponentlarni o'rganish va ularni rivojlantiruvchi masalalarni tuzishdir [1-8].

Psixologiya va pedagogika fanlarining dolzarb vazifalaridan biri umumiy qobiliyatlar va iqtidor tabiyatini aniqlash, bolalarning intellektual rivojlanishining tamoyillarini va qonuniyatlarini ochib berishdan iborat. Insonlarning aqliy qobiliyatari mamlakat ilmiy texnikaviy rivojining zaxirasi va insonlar intellektual rivojlanish imkoniyatining asosi hisoblanadi. Shu munosabat bilan, aqliy iqtidor tabiatini o'rganish, uni diagnostika qilish metodlarini yaratish va o'quvchilarninng shaxsiy qobiliyatarini aniqlash zamonaviy pedagogikaning dolzarb muammosidir. Bolalar iqtidorining tabiati, uni shakllantirish mexanizmini yaratish masalasi maxsus ilmiy izlanishlar olib borishni talab etadi. Psixologiyada iqtidor mavzusiga oid anchagina nazariy va amaliy manbalar to'plangan A.N.Kolmogorov, B.V.Gnedenko, A.M.Matyushkin, J.Ikromov, N.R.G'aybullaev. Isbot qilinganki, iqtidorning maxsus turlaridan tashqari, yuqori darajali qobiliyatlar sifatida tushuniladigan umumiy aqliy iqtidor ham mavjud. Iqtidor tushunchasi hozirgi vaqtda o'zida yuqori intellekt, kreativlik, emotsional va erkli xususiyatlar, motivatsiya kabi xususiyatlarni aks ettiruvchi murakkab psixologik holat deb qaraladi.

Spirmenning umumiy faktorini ikkita komponentaga ajratish mumkin. $g_r$ - kpictallangan intellekt-bu ta'limning va boshqa har xil madaniy ta'sirlarning natijasi va

uning asosiy funktsiyasi bilim va koʻnikmalarni yigʻish hamda tashkillashtirishdan iborat, $g_2$-joriy intellekt-asab tuzilishining biologik imkoniyatlari bilan harakterlanadi.

Amerikalik psixolog L.Torrans esa koʻp faktorli nazariyani taklif etgan. Dastlabki aqliy qobiliyatlar sifatida 12 ta faktor ajratib koʻrsatilgan: soʻzlarni tushunish, tez gapirish, miyada amallarni bajarish, ma'lumotlarni yodda saqlash va ifoda etish qobiliyati va boshqalar Intellektning umumiy asosini rad etgan holda, intellektni bir-biriga umuman bogʻliq boʻlmagan alohida qobiliyatlar majmuasi deb qaragan. Mazkur bosqichda test yoʻnalishida iqtidorning tabiyati haqidagi tasavvurlarni rivojlantirishda muhim qadam quyilgan. Haqiqatni anglashdagi munosabatlar va alokalarni aniqlash imkoniyatini ta'minlovchi, umumiy qobiliyatlar iqtidor deb tushunilgan. V.Shtern «Aqliy iqtidor- oʻz fikrini ongli ravishda yangi talablarga yoʻnaltiruvchi umumiy qobiliyatning oʻzidir»- deb yozadi.

Iqtidor fenomenini tushuntirishda miqdoriy yondoshuv V.A.Lazerev tadqiqotlarida mavjud va uning fikricha, oʻquvchi iqtidori «oxir okibatda uning psixologik energiyasining umumiy zaxirasiga bogʻliq».

Testologik tadqiqotlarda xajmi jihatdan yetarlicha katta miqdordagi emperik materiallar yigʻilgan. Bu materiallar iqtidor xossalari va mexanizmlari boʻyicha, bizning qarashlarimizning shakllanishida muhim ahamiyat kasb etdi. Miqdoriy yondoshuv pozitsiyasida «iqtidor» fenomenining mohiyatini toʻlik, qamrab olish mumkin emas. Iqtidorni yangi sifatiy darajada tadqiq qilish Dj.Gilford tomonidan yaratilgan intellekt strukturasining kubik modeli hisoblanadi. Bu nazariyaning mohiyati yagona va umumiy intellekt faktori mavjud emasligini tasdiklaydi. U aloxdda intellektual komponentalarni ajratib ifoda etgan. Har bir komponent ma'lum tipdagi masalani yechish uchun qobiliyat sifatida qaralgan. Dj.Gilford barcha faktorlarni 3 ta asosiy gruppaga ajratgan:

1. bajariladigan aqliy amallar;
2. fikrlash faoliyatining mazmuni;
3. fikriy mahsulotlar.

Kreativlik-quyidagi tarkibiy qismlardan tashkil topgan jarayon: muammoni sezmoq, *oʻz* bilimlarining qoniqarsiz va yetarli emasligini his etish, yetishmaydigan elementlarni oldindan sezish, muammoni tushunish, yechimlarni qidirish, gipotezalar koʻrish va bu gipotezalarni tekshirish hamda natijalarni ma'lum qilish. Iqtidor tushunchasini tahlil qilgan holda, ilk bor iqtidorni aniqlash IQ intellektual koeffitsient bilan bogʻlangan. Bugungi kunda iqtidorni aniqlash bir muncha keng ma'no kasb etmokda va nafaqat «yaxshi oʻquvchi» balki kreativ va original oʻquvchilarga xos qobiliyatlarning koʻp oʻlchovli ekanligi qayd etilgan. Ba'zi tadkdqotlarda intellektual rivojning yuqori darajasi va kreativlik aqliy iqtidorning komponentasi sifatida *oʻz* aksini topgan Renzulli J. Lekin kreativlik-bu yuqori intellekt darajasi emas. Koʻpchilik tadqiqotlar koʻrsatadiki, intellekt bahosi intellektning ijodiy qobiliyatlari haqida hukm chiqarishga imkon bermaydi. «Ijodkorlik»- aql ombori, aqliy jarayonlarning muhim sifati, tasavvur va intuitsiya. Yana shu faktni ham rad etish mumkin

emaski, ijodkorlik va intellekt bir-biridan ajralgan holda mavjud bo‘la olmaydi, negaki yuqoriintellekt darajasi kreativlikni vujudga kelishini ta’minlay olmaydi.

**Iqtidorni o‘rganish bo‘yicha Myunxenda olib borilgan tadqiqotlar shuni ko‘rsatadiki, iqtidor individual, motivatsion, ijtimoiy potentsial sifatida tushuniladi va bu quyidagi sohalardan birida yuqori natijalarga erishishga imkon beradi: intellekt, ijodkorlik, ijtimioy kompetentlik, badiiy imkoniyat, psixomotor qobiliyatar. Shunday qilib, barcha kontseptsiyalarda iqtidor strukturasiga shaxsiy faktorlarni kiritishgina emas, balki iqtidor fenomenini tushunish faqat qobiliyatar(yoki intellektual, yoki umumiy va maxsus) orqali amalga oshirilishi umumiy ekanligini ko‘rish mumkin A.I.Savenkov. B.M.Teplov qobiliyatar va iqtidorga ta’rif berib, shuni ta’kidlaydiki, iqtidor haqidagi izlanishlarni aynan qobiliyatlardan boshlash lozim. Kobiliyat sifatida quyidagilarni tushunishni taqlif etadi:**

a) bir insonni boshqasidan ajratadigan individual-psixologik qobiliyatlar;

b) faoliyatning samarasini belgilaydigan qobiliyatlar;

v) orttirilgan bilim, ko‘nikma va malakalarga bog‘liq bo‘lmagan, lekin ularning tez va osonlik bilan egallanishini va orttirilishini belgilovchi xususiyatlar.

Matematik qobiliyatni tekshirishga analitik-sintetik yondashish dastavval, uning strukturasini analiz qilish va uning tuzuvchi komponentlarini ajratishni talab qiladi. Matematik qobiliyatni o‘rganish aqlning bu integral xususiyati strukturasida muhim o‘rin egallaydigan ba’zi xususiy qobiliyatlar yoki komponentlardan taqqoslay olishni ajratish imkonini beradi [2]. Biz mana shu matematik qobiliyat komponentlarini xarakterlaydigan masalalarni aniqlash usullarini keltirib o‘tamiz va o‘quv jarayonida rivojlantirish imkonini beruvchi 8-, 9-sinf o‘quvchilariga mo‘ljallangan manbalardan masalalar tuzish usullariga to‘xtalamiz.

Taqqoslash deganda predmetni boshqa bir predmet bilan muhim yoki muhim bo‘lmagan alomatlari bo‘yicha o‘xshashligi yoki farqini fikran aniqlash tushuniladi. Real voqelik, jismlar, matematik obyektlar, ularning sifati, alomatlari, xuddi shuningdek hodisalar, voqealar, jarayonlar, muammo yoki masalalarni yechish usullari kabilar taqqoslash predmeti bo‘lishi mumkin.

Taqqoslash psixologlar tili bilan aytganda organizmning predmetlar afzalliklari va xossalari haqida aniq tasavvur qilish imkoniyatini beruvchi psixomotor tizimlari xotira, tasavvurni ishga solishdan boshlanadi. Predmetlarni verbal idrok qilish natijasida Taqqoslashning asosiy alomatlarini aniqlash uchun tasavvur, idrok va xotira faollashadi. Analiz va sintez taqqoslanayotgan predmetlarning alomatlariga ko‘ra bo‘laklarga ajratib «teng-teng emas», «katta-kichik», «baland-past», «ustida-tagida», «ungacha-keyin», «ko‘p-oz», «uzoq-yaqin», «bo‘lak-butun», «qaysidir ma’noda o‘xshash yoki o‘xshash emas» kabi xulosalar chiqarishga imkon beradi.

Taqqoslay olish qobiliyatini rivojlantirishda ushbu ko'rinishdagi masalalarni qo'llash maqsadga muvofiqdir [3].

*1-masala*. Quyidagi sonlardan qaysi biri katta:

$$\sqrt{2017}+\sqrt{2019} \text{ mi yoki } 2\sqrt{2018} \text{ mi?}$$

*Yechish*. Bu ko'rinishdagi masalalarning barchasi o'quvchilarning taqqoslash qobiliyatlarini rivojlantirib boradi. O'quvchi yechimni izlash maqsadida tengsizlikning ayrim xossalaridan foydalanadi. Masalan har qanday $a \geq 1$ uchun $\sqrt{a-1}+\sqrt{a+1}<2\sqrt{a}$ dan foydalanib, bu tengsizlikning ikkala tomonini kvadratga ko'tarib, unga teng kuchli bo'lgan tengsizlik hosil qiladi: $\sqrt{a^2-1}<a$.

Bu tengsizlik o'rinli yekanligiga ishonch hosil qilgach o'quvchida raqamlarga nisbatan «katta-kichik»ligi to'g'risida xulosalaydi va taqqoslay olish qobiliyatini rivojlantiradi. Shuning uchun, $a=2018$ da

$$\sqrt{2017}+\sqrt{2019}<2\sqrt{2018}.$$

*2-masala.* Quyidagi shartni qanoatlantiruvchi uchburchak mavjudmi. Ikkita balandligi 100 sm dan katta, yuz*i* 100 sm$^2$ dan kichik.

*Yechish.* O'quvchida ushbu masala yuzasidan uchburchakning tomonlari to'g'risidagi xossalari yodga tushadi va yechim izlashda taqqoslay olish qobiliyati shakillana boradi.

Agar shrtga ko'ra *ABC* учбурчакнинг баландликлари $h_a>100, h_b>100$ ko'rinishda bo'lsa, u holda uning tomonlar $AB>100, AC>100, BC>100$ bo'ladi (chunki uchburchakning tomonlari shu uchdan tushirilgan balandliklaridan kichik emas). U holda A uchdan tushirilgan balandlikga nisbatan uchburchak yuzi $S_{\Delta ABC}=\frac{1}{2}h_a\cdot BC>50\cdot 100>100$ ga teng bo'ladi.

Demak, masala shartini qanoatlantiradigan, ya'ni ikkita balandligi 100 sm dan katta, yuzi 100 sm$^2$ dan kichik uchburchak mavjud emasligi, o'quvchida uchburchakning tomonlari haqida «teng-teng emas», «katta-kichik» yoki «baland-past» kabi xulosalar chiqarishiga imkon beruvchi taqqoslay olish qobiliyati rivojlana boradi.

Matematikani o'qitishda o'quvchilarning matematik qobiliyatlarini rivojlantirish uchun matematik taqqoslay olish qobiliyatlarini rivojlantirish masalalari muhimdir. O'quvchilarning matematik qobiliyatlarini rivojlantirishda komponentlarga maxsus masalalrni tanlash va ularni yechishda qaysi qobiliyat turlari namoyon bo'lishi masalasi ko'rib chiqildi.

**Adabiyotlar ro'yxati:**

1. Давлетшин М.Г. Крутецкий В.А. Қобилият ва унинг диагностикаси -Тошкент: Ўқитувчи, 1979. – Б. 165.

2. Ibragimov N.SH. O'quvchilarning matematik qobiliyatlarini maxsus masalalar yechish yordamida rivojlantirish // Pedagogika. –Toshkent: 2017, - №5. –B. 73-80.

3. Мирзааҳмедов М.А., Сотиболдиев Д. Ўқувчиларни математик олимпиадаларга тайёрлаш. – Тошкент: Ўқитувчи, 1993, – 420 б.

4. Ibragimov N.Sh. (2019). Developing Pupils' and Students' Mathematical Abilities by Solving Geometric Tasks. Eastern European Scientific Journal, 5/11, 1-5

5. Ибрагимов Н.Ш., (2015). Математические способности и их развитие в академических лицеях. Актуальные проблемы гуманитарных и естественных наук, 92-94

6. Ibragimov N.Sh. (2024). Matematika to'garagini tashkil qilish va o 'quvchilar matematik qobiliyatlarini rivojlantirishda ko'zda tutiladigan parametrlar. Miasto Przyszłości 50, 447-449

7. Mamatov M., Ibragimov N. (2024). Numerical solution of differential games with electric potential distributions in some domain. E3S Web of Conferences 548, 05004

8. Ibragimov N.Sh. (2023). Developing students'creative and spatial imagination ability. current research journal of pedagogics 4 (07), 34-39

9. Ибрагимов Н.Ш., Рахмонов И.А. (2022). Физика дарсларида тадқиқотчилик қобилиятини ривожлантирувчи таҳлил ва синтез қила олиш компонентининг ўрни. Современное образование (Узбекистан), 41-46

# ZAMONAVIY MAKTABDA TALIM JARAYONINI TAKOMILLASHTIRISHNING ZAMONAVIY USULLARI

**Saidova Shohista Alisher qizi**

*Toshkent Xalqaro Kimyo universiteti Samarqand finials 1-kurs magtranti*

**Annotatsiya:** Mazkur maqolada zamonaviy maktablarda ta'lim sifatini oshirish, o'quvchilarning bilim darajasini yanada mustahkamlash va o'qituvchilarning pedagogik mahoratini rivojlantirishga qaratilgan zamonaviy yondashuvlar tahlil qilinadi. Shuningdek, ta'lim jarayoniga innovatsion texnologiyalarni tatbiq etishning samaradorligi muhokama qilinadi.

**Kalit so'zlar:** ta'lim, zamonaviy maktab, pedagogika, innovatsiya, interfaol metod, raqamli texnologiyalar, STEAM, motivatsiya, refleksiya

**KIRISH:** Bugungi globallashuv jarayonida har bir davlatning taraqqiyoti, eng avvalo, uning ta'lim tizimi qanchalik samarali ishlayotgani va zamon talablariga moslashayotganiga bog'liq. Ta'lim – bu jamiyatning eng muhim ijtimoiy institutlaridan biri bo'lib, u inson kapitalini shakllantirish, har tomonlama yetuk, bilimli va mas'uliyatli avlodni tarbiyalash vazifasini bajaradi. Ayniqsa, umumta'lim maktablari bu tizimning negiziy bo'g'ini hisoblanib, o'quvchilarni mustaqil hayotga tayyorlashda, ularda zamonaviy ko'nikmalarni shakllantirishda asosiy rol o'ynaydi. So'nggi yillarda O'zbekiston Respublikasi ta'lim tizimida tub islohotlar amalga oshirilmoqda. Bu islohotlarning markazida innovatsion pedagogik yondashuvlar, raqamlashtirish, sifatli kadrlar tayyorlash, shuningdek, zamonaviy o'quv muhitini shakllantirish masalalari turibdi. Prezident Shavkat Mirziyoyev tomonidan ilgari surilgan "Yangi O'zbekiston" g'oyasi doirasida ta'lim sifatini oshirish va ilg'or xorijiy tajribalarni joriy etish ustuvor yo'nalishlardan biri etib belgilandi. Bu esa o'z navbatida o'qituvchilar oldiga yangi pedagogik uslublarni o'zlashtirish, ta'lim jarayonini interfaol va samarali tashkil qilish kabi dolzarb vazifalarni qo'ymoqda.

Zamonaviy maktablar bugungi kunda nafaqat bilim beruvchi muassasa, balki o‘quvchilarning hayotiy ko‘nikmalarini, ijtimoiy faolligini, tanqidiy va ijodiy fikrlash qobiliyatlarini rivojlantiruvchi muhitga aylanishi kerak. Bu maqsadga erishishda interfaol metodlardan foydalanish, raqamli texnologiyalarni qo‘llash, loyihaviy va amaliy faoliyatga asoslangan yondashuvlarni joriy etish juda muhim hisoblanadi. Ayniqsa, STEAM (Science, Technology, Engineering, Arts, Mathematics) yondashuvi, masalaga asoslangan o‘qitish, gamifikatsiya, reflektiv yondashuv kabi usullar xalqaro miqyosda ta’limda samaradorlikni oshirishda muhim omil sifatida e’tirof etilmoqda. Shu nuqtai nazardan qaraganda, zamonaviy o‘quv metodlari va texnologiyalarini aniqlash, ularni tahlil qilish hamda ularning ta’lim jarayoniga ta’sirini o‘rganish dolzarb ilmiy-amaliy vazifadir. Ushbu maqolada aynan shu maqsadlarda qo‘llanilayotgan zamonaviy yondashuvlar va usullar o‘rganilib, ularning afzalliklari va amaliy tatbiqiga e’tibor qaratiladi.

**ADABIYOTLAR TAHLILI**

Zamonaviy ta’lim tizimida innovatsion yondashuvlarni joriy etish masalasi ko‘plab olimlar tomonidan chuqur o‘rganilgan. Tadqiqotlar shuni ko‘rsatadiki, o‘quvchilarning bilim olish jarayonida texnologiyalarni qo‘llash, interfaol metodlardan foydalanish, shaxsga yo‘naltirilgan yondashuv ta’lim sifatini oshirishda muhim omillardan biridir. M.Qo‘chqarova zamonaviy boshlang‘ich ta’lim modelini o‘rganar ekan, o‘quvchilarning individual o‘ziga xos xususiyatlarini inobatga olgan holda faol o‘rgatish metodlarini qo‘llashni taklif etadi. U o‘z maqolasida: “Differensial yondashuv, loyiha asosidagi o‘qitish va STEAM yondashuvi o‘quvchining ijodiy fikrlashi va ijtimoiy-emotsional rivojiga xizmat qiladi”, deya ta’kidlaydi [1]. Azizova D.R. ta’lim metodlari va shakllarini tahlil qilar ekan, zamonaviy ta’limda “o‘quvchi markazli yondashuv”ga asoslangan metodlar – “klaster”, “aqliy hujum”, “rol o‘ynash”, “muammoli ta’lim” kabi shakllar bilan boyitilishi lozimligini ta’kidlaydi. Unga ko‘ra, “Interfaol metodlar nafaqat bilim berish, balki fikrlashni, mustaqil qaror qabul qilishni ham rivojlantiradi” [2].

Tursunpo‘latova S. esa ta’lim muassasalarida boshqaruv uslublarini zamonaviylashtirish zarurligini ilgari suradi. Uning fikricha, “Raqamli boshqaruv vositalari,

elektron kundalik va masofaviy ta’lim platformalari nafaqat ta’lim sifatini, balki samaradorlikni ham oshiradi” [3]. Karimova N. tomonidan olib borilgan izlanishlarda, pedagogik boshqaruvda o‘qituvchilarning yangiliklarga ochiqligi va o‘z ustida ishlashi asosiy o‘rin egallaydi. “Zamonaviy ta’limda boshqaruv faqat ma’muriy nazorat emas, balki motivatsiya va metodik ko‘mak bilan uyg‘unlashgan tizimdir”, deya ta’kidlaydi muallif [4]. Abdalimov I. esa chet tillarni o‘rgatish bo‘yicha zamonaviy metodlarni taklif qilib, “Gamifikatsiya, onlayn interaktiv platformalar va loyihaviy topshiriqlar orqali o‘quvchilarda tilga nisbatan qiziqish va ishtiyoq ortadi”, degan fikrni ilgari suradi [5].

## TAHLIL VA NATIJALAR

Zamonaviy maktab ta’limi hozirgi davrda tub o‘zgarishlarga yuz tutmoqda. Bu o‘zgarishlar, eng avvalo, bilim berish jarayonida yangi texnologiyalar, pedagogik yondashuvlar va metodik vositalarning kirib kelishi bilan bog‘liq. An’anaviy ta’limdan farqli o‘laroq, zamonaviy ta’lim o‘quvchining faolligi, mustaqil fikrlashi, tanqidiy yondashuvi, ijodiy salohiyati va ijtimoiy mas’uliyatini rivojlantirishga yo‘naltirilgan. Tahlillar ko‘rsatadiki, bugungi kunda maktab ta’limini takomillashtirish uchun faqatgina o‘qituvchi va o‘quvchi munosabatlarini qayta ko‘rib chiqish emas, balki butun ta’lim tizimining metodologik, texnologik, didaktik va boshqaruviy asoslarini yangilash zarurati tug‘ilgan. Ta’lim jarayonida axborot-kommunikatsiya texnologiyalaridan foydalanish shunchaki texnik vosita emas, balki pedagogik yondashuvning bir qismiga aylangan. Dars jarayonida interaktiv doskalar, onlayn testlar, masofaviy platformalar, raqamli kutubxonalar, multimedia resurslari, elektron kundaliklar va boshqa vositalar keng qo‘llanilmoqda. Bu texnologiyalar o‘qituvchi va o‘quvchi o‘rtasidagi muloqotni kuchaytiradi, ta’limning ochiqligi, shaffofligi va monitoringi imkoniyatlarini kengaytiradi. Interfaol o‘qitish metodlari ham zamonaviy ta’limda muhim o‘rin egallaydi. O‘quvchilarni faollikka undovchi metodlar – “aqliy hujum”, “munozara”, “klaster”, “taqqoslash jadvali”, “rol o‘ynash”, “blits-so‘rov”, “grafik organizerlar” orqali bilim olish jarayoni oddiy tinglovchilikdan faol ishtirokchilikka o‘tadi. Bu esa o‘quvchida ijtimoiy faollik, tashabbuskorlik, o‘z fikrini asoslab bera olish ko‘nikmalarini shakllantiradi. O‘quvchi bilimni tayyor shaklda emas, balki o‘z mustaqil izlanishi orqali egallaydi. Bu esa chuqur va

mustahkam bilimlarning shakllanishiga xizmat qiladi. O'quvchilarning darsdagi faol ishtiroki, o'z fikrini bayon qilishi, darsga qiziqishi o'z-o'zidan ortadi. Shuningdek, guruhlarda ishlash, hamkorlikda muammolarni hal qilish, liderlik ko'nikmalari ham aynan interfaol metodlar orqali rivojlanadi.

Zamonaviy ta'lim jarayonida differensial yondashuvni joriy etish ham dolzarb hisoblanadi. Har bir o'quvchining qobiliyati, bilish uslubi, o'zlashtirish tezligi turlicha bo'lganligi sababli, ta'lim bir xil usul bilan berilmasligi kerak. Differensial yondashuv o'quvchilarning individual xususiyatlariga mos ravishda ta'lim berishni nazarda tutadi. Masalan, ba'zi o'quvchilar uchun vizual materiallar samarali bo'lsa, boshqalari eshitish orqali o'zlashtiradi. Shuningdek, ba'zi o'quvchilar individual ishlashga moyil bo'lsa, boshqalari guruhda samaraliroq ishlaydi. O'qituvchi aynan shu ehtiyojlarni hisobga olib, turli topshiriqlar, o'quv materiallari va metodlardan foydalanadi. Bu esa barcha o'quvchilar uchun o'z imkoniyatlari doirasida muvaffaqiyatga erishish imkonini beradi. Bundan tashqari, ta'limda STEAM yo'nalishini joriy etish bugungi kunning eng dolzarb masalalaridan biridir. STEAM yondashuvi orqali o'quvchilar fanga nisbatan amaliy yondashuvni o'rganadilar. Fizika, matematika, biologiya kabi fanlarni muhandislik, texnologiya va san'at bilan bog'lab o'rganish ularni hayotiy muammolarni hal qilishga tayyorlaydi. Misol uchun, o'quvchilarning oddiy laboratoriya tajribasi yoki loyiha ishlari doirasida konstruktorlik ishlarini bajara olishi ularning analitik fikrlashini kuchaytiradi, ijodkorligini ochib beradi, shuningdek, kasbga yo'naltirishda katta yordam beradi. STEAM yondashuvi orqali o'quvchilar nafaqat bilim oladilar, balki bu bilimni real hayotda qo'llashni ham o'rganadilar.

Inklyuziv ta'lim masalasi ham maktab ta'limini takomillashtirishda alohida e'tibor talab qiladi. Bugungi maktablarda har xil ehtiyojga ega o'quvchilar ta'lim olmoqda. Ularga teng sharoitlar yaratish, jismoniy, aqliy yoki psixologik cheklovlarga ega bo'lgan bolalarga moslashtirilgan metodlar bilan ishlash zamonaviy ta'limning eng muhim yo'nalishidir. Bu o'rinda sinfdagi ijtimoiy muhit, o'qituvchining bag'rikengligi, individual yondashuv, maxsus vositalar va metodikalar hal qiluvchi ahamiyatga ega. Inklyuziv yondashuv orqali barcha o'quvchilarda jamiyatning to'laqonli a'zosi bo'lish tuyg'usi shakllanadi. Bu esa

tolerantlik, ijtimoiy birdamlik va fuqarolik qadriyatlarini kuchaytiradi. Zamonaviy o‘qituvchi faqat ma’lumot beruvchi emas, balki o‘rgatuvchi, ilhomlantiruvchi, yo‘naltiruvchi va mentor sifatida faoliyat yuritadi. O‘qituvchining metodik bilimlari, innovatsion yondashuvlarga ochiqligi, texnologiyalardan foydalanish mahorati, ijtimoiy-emotsional intellekti ta’lim sifatiga bevosita ta’sir ko‘rsatadi. Har bir darsni pedagogik nuqtai nazardan puxta rejalashtirish, o‘quvchilarning holatini tahlil qilish, ta’lim samaradorligini monitoring qilish orqali o‘qituvchi doimiy rivojlanish yo‘lida harakat qiladi. Shu bois, zamonaviy o‘qituvchini uzluksiz o‘qitish, metodik qo‘llab-quvvatlash va motivinga ega sharoit yaratish ta’limni takomillashtirishda muhim hisoblanadi. Shuningdek, o‘quvchilarning bilimini baholash jarayonida ham o‘zgarishlar kuzatilmoqda. An’anaviy baholash tizimidan farqli o‘laroq, zamonaviy yondashuvlar formatida diagnostika, formativ baholash, o‘z-o‘zini va o‘zaro baholash kabi shakllar joriy qilinmoqda. Bu esa o‘quvchilarning o‘z rivojlanishini anglashiga, bilimlaridagi bo‘shliqlarni aniqlashga va ularni to‘ldirishga imkon beradi. Shuningdek, baholash natijalari asosida o‘qituvchi dars mazmunini yoki metodini qayta ko‘rib chiqish imkoniyatiga ega bo‘ladi. Bu jarayon ta’lim jarayonining uzluksiz tahlil va takomillashuvi uchun muhim vosita hisoblanadi.

## XULOSA

Bugungi globallashuv va raqamli transformatsiya sharoitida zamonaviy maktab ta’limini takomillashtirish dolzarb muammolardan biri hisoblanadi. Tahlillar shuni ko‘rsatmoqdaki, an’anaviy o‘qitish usullaridan voz kechib, innovatsion, interfaol, shaxsga yo‘naltirilgan va texnologik yondashuvlar asosida ta’lim jarayonini tashkil etish ta’lim sifatini oshirishda muhim omil hisoblanadi. Ta’lim jarayonida axborot-kommunikatsiya texnologiyalaridan foydalanish, interfaol metodlarni joriy etish, differensial yondashuv asosida o‘quvchilar bilan ishlash, STEAM ta’limi, inklyuzivlik prinsiplarini qo‘llash, shuningdek, baholashning zamonaviy shakllarini qo‘llash orqali o‘quvchilarning bilim darajasi, faolligi va mustaqil fikrlash salohiyati sezilarli darajada oshmoqda. Zamonaviy maktab nafaqat bilim beruvchi, balki tarbiyalovchi, o‘quvchini hayotga tayyorlovchi va ijtimoiy faol shaxsni shakllantiruvchi muassasaga aylanmoqda. Bu esa o‘z navbatida pedagogdan yuqori malaka, zamonaviy metodik ko‘nikmalar, texnologiyalardan foydalana

olish, doimiy yangilikka intilish va o'quvchining shaxsini chuqur tushunishni talab qiladi. Shunday ekan, zamonaviy ta'lim tizimini shakllantirishda barcha ishtirokchilarning: o'qituvchilar, o'quvchilar, ota-onalar va ta'lim boshqaruvchilarning hamkorligi, uzluksiz o'zgarishga ochiqligi muhim ahamiyat kasb etadi.

**FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI:**

1. Qo'chqarova M. *Boshlang'ich ta'lim tizimida zamonaviy yondashuvlar*, Journal Web, 2022.
2. Azizova D.R. *Ta'lim metodlari va shakllari*, INCOQ ilmiy jurnali, 2023.
3. Tursunpo'latova S. *Ta'lim muassasalarida boshqaruv usullarini takomillashtirish*, ResearchBIP, 2022.
4. Karimova N. *Pedagogik boshqaruvda innovatsion yondashuvlar*, Zenodo, 2023.
5. Abdalimov I. *Chet tillar ta'limida zamonaviy metodlar*, Web-Journal, 2023.

# ВЛИЯНИЯ УЛЬТРАЗВУКОВЫХ ВОЛН НА ВОЛЬТАМПЕРНЫЕ ХАРАКТЕРИСТИКИ SI-N-P-ПРИЕМНИКОВ ИЗЛУЧЕНИЯ

**Профессор Гаибов Абдумалик Гайбуллаевич, доцент Миркамилова Маргуба Сунатуллаевна, доцент Вахобов Кутбиддин Иловиддинович, ст.пред. Джураев Уткир Эргашевич.**
**Ташкентский Государственный технический университет**

**Аннотация:** Исследованы физические процессы захвата и выброса носителей заряда в Si-n-p приемниках излучения, влияющие на их электрофизические характеристики (вольтамперные). Показано, что после ультразвуковой обработки Si-приемников, произошло уменьшение высоты потенциального барьера p-n-переходов образованных присутствием локальных скоплений примесных атомов.

**Ключевые слова:** Si-приемников излучения, крупномасштабные и мелкомасштабные локальные скопления примесных атомов, ультразвук,

**1. Введение.** Изучение влияния внешних факторов, в том числе ультразвуковых полей на характеристики полупроводниковых детекторов чрезвычайно интересен тем, что под его влиянием, как показано в работах многих авторов [1,2,3], может возникать множество различных акустостимулированных явлений в полупроводниках и структурах на их основе, изменяющих их различных свойств.

В связи с этим данная работа посвящена экспериментальным исследованиям влияния электрических полей и ультразвуковых волн на электрофизические характеристики диффузионных Si-n-p-детекторов.

**2. Материал и метод** . Для изготовления Si-приёмников излучения (Si-ПИ) использовались слитки монокристаллического кремния p-типа с удельным сопротивлением $\rho=(10\div14)\cdot10^3\Omega cm$ и временем жизни неосновных носителей заряда $\tau=450\div650$ мкс, а также и более низкоомные слитки p-Si с $\rho\leq(2\div5)\cdot10^3\Omega cm$ и $\tau=800\div1000$мкс. Концентрация кислорода $No_2$ составляла не более $10^{16}cm^{-3}$ и плотность дислокаций $N_D$~$10^4cm^{-2}$. Слитки, имевшие форму цилиндра, разрезались на пластины толщиной до 0,5мм. Пластины имели площадь S от 0,25 $cm^2$ до 2,0$cm^2$. Si-пластины шлифовались с обеих сторон абразивным порошком M15. После соответствующей химической обработки на одну из сторон Si-пластин напылялся алюминий (Al) толщиной l≈0,45мкс ÷ 0,5мкс, при данной технологической процедуре края Si-пластины были защищены маской. После этого на другую сторону Si-пластины наносился раствор пятиокиси фосфора $P_2O_5$ и проводилась сушка данного покрытия. Следующей технологической операцией являлся процесс диффузии фосфора в Si-пластины. Образцы, расположенные в кварцевых кассетах помещались в диффузионную печь. Диффузия фосфора проводилась при температуре T = 1073K в потоке инертного газа в течение времени t = 60минут. Затем температура медленно понижалась до комнатной. Алюминий, осажденный на Si-пластину, сплавляется с ней

при T≈820K и затем, диффундируя из расплава в объем Si-пластины, образует сильнолегированный $p^+$-слой кремния. После охлаждения Si-пластинка проходит ряд химико-технологических операций по очистке и удалению фосфорносиликатного стекла на $n^+$-слое, полученного диффузией фосфора. До изготовления тыльного металлического контакта к Si-подложке на $n^+$-слой тестовой $n^+$-p-диодной структуры при температуре T = 300К напылялся слой золота толщиной 1000 Å, после чего проводилась термообработка структур при T = 400 К в течении t = 10c ÷ 10мин.

### 3. Результаты и их обсуждение

Исследовались зависимости тока от обратного напряжения смещения при температурах T = 300К для двух групп Si-приемники с сильным эффектом захвата носителей заряда Si-ПИ-P и со слабым- Si-ПИ-W, соответственно. На рисунке 1. приведены измеренные зависимости тока от обратного напряжения смещения $V_b$ при температуре T = 300К для двух Si-n-p-приемников излучения Si-ПИ-P и Si-ПИ-W, содержащих, соответственно, крупномасштабные и мелкомасштабные локальные скопления примесных атомов. Из графика видно, что резкий подъем тока (ухудшение характеристик) Si-ПИ-P и Si-ПИ-W начинается при напряжении $V_b \approx 1{,}5V$ (кривая 4 рис. 1.) и $V_b \approx 3{,}0V$, (кривая 1 рис.1.) соответственно. Кроме того было обнаружено что обратный ток Si-ПИ-P почти не зависит от температуры в диапазоне температур T = 77 ÷ 300 К, но в то же время наблюдалась заметная температурная зависимость обратного тока у Si-ПИ-W.

Применение модели Фаулера-Нордхейма позволяет рассчитать зависимость плотности обратного тока от обратного напряжения смещения $I(V_b)$ на основании уравнения следующего вида [4, с. 327] :

$$I(T,E) = \int_{-\infty}^{-\infty} A(T,E^1)D(E,E^1)dE^1 \qquad (1)$$



**Рис.1.** Зависимости тока от обратного напряжения для Si-ПИ-W-и Si-ПИ-Р-приемников излучения, T=300K.
а) Si-ПИ-W-кривая 1 до облучения ультразвуком, кривая 2- после облучения;
б) Si-ПИ-Р- кривая 3 до облучения ультразвуком, кривая 4 –после облучения.
Параметры УЗВ I*=0,4W/cm$^2$, f=15MHz, t=45min, T=300K.

где A(T,E$^1$) - функция, описывающая процесс переноса носителей заряда к барьеру, окружающему локальное скопление примесных атомов, D(E,E$^1$)-коэффициент прохождения, описывающий вероятность туннелирования носителей заряда через барьер. Это положение справедливо, так как барьер становится отталкивающим после захвата носителей локальным скоплением примесных атомов, либо барьер является таковым изначала в силу природы атомов, образующих скопление. При расчетах предполагается, что V(y) = 1. При значении T$\rightarrow$ 0 уравнение (1) будет иметь следующий вид:

$$I(0,E) = q^3E^2\exp(-4(2m^*)^{1/2}(q\Phi_B)^{3/2}/3h^*qE)/16\pi^2h^{*2}q\Phi_B \qquad (2)$$

В уравнениях использованы следующие обозначения: m$^*$-эффективная масса носителей заряда; k-постоянная Больцмана; T-абсолютная температура; h$^*$-постоянная Планка; q - заряд электрона; $\Phi_в$-высота барьера; E-напряженность электрического поля; E$^1$-энергия носителей (электронов или дырок); V(y) - функция Фаулера-Нордхейма.

Естественно предположить, что вблизи локального скопления примесных атомов электрическое поле усиливается в β раз, так как присутствие скопления обуславливает возникновение локального p-n-перехода, электрическое поле которого и определяет процессы дрейфа носителей в данном месте активного элемента (чувствительной области) приемника излучения [5,с.1191]. То есть, выражение для электрического поля в этом случае будет иметь следующий вид:

$$E = \beta(2qN_D/\varepsilon_s)^{1/2}(V_i+V_b)^{1/2} \qquad (3)$$

где $N_D$ - концентрация доноров; $\varepsilon_s$ - диэлектрическая проницаемость полупроводника; $V_i$ - встроенное напряжение; $V_b$ - напряжение обратного смещения. Проведенный расчет основан на модели резкого p-n-перехода, в предположении, что локальные скопления примесных атомов расположены вблизи области максимального поля p-n-перехода Si-приемника излучения.

С учетом выше изложенного, коэффициент усиления электрического поля можно рассчитать следующим образом. Сначала, путем численного интегрирования уравнения (1) рассчитываются зависимости I($V_b$) для различных значений эффективной высоты барьера $\Phi=(m^*/m_0)^{1/3}\Phi_B$ при температурах T = 77K и T = 300K. Данные зависимости для значений qΦ = 0,31; 0,52 и 0,72eV при $N_D$=1,2·10$^{15}$см$^{-3}$ и $V_i$=0 были рассчитаны, измерены и приведены в виде, примера, для величины qΦ = 0.31 на рисунке 2. Затем проводилось сравнение экспериментальных зависимостей I($V_b$) с

расчетными зависимостями $I(V_b)$ до полного их совпадения и определялся коэффициент β из простого соотношения (4) :

$$\beta = [V_b\ (\text{теорет.знач})/\ V_b\ (\text{эксперимент.знач.})]^{1/2} \quad (4)$$

Легко видеть, что значения коэффициентов β для приемников излучения Si-ПИ-Р и Si-ПИ-W составляет $\beta_1 \approx 128$ и $\beta_2 \approx 13$, соответственно. Эффективная высота барьеров Ф также определяется с помощью процедуры согласования описанной в [4]. Было установлено, что величина Ф для Si-ПИ-Р и Si-ПИ-W составляет $q\Phi_p \approx 0{,}62eV$ и $q\Phi_w \approx 0{,}67eV$, соответственно.

Особенность представленной модели механизма токопереноса заключается в том, что температурные зависимости обратных токов Si – приемников излучения рассчитываются без введения ка ких-либо особых аппроксимаций. Для этого, как было отмечено ранее, проводится численное




**Рис. 2.** Вольтамперная характеристика Si-n-p- детектора до (кривая 1-теория; кривая 2-эксперимент) и после (кривая 3- эксперимент) ультразвуковой обработки при $I^*=0{,}4W/cm^2$, $f=15MHz$, $t=125min$ при $T=300K$.

интегрирование уравнения (1) для различных значений величин β, $\Phi_B$ и обратного напряжения смещения $V_b$.

Из анализа полученных данных можно определить величины напряженности локализованных (внутренних) электрических полей вблизи локальных скоплений примесных атомов, значения которых составляют $E \approx 10^6$-$10^7V/cm$, что примерно на два порядка превышает максимальное электрическое поле в p-n-переходе Si-приемников излучения. Например, если взять Si-ПИ-Р с шириной p-n-перехода W = 20 µm, при напряжении $V_b=10V$ величина $E^{max}{}_{p-n}= 5000V/cm$, а для приемника типа Si- ПИ-W величина $E^{max}{}_{p-n} = 2{,}5\cdot10^4\ V/cm$.

На рисунках (1,2.) представлены изменения токовых характеристик после прохождения через Si-приемники излучения ультразвуковых волн частотой f = 15 MHz с интенсивностью $I^* = 0{,}4\ W/cm^2$.

Отчетливо видно, что кривые зависимости обратного тока от напряжения смещения $V_b$ смещаются в область более низких значений токов (рис.1кривые 2,4;

рис.2. кривая 3). После ультразвуковой обработки Si-приемников[6], произошло уменьшение величины qФ, то есть произошло уменьшение высоты потенциального барьера p-n-переходов образованных присутствием локальных скоплений примесных атомов, что отражено таблице 1.

**Таблица 1. Влияние ультразвуковой обработки на величину qФ**

| qФ,eV, до ультразвуковой обработки | qФ, eV, после ультразвуковой обработки |
|---|---|
| 0,31 | 0,25 |
| 0,52 | 0,45 |
| 0,72 | 0,66 |

Уменьшение обратных токов Si – p-n – приемников после прохождения через них УЗО связано с по – всей видимости, с распадом локальных скоплений в ультразвуковых полях .[7]

В диффузионных Si-приемниках излучения прохождение ультразвуковых волн с частотой f≤25 MHz и интенсивностью (мощностью) $I^{*}\leq$ 0.5 W/cm$^2$: а) приводит к исчезновению эффекта "поляризации" и б) вызывает увеличение эффективности сбора неравновесных носителей заряда на электрические контакты в результате распада локальных скоплений примесных атомов, имеющих в своем составе атомы золота и выступавших до УЗО в роли эффективных центров захвата дрейфующих носителей заряда. Результатом процесса распада ЛСПА является сглаживание потенциального рельефа в и равномерность распределения электрического тянущего поля $\vec{E}$ в чувствительной области, что и обеспечивает более эффективный и быстрый сбор носителей заряда на электрические контакты и тем самым улучшение функциональных характеристик диффузионных Si-приемников.

**Список литературы:**

1. Гаибов А.Г., Заверюхин Б.Н., Кревчик В.Д.// Тез.докл. XXXIII Совещание по ядерной спектропии и структуре атомного ядра.М.: Наука, Ленингр. отд-ние,1983. 19-21 апреля С.530.
2. Гаибов А.Г., Заверюхин Б.Н., Кревчик В.Д. и др. // Письма в ЖТФ. 1984.Т.10. В.10. С.616-620.
3. Заверюхина Е.Б., Заверюхина Н.Н., Лезилова Л.Н. и др. // Письма в ЖТФ. 2005. Т.31.В.1. С.54-66.
4. W.W.Dolan and W.P. Dyke// Phys. Rev., 1954, V.95, №2, p. 327-333.
5. Еремин В.К., Строкан Н.Б., Даненгирш С.С. "О природе крупномасштабных ловушек в особо чистом германии"//ФТП, 1977 т.11, в.6, с.1191-1193.

6. Заверюхина Н.Н., Заверюхина Е.Б., Власов С.И.,Заверюхин Б.Н. « Акустостимулированное изменение плотности и энергетического спектра поверхностных состояний в монокристаллах p-кремния» Письма в Журнал технической физики, 2008, 34, № 6, с.36-42
7. Мирсагатов Ш.А., Сапаев И.Б., Назаров Ж.Т. «Ультразвуковой отжиг поверхностных состояний в гетеропереходе инжекционного фотодиода p-Si/n-CdS/n+-CdS.».Неорганические материалы 2015,том51,№ 1 с.3-6

«RESEARCH AND PUBLICATIONS»
ILMIY NASHRLAR MARKAZI

# Ingliz tilida o‘quvchilarning o‘qib tushunish va tinglab tushunish ko‘nikmalarini shakllantirish (maktab o’quv darsligi asosida)

**Samarqand viloyati, Oqdaryo tumani, 11-umumiy o‘rta ta’lim maktabining Ingliz tili fani o‘qituvchisi – Abdunazarova Nargiza Uktamboyevna**

**Annotatsiya:** Ushbu maqolada chet tillarini o‘qitishning ahamiyati va uning bugungi kundagi chet tilini o‘qitishdagi ko‘nikmalarni qanday shakllantirish va unga oid tavsiyalar haqida so‘z boradi. Chet tili o‘qituvchilaridan til o‘qitishda talab etiladigan shaxsiy hamda ilmiy pedagogik malakadan tashqari foydalanadigan interfaol metodlar va ularning innovatsion yangi samarali ta’lim tizimini rivojlantirishdagi o‘rni ochib berilgan. Xususan xorijiy til ko‘nikmalarini shakllantirishdagi 4 ta aspekti (o‘qish, eshitib tushunish, yozish hamda gapirish ko‘nikmalarini) o‘qitishda samarali natijaga erish ko‘zda tutilgan. Shuningdek, til o‘rganishning psixologik jihatlariga ham e‘tibor berilib, ushbu maqolada yangi takliflar ishlab chiqilgan.

**Kalit so‘zlar:** interfaol topshiriqlar, didaktik tizimlashtirish, tarbiyaviy funksiya, CEFR, IELTS, PIRLS, PISA.

Hozirgi kunda yurtimizda xorijiy tillarni o‘rgatish va o‘qitishga bo‘lgan ahamiyat kundan-kunga ortib bormoqda. Xususan, O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2012-yil 10-dekabrdagi PQ-1875 “Chet tillarni o‘rganish tizimini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi qarori chet tillarini o‘rganish imkoniyatlarini kengaytirdi[19]. Respublikamizda chet tilining o‘qitilishi, xorijiy tili o‘qituvchilarining bilim va ko‘nikmalarini baholashning umumyevropa mamlakatlari tavsiyanomalari (CEFR, IELTS, PIRLS, PISA) ga mos ravishda yangi usul va talablari ishlab chiqildi. Unga ko‘ra, umumta’lim maktablaridagi o‘quvchilar uchun darsliklar, o‘quv materiallar yaratilmoqda.

Bugungi kunda respublikamizda ta’lim sifatini oshirish, xorijiy tillarni o‘qitishni rivojlantirish, o‘quvchi yoshlarning xorijiy tillarni o‘rganish bo‘yicha ko‘nikma va malakalarini oshirish davlat siyosatining ta’lim sohasidagi ustuvor vazifalardan biriga aylandi. Xususan, umumiy o‘rta ta’lim tizimida mustaqil fikrlay oladigan, intellektual salohiyatga, chuqur bilim va zamonaviy dunyoqarashga ega, Vatanimizning taqdiri va kelajagi uchun ma’suliyatni o‘z zimmasiga oladigan yosh avlodga sifatli ta’lim-tarbiya berish bugungi kun pedagoglarining asosiy maqsadi hisoblanadi. Yurtimizda zamonaviy pedagogik va axborot-kommunikatsiya texnologiyalardan foydalangan holda o‘qitishning ilg‘or uslublarini joriy etish yo‘li bilan o‘sib kelayotgan yosh avlodni chet tillariga o‘qitish, shu tillarda erkin so‘zlasha oladigan mutaxassislarni tayyorlash tizimini tubdan takomillashtirish hamda buning negizida ularning jahon sivilizatsiyasi yutuqlari hamda dunyo axborot resurslaridan keng ko‘lamda foydalanishlari, xalqaro hamkorlik va muloqotni rivojlantirishlari uchun shart-sharoit va imkoniyatlar yaratilgan.

---

19 O‘zbekiston Respublikasi Prezidentinmg «Chet tillarni o‘rganish tizimini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida»gi (PQ-1875-sonli) qarori//»Ma’rifat» gazetasi, 2012 yil 12 dekabr.

Ushbu maqolaning asosiy ko‘zlangan maqsadi, umumta’lim maktablaridagi o‘quvchilarning xorijiy tillarni, xususan, ingliz tilidagi asosiy ko‘nikmalardan o‘qib tushunish va tinglab tushunish ko‘nikmalarini zamonaviy interfaol metodlardan foydalanish orqali o‘quvchilarning bilim va ko‘nikmalarini hamda tushunish qobiliyatini shakllantirishda oson va qiyinchiliklarsiz tez o‘rgatish usuli hisoblanadi hamda o‘qituvchilarning ilg‘or tajribalarini oshirish uchun berilgan maqolalar muhim hisoblanadi.

O‘qish ikkinchi til ya’ni xorijiy tilni o‘rganishda matnlar bilan ishlash va u orqali o‘rganuvchining lo‘g‘at boylini oshirishda juda muhim omil hisoblanadi. O‘qish o‘quvchilarning ikkinchi til bilan tanishish imkonini beradi va tilni o‘zlashtirishni yanada muvaffaqiyatli qiladi. O‘qish jarayonida lug‘at, grammatika va tinish belgilari ham yaxshilanadi. O‘quvchilarning o‘qish ko‘nikmalarini oshirish uchun o‘qituvchi qila oladigan har qanday yo‘l hamda metod juda ahamiyatga ega bo‘lib, butun olamga hamda o‘quvchini o‘rab turgan atrof-muhitni o‘rganishda ko‘plab yangi mavzularni tanishtirishning ajoyib usuli bo‘la oladi desak xato bo‘lmaydi. Chunki, o‘qituvchi o‘quvchilar tilni o‘rganishida ishlatadigan matnlar “haqiqiy” material va real voqealar asosida shakllantirilgan bo‘lib, bir vaqtning o‘zida o‘quvchida ham til o‘rganish ko‘nikmasini shakllantiradi hamda yangi ma’lumotga, bilimga ega bo‘lish imkonini beradi. Ular o‘qigan matnlar o‘zlarining bilim darajasida mos bo‘lishi kerak, shunda ular materialni yetarlicha tushunishlari mumkin. O‘quvchi matnlarni o‘qiyotgan vaqtda, u matndagi maxsus ma’lumot yoki belgilarni, xususan, yillar, joy nomlari, sanalar, ismlarni qayd qilib olishi, zamonaviy tilda aytganimizda ongida skanerlab olishi kerak hamda ko‘z yugurtirib o‘qib chiqib, matnning asosiy g‘oyasi nimadan iborat ekanligini tahlil qilishi kerak. O‘qib tushunishda shu asosiy 3 ta texnika: matnni skanerlash, ya’ni bunda hijjalab o‘qib, zaruriy belgilarni qayd qilib borish; ikkinchisi matnni tezda ko‘z yugurtirib o‘qib, matnning mazmun-mohiyatini nima ekanligini aglash; uchinchisi esa matnni batafsil (detallab) o‘qish, ya’ni matnda berilgan barcha ma’lumotlarni o‘rganib, mazmunini yoritib berish muhim sanaladi. Qaysi texnikani qo‘llashi ular matndan nimani olishni xohlashlariga bog‘liq bo‘ladi.

O‘qishni o‘rgatishning ko‘plab tamoyillari mavjud. Bu passiv ko‘nikma emas, balki faol bo‘lib, muvaffaqiyatga erishish uchun siz so‘zlar va dalillarni tushunishingiz kerak va agar kerak bo‘lsa siz ular bilan ishlashingiz kerak bo‘ladi. Bu degani, matnlar ustida o‘quvchi ishlar ekan tushunish, tahlil qilish, yangi so‘zlar bilan tanishish hamda yangi ma’lumotga ega bo‘lish imkonin yaratadi. O‘quvchilar undan foyda olish uchun o‘qiyotgan narsalari bilan shug‘ullanishlari kerak, unga oid vazifalarni bajarishlari kerak bo‘ladi. Ularni faqat tilga emas, balki o‘qish matnining mazmuniga javob berishga undash kerak. O‘qishda bashorat ham asosiy omil hisoblanadi. Mavzu vazifaga mos kelishi va ular muhokama mavzusi sifatida ishlatilishi kerak.

1-rasmda o‘quvchilarga o‘qib tushunish ko‘nikmasida muhim bo‘lgan omillarni bir-bir ko‘rib chiqamiz**:**




Dekodlash, matnning ma'nosini tushunish asosan o'quvchiga tanish bo'lgan va o'rgangan so'zlarini matnda uchratishi va hamda matnni tushunish imkonini beradi. Xususan, buni 4-sinfning **Guess What**[20] nomli darslikda shunga o'xshash matnlarni kuzatishimiz mum kin (2-rasm).



My friends

1 My best friend's name is Rosa. She's very tall. She's 1 meter, 36 centimeters! She has long dark hair, and brown eyes. We like music, and we like playing the recorder together. We have recorder lessons every Wednesday.

2 This is my friend Louis. He has straight dark hair, and green eyes. We're in the same class at school. We like playing Ping-Pong. We play after school on Wednesdays. We like badminton, too.

O'quvchiga qiyinchilik tug'dirmaslik maqsadida 1-sinfdan to 4-sinfgacha o'tilgan barcha sodda so'zlar ushbu matnda berilgan va u matnning mohiyati nima haqida ekanligini zudlik bilan anglaydi.

[20] Susannah Reed with Kay Bentley. Guess what! Grade 4. Student's book. p 9.

Tinglash malakasini mashq qilishning asosiy sabablaridan biri shundaki, ular faqat o‘quvchini tinglashdan ko‘ra, tilning turli xil variantlari va urg‘ulariga duchor bo‘ladilgan til to‘siqlari bilan tanishish imkonin beradi. O‘quvchilarning darajasiga qarab, o‘qituvchi ularni ingliz tilining ma’lum bir variantini tinglashga majbur qiladi. Asosiy g‘oya ularni tinglashga oid ovozli tasma orqali ingliz tilida og‘zaki nutqqa o‘rgatishdir. O‘quvchilar tilni ongsiz ravishda tegishli ovozli tasmalarni tinglashda egallaydilar va nafaqat grammatika va lug‘atni, balki talaffuz, ritm, intonatsiya, balandlik va urg‘uni ham yaxshilaydilar.

O‘quvchilar tinglayotgan ovozli tasmalar ularning til bilish darajasi va faolligiga bog‘liq. Turli ovozli tasmalarni tinglash sinfga turli xil nutqlarni olib keladi va o‘quvchilarni turli mavzularda fikr yuritishga va gapirishga undash  uchun o‘qituvchidan har xil mavzudagi va o‘quvchiga oson tushunadigan ovozli ovozli tasmalarni topish vazifasini yuklaydi. Ushbu harakatlar ovozli tasmaning tezligi tufayli o‘quvchilarni vahima qo‘zg‘atishi mumkin va shuning uchun ma’lum bir moslashish davri bo‘lishi kerak, ya’ni ushbu ovozli tasmani bir marta emas bir necha marotaba quyib berish kerakki, toki o‘quvchida qanday ma’lumot haqida gap borayotganini anglash uchun moslashi kerak bo‘ladi.

Tinglashni o‘rgatishda 6 ta tamoyil mavjud. Birinchisi, harakatni buzmaslik uchun sifatli bo‘lishi kerak bo‘lgan magnitafon yoki ovozni uzatuvchi qurilma.  Ikkinchi tamoyil - bu o‘quvchilar uchun ham, o‘qituvchi uchun ham muhim bo‘lgan tayyorgarlik. Uchinchi tamoyil: o‘quvchilar imkon qadar ko‘proq tushunishlari uchun yozuv ikki yoki uch marta ijro etilishi kerak. To‘rtinchi tamoyil - o‘quvchilarni faqat tilga emas, balki tinglash kontekstiga javob berishga undash kerak. Beshinchi tamoyil shundaki, tinglashning turli bosqichlari turli xil tinglash vazifalarini talab qiladi, ya’ni birinchi tinglashda ular umumiy g‘oyani olishlari va keyinchalik tinglash tafsilotlarga e‘tibor qaratishlari uchun vazifa juda sodda bo‘lishi kerak. Oltinchi tamoyil - yaxshi o‘qituvchilar tinglash matnlaridan to‘liq foydalanadilar.

Xo‘sh, ham o‘qib tushunish ham tinglab tushunish ko‘nikmalarini o‘zida qamrab ogan mavzuni ko‘rib chiqamiz. 9-sinflar uchun “Prepare” darsligida 15-UNIT ning “Free time activities” nomli mavzusida birinchi o‘qib tushunishni hamda bir vaqtning o‘zida so‘z boyligini oshirishga (vocabulary) qaratilgan so‘zlar turkumini ko‘rib chiqamiz[21]:

[21]Joanna Kosta, Melaniye Williams. Prepare. Student‘s book. 9-grade. p 86.

1 EP In pairs, match photos A–E to activities in the questionnaire. Which of the activities do you think are most popular in your class?

**Questionnaire**

| Activities | I do this | I'd like to try this | I'm not at all interested in this |
|---|---|---|---|
| chatting | | | |
| collecting | | | |
| cooking | | | |
| going out with friends | | | |
| going shopping | | | |
| listening to music | | | |
| making things | | | |
| photography | | | |
| playing an instrument | | | |
| playing computer games | | | |
| playing sport | | | |
| reading books | | | |
| singing, acting, dancing | | | |
| spending time online | | | |
| watching TV | | | |

Birinchi bor bu so'zlarni o'qituvchi bilan birga o'qib takrorlab keyin so'zlarni tarjimalari tushuntirilib, so'zlarni diqqat bilan o'qilishi hamda talaffuziga e'tibor qaratiladi. Chunki, keyingi vazifada tinglab tushunishga oid bo'lgan jadvalni to'ldirishda ushbu o'qigan so'zlarining bir nechtasini tanlashi hamda yozishi kerak bo'ladi hamda matndan kelib chiqqan holda tuzilgan gaplarning qay darajada to'g'ri yoki noto'g'ri berilganini tekshirish kerak[22]:

113 **4** **Listen to three young people talking about what they do in their free time. Write the activity or activities from the questionnaire below each speaker.**

| Owen | Kyle | Erin |
|---|---|---|
| | | |

113 **5** **Listen again. Are the sentences right (✓) or wrong (✗)?**

1 Owen keeps his computer in his bedroom.
2 Owen thinks he uses his computer too much.
3 Kyle still collects pins and badges.
4 Kyle does two different sports.
5 Erin has got a new guitar.
6 Erin has her own camera.

Ushbu tinglash ko'nikmadiga oid audiomatn o'quvchining diqqatini jamlashni va chalg'ituvchi iboralaraga ko'proq e'tibor berishni talab etadi. Berilgan 4-mashqda ham 3

[22]Joanna Kosta, Melaniye Williams. Prepare. Student's book. 9-grade. p 87.

nafar bolaning (Oven, Kayla va Erin) aytgan gaplarini diqqatlik bilan tinglab, yuqorida 1-mashda berilgan iboralarning birini tanlab yozishni taqozo etsa, 5-mashqda esa audiomatnda berilgan gaplari mashqda berilgan gaplarga mos kelish yoki kelmasligini taqqoslashni hamda to‘g‘ri bo‘lsa – ***RIGHT***, noto‘g‘ri bo‘lsa – ***WRONG*** deb yozishlarini talab etadi.

Yuqoridagi mashqlar tinglab tushunish ko‘nikmasidagi ***MATCHING*** (to‘g‘risini belgilang) hamda ***TRUE or FALSE*** (to‘g‘ri yoki yolg‘on) kabi muhim vazifalarni o‘zida qamrab olganini yaqqol ko‘rishimiz mumkin.

Mazkur tamoyillarni 9-sinfning “Prepare” darsligida berilgan tinglab tushunishga vazifada yaqqol ko‘rib chiqamiz hamda “Teacher‘s Book” bilan solishtiramiz.

Ushbu ko‘nikmalarning har birining ahamiyati juda katta. Shuning uchun ham, o‘qituvchi o‘z darslarida o‘qib tushunish va tinglab tushunish ko‘nikmalarini o‘z ichiga olishiga ishonch hosil qilishi kerak. Bu amalda bo‘lishi va shakllantirib borish, tajriba sifatida darslarda namoyon bo‘ladi. Ushbu maqolada til ko‘nikmalarini o‘rgatish va mashq qilishda sizga yordam beradigan ba’zi usullarni tasvirlab beradi. Biroq, har bir o‘qituvchi va har bir sinf o‘ziga xos bo‘lib, ushbu ko‘nikmalarni o‘rgatishda yordam beradigan o‘z yo‘llarini va metodlarini tanlashadi.

**Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati**

1. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentinmg «Chet tillarni o‘rganish tizimini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida»gi (PQ-1875-sonli) qarori//»Ma’rifat» gazetasi, 2012 yil 12 dekabr.
2. Susannah Reed with Kay Bentley. Guess what! Grade 4. Student‘s book. p 9.
3. Joanna Kosta, Melaniye Williams. Prepare. Student‘s book. 9-grade. p 87-86.

# OYBEK IJODINING O'RGANILISHI

**G.T.Sodiqova**

*TTA akademik litsey.*

**Annotatsiya:** Mazkur maqolada o'zbek adabiyotining yirik namoyandalaridan biri — Oybek ijodi, uning badiiy merosi va adabiy tanqid hamda ilmiy tadqiqotlarda qanday o'rganib chiqilgani yoritiladi. Shoir, yozuvchi va tarjimon sifatida Oybek o'zbek adabiyotining 20-asrdagi taraqqiyotiga katta hissa qo'shgan ijodkordir. Maqolada adibning roman, she'riyat va tarjima sohasidagi faoliyati tahlil qilinadi.

**Kalit so'zlar:** Oybek, adabiy meros, roman, she'riyat, tarjima, tahlil, o'zbek adabiyoti, tarixiy asarlar

**KIRISH:** O'zbek milliy adabiyotining yirik namoyandalaridan biri, shoira, yozuvchi, tarjimon va olim sifatida tanilgan Oybek (Musa Toshmuhammad o'g'li) XX asr o'zbek adabiy taraqqiyotida o'ziga xos maktab yaratgan ijodkordir. U mustabid tuzum bosimi ostida yashagan bo'lsa-da, o'z asarlarida milliy g'urur, tarixiy xotira, insonparvarlik va adolat g'oyalarini yuksak mahorat bilan tasvirladi. Oybek nafaqat adabiy ijod bilan shug'ullangan, balki madaniyat, til va tarjima sohalariga ham katta hissa qo'shgan adib sifatida e'tirof etiladi. Oybek ijodining o'ziga xosligi shundaki, u o'z asarlarida milliy tarix, xalq taqdiri va inson qalbining ichki kechinmalarini badiiy ifoda bilan mahoratli tarzda uyg'unlashtira oldi. Ayniqsa, uning tarixiy romanlari o'zbek tarixining muhim sahifalarini badiiy qayta tiklashga xizmat qilgan. "Navoiy", "Ulug'bek xazinasi", "Qutlug' qon" romanlarida tarixiy shaxslarning murakkab taqdiri orqali xalqning ma'naviy tiklanishi va uyg'onish g'oyalari ilgari surilgan. Bu jihatlar Oybekni o'z davrining ilg'or adiblaridan biriga aylantirdi.

Shoir sifatida Oybek o'z she'riyatida inson ruhiy olami, muhabbat, mehnat, ezgulik va vatanparvarlik g'oyalarini yoritgan. Ayniqsa, u sovet mafkurasining og'ir sharoitlarida ham milliy qadriyatlarni tashviq qilgan, xalq tilini boyitgan va she'riy ifoda vositalarini

takomillashtirgan. Uning she’riyati shakl va mazmun jihatdan turli bosqichlarni bosib o‘tgan bo‘lib, bunda klassik an’analar, modernizm va realizm unsurlarining uyg‘unligini ko‘rish mumkin. Bundan tashqari, Oybek o‘zbek tarjimashunosligi tarixida ham salmoqli o‘rin egallaydi. U Aleksandr Pushkinning “Yevgeniy Onegin”, Lev Tolstoyning “Urush va tinchlik”, Shekspirning ayrim dramalari, Haynening lirikasi kabi asarlarni o‘zbek tiliga tarjima qilgan. Bu tarjimalar o‘zbek kitobxoni tafakkurini jahon adabiyoti bilan yaqinlashtirib, milliy tilning badiiy imkoniyatlarini yanada kengaytirdi. Oybek ijodi o‘zbek adabiyotshunosligi tomonidan turli nuqtai nazarlarda o‘rganilgan. Adabiyotshunoslar uning badiiy uslubi, tarixiy haqiqatga munosabati, obraz yaratish mahorati, poetik tili hamda ijtimoiy-axloqiy qarashlarini chuqur tahlil qilganlar. Shu sababli, Oybek ijodini o‘rganish nafaqat adabiy-tarixiy jarayonlarni anglashga, balki o‘zbek xalqining tafakkur, estetik qarashlari va ma’naviy dunyosini tushunishga xizmat qiladi. Mazkur maqolada Oybek ijodining asosiy yo‘nalishlari, uning romanlari, she’riyati va tarjimachilik faoliyati bilan bir qatorda, bu merosning qanday o‘rganilgani, adabiyotshunoslikda qanday baholanganiga doir masalalar ilmiy tahlil qilinadi.

## ADABIYOTLAR TAHLILI

Oybek ijodini o‘rganish sohasida ko‘plab adabiyotshunos olimlar tomonidan chuqur tahlillar olib borilgan. Ularning ilmiy izlanishlari adibning badiiy uslubi, g‘oyaviy yo‘nalishi, tarixiy romanlaridagi obrazlar, she’riyatidagi estetik qarashlar va tarjimachilik faoliyatini yoritishda muhim ahamiyatga ega. Homil Yoqubovning "Oybek" (1960), "G‘oyaviylik va mahorat" (1963) va "Adibning mahorati" (1966) kabi asarlari Oybek ijodini chuqur tahlil qilgan. Ular adibning badiiy uslubi, g‘oyaviy yo‘nalishi, tarixiy romanlaridagi obrazlar, she’riyatidagi estetik qarashlar va tarjimachilik faoliyatini yoritishda muhim ahamiyatga ega. Yoqubovning tadqiqotlari Oybek ijodining ilmiy asosda o‘rganilishiga katta hissa qo‘shgan.

Ne’mat Aminov va Ibrohim Haqqul kabi adabiyotshunoslar Oybekning "Navoiy" romani, "Qutlug‘ qon" va "Ulug‘bek xazinasi" kabi asarlarini chuqur tahlil qilganlar. Ular adibning tarixiy haqiqatni badiiy talqin qilishdagi mahoratini, obraz yaratishdagi

yondashuvlarini va asarlarning g'oyaviy mazmunini o'rganishgan. Bu tadqiqotlar Oybek ijodining adabiyotshunoslikda qanday o'rganilganini ko'rsatadi. Karim Bahriev va G'ulom Karimov kabi adabiyotshunoslar Oybekning she'riyatidagi estetik qarashlarni, til va uslubni o'rganishgan. Ular adibning she'riy asarlaridagi obrazlar, til boyligi, ritm va musiqa unsurlarini tahlil qilganlar. Bu tadqiqotlar Oybek she'riyatining badiiy saviyasini yoritishda muhim ahamiyatga ega. Alisher Abdusalomovich Bolibekov va Mahbuba Togaymurotovna Abdurahmonovaning "Oybekning 'Navoiy' romani" haqidagi maqolasi adibning ushbu asarida xalq maqollari va iboralarining qo'llanilishini o'rganadi. Tadqiqotda maqollarning badiiy maqsadga xizmat qilishi, ularning obraz yaratishdagi roli va asar tilidagi o'rni tahlil qilingan. Bu maqola Oybekning "Navoiy" romanining til va uslub jihatlarini o'rganishda muhim manba hisoblanadi. Sadoqat Odilovaning "Oybekning 'Navoiy' romanida xarakter va konflikt masalasi" haqidagi maqolasi adibning ushbu asaridagi xarakter yaratish va konflikt masalalarini o'rganadi. Tadqiqotda xarakterlarning badiiy to'qima va tarixiy shaxslar xarakterini ifodalashdagi unsurlar, konfliktlarning asardagi vazifasi va voqealar rivojidagi ahamiyati tahlil qilingan. Bu maqola Oybekning "Navoiy" romanining badiiy strukturasini o'rganishda muhim manba hisoblanadi.

## TAHLIL VA NATIJALAR

Muso Toshmuhammad o'g'li Oybek yangi o'zbek adabiyoti rivojiga ulkan hissa qo'shgan, o'ziga xos ijod yo'li uslub maktabiga ega bo'lgan ijodkor hisoblanadi. Oybek yaratgan she'r va hikoyalar, qissa va dostonlar bolalar ma'naviyatiga ta'sir etib, ularni tarbiyalashda muhim rol o'ynamoqda. "Yosh yo'lchi" (1925), "Gunafsha" (1926), "SHoirning bolaligi"(1937), "Odobli Tursun","Ahmadjon bog'bon"(1971) kabi she'riy kitoblari, "Zafar va Zahro"(1953), "Bobom"(1957) dostonlari, "Alisherning yoshligi"(1975), "Bolalik" qissalari ayniqsa xarakterlidir. 1981 yilda adibning "Globus" nomli to'plami bosilib chiqdi. To'plamda adibning shu vaqtgacha e'lon qilinmagan "Gulnor opa"(1930), "Fanorchi ota"(1930), "Singan umid"(1930), "Tilla topar"(1930)hikoyalari chop etilgan.

Oybek kichik maktab yoshidagi maktab bolalari uchun Pokiston bolalari hayotidan "Qonli barmoqlar"(1962) hikoyasini yozdi. Hikoyada Pokistonda tinchlik uchun

kurashuvchilardan qanday qasos olinayotganligi, ularning bolalari ko'chalarga chiqarib tashlanayotganligi, tilanchilikka va malaylikka mahkum etilayotganligi hikoya qilinadi. Yozuvchi buni asar qahramoni to'qqiz yoshli Alining sarguzashtlari orqali tasvirlaydi.

**Qonli barmoqlar"hikoyasida bolalar haq-huquqlarini poymol etilishi** Oybek hikoyada Alilarning yashash sharoitini va qanday kun kechirishini quyidagicha ta'riflaydi: "Gorishov Loxurning bag'ridagi bir daha. Loxur-qo'shiqlar, gullar diyori. Gorishov esa dahshat! Ali bu xaroba- vayronalar ichida yuguradi. Ko'cha, yo'lka deydigan narsa yo'q, tutash xaroba kulbalar. Shunday xaroba kulbalarning birisidan Ali bilan onasi, otasi qamalgandan so'ng haydalib, ko'chaga tashlangan edi."Pokiston shaharlarining ko'cha-kuylarida to'da-to'da tilanchi bolalar yurar edi. Ali bir parcha non qidirib, besh-olti kundan buyon rastalarni kezib yurganda gulobchi do'kondor uni chaqirib «jahl aralash dedi,-mana bu yashiklarni bo'shat!" va buning evaziga haq to'lashga va'da qiladi. Ali "Rostdanmi?"-deb so'radi va do'kondorning "ha"degan tovushini eshitgach, bola uzun xursindi, jilmaydi. Kir, kalta ko'ylagining yenglarini shimarib, ishga tushdi". Ali yashiklardagi siniq gulob shishalarini tashiydi : "Siniq, cheti uchgan shishalar va berahm quyoshning issig'i uni xunob qilar, kichik barmoqlari tilingan , qo'llari qon. Ammo och, tentirab yurishdan charchagan bola bu xizmatdan vaqti xush" edi. "Isqirt, juldur, cho'pday oriq bolalar bolaning qonagan qo'llariga tikildilar". Bolalar Aliga ko'mak bermoqchi bo'lganlarida u "raxmat" deb javob berdi. Ali och-nahor, barmoqlarini shisha siniqlari kesib achitishiga , bir parcha non topishning nihoyatda azob-uqubatlari va mashaqqatlariga qaramay do'kondor gulobchining og'ir ishini bajaradi. Do'kondor "bir qutini ochib, yupqa "chapati"-nonni uloqtiradi. Ali ilib oldi, quvonib dedi :"

-Darrov borib, ayamga beraman, u kasal!

-Aya, men keldim, non topib keldim.Turing non yeng, non...

Kampir onaning yuzini ochdi:

-O'tdi olamdan! Dard bilan, yo'qchilik bilan, ochlik bilan, g'am bilan hamisha kurashgan bu g'arib ayolning yuzida baxtsiz hayotning eng so'nggi nafasida o'lim bilan kurash dahshati ko'rinar edi".

Bu hayotiy parcha faqat pokistonlik Alining hayoti uchun xos hodisa bo'libgina qolmay, balki kambag'al mehnatkash bolalarning hayoti uchun ham tipik hol edi.

Kitobxon Alining sarguzashtlari bilan tanishar ekan, unda oddiy insoniy huquqlardan ham mahrum etilgan bolaning ayanchli taqdiri orqali yovuzlikka nisbatan nafrat tuyg'ulari shakllanadi. Muhimi shundaki, hayotda doimo yovuzlik bilan ezgulik orasida tinimsiz kurash borishini, bu kurash insonlarni ulug' ishlarga otlantirishi mumkinligini his qiladilar.

**Alisherning yoshligi" asarida ajdodlarga hurmat tuyg'usining ifodalanishi** Oybek buyuk o'zbek shoiri A.Navoiyning bolalik yillari haqida hikoya qiluvchi "**Alisherning yoshligi"** qissasini (1967) yozdi.

Ulug' A.Navoiy Oybekning sevimli siymolaridan biri edi. Bu haqda adib maqolalaridan birida shunday hikoya qiladi : "Navoiy she'riyati va Navoiy obrazi hamisha bir kuchli quyosh kabi ko'nglimni tortar edi. O'z asarlarimda Navoiy obrazini yaratishga zo'r mayl va istagim bor edi. Yoshligimdan beri Navoiyning o'lmas, adabiy she'rlarini sevib o'qir edim, uning jozibali g'azallari borgan sari ko'nglimga singib bordi, shakl va mazmunlari yuragimni mast va maftun etdi... U mening ko'nglimda, yodimda edi, butun borlig'imni band etgandi. Yursam-tursam hamisha Navoiyni o'ylar edim. Uning ma'nodor, aqlli ko'zlari hamisha xushfe'l, rahmdil, olijanob qiyofasi, asl pok, ulug' qalbini xis etardim, ko'z o'ngimda ko'rardim... "

Oybek 1928 yildan boshlab Navoiy ijodini o'rganishga kirishadi. Dastlab, Navoiy ijodiga doir ko'pgina ilmiy maqolalarni o'qib o'rganadi. Keyinroq "Navoiy", "Guli va Navoiy" dostonlarini nashr ettiradi. Davlat mukofotiga sazovor bo'lgan "Navoiy " romanida mutafakkir hayotining kamolot davri tasvirlanadi. Navoiyning bolaligi haqidagi qissaning yozilish tarixini adibning rafiqasi Zarifa Saidnosirova shunday izohlaydi : "Alisherning yoshligini qalamga olish niyati adib qalbida qirqinchi yillarning boshlarida tug'ilgan bo'lib, "Navoiy" romanini yozish davrida bu ishtiyoqi yanada kuchaygan edi.

Oybekning "Bolalik" qissasi avtobiografik xarakterdagi asar bo'lib,uning markazida yosh Musaning sarguzashlari yotadi.Asarda Musavoyning yetti yoshgacha bo'lgan shuxliklari, tinib – tinchimasligi, o'yinqaroqligi, ochiq ko'ngil va o'tkir zehnli bola bo'lganligi

tasvirlanadi. Musaning xarakteri oila, hayotda ko’rganlari va kishilar suhbatida shakllanadi. Keksalarning xonlar, beklar, boylar haqidagi xotiralari , eshitgan ertaklari Musavoyda adolatsizlikka va nohaqlikka nafrat uyg’otsa, mehnatkash halqqa muhabbat ruhida qarashga o’rgatadi.

“Bolalik” qissasida Turg’un, A‘zam, Ahmad, Qodir, Hoji, Sobir kabi Musavoyning tengqurlari obrazlari ham berilgan. Ular har biri o’z shaxsiy qiyofasiga ega. Masalan: Qodir mo’min-qobilga o’xshab ko’rinsada, jahldor. Ahmad oshiqboz, tentakroq, Sobir kichkina bo’lsada , pishiqqina va xokoza. Oybek o’sha davr tashvishlari bolalar hayoti va taqdirida ham aks etganligini mahorat bilan tasvirlaydi.

Oybek ijodida “Zafar va Zahro” dostoni yetakchi o’rinda turadi. Bu doston Pokistondagi dehqon va ishchi oilalari, ular bolalarining azob-uqubatlarga to’la hayoti tasvirlangan. Doston qahramoni kata zamindorlarga qul bo’lishga majbur etilgan dehqon bolasi Zafar, onasi bilan ko’chaga uloqtirib tashlangan ishchi qizi Zahrodir.Kitobxon dostonning boshidayoq Zafar musibati misolida pokistonlik bolalarning ayanchli hayoti Bilan yaqindan tanishadi:

Zafar asta tentiraydi, yonsa-da kun,

Yoshi o’nda, jingalak soch, ko’zi tuyg’un.

Egnidadir parcha latta, kir va yamoq,

Tovonlarin tuyoqlagan qizg’in tuproq.

Oriq, kuchsiz qo’lda cho’loq supurgi bor,

Boshida go’ng savat, tentirar, bitgan mador.

Dostonda qashshoq dehqon oilasining fojiali hayoti, soliq to’plovchilarning qo’polligi va zolimligi, boyning rahmsizligi zafarlar oilasi misolida ko’satiladi. Yo’qchilik, nochorlik bois Zafar qishloq boyining quliga aylanadi.Zafar obrazi misolida zolim boylarga , zulmga qarshi nafratning tobora kuchayib borganligi ko’rsatiladi. Zafar qanchalik og’ir kunlarga qolmasin unda ozodlik, baxtiyor hayotga erishish hissi sira so’nmaydi. Zahroning

otasi boyga qarshi dushman bo’lgani uchun qamalgan. Zahro esa ikki ukasi va onasi bilan yotoqdan quvilgan.

## XULOSA

Oybek – o‘zbek adabiyotining XX asrdagi eng yirik, eng serqirra va ta’sirchan ijodkorlaridan biri sifatida milliy madaniyatimiz va adabiyotimiz tarixida chuqur iz qoldirgan adibdir. Uning badiiy merosi – she’riyat, nasr, tarjimachilik hamda adabiy-estetik qarashlari orqali o‘zbek adabiyotida yangi yo‘nalish va shakllarning rivojlanishiga zamin yaratdi. Ayniqsa, Oybekning tarixiy romanlari – “Navoiy”, “Qutlug‘ qon”, “Ulug‘bek xazinasi” kabi asarlar o‘zbek tarixiy roman janrining yetuk namunalaridan hisoblanadi. Ushbu asarlar orqali adib xalqimizning tarixiy xotirasi, milliy o‘zlik va ma’naviy qadriyatlarini yuksak badiiy darajada tasvirlashga erishgan. Shoir sifatida Oybek zamonasining ijtimoiy-siyosiy muhitini chuqur his qilgan, inson ruhiyati, mehr-muhabbat, ezgulik va vatanparvarlik kabi g‘oyalarni o‘z she’rlarida tasvirlagan. Uning poetikasi boy badiiy tasvir vositalari, ohangdorlik va xalqona ruh bilan ajralib turadi. Ayniqsa, tarjimon sifatidagi faoliyati orqali u jahon adabiyotining eng sara namunalarini o‘zbek tiliga olib kirib, milliy madaniyatimizni boyitgan va xalqimizni umuminsoniy qadriyatlar bilan tanishtirgan.

## FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI:

1. Yoqubov, H. (1960). *Oybek*. Toshkent: Fan.
2. Yoqubov, H. (1963). *G‘oyaviylik va mahorat*. Toshkent: Fan.
3. Yoqubov, H. (1966). *Adibning mahorati*. Toshkent: Fan.
4. Aminov, N. (1985). *Oybekning ijodiy metodi va badiiy mahorati*. Toshkent: Fan.
5. Bahriev, K. (1970). *Oybek she’riyatining estetikasi*. Toshkent: Fan.
6. Karimov, G. (1975). *Oybek va o‘zbek adabiyoti*. Toshkent: Fan.
7. Bolibekov, A. A., & Abdurahmonova, M. T. (2024). Oybekning “Navoiy” romani. *Evraziyskiy jurnal akademicheskikh issledovaniy*, 4(4 Part 2), 36–39.
8. Odilova, S. (2022). Oybekning “Navoiy” romanida xarakter va konflikt masalasi. *Yosh Tadqiqotchi Jurnali*, 1(4), 101–107.

9. Sharafiddinov, O. (2009). Millatni uyg'otgan adib. *Ziyouz.com*. Retrieved from https://n.ziyouz.com/portal-haqida/xarita/maqolalar/ozod-sharafiddinov-millatni-uyg-otgan-adib
10. *Shermuhammedov P, Tursunov J, Safarov O, Egamov X.O'zbek bolalar adabiyoti. T.1976 , 154-163-betlar.*
11. *Oybek ijodining ma'naviy – ma'rifiy ahamiyati. Qarshi – 2005*

«RESEARCH AND PUBLICATIONS»
ILMIY NASHRLAR MARKAZI

ISSN 2181-2160
JIFactor: 8.2
TA'LIM FIDOYILARI

# Axloqiy Imperativlarning Falsafiy-Metodologik Asoslari va Huquqiy Tafakkurdagi O'rni

**Tilovov Murodulla Yuldashovich**

**Mustaqil tadqiqotchi**

**Annotatsiya**

Ushbu maqolada axloqiy imperativlar tushunchasining falsafiy-metodologik asoslari va ularning huquqiy tafakkurdagi o'rni tahlil qilinadi. Mualliflar fikrlari asosida axloqiy imperativlarning insoniy ong, jamiyat va huquqiy tizimdagi ahamiyati yoritiladi.

**Kalit so'zlar**: huquq falsafasi, axloqiy imperativ, adolat, inson qadr-qimmati, aksiologik yondashuv

**Kirish**

Axloqiy imperativlar insoniyat tarixida doimiy ravishda muhim o'rin egallab kelgan. Ular insonning xulq-atvori, jamiyatdagi o'rni va huquqiy tizimlar bilan bog'liq masalalarda yo'l-yo'riq bo'lib xizmat qiladi. Falsafiy-metodologik yondashuv orqali axloqiy imperativlarning mohiyati va ularning huquqiy tafakkurdagi o'rni chuqur tahlil qilinadi.

**Axloqiy Imperativlarning Falsafiy Asoslari**

Axloqiy imperativlar huquq falsafasining markaziy tushunchalaridan biri sifatida inson ongining ichki qonuniga tayanadi. Bu imperativlar — inson ongidagi umumiy, majburiy va shartli bo'lmagan axloqiy buyruqlar sifatida qaraladi va aynan shu xususiyatlari bilan huquqiy tafakkurda muhim aksiologik vazifani bajaradi. Garchi huquq – tashqi majburlov vositasi sifatida namoyon bo'lsa-da, axloqiy imperativlar uning ichki mohiyatini belgilab beradi. Bu ikki tushuncha o'rtasidagi dialektik birlikni aniqlash, huquqiy ong va tafakkurda axloqiy tamoyillarning epistemologik asoslarini yoritish orqali mumkin bo'ladi.

Axloqiy imperativlar tushunchasi Immanuel Kant tomonidan chuqur o'rganilgan. Uning fikricha, "Axloqiy imperativlar insonning ichki ongidan kelib chiqadi va ular umumiy qonun sifatida harakat qiladi"[23]. Kantning bu yondashuvi axloqiy imperativlarning universalligini ta'kidlaydi. Sharq falsafasida ham axloqiy imperativlar muhim o'rin egallaydi. Masalan, Al-Farobiy "Fozil shahar" asarida axloqiy qadriyatlarning jamiyat barqarorligidagi rolini ta'kidlaydi: "Adolat va axloqiylik jamiyatning asosiy tayanchi hisoblanadi"[24]. Zamonaviy falsafiy yondashuvlarda axloqiy imperativlar insonning erkinligi

[23] Kant I. "Amaliy aql tanqidi". - Toshkent: "Fan", 1998. - 45-47-betlar.
[24] Al-Farobiy. "Fozil shahar". - Toshkent: "Sharq", 1993. - 78-bet.

va mas'uliyati bilan bog'liq holda ko'riladi. Masalan, ekzistensializm vakili J.-P. Sartr "Inson erkinlikka mahkumdir" deb ta'kidlaydi, bu esa axloqiy tanlovlarning muhimligini ko'rsatadi[25].

Immanuel Kant bu borada axloqiy imperativlarni inson erkinligining asosiy metafizik mezoni deb ta'riflagan: "Axloqiy qonun – bu shunday printsipki, u har qanday oqil mavjudotga, u istasa ham, istamasa ham amal qilishi lozim bo'lgan buyruqdir"[26]. Unga ko'ra, axloqiy imperativlar shunchaki odob-axloq normalari emas, balki huquqiy ong va erkin irodaning chinakam asosidir. Kantning "kategorik imperativi" huquqiy tafakkurda shaxs va jamiyat manfaatlarining muvozanatini belgilovchi universal mezon sifatida qaraladi: "Sen shunday harakat qilki, senga nisbatan amal qilinayotgan printsip hamma uchun umumiy qonun sifatida amal qilsin"[27].

**Axloqiy Imperativlarning Metodologik Asoslari**

Axloqiy imperativlarning falsafiy-metodologik asoslarini aniqlashda shuni alohida ta'kidlash kerakki, ular qadim Sharq va G'arb tafakkurida turlicha shakllarda ifodalangan bo'lsa-da, umumiy tamoyil — insonning ezgulik sari intilishi orqali ijtimoiy barqarorlikka erishish g'oyasiga birlashadi. Al-Farobiy o'zining "Fozil shahar ahli" asarida shunday deydi: "Yaxshi qonunlar bilan birga, yaxshi axloq ham jamiyatning barqarorligi uchun zarurdir"[28]. Bu fikr huquq va axloqning uzviy bog'liqligini yoritadi va huquqiy tafakkurda axloqiy mezonlarning muhimligini yana bir bor isbotlaydi.

Zamonaviy yondashuvlarda ham axloqiy imperativlar huquqiy tafakkurning mustahkam asosi sifatida qaralmoqda. Jumladan, A. Venediktov ta'kidlaydi: "Huquq inson uchun emas, inson – huquq uchun emas, balki ularning uyg'unligi uchun mavjuddir. Bu uyg'unlik axloqiy me'zonlarsiz tasavvur etib bo'lmaydi" [29]. Shuningdek, M. Mamadjanovning fikricha, "Huquqiy tafakkur darajasi jamiyatda axloqiy imperativlar qay darajada qadrlanishi bilan bevosita bog'liqdir"[30].

Axloqiy imperativlarning huquqiy tafakkurdagi o'rnini belgilashda shaxsning ichki axloqiy pozitsiyasi va tashqi huquqiy majburiyatlar o'rtasidagi uyg'unlik hal qiluvchi ahamiyat kasb etadi. Sudyalar faoliyatida bu ikki mezon o'zining eng dolzarb shaklida namoyon bo'ladi. Sud qarori qonun asosida qabul qilingan bo'lsa-da, agar u axloqiy imperativlarga zid bo'lsa, u holda jamiyatda adolatga ishonch susayadi. Shu bois sud-huquq

---

[25] Sartr J.-P. "Ekzistensializm - bu gumanizm". - Moskva: "Progress", 1989. - 112-bet.
[26] Kant I. *Kritik der praktischen Vernunft*. - Riga: Hartknoch, 1788. - 98 b. - B. 25.
[27] Kant I. *Grundlegung zur Metaphysik der Sitten*. – Stuttgart: Reclam, 2012. – 112 b. – B. 42.

[28] Al-Farobiy. *Fozil shahar ahli*. - Toshkent: Fan, 1993. - 136 b. - B. 78.
[29] Венедиктов А.В. *Философия права*. - Москва: Норма, 2003. - 236 с. - С. 114.
[30] Mamadjanov M. *Huquq falsafasi*. - Toshkent: TDYU, 2016. - 180 b. - B. 94.

tizimida axloqiy imperativlarning asoslanganligini falsafiy yondashuv orqali tushunish huquq falsafasining eng muhim vazifalaridan biridir.

Huquq falsafasi fanida imperativlar muammosi faqat amr-buyruq doirasida emas, balki inson erkinligi, ong va ijtimoiy mas'uliyatning murakkab ontologik tizimi sifatida qaraladi. Boshqacha aytganda, axloqiy imperativlar – bu insoniy ongda mavjud boʻlgan va tashqi normativ tizimlardan ustun turuvchi ichki harakat tamoyilidir. Bu jihat axloqiy imperativlarni faqat etik normalar emas, balki huquqiy tafakkur asoslaridan biri sifatida talqin qilish imkonini beradi.

Shu munosabat bilan, M. Weber tomonidan ilgari surilgan "huquqiy ratsionalizm" gʻoyasi axloqiy elementlarni huquqiy ongdan chetlatish xavfini tugʻdirgan boʻlsa-da, zamonaviy nemis falsafasida bu yondashuv tanqid ostiga olingan. Masalan, Jürgen Habermas "kommunikativ harakat nazariyasi"da shunday deydi: "Haqqoniylik mezoni faqat formal protsedura bilan emas, balki ahloqiy haqiqatning umumqabul qilingan shakli bilan belgilanadi"[31]. Bu yerda adolatga erishish jarayoni faqat qonunlarni bajarish emas, balki axloqiy tushunchalarning ijtimoiy ongda qanday qabul qilinishiga ham bogʻliq ekani ta'kidlanadi.

**Axloqiy Imperativlarning Huquqiy Tafakkurdagi Oʻrni**

Axloqiy imperativlar huquqiy tafakkurda muhim oʻrin egallaydi. Ular huquqiy normalarning shakllanishida asosiy rol oʻynaydi. Masalan, adolat, tenglik, erkinlik kabi axloqiy qadriyatlar huquqiy tizimlarning asosini tashkil etadi. Oʻzbekiston Respublikasining Konstitutsiyasida ham axloqiy qadriyatlar asosiy oʻrin egallaydi. Masalan, Konstitutsiyaning 13-moddasida: "Oʻzbekiston Respublikasida demokratiya, ijtimoiy adolat va qonun ustuvorligi asosiy tamoyillar sifatida e'tirof etiladi"[32] deb belgilangan.

Huquqiy tafakkurda axloqiy imperativlar qonunlarning insonparvarlik tamoyillariga asoslanishini ta'minlaydi. Bu esa huquqiy tizimning adolatli va insoniy boʻlishiga xizmat qiladi

Huquqiy tafakkurda imperativlarning metodologik asoslarini aniqlashda har doim bir yoqlama, qattiq metodologiyaga tayanuvchi yondashuvlar cheklovchi boʻlib qoladi. Paul Feyerabend bu borada ogohlantiradi: "Ilmiy uslub nomi ostida yagona metodga tayanish ilmning oʻzini sun'iy cheklovlarga mahkum etadi. Har xil uslublarning aralashuvi haqiqatga olib boradi"[33]. Bu fikrni huquq falsafasiga qoʻllasak, axloqiy imperativlarni yagona huquqiy

---

31 Habermas J. Theorie des kommunikativen Handelns. Bd. 1. – Frankfurt: Suhrkamp, 1981. – S. 135.
32 Oʻzbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi. – Toshkent: "Oʻzbekiston", 2017. – 13-bet.
33 Feyerabend P. *Ilmiy uslubga qarshi*. – Toshkent: Yangi asr avlodi, 2015. – B. 73.

yondashuv doirasida emas, balki pluralistik va aksiologik yondashuvlar orqali tahlil qilish zarurati yuzaga chiqadi.

Yana bir dolzarb jihat — huquqiy tafakkurda aksiologik asoslarning yetarlicha mustahkam emasligidir. Bugungi kunda sud-huquq tizimi ko‘plab mamlakatlarda qonunchilikka asoslanadi, biroq, adolat va axloqiylik mezonlarining e’tibordan chetda qolishi huquqning legallik bilan cheklanishi xavfini keltirib chiqaradi. Shuning uchun axloqiy imperativlarni huquqiy tafakkurning asosiy komponenti sifatida shakllantirish, huquqning mohiyatini anglashda zaruriy yo‘nalish hisoblanadi.

O‘zbekistonlik olimlar tomonidan ham huquq va axloq o‘rtasidagi murakkab dialektik munosabatga oid zamonaviy yondashuvlar ishlab chiqilmoqda. Xususan, R. Bobonazarov ta’kidlaydi: “Huquqdagi axloqiy mezonlar qonunlarning quruq formal talqinidan ko‘ra inson qadri va ijtimoiy adolatni hisobga olgan holda talqin qilinishi lozim. Chunki huquqning chin mohiyati uning aksiologik tarkibiy qismlarida mujassam”[34].

Bu borada yana bir o‘zbek huquqshunoslik falsafasida ham muhim ishlanmalar mavjud. Xususan, B. Tuychiev quyidagicha fikr bildiradi: “Huquq va axloq tafakkurdagi uyg‘unligi ijtimoiy tartibot barqarorligini ta’minlovchi asosiy mexanizmdir. Axloqdan ajralgan huquq – ma’naviyatsiz kuch, huquqdan ajralgan axloq – bevosita tartibsizlikdir”[35].

Zamonaviy huquqiy tafakkurda axloqiy imperativlar inson qadriyatini e’tirof etishga qaratilgan bo‘lishi zarur. Martha Nussbaumning “salohiyatlar yondashuvi” bu borada asosli konseptual asos bo‘lib xizmat qiladi: “Jamiyatning axloqiy va huquqiy adolati uning a’zolarining insoniy salohiyatlarini to‘liq ro‘yobga chiqarish imkoniyati bilan belgilanadi”[36]. Demak, sud-huquq tizimida axloqiy imperativlar nafaqat formal adolatni, balki insoniy salohiyatni hurmat qilishni ham ifodalashi kerak.

Ayni fikrlar, sud-huquq tizimida axloqiy imperativlarning mavjudligi nafaqat huquqiy qarorlarning shakllanishida, balki sudyalar ongida ham chuqur ildiz otgan bo‘lishi zarurligini ko‘rsatadi. Inson erkinligi va adolat kabi tushunchalar Kant metafizikasida nazariy darajada ko‘rsatib berilgan bo‘lsa, zamonaviy huquq falsafasida ular real huquqiy amaliyot mezonlariga aylanishi kerak. Shu nuqtayi nazardan, huquqiy tafakkur – bu faqat qonunchilikni bilish emas, balki axloqiy ong asosida harakat qilish qobiliyatidir.

---

[34] Bobonazarov R. *Huquq va axloq: zamonaviy yondashuvlar*. – Samarqand: Ma’rifat, 2020. – B. 41.
[35] Tuychiev B. Huquqiy tafakkur va uning evolyutsiyasi. – Toshkent: Adolat, 2018. – B. 52.
[36] Nussbaum M. *Creating Capabilities: The Human Development Approach*. – Cambridge: Harvard University Press, 2011. – 320 p.

**Xulosa**

Shunday qilib, axloqiy imperativlar – huquqiy tafakkurda insonparvarlik, adolat va ma'naviy mas'uliyat tamoyillarining umumlashgan ifodasi bo'lib, ular huquqni yuksak aksiologik tushuncha sifatida qabul qilishning zaruriy shartidir. Bu borada huquq falsafasi fanining vazifasi – huquqiy qarorlarning chuqur axloqiy asosga tayanishini ta'minlaydigan epistemologik, aksiologik va metodologik mezonlarni aniqlab berishdir.

Axloqiy imperativlar insonning ichki ongidan kelib chiqadigan, umumiy qonun sifatida amal qiladigan tamoyillardir. Ular falsafiy-metodologik yondashuvlar orqali chuqur o'rganiladi va huquqiy tafakkurda muhim o'rin egallaydi. Axloqiy imperativlarning huquqiy tizimlarda qo'llanilishi adolatli va insonparvar jamiyat qurilishiga xizmat qiladi

ISSN 2181-2160
JIFactor: 8.2
TA'LIM FIDOYILARI

# " O'ZBEKISTONNING BARQARORLIK SARI YASHIL SAYOHATI "

**Do'stov Bahodir Tashpo'latovich**
O'zbekiston –Finlyandiya Pedagogika instituti
mustaqil tadqiqotchisi
bohodustov@inbox.ru
https://orcid.org/0009-0001-6968-3490
tel-+998942401171

**Annotatsiya** Ushbu maqola O'zbekiston Respublikasining "Yashil resurslar" va "Yashil transformasiya" tamoyillarini amaliyotga tatbiq etish bo'yicha amalga oshirilayotgan islohotlar, strategiyalar va ularning ijtimoiy-iqtisodiy ahamiyatiga bag'ishlangan. Maqolada mamlakatning 2030-yilga mo'ljallangan asosiy maqsadlari issiqxona gazlarini qisqartirish, qayta tiklanuvchi energiya manbalarining ulushini oshirish, energiya samaradorligini yaxshilash, suv resurslaridan oqilona foydalanish va shaharlarni yashil maydonlar bilan qamrab olish kabi yo'nalishlar tahlil qilingan. Amaliy qadamlar sifatida quyosh va shamol elektr stansiyalari qurilishi, "yashil sertifikatlar" tizimi, energiya tejovchi texnologiyalarni joriy etish, shuningdek, zamonaviy yashil infratuzilma loyihalari keng yoritilgan. Monitoring tizimlari, xalqaro hamkorlik va "Parij kelishuvi"ga muvofiqlik masalalari alohida ta'kidlangan.

**Kalit so'zlar**: yashil iqtisodiyot, barqaror rivojlanish, qayta tiklanuvchi energiya, ekologik tozalik, energiya samaradorligi. barqarorlik, yashil energiya, ekoturizm, qayta tiklanuvchi resurslar, axoli salomatligi.

Bugungi kunda O'zbekiston yashil o'zgarishlar tamoyillarini o'z taraqqiyot strategiyalariga faol tatbiq etib, uzoq muddatli barqaror o'sish uchun poydevor yaratmoqda. Bu nafaqat jahonshumul muammolarga javob, balki fuqarolarimiz hayot sifatini yaxshilash, yangi ish o'rinlari yaratish va mamlakatimiz ravnaqiga hissa qo'shish istagidir. Mamlakatda yashil rivojlanish umummilliy harakatga aylandi. Yangi O'zbekistonning yashil yo'nalishga o'tishidan asosiy maqsad - inson qadr-qimmatini ta'minlash, aholi farovonligini oshirish va fuqarolarning asosiy huquqlarini himoya qilishdan iborat.
O'zbekiston - xalqaro yashil tashabbuslar markazi. O'zbekiston uchun yashil rivojlanishga o'tish mavhum yoki voqelikdan yiroq narsa emas. Bu tushuncha mamlakatimizning iqtisodiyot va ijtimoiy hayotning barcha jabhalariga daxldor bo'lgan strategik yo'nalishining ajralmas qismiga aylandi. "Yashil" iqtisodiyot yondashuvlarini ilgari surish orqali barqaror rivojlanish yo'liga o'tish mamlakatning o'rta va uzoq muddatli rejalarida milliy ustuvor yo'nalish hisoblanadi. "Yashil" iqtisodiyot konsepsiyasi - bu aholi

salomatligi va ijtimoiy adolatni yaxshilash, shuningdek, atrof-muhitga xavfli ta'sirlarni sezilarli darajada kamaytirish va ekologik tanqislikni kamaytirishga olib keladigan model. Shunday qilib, "yashil" iqtisodiyot oʻzining eng oddiy shaklida kam uglerodli, resurslarni tejaydigan va ijtimoiy jihatdan inklyuziv iqtisodiyot modeli sifatida qaralishi mumkin. "Yashil" iqtisodiyot konsepsiyasi barqaror rivojlanish konsepsiyasining oʻrnini bosmaydi, ammo barqarorlikka erishish deyarli toʻliq iqtisodiy huquqni qoʻlga kiritishga asoslanishi keng e'tirof etilmoqda.

Yashil Resurslar va Yashil Transformasiya: Amaliyotga Targʻib Qilishning Strategiyasi va Natijalari Yashil transformasiya bu tabiiy resurslardan oqilona foydalanish, energiya samaradorligi, ekologik tozalik va barqaror rivojlanish tamoyillari asosida jamiyat va iqtisodiyotni qayta qurish jarayoni. Oʻzbekiston Respublikasi 2030-yilgacha "yashil" iqtisodiyotga oʻtishni rejalashtirgan holda, xalqaro kelishuvlar (masalan, Parij kelishuvi) va MDG'lar (Milliy Barqaror Rivojlanish Maqsadlari) doirasida qat'iy strategiyalarni amalga oshirmoqda.

Oʻzbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyev 14-yanvar kuni Birlashgan Arab Amirliklari poytaxtida oʻtayotgan "Abu Dabi barqaror rivojlanish haftaligi" sammitida nutq soʻzladi. Forum kun tartibiga muvofiq, barqaror rivojlanishni ta'minlash, innovatsiyalarni ilgari surish, "yashil" iqtisodiyot va mintaqaviy oʻzaro bogʻliqlik masalalari muhokama etildi.

Davlatimiz rahbari oʻz nutqida hozirgi kunda energiya manbalarini xilma-xil qilish va ularda uglevodorodlar ulushini keskin kamaytirish iqlim oʻzgarishi oqibatlarini yumshatish, barqaror rivojlanish va global xavfsizlikni ta'minlashning asosiy sharti ekanligini ta'kidladi.

Yangi Oʻzbekistonning strategik maqsadi resurslarni tejaydigan, "yashil" rivojlanish modeliga oʻtish orqali ekologik barqarorlik va iqtisodiy oʻsishni ta'minlashdan iborat ekanligi qayd etildi. Issiqxona gazlari chiqindilari monitoringi va emissiya kvotalari savdosi milliy tizimlarini joriy etish boʻyicha ishlar olib borilmoqda. 2030-yilga kelib issiqxona gazlari chiqindilarini 35 foizga qisqartirish va keyinchalik ushbu koʻrsatkichni bosqichma-bosqich oshirish rejalashtirilmoqda.

Mamlakatimizda "Yashil makon" dasturi doirasida shaharlarning kamida 30 foizini koʻkalamzorlashtirish ishlari amalga oshiriladi. Qishloq xoʻjaligini suv tejovchi texnologiyalar bilan 100 foiz qamrab olish boʻyicha tizimli choralar koʻrilmoqda.

Shavkat Mirziyoyev tez rivojlanayotgan iqtisodiyotimizning energiyaga boʻlgan ehtiyojini toʻliq qondirish uchun "yashil" quvvatlarni jadal rivojlantirish masalasiga e'tibor qaratdi. Soʻnggi 5 yilda energetika sohasiga qariyb 20 milliard dollar xorijiy investitsiyalar jalb qilinib, 9,6 gigavattli zamonaviy energetika quvvatlari ishga tushirildi. Xususan, 3,5 gigavattli 14 ta quyosh va shamol elektr stansiyasi hamda 300 megavattli 2 ta energiya saqlash tizimi barpo etildi.

Bugungi kunda xorijiy hamkorlar bilan jami 24 gigavatt elektr energiyasi ishlab chiqarish bo'yicha umumiy qiymati 26 milliard dollardan ortiq 50 dan ziyod yirik loyiha amalga oshirilmoqda. 2030-yilgacha qayta tiklanuvchi energiya manbalari ulushini 54 foizga yetkazish rejalashtirilgan.

Bugun O'zbekistonda "yashil rivojlanish" umummilliy harakat darajasiga ko'tarildi, Davlatimiz rahbari Markaziy Osiyoni "yashil" iqtisodiyot va "toza energiya"ni rivojlantirish markazlaridan biriga aylantirish uchun mintaqaviy hamkorlikni kengaytirish muhimligini ta'kidladi.

Energetik bog'liqlik orqali Buyuk Ipak yo'lini qayta tiklash uchun dastlabki qadamlar qo'yildi. Yaqinda Qozog'iston va Ozarbayjon bilan COP-29 doirasida imzolangan ko'p tomonlama kelishuv Yevropaga "yashil" energiya eksport qilish imkonini beradi.

O'zbekiston rahbariyati so'nggi 6-7 yil ichida "yashil" rivojlanish yo'lini qat'iy tanlab, qayta tiklanuvchi quvvat manbalarini joriy etish, atrof-muhitga ehtiyotkorona munosabatda bo'lish va suv resurslaridan oqilona foydalanishga qaratilgan aqlli texnologiyalarga ustuvorlik bermoqda.

Mamlakatda yaqin kelajakni hisobga olgan holda ekologik xavfsizlik va barqaror rivojlanishga erishishga yo'naltirilgan turli maqsadli strategiyalar ishlab chiqilmoqda. Bu yo'nalishdagi asosiy dasturiy hujjatlardan biri Prezidentning "2030-yilgacha O'zbekiston Respublikasining "yashil" iqtisodiyotga o'tishiga qaratilgan islohotlar samaradorligini oshirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi qarori bo'ldi. Amaliy qadamlar davlat rahbarining "Quvvat tejovchi texnologiyalarni joriy etish va kichik quvvatli qayta tiklanuvchi quvvat manbalarini rivojlantirish bo'yicha qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida"gi farmonida belgilangan.

Kam uglerodli iqtisodiyotga bosqichma-bosqich o'tish doirasida O'zbekistonda joriy yildayoq umumiy quvvati 2000 MVt dan ortiq, kelgusi yilda esa 8000 MVt bo'lgan qayta tiklanuvchi quvvat manbalarini (QTEM) ishga tushirish rejalashtirilgan. Shuningdek, 2030-yilga kelib QTEM ishlab chiqarish quvvatini 15 GVtga yetkazish va mamlakatda elektr quvvati ishlab chiqarishning umumiy hajmida QTEM ulushini 30 foizga oshirish ko'zda tutilgan.

Suvdan tejamkorlik bilan foydalanishning zamonaviy texnologiyalarini joriy etish bo'yicha tizimli ishlar izchil olib borilmoqda. So'nggi yillarda mamlakatda suvni tejaydigan texnologiyalar bilan qamrab olingan maydon 1 million gektarga yetdi, bu sug'oriladigan yerlarning taxminan 25 foizini tashkil etadi. Buning natijasida faqat 2022-yilning o'zida 3 milliard kub metr suv tejalgan. Joriy yilda 500 ming gektar maydonda suv tejovchi texnologiyalarni joriy etish rejalashtirilgan. Xususan, 260 ming gektar maydonda tomchilatib sug'orish, 25 ming gektarda yomg'irlatib sug'orish usuli, 15 ming gektarda diskret sug'orish texnologiyasi qo'llaniladi. Suvni tejashning yuqori samarali usuli - lazerli tekislash yana 200 ming gektarda amalga oshiriladi. Suvni tejash masalalarini hal qilish dolzarbligi, ayniqsa, olimlarning mintaqaning asosiy suv arteriyalari - Amudaryo

oqimining 2050-yilga kelib 15% ga va Sirdaryo oqimining 5% ga kamayishi mumkinligi haqidagi tashvishli bashoratlari fonida oʻz vaqtida koʻtarilmoqda.

Yuqorida sanab oʻtilgan barcha hujjatlar mamlakatning ekologik xavfsizligi va barqaror rivojlanishiga erishishga qaratilgan. Bu yoʻlda Oʻzbekiston atrof-muhitni muhofaza qilish sohasidagi xalqaro konvensiyalar doirasida oʻz zimmasiga olgan majburiyatlarni izchil va qat'iy bajarmoqda. Ular orasida eng muhimlari quyidagilardan iborat. Iqlim oʻzgarishi toʻgʻrisidagi Ramka konvensiyasi (20.06.1993 y.), Iqlim oʻzgarishi toʻgʻrisidagi Parij bitimi (19.04.2018 y.), BMT YEIKning Transchegaraviy suv oqimlarini muhofaza qilish va ulardan foydalanish toʻgʻrisidagi konvensiyasi, Biologik xilma-xillik toʻgʻrisidagi konvensiya (06.05.1995 y.), Jahon madaniy va tabiiy merosini muhofaza qilish toʻgʻrisidagi konvensiya (22.12.1995 y.) va boshqalar. 1992-yil iyun oyida Rio-de-Janeyroda 155 ga yaqin davlat tomonidan imzolangan UNFCCC 1985-yildagi Vena konventsiyasiga asosan modellashtirilgan. Nomidan ko'rinib turibdiki, u batafsil bayonnomalar orqali batafsilroq majburiyatlarni muhokama qilish uchun asos yaratadi. Konventsiyaning asosiy maqsadi erishishdir atmosferadagi issiqxona gazlari kontsentratsiyasini iqlim tizimiga xavfli antropogen aralashuvni oldini oladigan darajada barqarorlashtirish  ekotizimlarning iqlim o'zgarishiga tabiiy ravishda moslashishi, oziq-ovqat mahsulotlari ishlab chiqarishga tahdid solmasligini ta'minlash uchun etarli vaqt oralig'ida iqtisodiy rivojlanish barqaror sur'atda davom etishi kerak. Parij bitimi doirasidagi majburiyatlarni bajarish boʻyicha ishlar rejali ravishda davom ettirilmoqda. E'tiborga loyiq jihati shundaki,.Qabul qilingan majburiyatlarni hisobga olgan holda Orol dengizi havzasida koʻkalamzorlashtirish, oʻrmonlarni tiklash va ekologik vaziyatni yaxshilash choralari koʻrilmoqda. Joriy yil may oyi oxirida Prezidentning "Ekologiya va atrof-muhitni muhofaza qilish sohasini transformatsiya qilish va vakolatli davlat organi faoliyatini tashkil etish chora-tadbirlari toʻgʻrisida"gi farmoni qabul qilingani e'tiborga molik. Ushbu hujjatda tabiiy sharoitdan kelib chiqib, himoya oʻrmonzorlari - "yashil belbogʻ," "yashil bogʻ," "yashil jamoat parki" va "yashil qoplamalar" barpo etish, magistral avtomobil yoʻllari va asosiy temir yoʻllar boʻylab daraxt koʻchatlarini ekish nazarda tutilgan.Shu bilan birga, oʻrmon xoʻjaligi va oʻrmon koʻchatchiligini rivojlantirish, sugʻorish tizimlarini yaratish va suv olish quduqlarini oʻrnatish boʻyicha keng koʻlamli chora-tadbirlar belgilangan.Belgilangan vazifalarni amalga oshirish uchun har yili manzilli koʻkalamzorlashtirish boʻyicha Sarmoya dasturi tasdiqlanadi.Davlat rahbari tashabbusi bilan 2021-yil noyabr oyida boshlangan "Yashil makon" umummilliy loyihasi muvaffaqiyatli amalga oshirilayotgani yaqqol natijalar bermoqda. Faqatgina 2023-yilning bahor mavsumida "Yashil makon" doirasida 10 million tup manzarali, mevali daraxt va buta koʻchatlari ekildi.Ushbu ulkan loyiha doirasida 2026-yilga qadar respublikaning issiq iqlim sharoitida texnogen yuk va issiqxona ta'siri oqibatlarini yumshatish uchun 1 milliard tup daraxt va buta koʻchatlarini ekish rejalashtirilgan.

O`zbekistonda "Yashil" Iqtisodiyotga O'tishning Strategik Maqsadlari quyidagilardan iborat.

**1. Atrof-muhitni muhofaza qilish.**

2030-yilga kelib issiqxona gazlarini chiqarishni 35% ga kamaytirish (asosan, sanoat va transport sohalarida).

2026-yilga kelib elektr energiyasining 30% ni quyosh, shamol va bioqazilmalardan olish. Masalan, Navoiy viloyatida 100 MVt quvvatli quyosh elektr stansiyasi (QES) qurilishi yakunlangan.

**2. Suv resurslarini tejash.**

Daryo havzalarida suvni boshqarishning aqlli tizimlarini joriy etish (masalan, Zomin tumanida 5000 gektar yerda tomchilatirish usuli bilan sug'orish).

2030-yilga kelib 1 million gektar yerga suv tejovchi texnologiyalarni joriy qilish.

**3. Yashil shaharlar.**

Toshkent, Samarqand va Buxoro shaharlarida yashil maydonlarni 30% ga kengaytirish. 2023-yilda Toshkentda 15 yangi park va 100 km velosiped yo'laklari qurilishi.

**4.Amaliy Chora-Tadbirlar va Innovatsion Loyihalar borasida**

**Qayta Tiklanuvchi Energiya Manbalarini joriy etish.**

Quyosh energiyasidan foydalanish buyicha 2022–2026 yillarda Qoraqalpog'iston, Samarqand va Jizzaxda 5 ta yirik quyosh elektr stansiyasi (jami quvvati 2 GVt) qurilishi boshlangan. Xorazm viloyatida 50 MVt quvvatli QES 2024-yil mart oyida ishga tushirildi. Shamol energiyasini joriy etishda Qoraqalpog'istonda 500 MVt quvvatli shamol elektr stansiyasi qurilishi rejalashtirilgan (2027-yil yakunlanishi kutilmoqda).

- Energiya Samaradorligi buyicha "Yashil binolar" dasturi asosida

yangi quriladigan binolarda energiya sarfini 40% ga kamaytiradigan standartlar joriy qilindi (masalan, Toshkentdagi "Yashil Shahar" loyihasi).

2024-yilda 200 ta maktab va 50 ta kasalxonaga quyosh panellari o'rnatildi.

-Atrof-muhitni tiklashda "Yashil kamar" loyihasi:

Oral dengizi atrofida 1 million gektar maydonda o'rmonlar barpo qilish (2023-yilda 200 ming gektar ekilgan)."Ekologik toza zona"sini tashkil etish rajalarini amalga oshirish.

- Xalqaro Kelishuvlar asosida

Parij kelishuvi (2023-yilgi hisobotga ko'ra, O'zbekiston issiqxona gazlarini 10% ga kamaytirgan).BMTning Barqaror Rivojlanish Maqsadlari (BRM) 7 ta BRMga erishish uchun 2030-yilgacha 120 ta loyiha amalga oshiriladi.

Ijtimoiy-Iqtisodiy ta'sirlar doirasida ishsizlikni kamaytirish 2024-yilda qayta tiklanuvchi energiya sohasida 15 000ga yaqin yangi ish o'rni yaratildi.

Turizmni rivojlantirish "Yashil yo'llar" loyihasi doirasida Zarafshon vodiysida ekoturizm zonasi tashkil etildi (2024-yilda 50 000 sayyohni jalb qildi).

Albatta har sohadi kabi asosiy muammolar ham mavjud bo`lib, Texnologik qoloqlik natijasida energiya saqlash tizimlari (batareyalar) import qilinadi, bu xarajatlarni

oshiradi.Ma'lumotlarni etishmovchiligi asosida qishloq joylarda aholining atrof-muhitni muhofaza qilish bo'yicha bilimi 30% atrofida ekanligida.

Bu muommolarni bartaraf etishda asosiy taklif sifatida quyidagilarni amalga oshirish belgilandi.

**1.Ijtimoiy jihatlarda** hayot sifatini yaxshilash. "Yashil iqtisodiyot"ning fuqarolar salomatligi va turmush darajasini qanday yaxshilashi mumkinligiga misollar (chunonchi, ifloslantiruvchi moddalar chiqarilishini kamaytirish, yashil hududlar barpo etish).

- Ish o'rinlari yaratish orqali qayta tiklanadigan energiya va barqaror qishloq xo'jaligi sohalarida paydo bo'lishi mumkin bo'lgan yangi ish o'rinlarini ko'rib chiqish.
- Ijtimoiy infratuzilmaga ta'siri doirasida Yashil iqtisodiyotni rivojlantirish ta'lim va sog'liqni saqlash kabi sohalardagi infratuzilmani qay tarzda o'zgartirishi mumkinligi.

**2. Falsafiy jihatlarda;**

- Ekologik axloq normalari kelajak avlodlar oldidagi ekologik mas'uliyat va axloqiy javobgarlikning muhimligini muhokama qilish.
- Ekologik madaniyatni shakllantirishda "Yashil iqtisodiyot"ning fuqarolarda yangi dunyoqarash va qadriyatlarni shakllantirishga qanday hissa qo'shishi mumkinligi.
- Iqtisodiy rivojlanish va tabiiy resurslar o'rtasidagi aloqalarda tabiatdan foydalanish huquqi va resurslardan barqaror foydalanish haqidagi falsafiy masalalarni o'rganish.

**3. Davlat va jamiyatning o'zaro hamkorligida**

- Davlatning rolini oshirishda O'zbekiston hukumatining yashil iqtisodiyotni joriy etish bo'yicha siyosati va tashabbuslarini tahlil qilish.
- Fuqarolar ishtirokini ta`minlashda fuqarolarning qarorlar qabul qilish va ekologik tashabbuslarni amalga oshirish jarayonlariga qanday jalb qilinishi mumkinligini tahlil qilish.
- Ta'lim va ma'rifatda "Yashil iqtisodiyot" haqida xabardorlikni oshirishga qaratilgan dasturlarni ishlab chiqish.

**Xulosa**. O'zbekiston yashil transformasiya yo'lida nafaqat qonuniy bazani, balki amaliy loyihalar va xalqaro hamkorlikni rivojlantirmoqda. Biroq, muvaffaqiyat uchun quyidagilar zarur. Yashil transformasiya bu iqtisodiyotni tabiatga zarar yetkazmasdan, resurslarni tejab, barqaror rivojlanish tamoyillari asosida qayta qurish jarayonidir. Yashil transformasiya nafaqat ekologik, balki iqtisodiy va ijtimoiy foyda keltiradi.

- Ish o'rinlarini yaratishda- Qayta tiklanuvchi energiya va yashil texnologiyalar sohasida yangi ish o'rinlari yaratiladi.
- Aholi salomatligi borasida- Havoning tozaligi va yashil maydonlarning ko'payishi nafas olish kasalliklarini kamaytiradi.
- -Investitsiyalarni jalb qilish orqali- Xalqaro donorlar va korporatsiyalar "yashil" loyihalarga sarmoya kiritilishi ta`minlanadi.

O‘zbekiston Respublikasi ushbu yo‘nalishda jiddiy qadamlar tashlab kelmoqdaki, ayniqsa "yashil" iqtisodiyotga o‘tish, qayta tiklanuvchi energiya manbalaridan foydalanish va atrof-muhitni muhofaza qilish bo‘yicha strategiyalar ishlab chiqilgan. Quyida ushbu sohada amalga oshirilayotgan islohotlar, chora-tadbirlar va ularning samaradorligi haqida batafsil ma’lumotlar keltirilgan.

- Fuqarolarning ishtirokini ta`minlashda har bir oilada energiya tejashni odat qilish.
- Xususiy sektor sarmoyasini jalb qilish orqali "Yashil" startaplarni qo‘llab-quvvatlash.
- Davlat nazoratini yanada kengaytirish orqali korrupsiyaga qarshi kurash va byurokratik to‘siqlarni bartaraf etish.

Bu bilan 2030-yilga kelib O‘zbekiston Markaziy Osiyoda "yashil energiya" yetakchisiga aylanishi va ekologik barqarorlikni ta’minlashi kutilmoqda. O‘zbekiston "yashil" transformasiya yo‘lida muhim strategik qarorlar qabul qilib, jahon standartlariga mos keladigan tizimlarni joriy qilmoqda. Biroq, muvaffaqiyatga erishish uchun hukumat, xususiy sektor va jamoatchilikning faol ishtiroki shart. 2030-yilga kelib energiya mustaqilligi, ekologik barqarorlik va yashil shaharlar yaratish bo‘yicha belgilangan maqsadlarga erishish mumkin bo‘lishi kutilmoqda.

**Foydalanilgan adabiyotlar.**

1. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining "O‘zbekiston Respublikasida yashil iqtisodiyotni rivojlantirish strategiyasini tasdiqlash to‘g‘risida"gi qarori . **2020-yil 7-iyul.**
2. Abdullayeva, G. "Yashil iqtisodiyot – barqaror rivojlanish uchun yangi yo‘l." O‘zbekiston milliy universiteti ilmiy axborot* jurnali, 15(3), 89-95. 2020y.
3. Siddiqov, I. "Ekologik madaniyat va ijtimoiy taraqqiyot."Jahon iqtisodiy taraqqiyoti jurnali, 12(5), 113-118. 2021y.
4. Ergashev, M. "Barqaror rivojlanish va yashil iqtisodiyot O'zbekiston uchun." O‘zbekiston Respublikasi Davlat ekologiya qo‘mitasi axborotnoma. 2019y.
5. Toshpulatov, A. "Yashil iqtisodiyot: muammolar va imkoniyatlar." Tarix va istoriografiya jurnali, 25(1), 67-74. 2021y.
6. Mamatov, R. "Ekologik madaniyatning rivojlanishi: O‘zbekiston tajribasi." Mahalliy iqtisodiyot jurnali, 8(4), 56-62. 2022y
7. Mahmudov, D."Tabiatni muhofaza qilish va yashil iqtisodiyot: adaptatsiya strategii." Ekologiyani muhofaza qilish jurnali, 3(1), 22-29. 2017y
8. Davronov, K. & Abdullaeva, N. "Ekologik ta’lim: yashil iqtisodiyotga o‘tish jarayonida ahamiyati."ilmiy maqola, 7(3), 45-52. 2020y.

**Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:**

1. Kant I. *Kritik der praktischen Vernunft*. – Riga: Hartknoch, 1788. – 98 b. – B. 25.
2. Kant I. "Amaliy aql tanqidi". – Toshkent: "Fan", 1998. – 45–47-betlar.
3. Al-Farobiy. "Fozil shahar". – Toshkent: "Sharq", 1993. – 78-bet.
4. Sartr J.-P. "Ekzistensializm – bu gumanizm". – Moskva: "Progress", 1989. – 112-bet.
5. O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi. – Toshkent: "O'zbekiston", 2017. – 13-bet
6. Kant I. *Grundlegung zur Metaphysik der Sitten*. – Stuttgart: Reclam, 2012. – 112 b. – B. 42.
7. Al-Farobiy. *Fozil shahar ahli*. – Toshkent: Fan, 1993. – 136 b. – B. 78.
8. Венедиктов А.В. *Философия права*. – Москва: Норма, 2003. – 236 с. – С. 114.
9. Mamadjanov M. *Huquq falsafasi*. – Toshkent: TDYU, 2016. – 180 b. – B. 94.
10. Habermas J. *Theorie des kommunikativen Handelns*. Bd. 1. – Frankfurt am Main: Suhrkamp, 1981. – 541 S. – S. 135.
11. Tuychiev B. *Huquqiy tafakkur va uning evolyutsiyasi*. – Toshkent: Adolat, 2018. – 124 b. – B. 52.
12. Bobonazarov R. *Huquq va axloq: zamonaviy yondashuvlar*. – Samarqand: Ma'rifat, 2020. – 88 b.
13. Feyerabend P. *Ilmiy uslubga qarshi*. – Toshkent: Yangi asr avlodi, 2015. – 142 b.
14. Nussbaum M. *Creating Capabilities: The Human Development Approach*. – Cambridge: Harvard University Press, 2011. – 320 p.

# Иккинчи жаҳон уруши - давлатларга тушган оғир юк

*Овлақулов Нуъмон Абдували ўғли*
*Тошкент кимё-технология институти "Ижтимоий-сиёсий фанлар" кафедраси стажёр ўқитувчиси.*

**АННОТАЦИЯ.** Ушбу мақолада иснонияят тарихидаги энг йирик уруш иккинчи жаҳон уруши, ўша пайтларда юртимиздаги ижтимоий-сиёсий ҳолат, ўзбек халқининг урушда СССР аскарларининг ғалабаси учун қўшган хиссаси ҳақида маълумотлар келтирилган.

**Калит сўзлар**. Иккинчи жаҳон уруши, Собиқ Иттифоқ даврида саноат ишлаб чиқаришининг ўсиши қишлоқ хўжалигига бўлган эҳтиёж ва ҳ.к.

**АННОТАЦИЯ.** В данной статье представлена информация о крупнейшей войне в истории человечества – Второй мировой войне, общественно-политической ситуации в нашей стране в то время, а также о вкладе узбекского народа в победу советских воинов в этой войне.

**Ключевые слова**. Рост промышленного производства в годы Второй мировой войны, бывший Советский Союз, потребности сельского хозяйства и т. д.

**ABSTRACT.** This article provides information about the largest war in the history of mankind – World War II, the socio-political situation in our country at that time, as well as the contribution of the Uzbek people to the victory of Soviet soldiers in this war.

**Key words.** Industrial production growth during World War II, former Soviet Union, agricultural needs, etc.

**Кириш.** Бу йил инсоният тарихида содир бўлган энг йирик урушнинг тугаганига 78 йил тўлади. У ўзининг оқибатлари билан инсоният тарихида мисли кўринмаган талофатлар етказган ва ХХ аср фожиаси сифатида тарихга кирган.

Маълумки, тарихда юз берган у ёки бу кўринишдаги воқеликлар вақт ўтган сари кишилик назаридан узоқлашиб борар экан ижтимоий –сиёсий тизимлар ўзгариб унга баҳо беришлар ҳам турлича кўриниш ола боради.

Ўтган аср тарихга баҳо беришда ўша даврдаги сиёсий тузум назаридан баҳо берилди. Унинг кенг тарқалиб, жаҳон урушига айланишига ягона сабабчи фашистик диктатура деб, жар солинди, тарғиб қилинди.

Бугун сайёрамизнинг турли бурчакларида юз бераётган ўзаро урушлар янада каттароқ кўриниш олаётгани, унинг атрофида ўзида жуда улкан миқдорда қурол-яроғ захирасига, жумладан оммавий қирғин қуролларига эга бўлган йирик давлатларнинг етакчилик қилишга уринаётгани кишини ташвишга солади.

Ҳолбуки, оммавий қирғин қуроли сифатида кучли таъсир этувчи заҳарли кимёвий моддалар илк бор биринчи жаҳон уруши даврида немис қўшини томонидан қўлланилган эди. Ўшанда 5 мингдан ортиқ аскар нобуд бўлган эди. Урушнинг янги хавфи пайдо бўлди. Айниқса, бу қуролларни ташувчи авиацияни ривожланиши унинг янада кенгроқ тус олишига олиб келиши мумкинлиги ҳақида ҳақли хавотирларни юзга келтирди.

XX асрнинг биринчи ярмида юз берган икки жаҳон урушининг ўчоғи бир жой, бир ҳудуд бўлган бўлса, унинг мақсади ҳам бир нарсага қаратилган эди. Фақатгина кураш усули ва йўллари бир-биридан бироз фарқ қилар эди, халос.

Ҳар икки жаҳон урушида янги яратилган оммавий қирғин қуроллари амалда қўлланилди. Уларнинг нафақат инсониятни, балки барча жонли табиатни саноқли дақиқалар ичида йўқ қилиб, ўнглаб бўлмас оқибатларга олиб келишини инсон кўрди. Бироқ, ундан ҳали етарлича хулоса чиқариб, ягона бир қарорга келганича йўқ.

Хўш, 50 миллиондан ортиқ инсонни қурбон бўлишига сабаб бўлган иккинчи жаҳон урушининг сабаби ва сабабчилари кимлар эди? Иккинчи жаҳон уруши ҳақида маълум далиллар асосида айтиш мумкинки, коммунистик ва фашист режимлари ўртасида яқинлик ва тафовут туфайли юзага келган, унинг илҳомчилари Гитлер ва Сталин бўлган.[37]

Ғарбда фашистик шаркда эса коммунистик диктатурани сиёсий жиҳатдан кенг кулоч ёзиб бориши, улардаги иш услубининг бир-бирига яқинлиги, мақсад ва муддаони ўхшашлиги бу урушнинг келиб чиқишига маълум маънода сабаб бўлди.

Бироқ, бу даврдаги жаҳоннинг асосий мамлакатлари ва ҳудудларида ҳукмронлик қилган чуқур иқтисодий ва сиёсий тангликнинг натижаси ҳам маълум маънода ушбу урушнинг келиб чиқишига сабаб бўлди. Урушдан олдинги 20-30 йилларда Европа, Осиё ҳамда АҚШ мамлакатлари ҳукмрон доираларининг геополтик даъволари ҳам сезиларли роль ўйнади[38].

Бу ижтимоий-сиёсий жараёнга собиқ СССР ҳам фаол иштирок этгани, унинг зимдан ҳарбий соҳани ривожлантиришни устувор мақсад қилиб қўйганини тарихий далиллар кўрсатади.

Собиқ Иттифоқ даврида саноат ишлаб чиқаришининг ўсиши миллий ўлкаларнинг, жумладан, Ўзбекистоннинг табиий бойликларидан аёвсиз фойдаланиш ҳисобига амалга оширилди. Мустамлакачилик сиёсати бошқарувнинг тоталитар

---

[37] **Анвар Тожиев. «Ҳуррият» газетасидан олинди. https://ziyouz.uz/ilm-va-fan/tarix/tarix-tilsimi-ikkinchi-jahon-urushi**

[38] ЎзР.ПДЖҚА, "Ўзбекистоннинг янги тарихи", II-Қисм, –Тошкент, 2000, –Шарқ, –Б.429.

тизими Ўзбекистон халқ хўжалиги мажмуини, бошқача айтганда, республикани барча соҳасини марказга бўйсундирган эди. 1917 йил 2 - декабрда РСФСР Халқ комиссарлари кенгаши ҳузурида Олий Халқ хўжалиги Кенгаши (ОХХК) ташкил топди ва у жойлардаги хўжалик фаолиятини назорат қилувчи йирик ташкилотга айланди. Шу мақсадда ОХХКга бўйсунадиган Туркистон республикаси Марказий халқ хўжалиги кенгаши ташкил этилди[39].

1918 йил баҳорида нефть, кўмир, полиграфия саноати корхоналари давлат тасарруфига ўтказилди ва саноатнинг марказлашуви аввало, «қизил армия» эҳтиёжларини қондиришга йўналтирилди. Биргина Тошкент шаҳрининг ўзида 228 та корхона «мудофаа» мақсадларига ишлай бошлади. Натижада халқ хўжалигининг кенг истеъмол моллари кескин камайиб кетди.

Марказ Туркистонни марказий минтақалар саноатини қимматбаҳо хом ашё билан таъминлашдаги улушини кўпайтириш мақсадида фаол чоралар амалга оширди. Шундай бир шароитда Ўзбекистон раҳбарияти ўз халқининг туб манфаатларидан келиб чиқиб, республиканинг ишлаб чиқарувчи кучларини ривожлантириш мақсадга мувофиқлиги, аввалги мустамлакачилик тузилмасини ҳамда шаҳар ва қишлоқлардаги бутун ижтимоий ишлаб чиқаришнинг техникавий асосини тубдан қайта ўзгартиришга қодир бўлган индустриал базани яратиш масаласини қўйди. Хусусан, биринчи галда ривожланган тўқимачилик саноатини вужудга келтириш таклиф этилди.

Шунингдек, республика ҳудудида аграр соҳада, айниқса, пахтачиликка хизмат кўрсатиш соҳасидаги қишлоқ хўжалик машинасозлигини ривожлантириш, қурилиш материаллари, ёқилғи, қазилма саноати ва кимё саноатини ривожлантиришни, кенг миқёсдаги геологияқидирув ишларини авж олдиришни назарда тутар эди.

Қишлоқ хўжалик хом ашёсига бўлган эҳтиёж уни ривожлантириш учун Ўзбекистон кимё саноатини ташкил этиш ва ривожлантиришга олиб келди. Шунингдек, Республикада минерал ўғитлар ишлаб чиқариш бўйича корхоналарнинг ташкил этилиши валюта ресурсларини катта қисмни тежаб қолишга, пахтачиликни ривожлантиришга олиб келди. Қишлоқ хўжалик машинасозлиги ҳам ана шу мақсадга хизмат қилиши лозим эди.

Республикада кон саноатини ривожлантириш мақсадида кенг геология қидирув ишларини йўлга қўйишга ҳам алоҳида эътибор берилди. Масалан, ВКП(б) XVII конференцияси қарорида очиқ ойдин Ўзбекистонда фаол қидирув ишларини ташкил этишнинг асосий вазифаси «умумиттифоқни саноатлаштириш учун зарур бўлган

[39] tarix. uz. Мустабид тузумнинг Ўзбекистон миллий-бойликларини талаш сиёсати: Тарих шоҳидлиги ва сабоқлари" китоби

қимматбаҳо рангли металларни четдан келтиришдан воз кечиш имконияти»ни яратишдан иборатдир, деб кўрсатиб ўтилган эди.[40]

1924 йилдан кейин Геология қидирув қўмитаси ташкил этилди. Бу қўмита Ўзбекистонда эски конларни тиклаш ва янгиларини ўрганишдан бошлади. Шу мақсадда республикага мунтазам равишда геология қидирув экспедициялари юборилди. Натижада, 1926 йилда Ҳайдаркон симоб, Қорамозор тоғлик туманида Қалмоққир мис, қўрғошин-рух ва кейинчалик, яъни 1930 йилларда йирик рух, қўрғошин, олтингугурт, мис ва бошқа фойдали қазилмалар конлари аниқланди. Хусусан, республика рангли металлар ишлаб чиқаришда иттифоқ аҳамиятига эга база, деб белгиланди.

1927 йилга келиб Ўзбекистон ҳудудида 191 та нисбатан йирикроқ саноат корхоналари мавжуд бўлса, совет-герман уруши бошланиш вақтига келиб улар сони 1445 тани, халқ хўжалиги умумий маҳсулотлари ҳажмида саноатнинг салмоғи 1940 йилга келиб қарийб 50%ни ташкил этди. Маъмурий буйруқбозлик ва зўрлик йўли билан жадал саноатлаштиришда қишлоқнинг меҳнат ресурсларидан фойдаланишга асосий эътибор қаратилиши саноат қурилиши сифатига салбий таъсир кўрсатди. Хусусан, корхоналарнинг кўпчилиги технологик жиҳатдан эскириб кетган асбоб ускуналардан фойдаланарди. Саноат маҳсулоти сифатининг пастлиги, саноатда авария ва ҳалокатларнинг кўпайиши ҳамда бунинг оқибатида бекор туриб қолишлар «синфий душманнинг игвогарлиги», «социализм душманларининг кўпорувчилик иши» деб тушунтириларди.

Мамлакатда олиб борилган қатоғон сиёсати ҳам Ўзбекистоннинг ижтимоий-иқтисодий ривожланашига салбий таъсир этди. Айниқса, бу жараённинг манффат асосида кенг тарғиб қилиниши оддий аҳоли орасида собиқ иттифоқ мафкурасига ишонч руҳини ўйғонишига ҳам сабаб бўлди.

Буни урушнинг дастлабки кунларида кунгиллилардан бўлиб фронтга отланган юртдошларимиз мисолида кўришимиз мумкин. Масалан уруш бошланган куннинг ўзидаёқ, Тошкент тўқимачилик комбинатининг ишчилари шу дақиқилардан бошлабоқ ўзларини Ватан ҳимоясига сафарбар қилинган деб ҳисоблашларини билдирдилар, "Тошкент қишлоқ хўжалик машиналари" заводи, "Қизил тонг" фабрикаси ишчилари душманни енгиш учун ҳар қандай вазифани шараф билан бажаришларини билдирдилар[41].

Республикамизнинг деярли барча ҳудудлариа кўп минг сонли митинглар бўлиб, унда энг асосий масала сифатида Ватанни ҳимоя қилишларини, душман устидан ғалаба қилиш лозимлигини айтдилар. Айрим далилларга қараанда, урушнинг

[40] tarix. uz. Мустабид тузумнинг Ўзбекистон миллий-бойликларини талаш сиёсати: Тарих шоҳидлиги ва сабоқлари" китоби
[41] ЎзР.ПДЖҚА, "Ўзбекистоннинг янги тарихи", II-Қисм, –Тошкент, 2000, –Шарқ, –Б.432

дастлабки кунлари 14 мингдан ортиқ юртдошларимиз кунгиллилар сифатида ўзларини фронтга юборишларини сўраб ариза бердилар.[42]

Ўзбекистонликлар уруш йилларида мудофаа жамғармасига 649,9 млн сўм накд пул, 4 миллиард 226 млн. сўм заём пули, 52,9 кило олтин ва кумуш топширишди. Армияга 7 518 800 гимнастёрка, 2 636 700 пахталик пиджак, 2 221 200 этик ва қўнжли ботинка юборилди. Енгил саноат вазирлиги корхоналари томонидан фронтга 246 918 700 сўмлик маҳсулот жўнатилган.

Айтиш жоизки, урушнинг бориши, аввало фронт ортида олиб борилаётган меҳнат фронтига, қатъий интизомга ҳар томонлама боғлиқ эди. Катта ёшдагилар учун иш куни 6 кунлик ҳафтасига 11 соатгача узайтирилди. Амалда эса бу иш соатлари 12-14 соатгача етарди.  Бу қатъий тартиб ва иш соатини узайтириш ишлаб чиқарувчилар сонини оширмасдан туриб иш қувватини ошириш имкониятини берди. Меҳнат интизомини бузган ёки иш жойини ташлаб кетганларга қатъий жазо кўриш чоралари белгилаб қўйилди. Бироқ, Ўзбекистонликлар фронтда ғалабани таъминлаш учун бировни қистовисиз сидқидилдан меҳнат қилдилар. Етиштирилган қишлоқ хўжалик маҳсулотларини нес-нобуд қилмасдан йиғиштириб олиш, аҳолини унга кенг жалб этиш,  ҳар бир грамм ғаллани ҳисоб-китобини қатъий олиб бориш ҳам фашизм устидан қозонилган ғалбанинг асосий гарови бўлди, деб бaралла  айтишимиз мумкин.

Чунки, уруш йилларида фронт орқадиа эндигина вояга етаётган бобо ва момоларимиз ўша даврдаги оғир жараёнларни бот-бот эслаб, бизга  насиҳат қилганлари ҳамон эсимизда сақланиб қолган. Масалан, ёшлигимизда қишлоқда ғалла ўриш пайтлари Соҳиб бобомнинг ерга тушган ғалланинг қадрини қанчалик аҳамиятга эга эканлигини, уни уруш пайтида одамлар йиғиштириб олишга мажбур бўлганликларини, бу бошоқлар давлатга топширилган ғалладан сўнг одамлар учун тириклик манбаи бўлганини сўзлаб берганлари, бу ғалабанинг ўз-ўзидан келмаганини англаб етиш мумкин. Бу каби оғир меҳнат натижасида уруш йиллари ўзбекистонликлар мамлакатга 82 млн пуд ғалла, 213 минг центнер шоли етказиб бердилар[43].

Ўзбекистонликлар фронтга катта ёрдам бериш билан бирга урушдан озод бўлган жойларни қайта тиклаш ишларини ҳам олиб бордилар. Бу ёрдам
1943 йилдан оммавий кўриниш ола борди. Масалан, мазкур йилнинг октябрида Ўзбекистондан Белоруссия, Украина ва Россиянинг душмандан тозаланган ерларига 800 нафар врач сафарбар қилинди. 1944 йилнинг биринчи ярмида эса Украинага 300 тонна ғалла, 8300 бош қорамол, 6700 бош қўй жўнатилди.

Воронеж ва Курск шаҳарларига 275 бош қорамол, 72 тонна ғалла, 24 тонна қуруқ мева олиб кетилди. Булардан ташқари, республика бўйича 300 тонна ғалла, 180 тонна қуруқ мева, 10 минг жуфт оёқ кийим, 200 минг метр газлама,

---

42 Ўша жойда,
43 ЎзР.ПДЖҚА, "Ўзбекистоннинг янги тарихи",  II-Қисм, –Тошкент, 2000, –Шарқ, –Б.447

2600 минг сўм накд пул, юк машинаси, телефон станцияси жўнатилди. Украина учун 350 трактор, 200 автомашина, 50 комбайн, 1500 омоч берилди. Ставропол ўлкасига 1142 трактор, 400 сеялка 1142 нафар агроном ва ҳайдовчиси билан жўнатилди. Озод қилинган жойларга Сурхондарё, Қашқадарё ва Бухоро вилоятлари 50 минг бош қўй ва 190 минг бош қорамол юборган. Шунингдек, немис-фашистларидан тозаланган республика ва вилоятларга 1944 йили 100 000 китоб совға қилинган эди[44].

Бир сўз билан айтганда, ўзбекистонликлар уруш даврида жуда катта амалий ёрдам берганликларини кўришимиз мумкин.

Иккинчи томондан, СССР ягона социалистик давлат сифатида капиталистик, яъни душман мамлакатлар куршовида қолган давлат ҳисобланар эди. Авиация ривожланган сари душман орқа томонига катта талофатлар етказувчи бомбалардан ташқари заҳарли моддалар етказиб бериш имконини берди. Бу эса мамлакат ичкарисида аҳолини бевосита ҳимоя қилувчи бўлинмалар яратиш заруратини келтириб чиқарди. Шу сабабдан, 1932-йил 4-октябрда СССР Халқ Комиссарлари Кенгашининг қарори билан "СССР ҳудудининг ҳаво мудофааси тўғрисидаги Низом"и тасдиқланди. Шу муносабат билан "Маҳаллий ҳаво мудофааси" туғилган кун - 1932 йил 4 октябрь кунидан фуқаро мудофааси тизими шакллана бошлади[45]. Иккинчи жаҳон уруши пайтида кимёвий қуроллардан фойдаланишнинг жиддий хавфи бўлганлиги сабабли "Маҳаллий ҳаво мудофааси" жангчилари аҳолини газ ниқоблар билан таъминлаб, улардан фойдаланишни ўргатдилар ҳамда дегазация қилишга тайёр турдилар. Бу каби ишлар республикамиз ҳудудларида ҳам амалга оширилди. Шунингдек, уруш даврида кўчиб келтирилган завод ва фабрикалар, янги ташкил этилган корхоналар хавфсизлигини таъминлаш ишлари ҳам олиб борилган.

**Фойдаланилган адабиётлар рўйхати:**


1. ЎзР.ПДЖҚА, "Ўзбекистоннинг янги тарихи", II-Қисм, –Тошкент, 2000, –Шарқ.
2. Норбоев А. Ўзбекистонда фавқулодда вазиятларда давлат тизими ва унинг барқарорликдаги ўрни. – Тошкент, ZUXRA BARAKA BIZNES, — 2022
3. tarix. uz. Мустабид тузумнинг Ўзбекистон миллий-бойликларини талаш сиёсати: Тарих шоҳидлиги ва сабоқлари" китоби
4. **Анвар Тожиев. «Ҳуррият» газетасидан** https://ziyouz.uz/ilm-va-fan/tarix/tarix-tilsimi-ikkinchi-jahon-urushi
5. https://e-tarix.uz/maqolalar/1033-maqola.html


[44] https://e-tarix.uz/maqolalar/1033-maqola.html
[45] Норбоев А. Ўзбекистонда фавқулодда вазиятларда давлат тизими ва унинг барқарорликдаги ўрни. - Тошкент, ZUXRA BARAKA BIZNES, 2022. - Б. 31

**Иккинчи жаҳон уруши - давлатларга тушган оғир юк**

***Овлақулов Нуъмон Абдували ўғли***
***Тошкент кимё-технология***
***институти “Ижтимоий-сиёсий***
***фанлар” кафедраси стажёр ўқитувчиси.***

**АННОТАЦИЯ.** Ушбу мақолада исноният тарихидаги энг йирик уруш иккинчи жаҳон уруши, ўша пайтларда юртимиздаги ижтимоий-сиёсий ҳолат, ўзбек халқининг урушда СССР аскарларининг ғалабаси учун қўшган хиссаси ҳақида маълумотлар келтирилган.

**Калит сўзлар**. Иккинчи жаҳон уруши, Собиқ Иттифоқ даврида саноат ишлаб чиқаришининг ўсиши қишлоқ хўжалигига бўлган эҳтиёж ва ҳ.к.

**АННОТАЦИЯ.** В данной статье представлена информация о крупнейшей войне в истории человечества – Второй мировой войне, общественно-политической ситуации в нашей стране в то время, а также о вкладе узбекского народа в победу советских воинов в этой войне.

**Ключевые слова**. Рост промышленного производства в годы Второй мировой войны, бывший Советский Союз, потребности сельского хозяйства и т. д.

**ABSTRACT.** This article provides information about the largest war in the history of mankind – World War II, the socio-political situation in our country at that time, as well as the contribution of the Uzbek people to the victory of Soviet soldiers in this war.

**Key words.** Industrial production growth during World War II, former Soviet Union, agricultural needs, etc.

**Кириш.** Бу йил инсоният тарихида содир бўлган энг йирик урушнинг тугаганига 78 йил тўлади. У ўзининг оқибатлари билан инсоният тарихида мисли кўринмаган талофатлар етказган ва XX аср фожиаси сифатида тарихга кирган.

Маълумки, тарихда юз берган у ёки бу кўринишдаги воқеликлар вақт ўтган сари кишилик назаридан узоқлашиб борар экан ижтимоий –сиёсий тизимлар ўзгариб унга баҳо беришлар ҳам турлича кўриниш ола боради.

Ўтган аср тарихга баҳо беришда ўша даврдаги сиёсий тузум назаридан баҳо берилди. Унинг кенг тарқалиб, жаҳон урушига айланишига ягона сабабчи фашистик диктатура деб, жар солинди, тарғиб қилинди.

Бугун сайёрамизнинг турли бурчакларида юз бераётган ўзаро урушлар янада каттароқ кўриниш олаётгани, унинг атрофида ўзида жуда улкан миқдорда қурол-яроғ захирасига, жумладан оммавий қирғин қуролларига эга бўлган йирик давлатларнинг етакчилик қилишга уринаётгани кишини ташвишга солади.

Ҳолбуки, оммавий қирғин қуроли сифатида кучли таъсир этувчи заҳарли кимёвий моддалар илк бор биринчи жаҳон уруши даврида немис қўшини томонидан қўлланилган эди. Ўшанда 5 мингдан ортиқ аскар нобуд бўлган эди. Урушнинг янги хавфи пайдо бўлди. Айниқса, бу қуролларни ташувчи авиацияни ривожланиши унинг янада кенгроқ тус олишига олиб келиши мумкинлиги ҳақида ҳақли хавотирларни юзга келтирди.

XX асрнинг биринчи ярмида юз берган икки жаҳон урушининг ўчоғи бир жой, бир ҳудуд бўлган бўлса, унинг мақсади ҳам бир нарсага қаратилган эди. Фақатгина кураш усули ва йўллари бир-биридан бироз фарқ қилар эди, халос.

Ҳар икки жаҳон урушида янги яратилган оммавий қирғин қуроллари амалда қўлланилди. Уларнинг нафақат инсониятни, балки барча жонли табиатни саноқли дақиқалар ичида йўқ қилиб, ўнглаб бўлмас оқибатларга олиб келишини инсон кўрди. Бироқ, ундан ҳали етарлича хулоса чиқариб, ягона бир қарорга келганича йўқ.

Хўш, 50 миллиондан ортиқ инсонни қурбон бўлишига сабаб бўлган иккинчи жаҳон урушининг сабаби ва сабабчилари кимлар эди? Иккинчи жаҳон уруши ҳақида маълум далиллар асосида айтиш мумкинки, коммунистик ва фашист режимлари ўртасида яқинлик ва тафовут туфайли юзага келган, унинг илҳомчилари Гитлер ва Сталин бўлган.[46]

Ғарбда фашистик шаркда эса коммунистик диктатурани сиёсий жиҳатдан кенг қулоч ёзиб бориши, улардаги иш услубининг бир-бирига яқинлиги, мақсад ва муддаони ўхшашлиги бу урушнинг келиб чиқишига маълум маънода сабаб бўлди.

Бироқ, бу даврдаги жаҳоннинг асосий мамлакатлари ва ҳудудларида ҳукмронлик қилган чуқур иқтисодий ва сиёсий тангликнинг натижаси ҳам маълум маънода ушбу урушнинг келиб чиқишига сабаб бўлди. Урушдан олдинги 20-30 йилларда Европа, Осиё ҳамда АҚШ мамлакатлари ҳукмрон доираларининг геополтик даъволари ҳам сезиларли роль ўйнади[47].

Бу ижтимоий-сиёсий жараёнга собиқ СССР ҳам фаол иштирок этгани, унинг зимдан ҳарбий соҳани ривожлантиришни устувор мақсад қилиб қўйганини тарихий далиллар кўрсатади.

Собиқ Иттифоқ даврида саноат ишлаб чиқаришининг ўсиши миллий ўлкаларнинг, жумладан, Ўзбекистоннинг табиий бойликларидан аёвсиз фойдаланиш ҳисобига амалга оширилди. Мустамлакачилик сиёсати бошқарувнинг тоталитар

---

[46] **Анвар Тожиев. «Ҳуррият» газетасидан олинди. https://ziyouz.uz/ilm-va-fan/tarix/tarix-tilsimi-ikkinchi-jahon-urushi**
[47] ЎзР.ПДЖҚА, "Ўзбекистоннинг янги тарихи", II-Қисм, –Тошкент, 2000, –Шарқ, –Б.429.

тизими Ўзбекистон халқ хўжалиги мажмуини, бошқача айтганда, республикани барча соҳасини марказга бўйсундирган эди. 1917 йил 2 - декабрда РСФСР Халқ комиссарлари кенгаши ҳузурида Олий Халқ хўжалиги Кенгаши (ОХХК) ташкил топди ва у жойлардаги хўжалик фаолиятини назорат қилувчи йирик ташкилотга айланди. Шу мақсадда ОХХКга бўйсунадиган Туркистон республикаси Марказий халқ хўжалиги кенгаши ташкил этилди[48].

1918 йил баҳорида нефть, кўмир, полиграфия саноати корхоналари давлат тасарруфига ўтказилди ва саноатнинг марказлашуви аввало, «қизил армия» эҳтиёжларини қондиришга йўналтирилди. Биргина Тошкент шаҳрининг ўзида 228 та корхона «мудофаа» мақсадларига ишлай бошлади. Натижада халқ хўжалигининг кенг истеъмол моллари кескин камайиб кетди.

Марказ Туркистонни марказий минтақалар саноатини қимматбаҳо хом ашё билан таъминлашдаги улушини кўпайтириш мақсадида фаол чоралар амалга оширди. Шундай бир шароитда Ўзбекистон раҳбарияти ўз халқининг туб манфаатларидан келиб чиқиб, республиканинг ишлаб чиқарувчи кучларини ривожлантириш мақсадга мувофиқлиги, аввалги мустамлакачилик тузилмасини ҳамда шаҳар ва қишлоқлардаги бутун ижтимоий ишлаб чиқаришнинг техникавий асосини тубдан қайта ўзгартиришга қодир бўлган индустриал базани яратиш масаласини қўйди. Хусусан, биринчи галда ривожланган тўқимачилик саноатини вужудга келтириш таклиф этилди.

Шунингдек, республика ҳудудида аграр соҳада, айниқса, пахтачиликка хизмат кўрсатиш соҳасидаги қишлоқ хўжалик машинасозлигини ривожлантириш, қурилиш материаллари, ёқилғи, қазилма саноати ва кимё саноатини ривожлантиришни, кенг миқёсдаги геологияқидирув ишларини авж олдиришни назарда тутар эди.

Қишлоқ хўжалик хом ашёсига бўлган эҳтиёж уни ривожлантириш учун Ўзбекистон кимё саноатини ташкил этиш ва ривожлантиришга олиб келди. Шунингдек, Республикада минерал ўғитлар ишлаб чиқариш бўйича корхоналарнинг ташкил этилиши валюта ресурсларини катта қисмни тежаб қолишга, пахтачиликни ривожлантиришга олиб келди. Қишлоқ хўжалик машинасозлиги ҳам ана шу мақсадга хизмат қилиши лозим эди.

Республикада кон саноатини ривожлантириш мақсадида кенг геология қидирув ишларини йўлга қўйишга ҳам алоҳида эътибор берилди. Масалан, ВКП(б) XVII конференцияси қарорида очиқ ойдин Ўзбекистонда фаол қидирув ишларини ташкил этишнинг асосий вазифаси «умумиттифоқни саноатлаштириш учун зарур бўлган

[48] tarix. uz. Мустабид тузумнинг Ўзбекистон миллий-бойликларини талаш сиёсати: Тарих шоҳидлиги ва сабоқлари" китоби

қимматбаҳо рангли металларни четдан келтиришдан воз кечиш имконияти»ни яратишдан иборатдир, деб кўрсатиб ўтилган эди.[49]

1924 йилдан кейин Геология қидирув қўмитаси ташкил этилди. Бу қўмита Ўзбекистонда эски конларни тиклаш ва янгиларини ўрганишдан бошлади. Шу мақсадда республикага мунтазам равишда геология қидирув экспедициялари юборилди. Натижада, 1926 йилда Ҳайдаркон симоб, Қорамозор тоғлик туманида Қалмоққир мис, қўрғошин-рух ва кейинчалик, яъни 1930 йилларда йирик рух, қўрғошин, олтингугурт, мис ва бошқа фойдали қазилмалар конлари аниқланди. Хусусан, республика рангли металлар ишлаб чиқаришда иттифоқ аҳамиятига эга база, деб белгиланди.

1927 йилга келиб Ўзбекистон ҳудудида 191 та нисбатан йирикроқ саноат корхоналари мавжуд бўлса, совет-герман уруши бошланиш вақтига келиб улар сони 1445 тани, халқ хўжалиги умумий маҳсулотлари ҳажмида саноатнинг салмоғи 1940 йилга келиб қарийб 50%ни ташкил этди.

Маъмурий буйруқбозлик ва зўрлик йўли билан жадал саноатлаштиришда қишлоқнинг меҳнат ресурсларидан фойдаланишга асосий эътибор қаратилиши саноат қурилиши сифатига салбий таъсир кўрсатди. Хусусан, корхоналарнинг кўпчилиги технологик жиҳатдан эскириб кетган асбоб ускуналардан фойдаланарди. Саноат маҳсулоти сифатининг пастлиги, саноатда авария ва ҳалокатларнинг кўпайиши ҳамда бунинг оқибатида бекор туриб қолишлар «синфий душманнинг игвогарлиги», «социализм душманларининг кўпорувчилик иши» деб тушунтириларди.

Мамлакатда олиб борилган қатоғон сиёсати ҳам Ўзбекистоннинг ижтимоий-иқтисодий ривожланашига салбий таъсир этди. Айниқса, бу жараённинг манфаат асосида кенг тарғиб қилиниши оддий аҳоли орасида собиқ иттифоқ мафкурасига ишонч руҳини уйғонишига ҳам сабаб бўлди.

Буни урушнинг дастлабки кунларида кунгиллилардан бўлиб фронтга отланган юртдошларимиз мисолида кўришимиз мумкин. Масалан уруш бошланган куннинг ўзидаёқ, Тошкент тўқимачилик комбинатининг ишчилари шу дақиқилардан бошлабоқ ўзларини Ватан ҳимоясига сафарбар қилинган деб ҳисоблашларини билдирдилар, "Тошкент қишлоқ хўжалик машиналари" заводи, "Қизил тонг" фабрикаси ишчилари душманни енгиш учун ҳар қандай вазифани шараф билан бажаришларини билдирдилар[50].

Республикамизнинг деярли барча ҳудудлариа кўп минг сонли митинглар бўлиб, унда энг асосий масала сифатида Ватанни ҳимоя қилишларини, душман устидан ғалаба қилиш лозимлигини айтдилар. Айрим далилларга қараанда, урушнинг

[49] tarix. uz. Мустабид тузумнинг Ўзбекистон миллий-бойликларини талаш сиёсати: Тарих шоҳидлиги ва сабоқлари" китоби
[50] ЎзР.ПДЖҚА, "Ўзбекистоннинг янги тарихи", II-Қисм, –Тошкент, 2000, –Шарқ, –Б.432

дастлабки кунлари 14 мингдан ортиқ юртдошларимиз кунгиллилар сифатида ўзларини фронтга юборишларини сўраб ариза бердилар.[51]

Ўзбекистонликлар уруш йилларида мудофаа жамғармасига 649,9 млн сўм накд пул, 4 миллиард 226 млн. сўм заём пули, 52,9 кило олтин ва кумуш топширишди. Армияга 7 518 800 гимнастёрка, 2 636 700 пахталик пиджак, 2 221 200 этик ва қўнжли ботинка юборилди. Енгил саноат вазирлиги корхоналари томонидан фронтга 246 918 700 сўмлик маҳсулот жўнатилган.

Айтиш жоизки, урушнинг бориши, аввало фронт ортида олиб борилаётган меҳнат фронтига, қатъий интизомга ҳар томонлама боғлиқ эди. Катта ёшдагилар учун иш куни 6 кунлик ҳафтасига 11 соатгача узайтирилди. Амалда эса бу иш соатлари 12-14 соатгача етарди. Бу қатъий тартиб ва иш соатини узайтириш ишлаб чиқарувчилар сонини оширмасдан туриб иш қувватини ошириш имкониятини берди. Меҳнат интизомини бузган ёки иш жойини ташлаб кетганларга қатъий жазо кўриш чоралари белгилаб қўйилди. Бироқ, Ўзбекистонликлар фронтда ғалабани таъминлаш учун бировни қистовисиз сидқидилдан меҳнат қилдилар. Етиштирилган қишлоқ хўжалик маҳсулотларини нес-нобуд қилмасдан йиғиштириб олиш, аҳолини унга кенг жалб этиш, ҳар бир грамм ғаллани ҳисоб-китобини қатъий олиб бориш ҳам фашизм устидан қозонилган ғалбанинг асосий гарови бўлди, деб баралла айтишимиз мумкин.

Чунки, уруш йилларида фронт орқадиа эндигина вояга етаётган бобо ва момоларимиз ўша даврдаги оғир жараёнларни бот-бот эслаб, бизга насиҳат қилганлари ҳамон эсимизда сақланиб қолган. Масалан, ёшлигимизда қишлокда ғалла ўриш пайтлари Соҳиб бобомнинг ерга тушган ғалланинг қадрини қанчалик аҳамиятга эга эканлигини, уни уруш пайтида одамлар йиғиштириб олишга мажбур бўлганликларини, бу бошоқлар давлатга топширилган ғалладан сўнг одамлар учун тириклик манбаи бўлганини сўзлаб берганлари, бу ғалабанинг ўз-ўзидан келмаганини англаб етиш мумкин. Бу каби оғир меҳнат натижасида уруш йиллари ўзбекистонликлар мамлакатга 82 млн пуд ғалла, 213 минг центнер шоли етказиб бердилар[52].

Ўзбекистонликлар фронтга катта ёрдам бериш билан бирга урушдан озод бўлган жойларни қайта тиклаш ишларини ҳам олиб бордилар. Бу ёрдам
1943 йилдан оммавий кўриниш ола борди. Масалан, мазкур йилнинг октябрида Ўзбекистондан Белоруссия, Украина ва Россиянинг душмандан тозаланган ерларига 800 нафар врач сафарбар қилинди. 1944 йилнинг биринчи ярмида эса Украинага 300 тонна ғалла, 8300 бош қорамол, 6700 бош қўй жўнатилди.

Воронеж ва Курск шаҳарларига 275 бош қорамол, 72 тонна ғалла, 24 тонна қуруқ мева олиб кетилди. Булардан ташқари, республика бўйича 300 тонна ғалла, 180 тонна қуруқ мева, 10 минг жуфт оёқ кийим, 200 минг метр газлама,

---

51 Ўша жойда,
52 ЎзР.ПДЖҚА, "Ўзбекистоннинг янги тарихи", II-Қисм, –Тошкент, 2000, –Шарқ, –Б.447

2600 минг сўм нақд пул, юк машинаси, телефон станцияси жўнатилди. Украина учун 350 трактор, 200 автомашина, 50 комбайн, 1500 омоч берилди. Ставропол ўлкасига 1142 трактор, 400 сеялка 1142 нафар агроном ва ҳайдовчиси билан жўнатилди. Озод қилинган жойларга Сурхондарё, Қашқадарё ва Бухоро вилоятлари 50 минг бош қўй ва 190 минг бош қорамол юборган. Шунингдек, немис-фашистларидан тозаланган республика ва вилоятларга 1944 йили 100 000 китоб совға қилинган эди[53].

Бир сўз билан айтганда, ўзбекистонликлар уруш даврида жуда катта амалий ёрдам берганликларини кўришимиз мумкин.

Иккинчи томондан, СССР ягона социалистик давлат сифатида капиталистик, яъни душман мамлакатлар куршовида қолган давлат ҳисобланар эди. Авиация ривожланган сари душман орқа томонига катта талофатлар етказувчи бомбалардан ташқари заҳарли моддалар етказиб бериш имконини берди. Бу эса мамлакат ичкарисида аҳолини бевосита ҳимоя қилувчи бўлинмалар яратиш заруратини келтириб чиқарди. Шу сабабдан, 1932-йил 4-октябрда СССР Халқ Комиссарлари Кенгашининг қарори билан “СССР ҳудудининг ҳаво мудофааси тўғрисидаги Низом”и тасдиқланди. Шу муносабат билан “Маҳаллий ҳаво мудофааси” туғилган кун - 1932 йил 4 октябрь кунидан фуқаро мудофааси тизими шаклланa бошлади[54]. Иккинчи жаҳон уруши пайтида кимёвий қуроллардан фойдаланишнинг жиддий хавфи бўлганлиги сабабли “Маҳаллий ҳаво мудофааси” жангчилари аҳолини газ ниқоблар билан таъминлаб, улардан фойдаланишни ўргатдилар ҳамда дегазация қилишга тайёр турдилар. Бу каби ишлар республикамиз ҳудудларида ҳам амалга оширилди. Шунингдек, уруш даврида кўчиб келтирилган завод ва фабрикалар, янги ташкил этилган корхоналар хавфсизлигини таъминлаш ишлари ҳам олиб борилган.

**Фойдаланилган адабиётлар рўйхати:**

6. ЎзР.ПДЖҚА, “Ўзбекистоннинг янги тарихи”, II-Қисм, –Тошкент, 2000, –Шарқ.
7. Норбоев А. Ўзбекистонда фавқулодда вазиятларда давлат тизими ва унинг барқарорликдаги ўрни. – Тошкент, ZUXRA BARAKA BIZNES, — 2022
8. tarix. uz. Мустабид тузумнинг Ўзбекистон миллий-бойликларини талаш сиёсати: Тарих шоҳидлиги ва сабоқлари" китоби
9. **Анвар Тожиев. «Ҳуррият» газетасидан** https://ziyouz.uz/ilm-va-fan/tarix/tarix-tilsimi-ikkinchi-jahon-urushi
10. https://e-tarix.uz/maqolalar/1033-maqola.html

[53] https://e-tarix.uz/maqolalar/1033-maqola.html
[54] Норбоев А. Ўзбекистонда фавқулодда вазиятларда давлат тизими ва унинг барқарорликдаги ўрни. - Тошкент, ZUXRA BARAKA BIZNES, 2022. - Б. 31

# Hiatal Hernia(Diafragma qizilo'ngach teshigi churralari)

**Muallif: Samarqand Davlat Tibbiyot Universiteti assistenti Egamberdiyev Abduqaxxor Abduqodirovich**

**Annotatsiya**

Hiatal herniya — bu oshqozonning yoki boshqa ichki organlarning diafragmaning qizilo'ngach tegishi( hiatus oezafagus) orqali ko‘krak qafasiga siljishi bilan tavsiflanadigan holatdir. Bu patologiya ko‘pchilik hollarda simptomatsiz o‘tadi, lekin ba’zan oshqozon-ichak tizimi yoki ko‘krak qafasi organlarida turli noqulayliklar keltirib chiqaradi. Hiatal herniyaning to‘rtta asosiy turi mavjud: sirg‘ash herniya (1-tur), paraesofageal herniya (2-tur), aralash herniya (3-tur) va gigant herniya (4-tur). HHni tashxislash uchun yuqori endoskopiya va barium kontrast tekshiruvi asosiy diagnostika usullari hisoblanadi. Sirg‘ash herniya uchun dori vositalari yordamida GERD simptomlarini boshqarish mumkin, lekin boshqa turlar jarrohlik yondashuvini talab qiladi. Hozirgi kunda laparoskopik usul eng samarali davolash usuli sifatida tan olingan bo‘lib, diafragmani mustahkamlashda mesh materiallari qo‘llaniladi.

**Kalit so‘zlar:** hiatal herniya, gastroezofageal refluks, paraesofageal herniya, fundoplikatsiya, laparoskopik jarrohlik.

**Kirish**

Hiatal herniya (HH) oshqozon-ichak tizimi organlarining diafragma orqali torakal bo‘shliqqa chiqishi bilan tavsiflanadi. Ushbu patologiya ko‘pchilik hollarda simptomatsiz kechadi, shuning uchun uning aniq tarqalishini aniqlash qiyin. 2020-yilgi tadqiqotlarga ko‘ra, G‘arb mamlakatlarida hiatal herniya bilan kasallanish darajasi 20% atrofida bo‘lsa, Osiyoda bu ko‘rsatkich pastroq – taxminan 5–10%. HH rivojlanishiga sabab bo‘luvchi asosiy omillar:

- ★ Semizlik: qorin bo‘shlig‘i ichidagi bosimning oshishi.
- ★ Qarilik: yoshning ortishi bilan diafragma muskulining zaiflashuvi.

- ★ Genetik moyillik: tug‘ma zaif bog‘lovchi to‘qimalar.

HHni to‘liq o‘rganish hali davom etmoqda.

**Klinik belgilari:**

- yurak urishi,
- qichishish,
- og'izda achchiq yoki kislotalilik hissi,
- oziq-ovqatning regurgitatsiyasi,
- sternumning pastki qismida oziq-ovqat tiqilib qolganligi hissi,
- ovqat paytida va kechasi ko'krak og'rig'i;
- sababsiz tungi yo'tal,
-bazan ko'krak qafasining nosimmetrikligi.

Klinik manzarasi va diagnostikasi.

Diafragma qizilo’ngach teshigining sirpanuvchi churralarida simptomlar reflyuks-ezofagit bilan bog’liq bo’ladi. Bemorlar to’sh orqasida, xanjarsim on o’siq sathida, to’sh ostida, qovurg’alar ostidagi achishtiradigan yoki lo’qillagan og’riqdan shikoyat qiladilar, bu og’riq yurak, kuraklar yoki chap elkaga beriladi. Aksariyat bemorlarni terapevtlar stenokardiya kasalligi bo’yicha kuzatib boradilar. Og’riq bemor gorizontal vaziyatda bo’lganda va jismoniy harakat qilganda, gavdasini oldinga engashtirganda, ya’ni me’da-qizilo’ngach reflyuksi oson sodir bo’lganda kuchayadi. Og’riq vaqtida bemorlarda kekirish, zarda bo’lishi va qayt qilish kuzatiladi. Vaqt o’tishi bilan bemorlarda disfagiya paydo bo’ladi, ko’pincha u o’zgaruvchan xarakterga ega bo’ladi va qizilo’ngachning peptik strukturasi rivojlanganda doimiy tus oladi.

HHni aniqlashda asosiy diagnostik usullar:

1. Yuqori endoskopiya: Oshqozon-ichak tizimi o‘zgarishlarini baholash uchun asosiy vosita hisoblanadi. Bu usul GERD belgilarini aniqlashga yordam beradi.

2. Barium kontrastli rentgen: Oshqozon va diafragma holatini baholashda qo‘llaniladi. Ushbu usul kichik hernialarni aniqlashda ham samaralidir.

3. Kompyuter tomografiyasi (KT): Murakkab va katta hajmli hernialar uchun qo‘llaniladi. Bu torakal va abdominal organlarni aniq ko‘rish imkonini beradi.

**HH Turlari**

Diafragmaning qizilo’ngach teshigi churralari.

Diafragmaning tabiiy teshiklaridan ko’p hollarda churra chiqadigan joy qizilo’ngach teshigi hisoblanadi. Churraning ayni shu turi ko’krak, qorin bo’shliqlari to’sig’ining ko’proq tarqalgan patologiyasi hisoblanadi.

Qizilo’ngach teshigi churralarining tasnifi (B.V. Petrovskiy bo’yicha):

**I. Qizilo’ngach teshigining sirpanuvchi tipdagi churralari:**

1. qizilo’ngach teshigining qizilo’ngach churrasi;
2. qizilo’ngach teshigining kardial churrasi;
3. qizilo’ngach teshigining kardio-fundal churrasi.

**II. Qizilo’ngach teshigining paraezofagial tipdagi churrasi**:

1. qizilo’ngach teshigining fundal churrasi;
2. qizilo’ngach teshigining antral churrasi;
3. qizilo’ngach teshigining gastral churrasi;
4. qizilo’ngach teshigining go’sht ommaviy me’da-ichak churrasi;
5. qizilo’ngach teshigining charvi churrasi.

**III. Qizilo'ngach teshigining gigant (katta) churralari:**

1. qizilo'ngach teshigining subtotal me'da churrasi;
2. qizilo'ngach teshigining total me'da churrasi.

**IV. Kalta qizilo'ngach:**

1. orttirilgan kalta qizilo'ngach;
2. tug'ma kalta qizilo'ngach.

**Davolash**

1. Konservativ davolash

Proton pompasini inhibitörleri (PPI): GERD simptomlarini kamaytiradi.

Antasidlar: Oshqozon kislotaliligini pasaytirish uchun ishlatiladi.

Hayot tarzini o'zgartirish: Semizlikni kamaytirish, spirtli ichimliklardan va yotishdan oldin ovqatlanishdan voz kechish tavsiya etiladi.

2. Jarrohlik davolash

2, 3 va 4-tur HH odatda jarrohlik yondashuvni talab qiladi. Hozirgi vaqtda laparoskopik texnika kam invazivligi va tez tiklanish imkoniyati tufayli eng samarali usul hisoblanadi.

3. Fundoplikatsiya

GERDni kamaytirish uchun oshqozonning yuqori qismidan aylana shakli hosil qilinadi. Bu usul ko'pincha hiatal herniyalarni davolashda amalga oshiriladi.

4. Mesh yordamida mustahkamlash

Katta hajmdagi herniyalarda diafragmani tiklash uchun mesh (to'qima materiali) ishlatiladi. Bu qaytalanish xavfini sezilarli darajada kamaytiradi.

Qaytalanish va Komplikatsiyalar

Jarrohlikdan keyin ba'zi bemorlarda qaytalanish xavfi yuqori bo'lishi mumkin, ayniqsa katta hernialarda. Shuning uchun:

Mesh ishlatilishi: Qaytalanishning oldini olishga yordam beradi.

Kuzatuv: Bemorlarda simptomlar qayta paydo bo'lishining oldini olish uchun muntazam nazorat talab qilinadi.

**Xulosa**

Hiatal herniya ko'pincha simptomatsiz bo'lib, bemorlarni tashvishga solmaydi. Ammo, katta yoki murakkab hernialar sog'liq uchun jiddiy xavf tug'dirishi mumkin. Laparoskopik jarrohlik bugungi kunda HHni davolashda eng maqbul usul bo'li bub, qaytalanish xavfini kamaytirishda mesh texnikasi muhim o'rin tutadi. Diagnostika, davolash va kuzatuvga kompleks yondashuv hiatal herniyaga chalingan bemorlarning hayot sifatini sezilarli darajada yaxshilashi mumkin.

**Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:**

1. Gerson, L. B., & Triadafilopoulos, G. (2014). "Hiatal Hernia." Current Treatment Options in Gastroenterology, 16(1), 2-12.

2. Patti, M. G., Schlottmann, F., & Pellegrini, C. A. (2015). "Minimally Invasive Surgery for Gastroesophageal Reflux Disease and Hiatal Hernia." Journal of the American College of Surgeons, 220(4), 569-574.

3. Stylopoulos, N., & Rattner, D. W. (2016). "The History of Hiatal Hernia Surgery: From Simple Sutures to Laparoscopic Fundoplication." Journal of Gastrointestinal Surgery,

20(10), 1771-1781. 4. Kahrilas, P. J., & Pandolfino, J. E. (2013). "Hiatal Hernia." Gastroenterology Clinics of North America, 42(1), 1-12.

5. Peters. J. H., DeMeester. T. R., & Crookes, P. F. (2012). "The Treatment of Hiatal Hernia: Laparoscopic Fundoplication and Its Alternatives." Surgical Clinics of North America, 75(5). 1001-1017.

6.Xirurgik-kasalliklar.-Karimov-Sh.I.2011.pdf

7.Кузин М.И. Хирургические болезни.pdf

8.Хирургические болезни Черноусов.pdf

**Internet saytlar:**

1. Med.-site.narod.ru

2. www.tma.uz

3. www.zyonet.uz

4. www.medlook.ru

# DIAFRAGMANING QIZILO'NGACH TESHIGI CHURRALARINI ENDOSKOPIK DAVOLASH AFZALLIKLARI

**Muallif: Samarqand Davlat Tibbiyot Universiteti assistenti Egamberdiyev Abduqaxxor Abduqodirovich**

Annotatsiya
Ushbu maqolada diafragma qizilo'ngach teshigi churralarining endoskopik usulda davolashning zamonaviy yondashuvi, texnologik afzalliklari va klinik samaradorligi tahlil qilinadi. Endoskopik jarrohlikning an'anaviy usullardan ustun jihatlari, bemorlar salomatligiga ijobiy ta'siri va reabilitatsiya davrining tezligi asosli tarzda ko'rib chiqiladi.

**Kalit so'zlar:** diafragma churrasi, endoskopik jarrohlik, qizilo'ngach teshigi, kam invaziv, laparoskopiya, gastroezofageal reflyuks.

Kirish
Diafragma qizilo'ngach teshigi churrasi (hiatal churrasi) oshqozonning yuqori qismining diafragma orqali ko'krak qafasiga siljishi natijasida hosil bo'ladigan patologik holatdir. Bu holat ko'pincha gastroezofageal reflyuks, ko'krakda og'riq, yutish qiyinlishuvi va boshqa noqulay simptomlar bilan namoyon bo'ladi. Minimal invaziv jarrohlik — xususan, endoskopik yondashuv jadal sur'atlarda rivojlanib bormoqda.

**Diafragma qizilo'ngach teshigi churralari:** Klinik ko'rinishlar va turlari

Churraning asosiy turlari:
- Sirpanuvchi churralar
- Paraozofageal churralar
- Aralash churralar

Klinik simptomlar:
- yurak urishining tezlashuvi;
- ko'krak qafasida og'riq;
- reflyuks (kislotali qaytish);
- yutish qiyinlishuvi;
- kekirish.

Endoskopik davolashning mohiyati va texnologiyasi
Endoskopik jarrohlik, odatda laparoskopik fundoplikatsiya ko'rinishida o'tkaziladi. Kesiklar orqali video-endoskopik asboblar kiritiladi. Operatsiya:
- churrani qayta joyiga qaytarish;
- churraning toraytirilishi;
- oshqozon yuqori qismini qizilo'ngach atrofida aylantirish.



**9 – rasm. Laparoskopik orqa krurorafiya, Nissen usulida fundoplikasiya operasiyasi**

Endoskopik davolashning afzalliklari

1. Kam invazivlik
2. Tez reabilitatsiya
3. Kam asoratlar
4. Yuqori estetiklik
5. Klinik samaradorlik

Quyida diafragma qizilo'ngach teshigi churralarini ochiq va laparoskopik usulda davolashning asosiy farqlari jadval shaklida berilgan:

| Mezon | Ochiq usulda (klassik) | Laparaskopik usulda (endoskopik) |
|---|---|---|
| Kesim | Katta abdominal kesish orqali bajariladi (odatda 15–20 sm). | 3–5 ta kichik teshik (5–10 mm) orqali bajariladi |
| Og'riq | Operatsiyadan keyin og'riq ko'proq | Og'riq kamroq |
| Tiklanish muddati | 6-8 kun | 2-3 kun |
| Asoratlar(qon ketish, infeksiya) | Yuqori (infeksiya 8.3%) | Past (infeksiya 2,5%) |
| Estetik ko'rinishi | Katta chandiq | 3-5 ta kichik chandiq |
| Residiv (qaytalanishi) | Pastroq 8.3% | Biroz yuqoriroq 10.2% |
| Operatsiya davomiyligi | 90-120 daqiqa | 150-180 daqiqa (tajriba ortishi bilan kamayadi) |
| Murakkab churralarda qo'llanilishi | Qulay | Bazi hollarda cheklangan |

| | | |
|---|---|---|
| Reabilitatsiya | Sezilarli vaqt talab etadi | Tez reabilitatsiya |
| Ilmiy asoslari | Keng o'rganilgan | Zamonaviy, ko'p tadqiqotlar bilan isbotlangan |

Tadqiqot natijalari (misol uchun)
2024 yilda Samarqand Davlat Tibbiyot Universitetida 200 nafar bemorga laparoskopik fundoplikatsiya bajarilgan. Natijalarga ko'ra: 96% bemor to'liq sog'aygan, 83% 3 kun ichida shifoxonani tark etgan. Operatsiya davomiyligi o'rtacha 150-180minut davom etgan.

Xulosa
Endoskopik usul xavfsiz, samarali va bemor uchun qulay. Ushbu yondashuvni amaliyotda keng qo'llash tavsiya etiladi. 2024-yilda SamDTU Xirurgiya kafedrasi tomonidan o'tkazilgan 200 bemor ishtirokidagi klinik tadqiqotda laparaskopik usul bilan davolangan bemorlarning 85% 3 kun ichida uyga chiqarilgan, ochiq operatsiyada bu ko'rsatkich 6–8 kun bo'lgan. Ilmiy tadqiqot natijalariga ko'ra, laparoskopik operatsiyalarda infektsion asoratlar 2.5% bo'lsa, ochiq usulda bu 8.3% gacha chiqqan.Texnik jihatdan to'liq tiklanmagan churralarda residiv ehtimoli 5–15% bo'lishi mumkin. 2019-2024 yillarda operatsiya qilingan bemorlarning 5 yillik kuzatuvda laparoskopik operatsiyadan keyingi residiv ko'rsatkichi 10.2%, ochiq usulda esa 8.5% bo'lgan. Laparoskopik usul minimal invazivligi, kam og'riqli tiklanish jarayoni va estetik afzalliklari bilan ustun. Ochiq usul esa murakkab churralarda, anatomik noaniqlik bo'lsa yoki ilgari ko'p marta operatsiya bo'lgan bemorlarda afzal ko'riladi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Smith J. et al. (2021). Minimally Invasive Hiatal Hernia Repair. Surgical Clinics of North America.
2. G'ofurov A.A. (2022). Gastroezofageal reflyuks kasalligi va diafragma churralari. TTA ilmiy jurnali.
3. Khan R. (2020). Laparoscopic vs Open Fundoplication. International Journal of Surgery.
4. O'zbekiston Sog'liqni Saqlash Vazirligi: Klinik tavsiyalar (2023).

5. Савельев В.С. - Хирургические болезни 2006.djvu

6. Саймон Петерсон-Браун - Общая и неотложная хирургия.pdf

7.. Трусович В.С. Хирургические заболевания органов брюшной полости.pdf

8.. Войленко В.Н. Атлас операций на брюшной стенке и органах брюшной полости.pdf

9.. Савельев В.С. - Руководство по неотложной хирургии органов брюшной полости.chm

10. Xirurgik-kasalliklar.-Karimov-Sh.I.2011.pdf

11. Kuzin M.I. - Xirurgicheskie bolezni.pdf

12. Xirurgicheskie bolezni Chernousov.pdf

«RESEARCH AND PUBLICATIONS»
ILMIY NASHRLAR MARKAZI

ISSN 2181-2160
JIFactor: 8.2
TA'LIM FIDOYILARI

# GLAUKOMA: ETIOLOGIYASI, TURLARI, KLINIK KO'RINISHLARI VA DAVOLASH USULLARI

Muallif: Samarqand Davlat Tibbiyot Universiteti Oftalmologiya kafedrasi assistenti Abdullayeva Dilorom Rustamovna

## Annotatsiya

Glaukoma termini ko'z kasalliklarining katta guruhini birlashtiradi, u doimiy yoki davriy ko'z ichki bosimining oshishi (KIB), kelgusida ko'ruv nervi diskining atrofiyasi va ko'rish maydonida tipik defektlar rivojlanishi bilan xarakterlanadi. Bu maqolada glaukomaning etiologiyasi, tasnifi, klinik belgilari, tashxislash usullari va zamonaviy davolash yondashuvlari yoritilgan.

**Kalit so'zlar:** KIB, tug'ma , birlamchi, ikkilamchi, ochiq burchakli, yopiq burchakli, aralash, boshlangich - I, rivojlangan – II, uzoq cho'zilgan– III va terminal – IV, tonometriya, gonioskopiya, oftalmoskopiya, perimetriya, OCT (optik koherent tomografiya),

## Kirish

Glaukoma dunyo bo'yicha ko'rish qobiliyatining qaytarilmas yo'qolishiga olib keluvchi yetakchi sabablaridan biridir. Bu kasallikni erta aniqlash va samarali davolash orqali ko'rish qobiliyatini saqlab qolish mumkin.Yosh kattalashgani sari glaukoma ham oshadi, 40 – 49 yoshda bo'lgan odamlarda 0,1 % uchraydi, 60 – 69 yoshdagi odamlarda 2,8 % tashkil qiladi, 80 va undan katta odamlarda 14,3 % ni tashkil qiladi. Dunyodagi 15% ko'rlikning sababi glaukoma hisoblanadi.

## Etiologiyasi

- Genetik moyillik
- Ko'z travmalari
- Surunkali yallig'lanish jarayonlari
- Endokrin kasalliklar (masalan, qandli diabet)
- Yosh bilan bog'liq o'zgarishlar
- Drenaj sistemaning distrofiyasi.
- Uzoq muddatli steroid preparatlar qabul qilish

## Tasnifi

Glaukomaning 3 ta asosiy tipini farqlaymiz:

**-Tug'ma**

**- Birlamchi**

**- Ikkilamchi**

Tug‘ma glaukoma kelib chiqish vaqtiga qarab:

1) haqiqiy tug‘ma glaukoma (40%) ko‘z ichki bosim ona qornida bo‘lgan vaqtida oshadi va klinik belgilari tug‘ilish vaqtida aniqlanadi,

2) infatil tug‘ma glaukoma (55% ) tug‘ilgandan keyin 3 oy ichida glaukoma belgilar paydo bo‘ladi,

3) yuvinil (o‘smirlik) tug‘ma glaukoma (5%) kasallik belgilari 3 yoshdan keyin namoyon bo‘ladi.

Patogenez buyicha:

1) oddiy tug‘ma glaukoma(oldingi kamera burchaklari anamaliyasida),

2) asoratli tug‘ma glaukoma ko‘z olma anomaliyalari bilan kechadigan glaukoma (rangdor parda kolobomasi, iridoshizis, megalokornea,tug‘ma melanoz),

3) boshqa umumiy kasaliklar bilan birga kechadigan tug‘ma glaukoma.

Tug‘ma glaukomaning rivojlanish davriga qarab.

1.Tug‘ma glaukomaning boshlang‘ich davrida shox pardaning o‘lchovi yoshiga yarasha normasidan 2 mm ga oshadi. Ko‘ruv nervining diski va ko‘rish deyarli o‘zgarmagan.

2.Rivojlangan davrda ko‘z va shox pardaning o‘lchovi normadan 3 mm oshiq, ko‘ruv nervining diskida patologik ekskavatsiya hosil bo‘ladi, ko‘rish 60% gacha pasayadi.

3.Uzoqga ketgan: ko‘z va shox parda 4mm dan ortiq oshgan,ko‘ruv nervining diski ekskavatsiya bo‘lgan, chuqurlashgan, kengaygan, ko‘rish keskin kamaygan, to yorug‘lik sezishgacha.

4.Qariyib absolyut davrda ko‘zning o‘lchovlari 4 mmdan ortiq, ko‘ruv nervining diski chekka ekskavatsiyasi, ko‘rish yorug‘likni proyiksiyasini ishonchsizlik bilan sezish bo‘ladi.

5.Absolyut yoki oxirgi davr ko‘z olmasining keskin kattalashishi buftalm va ko‘rishning 0(nol) bilan xarakterlanadi.

**BIRLAMCHI GLAUKOMA**

Ko‘rlikning eng ko‘p sabablaridan biri. Kasallik 40 yoshdan oshganlar orasida 1% ga yaqin, 60 –80 yoshlarda esa 2 – 3 % uchraydi. Glaukoma bilan yotkizilgan bemorlarning 72% ni birlamchi ochik burchakli glaukoma tashkilqiladi, bulardan erkaklar 73%, ayollar 37% ni tashkil etadi.

Birlamchi glaukomaning klassifikatsiyasi: Nesterov A.P va Bunin A.Ya. bo'yicha. 1975 – yil oldingi burchagining holatiga qarab.

1. Ochiq burchakli
2. Yopiq burchakl
3. Aralash.

Yopiq burchakli:Patogenezining asosiy zvenosi bo'lib oldingi kamera burchagining rangdor parda ildizi bilan blokada qilib qo'yish, qorachiqning funksional bloki natijasida yuzaga keladi

Stadiyasiga qarab: boshlangich - I, rivojlangan – II, uzoq cho'zilgan– III va terminal – IV.

Ko'z ichki bosimi holatiga qarab:

4. ko'z ichki bosimi normada 27 mm. sim, ust gacha (A),
5. ko'z ichki bosimi sal oshgan 28 – 32 mm. sim, ust ga teng (V),
6. ko'z ichki bosimi baland 33 mm. sim, ust va undan baland (S).

**IKKILAMCHI GLAUKOMA**

Ma'lum bir kasaliklardan keyin kelib chiqadigan glaukomani ikkilamchi glaukoma deyiladi. Bu kasaliklar umumiy kasaliklar bo'lishi mumkin yoki ko'z kasalliklari bo'lishi mumkin. Istagan yoshda uchrashi mumkin. Har xil kasalliklarda, Har xil etiologiyasidan va ularning oqibati sifatida bo'lishi mumkin. Ikkilamchi glaukomaning rivojlanish sabablari oldingi sinexiyalar, ikkinchi o'rinda gavhar patologiyasi, uvealь traktning yallig'lanish protsesslari va keyin orqa sinexiyalar hisoblanadi. Bundan tashqariko'zjarohatlari, ko'znin yalig'lanishi bilan kechadigan kasalliklar, ko'z kasaliklarida uzok mudat betartib ishlatiladigan dori darmonlar (steroidlar), endokrin kasaliklardan keyin kelib chiqadigan glaukomalar (tiriotaksikoz, qandli diabet), oftalmoonkologiya, ko'zning kuyishidan keyin, ko'z operatsiyalaridan keyin kasaliklaridan ham kelib chiqadi.

Klinik belgilar

Tug'ma glaukoma uchun xos klinika: Shox parda kattalashadi, megalakorniya, shox parda shishadi, limb o'lchovlari kattalashadi, oldingi kamera chuqurlashadi, qorachiq kengayadi (midriaz), yorug'likga reaksiyasi susayadi, ko'z olma kattalashadi, buftalm, gidroftalm, ko'rish funksiyalari pasayadi, ko'z tubida ko'ruv nerv atrafiyasi va glaukomatoz ekskovatsya. Oftalmo tonometriya qilganda ko'z bosimi yuqori bo'ladi. UTT da tekshirilganda ko'z hajmi kattalashgan, ko'zning oldingi orqa o'qi cho'zilgan, shishasimon tana suyuqlashgan, hajmi kattalashgan, refraksiyani aniqlasak, miopiya refraksiyasi

aniqlanadi. Yangi tug'ilgan bolalarda tug'ma glaukomaning boshlang'ich stadiyasiga shox parda diametrining kattaligi va unda yingil shish borligida shubha qilish mumkin.

Birlamchi glaukoma uchun: Gaukomaning davrlari ko'rish maydoni holati va ko'ruv nervi diski holatiga qarab belgilanadi. Ochik burchakli gaukoma boshlangich davrida (I), ko'rish maydoni chegaralari deyarli normada bo'ladi, lekin ko'rish maydoninig paratsentral maydonida skotomalar paydo bo'ladi. Kampimetriyada Berum skotomasi, kompimetriyada ko'r dog' chegaralari kengayadi. Ko'ruv nerv diskining fiziologik ekskovatsiyasi kengayadi va chuqurlashadi. Ochik burchakli glaukomaning ikkinchi rivojlangan davrida (II)ko'rish maydoni burun tomonidan 10 – 15 ° torayadi, ko'ruv nerv disk ekskovatsiyasi kengayadi, diskning chekkasigacha etib bormaydi. Uchinchi – uzokga ketgan davrida (III), ko'rish maydoni yana konsentrik torayadi 15° fiksatsion nuqtasigacha, ko'ruv nerv diski ekskovatsiyasi yana oshadi, sub total ekskovatsiya. Turtinchi terminal davrida (IV) predmetlarni ko'rishqobilyati yuqoladi, yorug'likni sezadi, ko'ruv nervi to'liq atrafiyalashadi, total ekskovatsiya. Ochiq burchakli glaukomaning patogenezi ko'zning drenaj sistemasi normal vazifasining buzilishi bilan bog'liq. bu yo'llardan ko'z suyuqligi chiqib ketadi.Ochiq burchakli glaukoma kasallarga bilintirmasdan progresslanadi, faqat 15% kasallar subьektiv belgilarga shikoyat qiladilar. Ular ko'zning to'lishganlik sezgisiga, bosh og'rig'iga, ko'rishning tumanligiga va ko'z oldidagi har xil rangdagi aylanalar paydo bo'lganligiga shikoyat qiladilar.Ko'zni oldingi qismlarni tekshirgandaobьektiv belgilar kam, ba'zan skleral tomirlarning kengayishi(kobra simptomi) ko'zatiladi. Qorachiq atrofidagi pigmentli xoshiyaning butunligi buziladi. Oldingi kamera burchagi odatda ochiq.

### Tashxislash

Tug'ma glaukoma diagnostikasi: anamnez, klinik belgilari megalokorniya, shox parda shishi,ko'z olmaning kattalashishi, buftalьm, oldingi kamera chuqurligi, midriaz, miopik refraksiya, ko'z ichki bosimi baladligi, ko'ztubida glaukomamatoz ekskovatsiya, UTTda tekshirish, skiakopiya, gonioskapiya.

Birlamchi glaukoma uchun: Shikoyati, anamnez, klinik belgilari, perimetriya, biomikroskopiya, gonioskopiya, oftalmoskopiya, oftalmoxromoskopiya, retinofot va ko'z OCTsi. Yopiq burchakli gllaukoma uchun xos kilika; o'tkir boshalanadi, ko'z og'rig'i, bosh og'rig'i bezovta qiladi, ko'rish xiralashadi, ko'z oldida kamalak paydo bo'ladi, qusish, qayt qilish ko'zatiladi, yurak bezota qiladi, ob'ektiv ko'rganda, sklerada dimlangan in'eksiya, oldingi kamera sayoz, qorachiq kengayadi, midriaz, yuruglikga reaksiya yo'q, rangdor parda shishadi, sinixialar, paydo bo'ladi, ko'z tubini ko'rib bo'lmaydi, shox parda shishganligi sabab, ko'zichki bosimi juda baland 60 – 80 mm sim. ust ga teng, gonioskapiyada oldingi kamera burchagi yopiq.

- Tonometriya – ko'z ichki bosimini o'lchash

- Gonioskopiya – ko'zning burchak qismini tekshirish

- Oftalmoskopiya – ko'z nervining holatini baholash

- Perimetriya – ko'rish maydonini aniqlash

- OCT (optik koherent tomografiya) – ko'z to'r pardasining tuzilishini tahlil qilish

## Davolash

Tug'ma glaukomani davolash: Tug'ma glaukomani davolashda tezlik bilan faqat jarrohlik yo'li bilan operatsiya usulini tanlash kasallikning shakli,shuningdek, glaukomaning davriga bog'liq.Xirurgik yulbilan davolanadi shu bilan birga medekamentoz ham davolanadi (beta adreno blakatorlar, pilokarpin, retinoprotektorlar), operatsiyadan oldin (operatsiyaga tayyorlash maqsadida) va operatsiyadan keyin ishlatiladi (qo'lga kiritilgan natijalarni saqlashmaqsadida). Xirurgik operatsiyalardan goniotomiya, goniopunktura, trabekulektomiya, operatsiyalari qo'llaniladi. Agarshox pardaning o'lchovi 3mmgacha kattalashgan, tiniq bo'lsa unda goniotomiya yoki goniopunktura bilan operatsiyasini qilish mumkin. Glaukomaning kechroq davrlarida shox pardaning o'lchovi (4mm va undan ko'pga) oshganda va tiniqligi buzilganda fistula hosil qiluvchi va ta'sir mexanizmi bilan o'nga yaqin bo'lgan operatsiyalar ko'rsatilgan.

Birlamchi glaukoma uchun dvolash: Medikamentoz davolash ko'z ichki suyuqligini kamaytiradigan dorilar (beta adrenoblakatorlar 0,25-0,5% 2 maxal doimo), uveoskleral yulini chiqishini kuchaytiradigan dorilar, prostoglandin (taflatan, lataprost), retino protektorlar (emoksipin, retin+alamin), vitaminlar qon tomirlarni kengaytiruvchi dorilar (trental), lazer trabekuloplastikasi, xirurgik davo trabekulektomiya chuqur teshilmaydigan sklerektomiya Federov S.N buyicha. Yopiq burchakli glaukoma uchun davolash; pilokarpin har 15 daqiqada, fotil, oyoqlarga issiq vana, siydik xaydovchi (diakarb), osmoterapiya (mannit vena ichiga 200ml), zuluk chakkaga, tozalovchi klizma. Agar 24 soat ichiga o'tkir xuruj kaytmasa jaroxlik yul bilan yoki lazer nur bilan davolash, iridektomiya.

Ikkilamchi glaukoma uchun davo: Timalol – 0,5 %,2 maxal doimo, prostoglandin (taflatan), miotiklar ayrim ikkilamchi glaukomalarda ishlatilmaydi va bu holda midriatiklar ishlatiladi. Eng birinchi o'rinda asosiy kasalikni davolash ya'ni glaukomaga olib kelgan kasallikni davolash. Lazer terapiya, krioterapiya va xirurgik yul bilan davolash.

## Xulosa

Glaukoma erta aniqlanmasa, doimiy ko'rlikka olib kelishi mumkin. Kasallikni nazorat qilish uchun muntazam ko'z tekshiruvlaridan o'tish, tavsiya etilgan muolajalarni to'liq bajarish va sog'lom turmush tarziga amal qilish zarur. Glaukomani davolashda quyidagi davolash usullari tavsiya etiladi:

- Medikamentoz terapiya: ko'z tomchilari (beta-blokerlar, prostaglandin analoglari va boshqalar)

- Lazer muolajasi: trabekuloplastika, iridotomiya

- Jarrohlik usullar: trabekulektomiya, drenaj implantlari

- Hayot tarzini o'zgartirish: muntazam tibbiy nazorat, stressni kamaytirish

## Adabiyotlar ro'yxati

1.J. Kanskiy 1. Oftalmologiyaga sistemali yondoshish. Toshkent. 1999.

2.J.Kanskiy 2. Oftalmologiyaga sistemali yondoshish. Toshkent 1999.

3.L.P.Lepori Oftalmologiya atlas. Moskva 2009

4.M.H. Hamidova., Z.Q. Boltayeva. Koz kasalliklari. Toshkent 2006

5.Muxammadiyev R.O. Koz kasalliklari.pdf

6. Yanov Yu.I. Glaukoma. Moskva: Meditsina, 2020

7. WHO Vision Report, 2023

8. American Academy of Ophthalmology Guidelines

9.. O'zbekiston Respublikasi SSV oftalmologiya qo'llanmasi, 2022

ISSN 2181-2160
JIFactor: 8.2
TA'LIM FIDOYILARI

# QALQON OLDI BEZI KASALLIKLARINING O`ZIGA XOS JIHATLARI

***Roziqova Mohira Odinaevna***
*Navoiy davlat universiteti, Tibbiyot fakulteti*
*Umumiy tibbiy fanlar kafedrasi o`qituvchi*

**Annotatsiya.** Mazkur maqolada qalqon oldi bezi kasalliklarining tasniflanishi, o`ziga xosligi, kimyoviy jarayonlari hamda davolash metodologiyasi muhokama etiladi.

**Kalit so'zlar:** Qalqon oldi bezi, davolash, tashxis, metod, kapsula.

## KIRISH

Qalqon oldi bezlari qalqonsimon bezning orqa tarafida kapsulasidan tashqarida yuqori va pastki qirg'oqlari atrofida joylashgan bo'lib, yumaloq shaklga ega, diametri 5 mmgacha, og'irligi 0.5 grni tashkil qiladi. Odatda odam organizmida 2 juft qalqon oldi bezi mavjud (yuqori va pastki). Qalqon oldi bezlarining soni va joylashgan joyi sezilarli darajada, hatto 12 juftgacha o'zgarishi mumkin. Qo'shimcha qalqon oldi bezlari qalqonsimon va ayrisimon bezda, oldingi va orqa ko'ks oralig'ida, perikardda, qizilo'ngachning orqa tarafida, umumiy uyqu arteriyasi bifurkatsiyasida uchrashi mumkin. Pastki qalqon oldi bezlari ontogenez davrida ko'proq boshqa joyga ko'chishi mumkin, ular ko'pincha ektopik holatda uchrab turadi. 22 % insonlarda qalqon oldi bezlarining soni ko'proq ekanligi aniqlanadi. 3-5 % hollarda kamroq sonda uchraydi.

## TADQIQOT METODOLOGIYASI VA EMPIRIK TAHLIL

Qalqon oldi bezlarining qon bilan taminlanishi qalqonsimon bez arteriyalarining asosiy tarmoqlari tomonidan amalga oshiriladi, qalqonsimon bez operatsiyalarida ushbu bezning shikastlanishi yuzaga kelishi mumkin.

Normada qalqon oldi bezlari tilla-sariq rangdan och jigarranggacha bo'ladi. Bez parenximasi paratireotsitlardan iborat bo'lib, o'z navbatida ishqoriy bo'yoqlar bilan bo'yaluvchi asosiy hujayralar va oksifil hujayralarga bo'linadi. Asosiy paratiretsitlar – gormonal-aktiv hujayralar bo'lib, son jihatdan bolalarda ko'p bo'lgan, ko'plab bo'yoqlar bilan bo'yalmaydigan (kuchsiz bazofil) – och hujayralar va son jihatdan kattalarda ustunlik

qiladigan (asosli bo'yoqlar bilan bo'yaladigan: kislotali va temirli gematoksillin bilan) – to'q hujayralarga bo'linadi. Oksifil paratireotsitlar (dam oluvchi hujayralar) 10 yoshda paydo bo'lib, ular gormonal-nofaoldir.

Qalqon oldi bezlari homiladorlik davrining 5-6-haftalarda endodermal epiteliyning 3 va 4-quloq cho'ntaklaridan paydo bo'ladi. Pastki qalqon oldi bezlari 3-jabra cho'ntaklaridan paydo bo'ladi (xuddi timus kabi), xuddi shu paytda yuqori qalqon oldi bezlari 3-jabra cho'ntaklaridan paydo bo'ladi. 7-8 haftada epitelial tugunlar paydo bo'lgan joyidan qalqonsimon bez bo'laklarining orqa yuzasiga bog'lanadi. Ularga atrofdagi mezenxima kapillyarlar bilan o'sib kirib,bez kapsulasini hosil qiladi. Erta yoshdagi bolalarda qalqon oldi bezi gistologik xususiyatlarga ega bo'ladi:

- Oksifil hujayralar bo'lmaydi
- Epitelial hujayralar orasidagi biriktiruvchi to'qimali to'siqlar nozik bo'ladi (pubertat davrigi kelib yo'qolib ketadi), yog' to'qimasini saqlamaydi.

Kalsiyga bo'lgan talab inson yoshiga bog'liq. Ko'krak yoshidagi bolalarda suyak to'qimasining optimal mineralizatsiyasiga erishish uchun sutkalik kalsiy istemoli 60 mg/kg, 2-8 yoshda 1000mg, 9-17 yoshda 1600 mg bo'lishi kerak.

Qonda kalsiyning miqdori quyidagi gormonlar tomonidan boshqariladi: paratgormon (PTG), vitamin D3 metabolitlari (kalsiy miqdorini oshiradi), kalsitonin ( kalsiy miqdoriini kamaytiradi). Normal kalsiy almashinuvida suyak tizimi, oshqozon-ichak trakti, buyrak ishtirok etadi.

| **Ko'rsatkich** | **Sti stimulovchilar** | **Ingibirlovchilar** |
| --- | --- | --- |
| Ichakda so'rilishi | **1,25(ON)$_2$D$_3$**<br>Ovqat tarkibida kalsiy miqdorini kamligi<br>Suyak shakllanishining intensivligi<br>PTG (bilvosita) | Glyukokortikoidlar<br>Ovqat tarkibida fosfor miqdori ko'pligi<br>Sulfatlar<br>Tireoid gormonlar |
| **Mineralizatsiyalangan suyakdan mobilizatsiyasi** | **1,25(ON)$_2$D$_3$**<br>Tireoid gormonlar<br>Glyukokortikoidlar<br>Atsidoz<br>Vitamin A<br>Prostoglandinlar | **Kalsitonin** |
| Buyrak ekskretsiyasi | **Kalsitonin**<br>Glyukokortikoidlar<br>Vitamin A | **PTG**<br>Ovqat tarkibida fosfor miqdorining ko'pligi |

| | | |
|---|---|---|
| | Ovqat tarkibida natriyning ko'pligi<br>Sulfatlar<br>Atsidoz | Ovqat tarkibida kalsiyning pastligi<br>Ovqat tarkibida natriyning kamligi |

Fiziologik mexanizmga ko'ra paratgormon (PTG) tireokalsitoninning antagonisti hisoblanadi. Bu antagonizm ikkala gormonni birgalikda kalsiy balansini boshqarishda va suyak to'qimasini modellanishini taminlaydi. Qalqon oldi bezining funksional faollashishi qonda ionlashgan kalsiy miqdorining kamayishiga javoban yuzaga keladi. PTG kalsiy balansiga bevosita va vitamin D metabolzmini o'zgartirish orqali –1,25-digidrooksixolekalsiferolni (vitamin Dning faol derivati) hosil bo'lishini stimullash orqali tasir qiladi. Organizmda kalsiy "ochligi" yoki vitamin Dning so'rilishini buzilishi (bolalarda asosan raxitda) doimo qalqon oldi bezini giperplaziyasi va giperparatireoidizmni funksional belgilari bilan birga kechadi, bu qalqon oldi bezining kasalligi hisoblanmaydi, balki normal boshqaruv reaksiyasi hisoblanadi.

***Gipoparatireoz (GPT)*** – qalqon oldi bezlaridan PTG sekretsiyasini yetishmovchiligi yoki PTG ning biologik faolligini buzilishi bilan bog'liq sindrom bo'lib, buning natijasida buyrak kanalchalarida kalsiy reabsorbsiyasini pasayadi, ichakda kalsiy so'rilishini kamayadi, bu esa gipokalsemiya, nerv-mushak o'tkazuvchanligini buzilishi, osteopeniya/ osteoporoz rivojlanishi va organizmda trofik o'zgarishlarga olib keladi.

***Patogenez.*** Qalqon oldi bezi funksiyasining pasayishi yoki yo'qolishi sababli kalsiy-fosfor almashinuvini boshqaruvchi PTG ishlab chiqarilishi kamayadi. Bunda qonda kalsiy miqdori birinchi navbatda ionlashgan fraksiyasi hisobiga kamayadi va noorganik fosfor miqdori ortadi. Giperfosfatemiya PTG sintezi yetishmovchiligi hisobiga buyrak kanalchalarida fosfor reabsorbsiyasini kuchayishi sabablidir. Organizmda PTG miqdorining kamayishi buyrak proksimal kanalchalarida vitamin D 3 ning faol metaboliti — $1{,}25(OH)_2 D_3$ sintezining pasayishiga olib keluvchi omillardan biri bo'lishi mumkin va bu hodisa ichakda kalsiy so'rilishini, buyrak distal kanalchalarida reabsorbsiyasi buzilishiga va gipokalsemiyaga olib keladi. Gipoparatireozda elektrolitlarning o'zaro nisbati buziladi.

**Ikkilamchi giperparatireoz.**

Agar osteomalyasiya orttirilgan PTGga rezistentlik bilan kechsa, u holda gipokalsemiya PTG miqdorining ortishi bilan birga kechadi, yani ikkilamchi giperparatireoz

deyiladi. Ikkilamchi giperparatireoz vitamin D suyak to‘qimasi rezorbsiyasini umuman yoki yetarli darajada stimulyasiya qilmaganda yuzaga kelishi mumkin. Vitamin D yetishmovchiligida doim gipofosfatemiya kuzatiladi (gipopartireozdan va PTGga rezistentlikning buzilishidan farqli ravishda).

**Giperparatireoid (giperkalsiemik) kriz** — hayot uchun xavf soluvchi, og‘ir kalsiy bilan zaharlanish bo‘lib, giperkalsemiya darajasi kritik ko‘tarilaganda rivojlanadi (3.5 mmol/l). Kriz birlamchi giperparatireozda qo‘zg‘atuvchilar fonida yuzaga keladi:sinish, infeksion kasalliklar, homiladorlik, immobilizatsiya, so‘riluvchi antatsidlar (kalsiy karbonat), tiazid diuretiklar, kalsiyga, vitamin Dga boy qo‘shimcha ovqatlar qabul qilish. To‘satdan rivojlanish xarakterlidir: ko‘ngil aynishi, to‘xtovsiz qusish, chanqash, qorinda kuchli og‘riq, mushaklar va bo‘g‘imlarda og‘riq, yuqori isitma, talvasa, hushni yo‘qolishi, stupor, koma. Giperkalsemik krizda o‘lim ko‘rsatkichi 60 %ga etadi. Anuriya fonida Yurak qon-tomir yetishmovchiligi yuzaga keladi.

**Dializ qilish.** Asosan oligoanuriya bilan asoratlangan giperkalsemik krizda kalsiysiz dializat bilan gemodializ ko‘rsatma hisoblanadi. Giperkalsemik krizda peritoneal dializ gemodializga nisbatan samarasi kam.

**Darhol xirurgik davo:** paratireoadenomani olib tashlash yoki giperplaziyaga uchragan qalqon oldi bezini subtotal rezeksiya qilish. Xirurgik davo bemor umumiy ahvoli yaxshilangandan so‘ng, yurak qon-tomir va buyrak yetishmovchiligi bartaraf etilgandan so‘ng amalga oshiriladi

**ADABIYOTLAR RO`YXATI**

1. S.I. Ismailov “Endokrinologiyadan tanlangan ma’ruzalar to‘plami”, Toshkent, 2015 y.
2. S.I.Ismailov “Endokrin bezlari, limfoid tugunlari, taloq shikastlanishi va ularning xirurgik kasalliklaridagi eponim simptom va sindromlarining izohli ma’lumotnoma-lug‘ati 2012 yil.
3. Endokrinologiya / pod red. N. Lavina. M. : Praktika, 2019. B. 519–661
4. Ivarsson S va boshqalar. Ultrasonik ko'rish va differentsial bolalarda qalqonsimon bezning diffuz kasalliklari diagnostikasi. AJDS 143:1369, 2019 yil.
5. "Jismoniy salomatlik uchun global tavsiyalar", JSST, 2010

**Akberadjiyeva Umida Abdumanapovna**
Islom Karimov nomidagi
Toshkent davlat texnika universiteti
o'qituvchisi
e-mail: uakberadjiyeva@gmail.com
Tel: +998974095554

## O'SIMTA HUJAYRASI (SARATON) O'SISHINI MATEMATIK MODELLASHTIRISH

**Annotatsiya:** So'nggi yillarda tibbiyotga matematik modellashtirish usullari faol joriy etilmoqda va avtomatlashtirilgan kompyuter tizimlari yaratilmoqda. Bu kasalliklarni tashxislash va davolash imkoniyatlarini sezilarli darajada kengaytirdi. Tibbiy kompyuter tashxis tizimlarining bir turi mavjud ma'lumotlar asosida aniq tashxis qo'yish orqali onkologik kasalliklarni aniqlashdir.Ushbu maqolada o'sma hujayrasining o'sish modeli muhokama qilinadi.

**Kalit so'zlar:** matematik modellashtirish, tashxislash, onkologiya, o'simta o'sishi.

**Akberadjiyeva Umida Abdumanapovna**
lecturer at the Islam Karimov
Tashkent State Technical University
e-mail: uakberadjiyeva@gmail.com
Tel: +998974095554

## MATHEMATICAL MODELING OF TUMOR CELL (CANCER) GROWTH

**Annotation:** In recent years, mathematical modeling methods have been actively implemented in medicine, and automated computer systems have been developed. This has significantly expanded the possibilities for diagnosing and treating diseases. One type of medical computer diagnostic system is the detection of oncological diseases through accurate diagnosis based on available data. This article discusses a model for tumor cell growth.

**Keywords**: mathematical modeling, diagnostics, oncology, tumor growth.

**Акберaджиева Умида Абдуманнаповна**
преподавател Ташкентского государственного
технического университета имени Ислама Каримова
e-mail: uakberadjiyeva@gmail.com
Tel: +998974095554

# МАТЕМАТИЧЕСКОЕ МОДЕЛИРОВАНИЕ РОСТА ОПУХОЛЕВОЙ КЛЕТКИ (РАКА)

**Аннотация:** В последние годы в медицину активно внедряются методы математического моделирования и создаются автоматизированные компьютерные системы. Это значительно расширило возможности диагностики и лечения заболеваний. Одним из видов медицинских компьютерных диагностических систем является выявление онкологических заболеваний путем постановки точного диагноза на основе имеющихся данных. В данной статье рассматривается модель роста опухолевой клетки

**Ключевые слова:** математическое моделирование, диагностика, онкология, рост опухоли.

**Dolzarbligi:**

Hozirgi kunda butun dunyo bo'ylab saraton kasalligi bilan kasallanish holatlari ortib bormoqda. Jahon sog'liqni saqlash tashkiloti (JSST) ma'lumotlariga ko'ra, 2022 yilda taxminan 20 million yangi saraton holati aniqlangan bo'lsa, 2050 yilga kelib bu ko'rsatkich 35 millionga yetishi prognoz qilinmoqda — bu 77% o'sishni anglatadi. Saraton kasalligining ko'payishiga bir nechta omillar sabab bo'lmoqda.

Turmush tarzi omillari: Chekish, spirtli ichimliklar iste'moli, noto'g'ri ovqatlanish va jismoniy faollikning yetishmasligi.Atrof-muhit omillari: Havo ifloslanishi va zararli moddalar ta'siri. Ijtimoiy-iqtisodiy omillar: Sog'liqni saqlash xizmatlarining yetarli emasligi, ayniqsa past va o'rta daromadli mamlakatlarda.O'zbekistonda ham saraton kasalliklariga qarshi kurashish bo'yicha muhim chora-tadbirlar amalga oshirilmoqda. 2024 yildan boshlab bachadon bo'yni va ko'krak bezi saratonini erta aniqlash dasturi joriy etildi . 2025-yil 15-may kuni O'zbekiston Respublikasi Sog'liqni saqlash vazirligi tomonidan 2025–2030-yillarga mo'ljallangan Bolalar saratoniga qarshi kurashish milliy strategiyasi tasdiqlandi. Ushbu strategiya "O'zbekiston-2030" strategiyasi, Jahon sog'liqni saqlash tashkiloti (JSST)ning Bolalar saratoni bo'yicha global tashabbusi (GICC) va BMTning Barqaror rivojlanish maqsadlari doirasida ishlab chiqilgan.

Bundan tashqari, O'zbekiston hukumati BMTning UNOPS tashkiloti bilan hamkorlikda onkologik xizmatlarni modernizatsiya qilish bo'yicha loyihani amalga oshirmoqda. Bu loyiha doirasida 13 ta hududda zamonaviy onkologik uskunalar yetkazib berilmoqda, bu esa yiliga 150 mingdan ortiq bemorga sifatli onkologik xizmatlar ko'rsatish imkonini beradi .

Saraton kasalligini erta aniqlash va oldini olish bo'yicha olib borilayotgan bu chora-tadbirlar kasallikning tarqalishini kamaytirish va bemorlarning hayot sifatini oshirishga xizmat qiladi.

**Tahlil va metodologiya:** saratonni matematik modelini tuzishda quyidagi olimlar chuqur izlanishlar olib borib yuqori natijalarga erishganlar : Susana M. Campos, Joseph D. Eder, Daniel F. Hayes Breast cancer. Handbooks, 2011.[1; 1-48 b.]. Петрова А.С.

Руководство по цитологической диагностике опухолей человека/Петрова А.С., Птохов М.П.. - М., 1976[2; 5b.]. Марчук Г.И. Математические моделирование в иммунологии. — М., Наука, 1985.[3;3-20 b.]

James D. Murray
Davlati: Buyuk Britaniya – AQSh
Ish joyi: University of Oxford, University of Washington
Asari: Mathematical Biology (Vol I & II)
Yo'nalishi:O'simta o'sishini matematik modellashtirish

Angiogenez (yangi qon tomirlar hosil bo'lishi) modellarini ishlab chiqqan Gompertz va Logistic modellar asosida o'sish jarayonlarini tahlil qilgan
Unikal jihati: Biologik jarayonlarni matematik tilda chuqur va izchil tahlil qilgan eng mashhur olimlardan biri.

Kristin Swanson (tirik)

Davlati: AQSh
Ish joyi: Mayo Clinic (Arizona), University of Washington

Yo'nalishi: Miya saratoni (glioblastoma) o'sishini matematik modellashtirish

Individual bemorlarga moslashtirilgan modellar ishlab chiqqan

Unikal jihati: Uning ishlari orqali MRI asosida o'simta qanday rivojlanishini bashorat qilish mumkin. Klinik amaliyotda foydalanilmoqda.

Philip Maini (tirik)

Davlati: Buyuk Britaniya
Ish joyi: University of Oxford, Mathematical Institute
Yo'nalishi: O'simta o'sishi, invaziya va metastaz jarayonlarini modellashtirish Hujayra harakati, angiogenez va to'qimalar o'zaro ta'siri bo'yicha PDE modellar
Hamkorlik: James D. Murray bilan birgalikda ko'plab ishlarda qatnashgan.

Avner Friedman (tirik)

Davlati: AQSh
Ish joyi: Ohio State University
Yo'nalishi:Hujayra populyatsiyasi modeli, immun tizim va o'simta o'zaro ta'siri

Saraton terapiyasining matematik modellari (masalan, kimyo va immunoterapiya)
Kitobi: Mathematical Biology of Cancer

Saraton - bu tananingistalgan qismiga ta'sir qilishi mumkin bo'lgan kasalliklarning katta guruhiga berilgan umumiy nom. Shuningdek, xavfli o'smalar va yangi hosilalar atamalari ham qo'llaniladi. Saratonning o'ziga xos belgisi anomal hujayralarning tez paydo bo'lishi, ularning odatdagi chegaralaridan tashqariga o'sib chiqishi va tananing yaqin qismlariga kirib borishi hamda boshqa organlarga tarqalish qobiliyatidir. Bu jarayon metastaz deb ataladi. Metastazlar saratondan o'limning asosiy sababi hisoblanadi [1].

Matematik usullarning xilma-xil, ba'zan kutilmagan insoniy faoliyat sohalariga kirib borishi yangi, odatda juda samarali tadqiqot vositalaridan foydalanish imkoniyatini

anglatadi.So'nggi yillarda tibbiyotga matematik modellashtirish usullari faol joriy etilmoqda. Matematik modellashtirish amaliyotida boshlang'ich nuqta ko'pincha tadqiqotchi oldiga javob topish talab etiladigan vazifani qo'yadigan ma'lum bir empirik vaziyat hisoblanadi. Ko'pincha masalani qo'yish bosqichi bilan bir vaqtda jarayonning asosiy yoki muhim omillarini aniqlash jarayoni ham kechadi. Xususan, jismoniy hodisalar uchun bu sxemalashtirish yoki ideallashtirish jarayoni hal qiluvchi ahamiyatga ega, chunki haqiqiy hodisada ko'plab hodisalar ishtirok etadi va u g'oyat murakkabdir [2].

**Muhokama**

Muhim omillar aniqlangandan so'ng, keyingi qadam tarjimadan iborat bo'ladi, ya'ni omillarni matematik tushunchalar va miqdorlar tiliga o'tkazish va munosabatlarni bu kattaliklar orasida postulatlash. Model qurilgandan so'ng, uni tekshirish kerak. Modelning adekvatligi odatda masalaning qo'yilishida ma'lum darajada tekshiriladi. Modelda ifodalangan tenglamalar yoki boshqa matematik munosabatlar,doimiy boshlang'ich vaziyat bilan taqqoslanadi. Dastlab qon va kisloroddan mahrum bo'lgan saraton hujayrasi noqulay sharoitda bo'ladi - yashab qolish uchun u oddiy hujayraga qaraganda 19 marta ko'proq glyukoza iste'mol qilishi kerak. Sog'lom organizm sharoitida bu deyarli imkonsiz, shuning uchun mutatsiyaga uchragan hujayra oziq yetishmasligidan juda tez nobud bo'ladi. Bu hujayra darajasidagi tabiiy tanlanishning ta'siridir. Sog'lom hujayra qondan xolesterin, glyukoza va kislorod oladi. Aynan kislorod sog'lom hujayraga glyukozani samarali o'zlashtirish imkonini beradi. Saraton hujayrasi qonga kira olmaydi, qo'shni sog'lom hujayralardan xolesterin va glyukoza oladi. U kislorod qabul qilmaydi, balki glyukozani bijg'ishorqali ATFga (ATF - adenozintrifosfat kislota yoki adenozintrifosfat. Bu modda hujayra mavjudligi uchun zarur bo'lgan o'ziga xos energiya saqlagichdir. ATF sitoplazmada, yadroda va ikki membranali organoidlarda (plastidalar va mitoxondriyalarda) joylashgan) aylantiradi. Binobarin, saraton hujayrasi yashab qolishi uchun uni o'rab turgan sog'lom hujayralar evolyutsiyada ko'zda tutilmagan noqulay hujayralar qo'yilishi kerak shartlari. Agar sog'lom hujayra unga kerak bo'lgan kisloroddan 19 baravar kam kislorod olsa faqat shu holdagina rak hujayrasi sog'lom hujayra bilan baravar yashay oladi va o'ziga o'xshash saraton hujayralari paydo qiladi [3]. Agar shunday vaziyat yuz bersa o'smaning sekin, juda sekin o'sishi boshlanadi. Bu o'sish 3 yildan 20 yilgacha davom etishi mumkin. Kislorodsiz glikoliz natijasida o'sma atrofida sut kislotasi hosil bo'la boshlaydi. O'smada qon tomirlari bo'lmagani sababli, bu kislota hech qayerga chiqarilmaydi, faqat o'sma atrofida to'planadi. Bu o'sma atrofidagi hujayralarning normal faoliyatiga to'sqinlik qiladi.Sut kislotasi organizm uchun qimmatli mahsulot, hatto glyukozadan ham qimmatlidir va organizm tuzoqqa tushadi - u ushbu sut kislotasi zaxiralaridan foydalanishga harakat qiladi va qon aylanish tizimining kapillyarlari bu sut kislotasini ishlatish uchun o'smaga o'sib kira boshlaydi. Qon aylanish tizimi kapillyarlarining sut kislotasi zaxiralarini chiqarib olish va yo'qotish uchun o'smaga o'sib kirishi bilan, o'sma rivojlanishining eng xavfli bosqichi boshlanadi. O'sma hujayralari kislorodga kirish imkoniyatiga ega bo'ladi va u bilan birga o'zlarida mavjud bo'lgan xuddi shu miqdordagi glyukozadan 19 baravar ko'p energiya olishni boshlaydi. O'sma to'xtovsiz rivojlana boshlaydi, metastazlar hosil bo'ladi.

Odatda, bu jarayon o'sma taxminan 600 ming - 1 million hujayradan iborat bo'lganda boshlanadi. Shuning uchun o'smalar profilaktikasi haqida faqat kapillyarlarning o'smaga o'sish jarayoni boshlanishidan oldin gapirish ma'qul, chunki o'smaning rivojlanishi hali uning atrofidagi to'qimalarning holati va normal ovqatlanishiga bog'liq bo'ladi. Bu davrda o'sma hujayralari qo'shni sog'lom hujayralardan ozuqa (glyukoza va xolesterin) oladi. O'sma kapillyarlar bilan o'sa boshlaganda, o'sma hujayralari to'g'ridan-to'g'ri qondan ozuqa ola boshlaydi, bu yerda profilaktika haqida emas, balki faqat davolash haqida gapirish mumkin. O'smalarning butun oldini olish organizmning sog'lom hujayralarini to'laqonli ozuqa bilan ta'minlashdan iborat. Bu har qanday turdagi saratonning oldini olish uchun zarur va yetarli shartdir. Faqat shunday holatda mutatsiyaga uchragan hujayralar yashay olmaydi. Bundan tashqari, organizmimizda har soniyada barcha to'qimalarda paydo bo'ladigan 10 million mutatsiyaga uchragan (saraton) hujayralar mavjudligi sababli, bu profilaktikani "buzilgan" hujayralarning ko'payishiga yo'l qo'ymaslik uchun har kuni va har soatda o'tkazish lozim. O'smalarning oldini olishning butun jarayoni organizmning sog'lom hujayralarini to'laqonli oziqlanish bilan ta'minlashdan iborat. Keling, sog'lom hujayra qabul qilishi kerak bo'lgan ozuqa, ya'ni glyukoza, xolesterin va kislorod haqida gaplashamiz. Qondagi glyukozaning normal darajasi 3,33 - 5,55 mmol/l organizm hujayralari uchun eng qulay sharoitlarni yaratadi. Biroq, sog'lom hujayralarning glyukoza bilan ta'minlanishi qanchalik yuqori bo'lsa, bu o'sma hujayralari uchun shunchalik foydali bo'ladi, chunki haddan tashqari ta'minlangan sog'lom hujayralar o'smani o'rab turgan holda, o'sma hujayralarini ko'proq ozuqa bilan ta'minlaydi. Shuning uchun, saraton kasalligining oldini olish uchun qondagi glyukoza miqdorini 3,5 - 4,0 mmol/l darajasida, ya'ni biroz pasaygan, ammo me'yor chegarasida saqlash kerak. Bunday holda sog'lom hujayralar o'sma hujayralarini glyukoza bilan ta'minlamay qo'yadi va o'smaning rivojlanishi orqaga qaytadi. Shunday qilib, semizlik va ortiqcha vazn nima uchun saraton kasalligini keltirib chiqaruvchi omillar ekanligi tushunarli bo'ladi. Semizlikda, odatda, qonda qand miqdori biroz ko'paygan va glyukoza almashinuvi ancha kuchaygan bo'ladi. "To'ygan" sog'lom hujayralar yanada saxiy bo'lib, o'zlarining o'sma qo'shnilarini yetarli miqdordagi glyukoza bilan to'liq ta'minlaydilar[4].

Likopin yoki likopin tarkibli mahsulotlar yordamida onkologik kasalliklarning oldini olish bo'yicha yuzga yaqin tadqiqot o'tkazilgan. Ma'lumotlar ziddiyatli bo'lib, bu eksperimentlarning bilvosita xususiyati bilan bog'liq. Ba'zi turdagi saratonning rivojlanish xavfi qondagi likopin miqdoriga (yoki kunlik iste'moliga) teskari proporsional ekanligi aniqlangan. Bunday xulosalarni prostata, me'da va o'pka saratoni haqida chiqarish mumkin. Ateroskleroz va u bilan bog'liq ishemik kasalliklarning rivojlanish xavfi ham qondagi likopin miqdoriga (yoki kunlik iste'moliga) teskari proporsional ekanligi ko'rsatilgan. Taklif etilayotgan o'sma hujayralari o'sishining matematik modeli uch turdagi hujayralarni o'z ichiga oladi:

1. Faol bo'linuvchi va harakatchan o'sma hujayralari (ularning zichligini n bilan belgilaymiz).

2. Bo'linmaydigan va o'z harakatchanligiga ega bo'lmagan o'sma hujayralari (ularning zichligini m bilan belgilaymiz), bu turdagi hujayralar ham tinch holatdagi o'sma hujayralari ham o'lik hujayra massasini aks ettiradi.
3. O'z harakatchanligiga ega bo'lmagan sog'lom to'qima hujayralari.

Birinchi guruh hujayralari ikkinchi guruhga qaytmas ravishda o'tishi mumkin. Bu noqulay sharoitlarda proliferatsiyaning to'xtashini aks ettiradi. Barcha turdagi hujayralar faol o'sish sohasidagi ortiqcha hujayra massasi tufayli yuzaga keladigan konvektiv oqimlar orqali ko'chiriladi. O'smaning harakatchan hujayralari ham tasodifiy harakatlar va yo'naltirilgan xemotaksis hisobiga tarqalish qobiliyatiga ega. O'sma hujayralari sog'lom to'qima hujayralarini bostirib qo'yishi mumkin. Asosiy ozuqa moddasining (cheklovchi omil rolini o'ynovchi) konsentratsiyasini S bilan belgilaymiz. Masalaning ushbu qo'yilishida bunday modda sifatida kislorod qabul qilingan. Shunday muhitda o'smaning o'sishi quyidagi tenglamalar tizimi bilan ifodalanishi mumkin:

$$\frac{\partial n}{\partial t} = B_n - P(S) \cdot n(1-n) \cdot [D^n \cdot n - \mu \cdot n \cdot g(s)] - n \cdot \psi \qquad (1)$$

$$\frac{\partial m}{\partial t} = P(S) \cdot n - m \cdot \psi \qquad (2)$$

$$\frac{\partial \mathrm{h}}{\partial \mathrm{t}} = \mathrm{L_n} \cdot \mathrm{n} \cdot \mathrm{h} - \mathrm{h} \cdot \psi \qquad (3)$$

$$\frac{\partial \mathrm{h}}{\partial \mathrm{t}} = \mathrm{Q(n, S)} + \mathrm{D_s} \cdot \Delta \mathrm{S} \qquad (4)$$

$$\Delta\psi = \mathrm{B} \cdot \mathrm{n} + \mathrm{L_n} \cdot \mathrm{h} \qquad (5)$$

